



Ekologik huquq

O'zbekiston respublikasi adliya vazirligi
Toshkent davlat yuridik instituti

EKOLOGIYA HUQUQI

Elliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha
ta'lif olayotgan talabalari uchun

DARSLIK



Toshkent - 2006

5574 13-1
E 40

Usmonov M.B., Rustamboyev M.H.,
Xolmuminov J.T. va boshq.

Ekologiya huquqi. Darslik. /Mas'ul muharrir:
M.B. Usmonov. -T.: TDYI nashiyoti, 2006. -361 bec.

Sarvhada: O'zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi. Toshkent Davlat yuridik instituti

Mas'ul muharrir:-y.f.d., professor M.B. Usmonov

Mualliflar tarkibi:

Usmonov M.B.-y.f.d. prof. (Kirish, X bob), Rustamboyev M.H.-y.f.d.,
prof (IX bobning 4§), Xolmuminov J.T.-y.f.d. prof. (XI bob), Nigmatov A.N.
g.f.d. (I, XII, XVIII boblar, XIX bob N.K. Skripnikov bilan hammualliflikda),
Fayziyev Sh.X.-y.f.d. (II, III, VII boblar), Bozorov U.B.-y.f.n., dots. (IV, XV
boblar), Ayubov U.T.-y.f.n. (V, XIII boblar, IX bobning 1,2,3,5,6§lati),
Namazov F.S.-y.f.n. (XIV, XV boblar), Skripnikov N.K.-y.f.n., dots. (XIX bob
A.N. Nigmatov bilan hammualliflikda). Narzullaev O.X. (XVI bob), Rajapov
N. Sh. (VI, XVII boblar), Nurmatov M.M. (VIII bob).

Darslik Toshkent Davlat yuridik instituti o'quv dasturi asosida yozilgan.
Unda ekologiya huquqining predmeti va tizimi, manbalari, tabiiy resurslarga
nisbatan mulk huquqi, ekologiya sohasida boshqaruv, ekologik nazorat
ekologik ekspertiza, ekologik xavfsizlik, ekologik huquqiy javobgarlik,
yerlarning, savlarning, yer osti boyliklарining, o'rmonlarning huquqiy sholati,
hayvonot olamidan foydalanish va uni muhofaza qilishning huquqiy holati,
atmosfera havosini huquqiy muhofaza qilish, tabiiy qirixonalarning huquqiy
holati, sauoat, transport, energetika tarmoqlarida atrof tabiiy muhitni muhofaza
qilish, qishloq xo'jaligida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish. fuqarolarning
tabiiy resurslardan foydalanish huquqi kabi masalalar yoritilgan.

Huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar,
shuningdek aspirantlar, ikituvchilar uchun miljallangan.

KIRISH

Ekologiya muammosi davrimizning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qoldi. Uning xavfi hatto yadro xavf-xataridan ham daxshatliroq bo'lib, butun yer shari xalqlarini tashvishga solmoqda. "Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi,- deb yozadi A.Karimov,- juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish - o'z-o'zini o'limga maxkum etish tilan barobardir".

Mutaxassislarning ma'lumotiga ko'ra, bugungi kunda planetamizda har xil yoqilg`ilarni yoqish sababli har yili 10,1 mlrd.tonna kislorod sarf bo`lmoqda, qishloq xo`jaligiga yaroqli yerlarning 70 foizi, chuchuk suvlarning 20 foizi o`zlashtirilib foydalanilmoxda, o`rmonlar egallagan maydonlar yildan-yilga kamayib bormoqda, cho`l zonalarining maydoni oshib bormoqda, havo harorati yildan-yilga ko`tarilmoqda. Buning ustiga, dunyo aholisi har yili o'sib borib, tabiiy zahiralardan xo`jalik maqsadlarida yanada ko proq foydalanishga to`g`ri kelmoqda. Shuningdek texnikaning, sanoat korxonalarining rivojlanishi ham atrof-tabiiy muhitga jiddiy zarar yetkazmoqda. Bularning oqibati o`laroq dunyoda ekologik muhitning yomonlashuvi bilan bog`liq turli xil kasalliklar kelib chiqmoqda. Planetaning taqdiri uchun inson tomonidan o`tgan asrdayoq bong urilgan, hozirgi yuz yillikda esa atrof tabiiy muhitga nagruzkani ortib ketishi natijasida dunyo ekologik tizimi inqiroz darajasiga yetdi. Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish, tabiiy resurslarni isndan chiqarish, ekotizimdagи ekologik aloqalarni buzish global muammo bo`lib qoldi. Agar insoniyat hozirgi tarraqiyot yo`lidan borishni davom ettirsa, uning halokati ikki-uch avlod yashab o`tgandan so`ng yuz berishi ehtimoldan xoli emas. "Ekologiya hozirgi zamonnинг keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan bindir. Uni hal etish barcha xalqlarning mansaftalariga mos bo`lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko`p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog`liqdir".

Ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, tabiat bilan jamiyat bir-biri
mlan o zaro uzviy aloqa, chambarchas bog'likda bo'ladi. Bu uzviylik,
o zaro ta'sir tabiatning umumiy qonuniyatlariga mos kelishi, o'zaro teng
muvozanatda bo'lislilikni talab etadi. Aks holda bu muvozanatning
buzulishi salbiy holatlarni keltirib chiqarib, tirik mayjudodning yashashiga
sayf soladi. Shu sababdan, tabiatga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish,

undan oqilona foydalanish, uni muhotaza etish lozimdir. Tabiat obyektlaridan foydalanishda shunday vositalarni topish, ularni qonunlarda o'mnashish, amaliyatga qo'llash lozimki, bu bir tomonidan, xo'jalik faoliyat taraqqiyotiga qo'shilish uchun etsin, ikkinchi tomonidan, tabiatni muhofaza qilish munosabatlarini rivojlantirish va takomillashirishga xizmat qilsin. Shuni aytish kerakki, tabiatni muhofaza qilish bahonasida ishlab chiqarish manfaatlariiga jiddiy zarar yetkazishga ham yo'l qiyish yaxshi holat emas. Shuningdek iqtisodni rivojlantirish uchun tabiiy resurslardan intensiv foydalanishga keng yo'l ochib berish, iqlisodiyot va ekologiya mantaatlarini bir biriga qarama-qarshi qo'yish ham mumkin emas. Sanoatni, qishloq xo'jaligini boshqa sohalarni tabiiy atrof muhitni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish vazifalarini hal etish asosida taraqqiy ettirishni ta'minlash lozim. Muammoni shunday tartibda hal etish kerakki, bunda birinchidan, tabiiy resurslardan foydalanishda ekologiyaning ham, iqtisodning ham mansaatlari hisobga olinsin, ikkinchidan, ularning uzviyligini ta'minlash mumkin bo'limasa, ustuvorlik ekologiyaga berilishi kerak. Huddi shunday prinsip O'zbekiston davlati olib borayotgan ekologik siyosatda, Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan tabiiy atrof muhitni muhofaza etishga bag'ishlangan bo'lib, o'z ifodasini topgan. Buning yuridik ifodasi sifatida ekologik ekspertizani, xo'jalik va boshqa faoliyatni amalga oshirishda ekologik talablarni, ekologik talablarga javob bermaydigan korxonalar va obyektlarni foydalanishga kiritish man qilinishini ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston davlatining atrof-tabiiy muhitni sog'lomlashirish choratadbirlari bo'yicha amalga oshirayotgan ishlariga qaramasdan ekologik munosabatlar hali ham tabiat va jamiyat uchun nomutanosib darajada rivojlanishni davom ettirmoqda. Buni biz, birinchidan, tabiatdan foydalanishda sohaviy yondoshishni, ya'nii har bir taskiklari faqat o'z manfaatini ustun qo'yib tabiiy resurslardan foydalanishi va ikkinchidan, tabiatga faqat resurs sifatida qarashni, ya'nii tabiatdan foydalanish birinchi darajali, uni himoya etish esa ikkinchi darajali sifatda qarashda ko'ramiz.

Tabiatni muhofaza etish turli xil vosita va usullar yordamida amalga oshiriladi. Shulardan eng muhimmi - tabiatni huquqiy muhofaza etishdir, ya'nii tabiatni qonunlar yordamida ifloslanishdan, xo'jasizlarcha foydalanshidan, zaharlanishdan himoya qilishdir. Demak, tabiatni muhofaza qilishda huquq alohida ahamiyatga ega bo'lib, u yuridik va jismoniy shaxslarga tabiatdan oqilona foydalanish hamda muhofaza etish tartib qoidalarini belgilab beradi. Harakatdagagi tabiatni musofaza qilishga bag'ishlangan qonunlardagi ekologik talablarga rioya etilishini, ularni amaliyotda to'g'ri tatbiq qilinishini ta'minlashda ekologiya qonunchiligini

inukammal bilish zarur bo`ladi. Chunki, ekologik noxushliklar ko`pincha ushbu qonunlarni bilmaslik hamda ularga rioya etmaslik oqibatida kelib chiqadi. Shu sababdan, so`g`lom tabiiy atrof muhitni saqlash ko`p jihatdan mansabdor shaxstar va fuqarolarning ekologiya qonunchiligi to`g`risida qay darajada xabardortligi va enga amalda rioya etishligiga bog`liq bo`iladi.

Shundan kelib chiqqan holda ushbu o`quv darsligining asosiy vazifasi bo`lajak huquqshunos mutaxassislarni, shuningdek bu muammoga qiziquvchilarni ekologik qonunchilik asoslarini o`rgatishdan iboratdir. Ushbu darslik bo`lajak yurist mutaxassislarni ekologiya huquqini, ekologik huquqiy tartibga solish amaliyoti nazariy asoslarini va ularni ishlab chiqarish amaliyotida qo`llash mexanizmini amalga oshirishni o`rganishga xizmat qiladi. Darslik umumiy va maxsus qismlardan iborat bo`lib, unda tabiat va jamiyat o`rtasidagi o`zaro munosabat, ekologiya huquqi tushunchasi, predmeti, manbalari, obyektlari, subyektlari, ekologik munosabatlari, ekologiya sohasida davlat boshqaruvi, ekologik ekspertiza, ekologik huquqiy javobgarlik, tabiiy obyektlarni huquqiy muhofaza qilish va ulardan foydalanish tartibi kabi masalalar yoritilgan.

UMUMIY QISM

I BOB. EKOLOGIYA VA ATROF TABIIY MUHITNI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH ZARURATI

1. Tabiat, inson, jamiyat, davlat va hamjamiyat o'rtaсидаги узви bog'liqlik

Asrlar davomida buyuk allomalar inson va tabiat nima, degan savolga javob qidirib kelganlar. Inson tirik organizm sifatida boshqa tabiiy obyektlardan tubdan farq qilishi hamda uning buyuk kuch-qudrati, uni alohida bir mayjudot sifatida qarashga da'vat etib keldi. Ayniqsa bunday dunyoqarash XX -XXI asrlar, ya'ni ilmiy-texnika yutuqlari davriga kelib avjiga chiqdi. «Tabiat ustidan g' alab»ga erishgan inson hamma ilmu fan tarmoqlarida alohida bir omil sifatida qaraladigan bo`ldi. Lekin inson aslida alohida bir «individ» yoki hech kimga bo`ysunmaydigan «hokim» emas, u tabiatning bir bo`lagi, «tabiat oshxonasining bir anjomidir. Insonni hech qachon tabiatdan va uni o'rabi turuvchi atrof tabiiy muhitdan ajratib bo`lmaydi.

Falsafada *tabiat* deb obyektiv borliq, ya'ni bizni o'rabi turuvchi olam va uning xilma-xil shakllari tushumiladi. Amaliyotda yoki tabiiy fanlarda uni kishilarni moddiy va ma'nnaviy ehtiyojlarini qondirish manbai bo`lgan atrof tabiiy muhit deb qaraladi. Falsafiy yoki astronomik nuqtai nazardan qaraganda, birinchi keng ma'no to`g'ridir. Chunki yulduzlar, planetalar, osmon va uning cheksiz kengliklari, albatta, inson ishtirotkisiz kelib chiq-qan va tabiiydir. Lekin inson kundalik hayot faoliyatida ulardan foydalanganmaydi va ulardagi jarayonlarga o`z ta'sirini o`tkaza olmaydi. Balki o`zini o'rabi turuvchi havo, suv, yer, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi kabi tabiat ne'matlari(komponentlari)dan «oldi-orqasi»ga qaramay foydalanadi va ularga ta'sir etadi. Nafaqat inson, balki butun jonzotlar ham bundan istisno emas.

Inson Yer kurrasining jonli qobig'i – biosferada yashovchi tirik organizmlar turkumiga kiruvchi, lekin murakkab hayotiy faoliyat yurga-zuvchi individdir. Inson ongingin yuqoriligi, nutqining rivojlanganligi, ijodiy faolligi, takomillashtgan mehnat qurollarini yarata olishi, axloqiy, ma'nnaviy hamda ruhiy o`z-o`zini anglay olishi bilan boshqa tirik organismlardan tubdan ajralib turadi. *Insonlarning muayyan bir hududda tarixan qaror topgan guruhi yoki majmui – jamiyatdir.* Xuddi ana shu insonlar jamoasi tabiat bilan juda uzviy munosabatda bo`ladilar.

Insonning yakka o'zi uncha katta kuch emas, lekin insonlarning ongli ravishda biron-bir maqsadlarni ko`zlab takomillashtirilgan mehnat qurollaridan foydalari, tarzda uyushishi va ularni tabiatga bo`lgan munosabati ko`p narsani belgilab beradi. Agarda ushbu maqsad insonlarning ehtiyojlarini qondirishni faqatgina tabiatdan "topishga" yo`naltirsa, unda atrof tabiiy muhitda juda sezilarli darajada salbiy o`zgarishlar sodir bo`ladi. Aksincha, ushbu jamiyat maqsadi tabiatdan oqilona foydalanishga qaratilsa, unda tabiatda ijobiy siljishlar ham bo`lishi mumkin.

Insonlarning muayyan ma'muriy hududda uyushgan qismi - jamiyatni boshqarish va uning tabiatga nisbatan munosabatini tartibga solish bevosita *davlat* orqali amalga oshiriladi. Davlat mazku boshqaruvni huquq orqali amalga oshiradi va tabiatga inson va jamiyatdan ko`ra bir necha chandon kuchliroq salbiy yoki ijobjiy ta'sir ko`rsatishi, atrof tabiiy muhitni keskin o`zgartirib yuborishi muqarrar. Lekin tabiatni muayyan hududda, salbiy yoinki ijobjiy o`zgarishi albatta o`zga ma'muriy birlikdagi inson, jamiyat va davlatlarga, ya'ni *hamjamiyatga* ham bevosita yoki bilvosita bog liq. Xalqaro hamjamiyatning tabiatga salbiy yoki ijobjiy ta'sir etishi isbot talab etinaydig'an aksiomadir. Xullas, inson, jamiyat, davlat va hamjamiyat o'rtaсидаги o`zaro uzviy bog`langan, biri ikkinchisidan, ikkinchisi uchinchisidan kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlarning turli shakllari du. Ular doimo atrof tabiiy muhit bilan uzviy bog`langan.

Har qanday ekologik-huquqiy tizimda, avvalambor, muayyan davlatning tabiatga nisbatan qanday munosabat shaklida bo`lishi, so`ngra *xalq irodasini aks ettiruvchi dunyoqarashlar tizimi - ekologik konsepsiylar* va unga monand ravishda *ekologik siyosat* shakllantiriladi. *Davlatning ekologik siyosati esa uning ekologik qonunchilik tizimini yaranishga asos bo`ladi*. Mazkur ekologik-huquqiy mexanizm bizni, avvalam bor, kishilik jamiyatini tabiatga nisbatan munosabat shakllarini ko`rib chiqishga chaqiradi,

Mutaxassislarning ma'lumotlariga ko`ra, yer yuzida sodir bo`layotgan tabiiy jarayonlarning 9/10 qismida inson faoliyatining mahsuli aks etmoqda. Bu jarayonlarni doimo ham ijobjiy deb bo`lmaydi. Chunki ekologik xavsiz muhit, ya'ni insonlarning muhim hayotiy manfaatlari va avvalam-bor toza, sog`lom, qulay tabiiy sharoitga ega bo`lish huquqini to la qondirishga qodir bo`la oladigan atrof tabiiy va ijtimoiy muhit holati inqiloz va talafot tomon intilib bormoqda.

Kishilik jamiyatini tabiatga nisbatan munosabat shakli - muayyan ijtimoiy iqtisodiy davrga xos bo`lgan kishilarning atrof tabiiy muhit bilan

o`zaro uzviy bog`langan hayot tarzi. Agar ushbu ekologik munosabatni insoniyatning tarixi nuqtai nazaridan qaraydigan bo`lsak, ularni quyidagi munosabat shakllariga ajratish mumkin: *oddiy, oddiy-iqtisodiy, iqtisodiy, iqtisodiy-ekologik, ekologik.*

Kishilik jamiyatni tabiatga nisbatan oddiy munosabat shakli ekologik tizimdagи tabiat komponentlari orasidagi muvozanatni buzunaydigan kishilarning tabiat qo`ynidagi soddalashirilgan hayot tarzi.

Avvalambor *ekologik tizim* (ekotizm) haqida to`xtalib o`tadigan bo`lsak, u *organizmlar majmisi* va ularning ma'lum bir hududdagi yashash muhiti bo`lib, unda organizmlar o`zaro va atrof tabiiy muhit bilan uzviy zanjirli aloqadorlik qonuniyati asosida shakllangan holati. Masalan, cho`lda o`ziga xos yashash sharoitiga ega bo`lgan issiqsevar o`simliklar va issiqqa chidamli hayvonot dunyosi hamda ko`zga ko`rinmas aerob mikroorganizmlar hayot kechiradi. Botqoqlikda esa uning aksi, ya`ni namlikni sevuvchi flora, fauna hamda anayrob mikroorganizmlar yashaydi. Har ikkala sharonda ham ko`p yillar davomida o`rnatilgan atrof tabiiy muhit holatinining kishilar faoliyati (antropogen ta'sir) natijasida o`zgartishi undagi tirik organizmlar, to`g`riroq i` organizmlarning rivojlanishi va shakllanishi o`zgartirib yuboradi. Buyuk ingliz biologи Charliz Darvuu iborasi bilan aytganda, organizmlarning evolyutsion rivojlanish jarayoni buziladi va uning o`rniga revolyutsion rivojlanish jarayoni boshlanadi. Natijada organizmlarni ushbu ekotizmlar (cho`ldagi yoki botqoqlikdagi) dagi tabiiy tanlash jarayoni tezlashadi. Muhitga tez moslashgan organizmlar yashab qoladi, moslashmagani esa qirilib ketadi. Buni ekologiyada noevolyutsion tarzdagi organizmlarni atrof tabiiy muhitga moslashuvi deyiladi.

Kishilik jamiyatini tabiatga nisbatan oddiy munosabat shakli odam-zotning ibridoiy jamoa tuzumidagi hayot tarziga, ya`ni insoniyat tarixinining ilk ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyasi davriga xosdir. Mazkur davr kishilarning Yer kurrasida paydo bo`lishi (chamasi 5 mln yil avval) davridan to`sinfiy jamiyat yuzaga kelguniga qadar bo`lgan ijtimoiy tarixni o`z ichiga oladi. Ibtidoiy davrda ishlab chiqarish kuchlari va qurollari takomillashmaganligi tufayli ularning hayot tarzi tabiatning ajralmas bir oddiy bo`lagi sifatida aks etgan. Atrof tabiiy muhit holati esa tirik organizmlar, xususan, inson uchun nisbatan qulay – ekologik xavfsiz darajada namoyon bo`lgan.

Ibtidoiy jamoada ham insonlar o`zlarining faoliyati tabiatga qanday ta'sir etayotganligi haqida yuzaki bo`lsada o`ylab ko`rganlar va o`zlarining hayot kechirishlari uchun zaur bo`lgan atrof tabiatini hamda uning unsurlarini saqlab qolishga uringanlar. Mevali o`simliklarni uzish, saqlash,

hayvonlarni ov qilish me'yorlarini yozma ravishda emas, balki og`zaki ravishda kelishib olganlar. Bunday og`zaki qoidalarni buzganlar jamoa boshlig'i tomonidan qattiq jazoga mahkum etilgan.

Mashhur rus ekolog-huquqshunos olimi V.V.Petrov¹ jamiyat va tabiat o`rtasidagi munosabat shakllarini, to`g`riroq`i, kishilik jamiyatini tabiatga nisbatan munosabat shakllarini (chunki hamma shakl aynan insani atning xatti harakatidan kelib chiqqan tarzda olingan) uch ko`rinishda tizim etadi – oddiy, iqtisodiy va ekologik. Lekin jamiyatda, ayniqsa tabiat qonuniyatining vaqt mobaynida o`zgarib borishi revolyutsion tarzda emas, balki evolyutsion tarzda kechgan va kechmoqda ham. Shuning uchun ham biz tabiat bilan jamiyat o`rtasidagi munosabatlari sekin-astalik bilan shakllana borgan va u bir shakldan ikkinchi bir shaklga bosqichma-bosqich o`tgan, ya'ni oraliq ko`rinishdagi shakllar ham bo`lgan, deya e'tirof eta olamiz.

Kishilik jamiyatining oddiy-iqtisodiy munosabat shakli ekologik tuzimlarni kam va kichik hududlarda bузилишига оlib keladigan kishilar ning hayot tarzi. Sinsiy jamiyat shakllana borgan sari kishilar soni va ishlab chiqarish qurollarining mukammallashuvi jamiyatning tabiatga nisbatan yangi oddiy-iqtisodiy munosabat shaklini yuzaga keltirgan. Natijada, kishilarning noekologik hayot tarzi kichik bir tabiiy hududda ekologik xavtsizlik darajasining keskinlashuviga olib kelgan. Bunday mahalliy (lokal) ko`rinishdagi ekologik o`zgarishlar kishilarning jamoa bo`lib to`plangan yerlarida sodir etilgan. Lekin ushbu shakl atrof tabiiy muhitning ekologik xavtsizlik darajasiga keskin ta'sir eta olmagan.

Hozirgi O`zbekiston hududida kishilik jamiyatining oddiy-iqtisodiy munosabat shakli ibridoiy jamoa tuzumining so`ngi va quidorlik tuzumi davriga to`g`ri kelgan. Eramizdan avvalgi 12–15 ming yilliklardan boshlab (mezolit davrida) mahalliy aholining ishlab chiqarish quroli sifatida nayza, ramon, aylanma yoqlarning paydo bo`lishi hayvonot dunyosining kamaya bузилишига, temirdan yasalgan omoch va belkuraklarning yaratilishi esa erlarni o`zlashtirish hamda dehqonchilikning paydo bo`lishiga olib keldi. Oqibatda ular yerlarning tabiiy holatiga birmuncha ta'sir eta boshladi.

Orish shaxobchalarining oddiy ko`rinishdagi «to`g`on» usuli obikor (forma) dehqonchilikning yuzaga kelishiga, daryo o`zanlarida «liman» quluning paydo bo`lishi esa daryolarning tabiiy suv rejimi o`zgarishiga olib keldi. Uy hayvonlarining ko`payishi Chirchiq, Zarafshon, Quyi Amu-

¹ В.В. Земельное право России. М.: вж., 1997. С. 13.

— В.И. Химическое строение биосфера Земли и ее окружения. М.: Издательство МГУ, 1995. С. 260–261.

daryo, Sirdaryo vodiylarida o'simlik dunyosining siyraklashishiga sabab bo'ldi.

Kishilik jamiyatining oddiy-iqtisodiy munosabat shakli tabiiy muhitning eng asosiy elementlari – yer va suvning ekologik tizimdagagi kichik aylanishiga ta'sir etdi, xolos. Lekin tabiiy muhitning bunday holati ekologik tizimlarning buferlik (qarshi turish va tiklanish) qobiliyatiga deyarli katta ta'sir etmadи.

Jamiyatda ishlab chiqaruvchilar va amaldorlar sinfining shakillana borishi va ish quollarining takomillashishi, davlatlar o'rtaсидаги nizolar ning kengayishi封建ism va ilk bor bozor munosabatlari yuzaga kelgan davrida *kishilik jamiyatining tabiatga nisbatan iqtisodiy munosabat shakli* rivojlandi. U faqatgina iqtisodiy jihatdan madamylashgan kishilar ning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini tabiatdan qondirish uchungina xizmat qildiradigan hayot tarzi. Iste'molchilik psixologiyasi pozitsiyasidan turib tabiatdan foydalanish natijasida atrof-muhitning ifloslanishi, resurslarning kamayishi va tabiat tizimlarining o'zgarishi sodir etildi. Insonlarning bunday hayot tarzi ekologik tizimlarni katta maydonlarda va keng (global) miqyosda buzib yubormoqda. Mazkur davrda, garchand insoniyat tarixida huquqiy elementlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga qaramasdan, kishilarning ekologik ongi, bilimi va madaniyati juda past edi. Tavrotda ham, Qur'oni Karimda ham. Injilda ham odamzodning qiyomat kunlarini kishilik jamiyatining iqtisodiy munosabat shakli bilan bog'lashlik bejiz emas edi.

Uzoq tarixiy muddatni o'z ichiga olgan, hanuzgacha rivojlanayotgan va bozor munosabatlariiga o'tayoqgan mamlakatlarda o'z asoratini saqlab kelayotgan kishilik jamiyatining iqtisodiy munosabat shakli kundalik iqtisodiy muammolarni har qanday ekologik muammolardan ustivor va ekologik siyosatdan mutlaqo xolitigini namoyon etmoqda. Garchand bunday o'lka va mamlakatlarda tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish borasidagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar yetarli bo'lsada, ularni amaliy tatbiqi ishlab chiqilmagan yoki ekologik talablar davlat miqyosida targ'ib qilinmagan. Aks holda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmida "demokratiya va adolat mezonining o'chog'i" bo'lmish Amerika Qo'shma Shtatlarida son-sanoqsiz bizonlarning yoppasiga qirib tashlanganligi, o'monlarning 2 barobargacha qisqarganligi, yeminirligan va yuvilgan yerlarning 40 mln ga yetganligi, qishloq xo'jaligi oborotidan 58% umumdar yerlarning chiqib ketganligini qanday tushunish mumkin. Ilmiy texnika yutuqlari u davrda ekologik xavfsiz muhitni saqlab qolishga emas, balki global miqyosda qurolli to'qnashuvl-

arda va sovuq urushlarda g`olib chiqish, ma'lum bir qatlamdag'i aholini boyitishga xizmat qilgan. Shuning uchun ham J.B. Lamark 1820-1960 yillarni «Inqilobiy sanoat yuksalgan, ekologik xavfsizlikni esa keskin ravishda inqirozga tomon sudragan davri», deb aytgan edi. Bunday davorda ekologik xavfsiz muhit inqirozi antropogen faoliyatning uch oqibatlar majmui tabny resurslarning kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi va ekologik tizimlarning buzilishi mahsulidir.

Tabiyy resurslarning kamayib va yo`qolib borishi hamda tabiiy obyektlarning ifloslanishi ekologik tizimlarning buzilishiga va ekologik inqirozlarning kelib chiqishiga sabab bo`ladi. Chunki kichik va katta modda va energiya aylanish zaujirida turgan biron-bir tabiiy obyektning yo`qolishi yoki uning uning ifloslanishi ekotizimlarni tashqi kuchlarga qarshi turish (buferlik) va qayta tiklanish xususiyatini yo`qotib qo yadi. *Ekologik inqiroz* - jamiyat va tabiat o`rtasidagi o`zaro munosabat m. vozanalining barqaror ravishda buzilishi natijasida atrof tabiiy muhit holatining yomonlashib borishi, davlat boshqaruv va huquqni muhosaza qilish organlarining yuzaga kelgan holatdan chiqa olmasliklari hamda ekologik tizimlarni tiklash imkoniyatlarining yo`qolishi, ya`ni tabiiy muhit inqirozi va ifsimoy muhit falokatiga duchor bo`lishi.

Ekologik inqirozga misol bo`lib Orol dengizi va uning atrofidagi holatni olsak bo`ladi. Qachonlardir dunyoda eng katta ko`llar toifasiga kirgan Orol dengizi 30-40 yil ichida sho`rlangan, ifloslangan va xalq xo`jaligidagi ahamiyati deyarli yo`qolgan o`rtacha kattalikdagi ko`llar toifasiga kirib qoldi. Buning asosiy sabablaridan biri Amudaryo va Sirdaryo suv rejimini keskin o`zgarishi, ya`ni 1982-1983 yillarga kelib ularni Orolga quyayotgan suvining 12-13 barobarga kamayib ketishidir. Natijada Orol dengizining suv sathi 16 metrga, suv yuzasi 2 barobarga, suv hajmi 4 barobarga kamaygan. Suvdan qurigan yuza esa 3,3 mln gektarni tashkil qilgani holda deslyatsiya (shamol eroziyasi) natijasida tuzlar minglab kilometrgacha uchirilmoqda. Amudaryo va Sirdaryo suvlarining og`ir metallar, pestitsid, gerbitsid kabi kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi va sho`rlanishi natijasida ularning suvi ichishga yaramasligini mutaxassislar isbot qilib berishdi. Qachonlardir baliqchilik va ov qilish maskani bo`lgan **Quy** Amudaryo qurigan qoldiq ko`llar va sho`rlangan tuproqlar maskaniga aylanib qoldi.

Mustaqil O`zbekiston Respublikasi va Markaziy Osiyo davlatlarining bugalikdagi sa'y-harakatlari tufayli 1995-1997 yillarga kelib Orolga suv quylish 15-17 kub km gacha ko`paytiyildi. Yopiq havzaning suv taqsimoti sulqaro shartnomaga va kelishuvlar orqali tartibga solinmoqda.

Xo'sh, savol tug'iladi, iqtisodiy munosabat shaklida ekologik qonunlar bo'lganmi? Bo'lgan bo'lsa, nima uchun ular bunday inqirozlarining oldini olmagan? Biz aytib o'tdikki, kishilik jamiyatining iqtisodiy munosabati shakli insoniyat tarixining juda katta davrini o'z ichiga oladi. Qadimgi dimiy va mistik kitoblar bizlarga tabiat insonning yashash makoni haqidagi fikr va mulohazalar, hattoki majburiy me'yoriy ko'rsatmalar bo'lib kelgani haqida ma'lumotlar beradi. Insonlarning iqtisodiy tafakkurlari yoki siyosiy talablari har qanday ekologik talablardan yuqori bo'lgan. Shuning uchun ham ekologik qonunlar o'z yolda. Insonlarning yoki davlatlarning raqobat, bosqinchilik, boyish va qo'shimcha yerlarni egallash siyosati o'z yo'sinida ketgan.

Iqtisodiy munosabat shakli davriga xos ekologik qonunlardan bo'l mish Mazovlarning XIII-XIV asrlarda o'rmon, tur, zubr va tarpanlar muhofazasi qoidalari, Litva knyazi Sigizmund-Hning «Volok mizomi»da baliqlarni urchish davrida ov qilish man etish talablari bo'lgan. XIV asrda Fransiyada «Suvlar va o'rmonlar» maxsus boshqarmasi tuzilgan va o'rmonlarni muhofaza qilish ularning vazifasiga kiritilgan edi. Qadimgi Vil-gelm podshohligi davrida kiyik, yovvoyi cho'chqa va hattoki, quyonlarni Oldirganlari uchun kishilar o'lim jazosiga mubtalo etilganlar. Ammo, aslida bu qonunlar tabiiy muhitni emas, balki feodal mulkni (katta yer egalarining tabiiy boyliklarini) saqlab qolish va ularni muhofaza qilishga qaratilgan edi, xolos.

Yer kurrasida ekologik inqirozli obyekti va hududlarning kengayishi, omnaviy kasallikkarning ko'payishi XX asrning ikkinchi pallasida kishilar e'tiborini tabiatga tomon yuz tutishga majbur etdi. Yevropa, ayrim Osiyo va Shimoliy Amerika mamlakatlarida nafaqat tabiatdan samarali foydalananish, balki uni asrashga bag ishlangan bir qator qonunlar qabul qilindi va o'sha asosida ekologik chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada jamiyatni tabiatga nisbatan yangi iqtisodiy-ekologik munosabat shakli yuzaga keldi.

Kishilik jamiyatining iqtisodiy-ekologik munosabat shakli – mavjud ekologik tizimlarni saqlab qolish darajasidagi kishilarning hayot tarzi.

Yaponiya, Shveysariya, Germanniya, AQSH, Shvetsiya kabi mamlakatlarning ekologik qonunchilik tizimi iqtisodiy-ekologik munosabat shakliga moslashtirilgan bo'lib, kishilarning har qanday shakldagi ekologik harakatlari davlat tomonidan to'laligicha qo'llab-quvvatlanadi. Tabiiy resurslarni kamaytirish, tabiatni ifloslantirish nafaqat fuqarolarga, hattoki davlat idoralarining xodimlariga moddiy va ma'naviy foyda keltirmaydi. Masalan, AQSH «Atrof tabiatni muhofaza qilish milliy siyosati» (NEPA)

qonuniga binoan hamma jismoniy va yuridik shaxsiyar (davlat hokimiyati va boshqaruv organlari ham bundan istesno emas) biron-bir tabiiy obyektdan foydalanishlaridan avval turli ko`rinishdagi test sinovlardan o`tadilar va tabiatga ta'sir etishi mumkin bo`lgan «ariza»ni topshiradilar. Bu test sinovlari natijasining boshidayoq 10% «ariza»lar sudlar ish faoliyaniga kirib qoladi. AQSH Prezidentning ijroiya qo`mitasi qoshidagi Tabiatni muhofaza qilish Kengashni kelib tushgan «ariza»lar ro`yxati va sudlarning qabul qilgan qarorlari to`g`risida ochiq ma'lumotlarni e'lon qiladi. Undan tashqari, tabiatni muhofaza qilishga oid hai bir AQSH shtati o`ziga mos ravishda qonun qabul qilish imkoniyatiga ega. Chunki shtatdagi ekologik holat, avvalambor, mahalliy aholiga ta'sir qiladi-da.

Tabuy muhitni inqirozga, ijtimoiy muhitni falokatga olib kelmaslik uchun biz yaqin kelajakda kishilik jamiyatining ekologik munosabat shakliga o`tib olishimiz kerak bo`ladi.

Kishilik jamiyatining tabiatga nisbatan ekologik munosabat shakli
ekologik tizimlarni qayta tiklash va atrof tabiiy muhitni sog`lomlash-tirishga qaratilgan kishilarning hayot tarzi. Ekologik munosabat shaklida davlatning boshqaruv tizimi, avvalambor, ekologik nobop hudud va obyektlarni tiklashga qaratiladi. Bunda ishlab chiqarish texnologiyasi, birlinchi navbatda, kam chiqitli yoki yopiq-chiqitsiz siklda bo`lishni talab etadi. Ekologik ong va madaniyat kishilarning jamiyatda tutgan o`rnini belgilovchi mezonga aylanadi. Ekologik qonunlar va normativ hujjaflar nafaqat bevosita, balki bilvosita ham ekologiyalashtirilgan, amaliy tarbiqi esa ekologik-huquqiy mexanizmga to`liq asoslanganlikni taqozo qiladi. Tabiiy resurslardan foydalanishni cheklash va tabiiy obyektlarni qayta tiklash bir mamlakat miqyosida emas, balki ekologik xavfli hududlar doirasida amalga oshiriladi va davlatlarning alohida muhofaza etish obyektiga kiritiladi. Ekologik muammlolar davlatlarning yangi barqaror rivojlanish konsepsiysi nuqtai nazaridan hal qilinadi.

2. Ekologiya nima?

Shunday qilib, ekologiya nima o`zi va nima uchun biz XXI asrda uchun ham nazariy, ham amaliy yechimini topishga harakat qilib qoldik? Nima uchun ushbu muammo deyarli ko`pgina ta`lim bosqichlarda, madamny hordiq chiqaravotgan joylarda, xalqaro uchrashuvlarda va hattoki, business shoullarda ham qizg`in muhokama mavzusiga aylanib qoldi. Dunyoning barcha mintaqalarida ekologik yo`nalishdagi turli ko`rinish, shakl va hajminga ega bo`lgan kitoblar, jurnallar, risola-yu maqolalar, o`quv ada-

biyotlari millionlab nusxada chop etilmoqda. Unga oid yangiliklar va ma'lumotlarni aholiga yetkazish uchun barcha turdag'i zamonaviy axborot texnologiyalari qo'llanilmoqda. Shuncha ma'lumotlar berilishiga qaramay hanuzgacha ekologiya nima o'zi» degan savolga bir xilda javob topish qyin. Bu esa ilmda va ayniqsa ta'lif-tarbiyada aslo yo'l qo'yib bo'lmaydigan holatdir. Majburiy ta'lif jarayonida, maktablarda hanuzgacha ekologiya mustaqil fan sifatida e'tirof qilinmagan. Axir tabiatni biz hammasini, yashu qari birdek ko'rishimiz lozim bo'ladi.

2005-yil 7-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Ohy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi (242-sonli qaror), Xalq ta'lifi vazirligi (33-sonli qaror), Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi(79-sonli qaror) birqalidagi «Respublikada ekologik ta'lifni rivojlantirish va ekolog kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish istiqbollari Dasturi va Konsepsiysi haqida» qo'shma qaror qabul qilindi. Unda BMTning 2005-2014-yillarda "Barqaror rivojlanish uchun ta'lif tavsiyalari"dan kelib chiqqan tarzda O'zbekistonda ekologik ong va madaniyatni yuqori saviyaga ko'tarishning chora-tadbirlari ishlab chiqilgan va mutassadi davlat va jamoat organlariga tegishli tavsiyalar berilgan. Shuning uchun bo'lsa kerak yana bir bor, o'zgartirilgan va qo'shimcha qilingan tarzda biz ushbu mavzuga qaytishni lozim deb topdik.

Zamonamizda ekologiya so'zi kompyuter, informatika, huquq, qonun, davlat kabi eng ko'p ishlatalidigan so'zlardan biridir. Xo'sh, ekologiya nima o'zi degan savol tuo'ilishi muqarrar. Chunki o'rta asrlarda «Teologiya», ya'ni din haqidagi ta'lifot qanday omimalashgan bo'lsa, shu kunda «Ekologiya» ham shunday keng tarqalgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, har bir olim, mutaxassis yoki ijodkor o'zini «ekologman» deb hisoblaydi. Mayli, nima bo'lganda ham ekologiyaning tarafdarlari ko'payaversin. Lekin fanda va ayniqsa ta'lifda bitta so'zning turlicha ifoda etilishi, uning mazmun va mohiyatiga turlicha yondashishga sabab bo'ladi. Buning natijasida esa «ekologlar»ning fanga yoki ta'lunga bergen yordamlaridan ko'ra zararlari ko'proq bo'lishi ham mumkin.

An analarga ko'ra, ekologiya - tirk organizmlarning o'zaro va ularning yashash muhit bilan bo'ladigan munosabati haqidagi fan, deb yuritiladi. Bu ma'no uning grekcha atamasidan kelib chiqqan tarzda ifoda etilgan. Chunki grekchada «oikos» - uy, yashash joyi, yashash muhit, «logos» - ta'lifot degan ma'noni anglatadi. Uni birinchi bo'lib fanga nemis tabiatshunos olimi Ernest Gekkel 1866 yilda chop etilgan o'zining «Organizmlarning umumiy morfologiyasi» degan kitobi orqali olib kirdi.

Uning ta'rifiga ko'ra, «ekologiya – tabiatni iqtisodiy jihatdan tadqiq qilish orqali hamma tirik organizmlarning organik va noorganik muhit unsurlari bilan birga, uning ta'sir doirasida turgan antagonistik va noantagonistik aloqadorlikda bo`lgan o'simlik va havvomot dunyosi o'rtaсидаги муносабатларни очиб бериш». У buyuk ingliz olimi Charlz Darvinnинг тирик организмлarning evolyutsion rivojlanishi тоғrisidagi таҳимотини rivojlanтириб, har qanday tirik organizm atrof tabiiy muhitga moslashib, o'zining morfoloq(ichki) va morfometrik(tashqi) ko'rsatkichlarini o'zgartirib borishini, moslashmagani esa tabiiy tanlash asosida qirilib ketishini isbotlab berdi.

E. Gekkel «ekologiya» so`ziga ta'rif berar ekan, inson tomonidan «tabiatni iqtisodiy tadqiq qilish» degan iboralari biz uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki u tabiatni son jihatdan ifodalanishi inson iqtisodiyotiga nechoqli bog`liqligini ifoda etdi. E. Gekkel birlamchi kapital ko pincha «tabiatga salb yurish» orqali jamg`ariladi, degan edi.

E. Gekkeldan so`ng ekologiya so`ziga minglab o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi. Nima bo`lganda ham hanuzgacha uning birlamchi tushunchasi umumiy tarzda saqlanib qolindi. Turli fikrlarni umumlashtirgen holda *biz ekologiyani noevolyutsion tarzda rivojlanuvchi tabiat tizimidagi tirik organizmlar va ularning atrof-muhiti bilan bo`ladigan munosabatlariga doir qonuniyatlarni tadqiq qiluvchi fan tarmog'i*, ularga oid bilimlarni beruvchi *ta'lim yo natishi*, ularni optimallashtiruvechi iqtisodiyot sohasi, deyishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan tushunchada E. Gekkel tomonidan qo'llanilgan so`zlar yoki iboralarning ayrimlari tushirib qoldirilgan yoki unga qo'shimchalar kiritilgan. Masalan, *birinchidan* agar XIX asrning ikkinchi yormuda Yevropa uchun «iqtisodning tabiatini anglash» yoki «tabiatni iqtisodiy jihatdan tadqiq qilish» degan iboralar o'ta dolzarb ahamiyat kasb etган bo`lsa, hozirga kelib u Yevropa uchun juda ham birlamchi ahamiyat kasb etadi deyish qiyin. Chunki "Eski qit'a" vakillari ekologik talafot nima ekanligini allaqachonlar tushunib yetishgan.

Ikkinchidan – «*noevolyutsion*» so`zining ham atrof tabiiy muhit uchun, ham organizmlar uchun qo'llanilishi bejiz emas, albatta. Chunki avnan noevolyutsion tarzdagi atrof tabiiy muhit holatining yuzaga kelishi organizmlarni noevolyutsion tarzda o'zgartirib yubordi. Aks holda ekologiya fani yuzaga kelmas edi. Tabiat va jamiyat o'rtaсидаги о'заро aloqadorlik qonuniyatlarini biologiya, geografiya, sotsiologiya, geologiya, gidrologiya, okeanografiya, tuproqshunoslik, meteorologiya kabi an'anaviy fanlar tadqiq qilishni davom ettirgan bo'lur edi. Ekologiyada esa jarayon va hoidisalar noan'anaviy va noevolyutsion tarzda tabiiy-antropogen yoki

antropogen tarzdag'i o'zgarishlar sodir bo'ladi. Shuning uchun ham ekologiya Afrika, Osiyo yoki Amerika qit'asida emas, aynan fan va texnika jadal ravishda rivojlanishi tufayli insonlarning xo'jalik faoliyati tabiatga keskin tu'sir etgan Yevropa qit'asida yuzaga keldi. XIX asrning ikkinchi yarmidagi tabiat manzarasini aks ettirishda Reyn daryosining holatiga nazar tashlagan fransuz jurnalistlari «Reyn daryosining suvini siyoh o'rniда ishlatsa bo'ladi», deb bejiz aytishmagan. Bunday holat aynan Yevropada ilk bor ekologik munosabatlarni shakllantirishga olib keldi.

Ekologiya XIX asrning ikkinchi yarmida biologiya fanlari tizimiga kirgan edi. Chunki u tirik organizmlar haqidagi fan tariqasida birinchi bo'lib biologlar tomonidan taklif etilgan. Lekin zamonlar o'tgani, fan va ta'lif rivojlangani sari *ekologiya nasaqat mustaqil fan sohasi*, balki *fanlar tizimiga* aylanib ketdi. Hozirgi kunda mutaxassislarning hisoblariga ko'ra, 70 dan ziyod ekologik fanlar mavjud bo'lib, ular deyarli barcha fan tarmoqlarini o'ziga qamrab olgan.

Hamma jumboq shundaki, biz Sizlar bilan ushbu risolada *ekologiya ni boshqa fanlar o'rnatida tutgan o'rni*ni aniqlashtirib olishimiz kerak. Chunki, biz taniqli Amerika ekolog olimi E. Makfedyenning fikriga qo'shilgan holda, ekologiyani boshqa fanlar va ayniqsa biologiyadan ajratib olishimiz, jumboqning «kalavasi»ni topish bilan tengdir, deb aya olamiz.

Hammamizga ma'lumki, **biologik fanlar** – zoologiya, botanika, sitobiologiya, bioximiya, genetika, morfologiya, embriobiologiya, fiziologiya kabilalar asosan tirik organizmlarga tegishli bo'lgan holat, jarayon va hodisalarini talqin qiladi. Atrof tabiiy muhit esa faqatgina tashqi omil sifatida qaratadi va bir tomonlama tadqiq qilinadi. Biologiyada ularning morfologik, morsogenetik, morfometrik ko'rsatkichlarini tabiatga bog'lagan tarzda ochib berilishi ham mumkin. Lekin biologik fanlar bevosita, tadqiqot predmeti sifatida, organizm va atrof tabiiy muhitning bir-biriga «aks sadosi»ni, ya'nii ikki tomonlama o'zaro ta'sirini bevosita o'rganmaydi.

Meditinsa, sotsiologiya, ijtimoiy fanlar ham tirik organizmlardan bo'l mish insonlarning o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish va taraqqiyot bosqichlari, harakat qilish va uyushish qonuniyatlarini atrof tabiiy muhitga bog'liq ravishda bir o'rganadi.

Yer haqidagi fanlar (geografiya, umumi yer bo'limi, tuproqshunoslik, geologiya, gidrologiya, klimatologiya kabilalar) Yer ustti va yer ostida organizmlarning kelib chiqishi, tarqalishi, rivojlanishi qonuniyatlarini atrof tabiiy muhit bilan bog'liq holda bir tomonlama tadqiq qiladi.

Iqtisod, informatika va matematikaga oid fanlar tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni son va sifat jihatidan baholaydi. modellashiradi.

Fizika va kimyo tabiatning mazmun va mohiyatini aniq qonuniyatlar asosida ochib beradi.

Umuman olzanda, ekologiya fani yuzaga kelguniga qadar yuqorida nomlari tilga olingen fanlar tabiat va inson o'rtasidagi barcha munosabatlarni ochib bergandek tuyuladi. Shuning uchun ham keng qamrovli fanlar orasida ekologiyaga joy bormikan, degan o'rinni savol tug'iladi.

Bizga ma'lumki, taraqqiyot (ayniqsa XX va XXI asrlarda) fanlarning tarmoqlashuviga olib kelmoqda. Aynan eng ommaviy tus olayotgan fan sohasi ikki yoki bir necha fanlar «chorrahasida unib chiqmoq»da. Bu tabiiy va obyektiv jarayondir. Fizika, matematika, kimyo, falsafa, geografiya, biologiya kabi «sof fanlar»ga amaliy ehtiyoj kamaya bormoqda. Chunki, bir tomonдан, ular o'z amaliy imkoniyatlarini kamaytirgan bo'lsalar, ikkinchi tomonдан, jamiyatda va, ayniqsa, tabiatda bir-biri bilan bog'lanimagan, birligida ikkinchisidan kelib chiqmaydigan hodisa va jarayonlar yo'q. Hamma jarayon va hodisalar uzviy bog'liqlikda va o'zaro aloqadorlikdadir. Ekologiya esa inson va tabiatni har tonionlama, uzviy bog'langan va aks sadoli, hodisa va jarayon sifatida o'rjanadi hamda ularga oid aniq bir amaliy tavsiyalar bera oladi.

Har bir fan mustaqil ravishda «yoqqa» turishi uchun uning mustaqil o'rjanish yoki tadqiq qilish obyekti, predmeti, o'ziga xos usullari, manbalari va olingen natijalarni tafsiy qilish joylari bo'lishi kerak. Aks holda bu fan, ayniqsa yangisi mustaqil fan tarmog'i sifatida e'tirof etilmaydi.

Ekologiyaning obyekti – noevolyutsion tarzda rivojlanuvchi tirik organizmlar va ularning atrof tabiiy muhiti, ya'ni ekotizimlar. Agar organizmlar va ularning atrof tabiiy muhiti evolyucion, ya ni tabiiy tarzda rivojlanish jarayonini o'tayotgan bo'lsa, u holda ekologik muammolar yuzaga kelmas edi va shuning uchun ham ekologik tadqiqotlarga o'rinn qolmas edi. Mazkur obyektlar biologiya, geografiya, geologiya, gidrologiya, okeanografiya kabi fanlarning obyekti bo'lib kelgan. Geografiyadan farqli ekologik fanlar tizimiga kiruvchi geokologiya (geografik ekologiya) uchun geografik qobiq doirasidagi organizmlar va ularning atrof tabiiy muhiti – o'rjanish obyekti bo'lib, biologiyadan farqli ravishda bioekologiya uchun tadqiqot obyekti biosferadagi organizmlar va ularning atrof tabiiy muhiti bo'lsa, ijtimoiy ekologiyada – kishilar va ular yashaydigan Yer yuzasidagi atrof-muhit tadqiqot obyekti bo'la oladi va h.k.

16215
NAMANGAN DAVLAT

3710 84

Ekologianing obyekti doimo noevolyutsion tarzda rivojlanuvchi, noan'anaviy o'zgaruvchandir. Agar u noan'anaviy o'zgaruvchan bo'lmasa ekologiya faniga hojal qolmas edi. Nima uchun «noan'anaviy o'zgaruvchan»? Chunki atrof tabiiy muhit noevolyutsion tarzda o'zgarmasa, organizmlar ham noan'anaviy tarzda o'zgarmaydi yoki biror-bir organizmning o'zgarishi ikkinchi turdag'i organizmning o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bularning hammasi ekologik munosabatlarni yuzaga keltiradi. Noan'anaviy tarzda o'zgarmaydigan muhitda esa ekologik munosabatlар o'mini tabiiy yoki antropogen munosabatlар egallaydi. Masalan, to'rtlamchi davrning oxirini geologlar antropogen davr, deb ham ataydilar. Ushbu kichik geologik davrning o'zidayoq atrof tabiiy muhitda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Iqlimning qurib borishi yer kurrasining shimoliy yarim pallasida doimiy muzliklarning chekinishiga olib keldi. Yashil o'rmonlar o'mini dasht va cho'llar egallay boshladi. Juda ko'p biologik massa iste'mol qiladigan yirik hayvonlar (dinozavr, extiozavr kabilalar) o'mini kamroq oziqlanadigan maydarоq hayvonlar egalladi. Insonlarning paydo bo'lishi esa qulay iqlim sharoitlarida yashovchi barcha «nozik» tabiiy (muhitga itoatgo'y) turdag'i hayvon va o'simliklarning yo'qolishiga sabab bo'ldi. Yovvoyi turdag'i hayvon va o'simliklarning o'mini madaniylashgan turlari egalladi. Xullas, geologik nuqtai nazardan kichik bo'lган 1–5 million yillar mobaynida organizmlar noekologik, ya'nı tabiiy – evolyutsion tarzda o'zgardi.

XIX–XXI asrlarga kelib esa jamiyat va tabiatda haqiqiy revolyutsion, ya'nı noevolyutsion o'zgarishlar sodir bo'ldi (2-rasm). Bu holat olimlar tomonidan ilmiy texnika revolutsiyasining natijasi, deb xulosa qilinmoqda. Chunki insoniyat bu davrda ilm va san yutuqlarini, aksariyat hollarda, tabiat ustidan «hukmronligini o'rnatish» uchun xizmat qildirdi. Tabiat va atrof muhitning hozirgi ekologik xavfsizlik holati XXI asrda uning aksini qilishga, ya'nı inson tafakkuri yutuqlarini tabiiy obyektlarni tiklash, saqlash va muhofaza qilishga qaratmoqni taqozo qilmoqda. Bu esa ekologik munosabatlarni yuzaga keltirmoqda. Insonni o'rab turgan atrof-muhit holatini soo'lomlashtirish davr talabidir. Aks holda tabiat, aks sado tariqasida, bizdan o'chini olmasdan qo'ymaydi. Insonlarning tabiatga nisbatan (xoh u ijohiy, xoh u salbiy bo'lsin) barcha harakatlari yoki harakatsizliklari atrof-muhitni tez o'zgaruvchan qilib yubormoqda. Ana shu o'zgaruvchanlikning tabiiy xususiyati nafaqat tabiatda, balki tirik organizmlar, xususan insonlarda ham aks etmoqda.

Ekologianing predmeti – muayyan bir ekotizimdagи organizmlar o'zaro va ularning atrof tabiiy muhiti bilan bo'ladijan noevolyutsion

o'rinishdagi munosabatlari. Bu yerda ham evolyutsion tarzdag'i munosabatlari boshqa noekologik fanlar predmetiga kirdi. 1866-yilda E. Gekkel tomonidan fasiya olib kirlgan «Ekologiya»ning aynan XIX asr o'rtalarida Markaziy Yevropada yuzaga kelishi ham bejiz bo'lmasa kerak. Chunki bu davrda sanoat rivojlangan Germaniyaning Sileziya va Rur havzalari tabiat va jamiyat o'rasisidagi muvozanatningning keskin ravishda o'shlishi noevolyutsion tarzda rivojlanuvchi ekologik obyektlarni yuzaga yetirdi hamda noevolyutsion ko'rinishdagi ekologik munosabatlarni aktualantirdi.

Ekologiyaning obyekti va predmetiga izoh berishda alohida urg'u Ushbu «noevolyutsion tarzda va ko'rinishda»gi so'zlarning qo'llanishi aslo ilmiy tadqiqotlarni evolyutsion tarzda, ya'ni tabiiy rivojlanish tarzagi yoki ko'rinishdagi joylar va undagi jarayonlarga ekologik nuqtai nazardan qarash kerak emas, degan sikni ifodalamaydi. Chunki ekologik muammo bo'lgan joyda ham, uning yo'qligini isbotlash yoki oldini olish maqsadida ekologik tadqiqotlarni o'tkazish mumkin. XXI asrga kelib, yer kurashida ekologik muaminolar yetib bormagan na bir quruqlik va na bir suv havzasi qolmagan bo'lsa kerak.

Ekologik munosabat tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, umumiy va shunga o'xshash ko'p qirrali xarakterga (ko'rinishga) ega bo'lishi mumkin. Ushbu xarakterlarga, ya'ni fan predmetiga qarab ekologiya turli fan tarmoqlariga bo'linib ketadi. Masalan, *tabiiy* xarakterda—geoekologiya, bioekologiya, zooekologiya, ixtioekologiya, fitoekologiya va h.k. *Ijtimoiy* xarakterda—ijtimoiy ekologiya, inson ekologiyasi, rekreatsion ekologiya va h.k. *Iqtisodiy* xarakterda—amaliy ekologiya, sanoat ekologiyasi, resurslar ekologiyasi, agroekologiya va h.k. *O'quqiy* xarakterda—ekologiya huquqi, xalqaro ekologiya huquqi, tabiatni muhofaza qilish huquqi, tabiiy resurslardan foydalanish huquqi va h.k. *Siyosiy* xarakterda—politekologiya, xalqaro ekologiya va h.k. *Umumiy* xarakterda—umumiy ekologiya, regional ekologiya, kosmik ekologiya va h.k.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha ekologik fan tarmoqlari (1-rasmga qarang) ham o'zining mustaqil o'rganish obyekti, predmeti, manbalari, osullari, tadbiq qilish obyektlariga ega. Ularning mustaqil predmeti—muayyan ekologik tizimdag'i noan'anaviy tarzda o'zgaruvchan organizmlar va sur'anaviy tarzda o'zgaruvchan atrof tabiiy muhit o'rasisidagi aniq bir munosabat turidir. Masalan, ekologiya huquqining predmeti—ekologik huquqiy munosabat, ya'ni insonlar tomonidan tabiatni tiklash, lomlashtirish va muhofaza qilish hamda ulardan oqilona

foydalanimishda kelib chiqadigan shaxs-jamiyat-davlat o`rtasidagi yuridik xarakterdagi munosabatdir.

Lekin keyingi paytda olimlar tabiiy resurslardan oqilona foydalanimida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni ekologiya huquqining predmeti emas, balki Suv, Yer, O`rmon huquqlari kabi fanlarning predmeti qilib ko`rsatmoqdalar. Ammo tabiiy resurslardan kompleks foydalanimish huquqining ma'lum bir huquq tarmog'i bilan tartibga solinishi maqsadga muvoqiq bo`lmaydi. Undan tashqari, ekologik munosabat deganda biz faqatgina insonlarning tabiatni tiklashdagi ijobiy faoliyatlarini tushunmaymiz. Inson yashar ekan, u xohlaydimi yoki yo`qmi, albalta ma'lum bir darajada tabiat obyektlaridan foydalaniadi. Bunday foydalanimish huquqshu noslikda tabiiy huquqlar toifasiga kiritiladi. Misol uchun, insonlarning atmosfera havosidan nafas olishi va nafas chiqarishi, suv ichishi va tabiat ne'matlarini iste'mol qilishi, yerda yurishi, suvda cho`milishi va h.k. Qarangki, inson tug`ilishi bilan paydo bo`ladigan hamma huquqlar ma'lum darajada atrof tabiiy muhitni ifloslantiradi. Shuning uchun ham ijtimoiy ekologiyada «tabiat sig`imi», ya'm Yer kurrasida tabiiy resurs imkoniyatlarga ko`ra, insonlarning sonini me'yorlash muammosi turadi. Undan tashqari, tabiiy resurslardan oqilona va o`ta samaradorlik bilan ilmiy asoslangan tarzda foydalanimish atrof tabiiy muhitni buzmasligini Shveysariya, Yaponiya, Kanada, Finlyandiya kabi «ekologiyalashtirilgan mamlakatlar» tajribasida ko`rish mumkin.

Xullas, ekologiya huquqining predmeti deganda, muayyan bir ekotizimda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanimish va buzilgan tabiat komplekslarini qayta tiklashdagi ijtimoiy munosabatlarning huquqiy tomonlarini tushunish lozim. Atrof tabiiy muhitni «qayta tiklash», «sog`lomlashtirish», «qayta ishlab chiqarish» kabi iboraning barchasini umumlashtirgan tarzda «muhofaza qilish» degan yagona ibora orqali ifoda etish xato emas, deb o`ylaymiz.

Ekologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishining yana bir talabi - o`ziga xos o`rganish, izlanish va tadqiq qilish usullarining bo`lishidadir. Bu usullar boshqa tabiiy, gumanitar yoki ijtimoiy fan sohalarida ham bor, lekin ekologiya o`zining qonuniyatlaridan, maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ularni umumlashtirgan. Ekologik usullar sifatida ekotizimdagi noevolyutsion tarzda rivojlanuvchi organizmlar va atrof tabiiy muhit o`rtasidagi munosabatlarni tadqiq qilishda tizimli yondashish; kuzatish, tajriba (eksperiment) o`tkazish va modellashtirish amalga oshiriladi.

Ekologik o`rganish, tadqiq qilish va izlanishlardan olingan natijalarni muayyan xalq xo`jaligi sohasi yoki davlat va jamiyatga tatbiq qilish

mumkin. Chunki inson, jamiyat, davlat va xalqaro hamjamiyatning asosiy maqsadi-farovonlikka erishish. Farovonlikning asosiy ko'sratkichlaridan biri – ekologik xavfsizlik yoki uning barqarorligi. U nafaqat inson farovonligi, balki milliy va xalqaro xavfsizlikning asosiy elementlaridan hisoblanadi. Prezidentimiz Islom Karimov «Asrlar tutash kelgan pailada butun insoniyat, mamlakatiimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushurib o'turish o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir», deb bejiz uqtirgan emas¹.

Ekologiyaning maqsadi - ho'irgi va kelajak avlodlar uchun ekologik xavfsiz muhitni ta'minlash. *Ekologik xavfsiz muhit* organizmlarning barqaror holatda ko'payishi, o'sishi va rivojlanishi uchun toza, sog'lom va qulay atrof tabiiy muhit holati demakdir. Ushbu maqsad quyidagi vazifalarini bajarishni talab etadi:

> planetamiz resurslari va atrof tabiiy muhit holatini diagnostika qilish, ya'ni hisobga olish va baholash;

> lokal (mahalliy), regional (mintaqaviy), global (kurtaviy) miqyosda ekologik monitoringni olib borish;

> davlat, davlatlar va xalqaro hamjamiyat tomonidan ekologik nazoratni tashkil etish va ularniishlash mexanizmini yaratish. Bir paytning o'zida nodavlat tashkilotlari, kishilar va jamoat nazoratini o'rnatish va ularni tavsiya kuchidagi ma'lumotlaridan ekologik boshqaruvda keng foydalanish;

> global miqyosda organizmlar va atrof tabiiy muhit holatiga salbiy ta'sir etuvchi inson faoliyatini qattiq nazorat ostiga olish, me'yordan oshgan tarzda uni keskin to'xtatish choralarini qo'llash;

> istiqbolga yo'naltirilgan ekologik reja va dasturlarni mamlakat, qit'a va Yer kunasi bo'yicha ishlab chiqish, qabul qilish va tatbiq qilinishiga katta e'tibor berish;

> ekologik huquqbazarliklar va ularning javobgarligini belgilovchi lokal, regional va universal ixtisoslashgan sud tizimi, prokuratura va tergov organlarini yaratish;

> mahalliy, regional va global miqyosda faoliyat yurituvchi «Ekologik rez yordam» guruhini yaratish. Ekologik jamo'armalar faoliyatini faollashtirish;

> davlat boshqaruvida va xalqaro hamkorlikda demokratik elementlarni (xalq hokimiyatiga asoslangan), ekologik munosabatlarni tartibga solishda keng joriy qilish;

> ekologik tanglikdagi quruqlik hududlari (Orolbo`yi, Chernobil, Markaziy Afrika) va suv akvatoriylarini (Orol dengizi, Balkash va Chad ko`llari) insonlarning birligidagi harakatlari orqali hal qilish;

> ekologik terrorizmning oldini olish yo`llarini ishlab chiqish va ishl'at mexanizmini yaratish;

> ekologik turizm orqali atrof tabiiy muhit holatini saqlab qolish;

> tabiat va jamiyat o`rtasida ekologik, ekologik iqtisodiy munosabat shakllarini o`rnatish va hokazo.

Xuiosa qilib aytganda, ekologiya bu muayyan ekologik tizimdagи noevolyutsion tarzda rivojlanuvchi organizmlar va ularning atrof tabiiy muhiti o`rtasidagi o`zarо munosabat qoida va qonuniyatlarini muayyan bir ekotizimlarda turli jihatdan tadqiq qiluvchi fan sohasi, unga doir bilimlarni beruvchi o`quv predmeti va ushbu masalalarning yechimini topishga qaratilgan inson xo`jalik faoliyatining bir jabhasidir.

3. Ekologik konsepsiylar (dunyoqarashlar)

Biz siz bilan tabiat va jamiyat o`rtasidagi turlicha munosabat shakllarini ko`rib chiqdik. Lekin insonlarning tabiatga nisbatan dunyoqarashlari ularning xarakteriga o`xshab turlicha bo`lishi tabiiy holdir. «Kishilarning dunyoqarashlari, - degan edi Abu Nasr Forobiy, ularning tashqi ko`rinishiga o`xshab turlicha bo`ladi va fazilat ularning ilmiga, hayot tarziga, yashash muhitiga to`g`ridan-to`g`ri bog`liqidir». Biz ham o`rta asrning ulug` faylasufi A.N.Forobiyning fikriga qo`shilgan tarzda ekologiya bora-sidagi dunyoqarashlarni ko`rib chiqamiz. N.F. Reymers: «Ekologiya keng ma'noda insonlarni yashab ketishi haqidagi ta'lilot», deb bejiz aytmag'an¹. Chunki insonlarning Yer kurrasida yashash muddati ularning ekologik dunyoqarashlarini amalda tatbiq qila olish imkoniyati bilan belgilanadi.

Ekologik konsepsiya – tabiat va jamiyatning o`zarо munosabati to`g`risidagi qarashlar tizimi, ya`ni bu moddiy dunyoda kishilarning o`rni, ahamiyati va mohiyatini aks etiruvchи dunyoqarashlar.

Jamiyat qonunlari – kishilarning xatti-harakatlarmi yoki biron-bir obyektga nisbatan munosabatini belgilaydigan ijtimoiy me'yorlar yig`indisi.

Tabiat qonunlari – kishilarni o`rab turuvchi atrof tabiiy muhita kechayotgan hodisa va jarayonlarning jamiyat qonunlariga bo`ysunmaydigan va kishilar faoliyatisz ham namoyon bo`la oladigan kechinmasi.

Tabiat qonunlariga: tabiiy omillarning birgalikda harakat qilishi, tabiiy modda(suv, energiya, kislorod...)larning katta va kichik aylanishi, modda va energiya tezlanishi, tirik organizmlarning evolyutsion rivojlanishi va shu kabilar kirdi.

Taniqli ekolog-huquqshunos olim V.V. Petrov shu kungacha bo`lgan ekologik dunyoqarashlarning mohiyati va mazimuni bo`yicha ularni quyidagi ko`rinishlari bor deydi: naturalistik, iste'molchilik, alarmizm, ekologik inqiroz sabablari, harakatlar strategiyasi, o'sish va organik rivojlanish, global boshqarish, ekologik revolutsiyalar nazariyasi, muhofaza qilish va rivojlanish, sotsialistik. XXI asrga kelib BMTning yangi – barqaror rivojlanish va atrof muhit muhofazasi konsepsiysi yuzaga keldi².

Naturalistik konsepsiya – jamiyatdan ustun turuvchi tabiatni ilohiy kuch, dono varatuvchi, ideal borliq deb qaraydigan falsafiy oqimlar va mакtablar. Bunday qarashlar tizimi tabiat va jamiyat o`rtasidagi munosabatlarning oddiy va oddiy-iqtisodiy shakllari davridagi kishilarga xos dunyoqarashdir.

Naturalistik konsepsiya qarama-qarshi bo`lgan dunyoqarash iste'molchilik konsepsiysi – jamiyat qonunlarini tabiat qonunlari ustidan voki kishilurni tabiat ustidan hukmronlik g`oyasini ilgari surish. Bunday g`oya namoyandalari jamiyat va tabiat o`rtasidagi munosabatni iqtisodiy munosabat shakliga olib kelganlar. Ular bozor munosabatlarini shakllantirgan va bozor iqtisodiyotining boshlang`ich davrida turgan «yangi biznes» sohiblaridir. «Iste'molchilar» haqida buyuk amerikalik yozuvchi Jek Londonning o`lmas asarlarida aks ettirilgan va oltin orqasidan quvib butun borliq tabiatni faqatgina ularning iqtisodiy talablarini qondirish manbai deb qaraganlar. Hozirgi XX ast oxiri Rossiyadagi «nest va gaz baronlari» ham bularga yaqqol misol bo`la oladilar. Ular uchun boylik birlamchi, tabiat va insonlar hayoti ikkilamchidir.

Alarmizmchilar («alarpt» – talafot degan ma'noni anglatadi) – ma'lum bir partiyagu birlashmagan va aniq bir dasturga ega emas, lekin ekologik inqirozning oldini olish uchun stixiyali tarzda bor kuch va bilimlarini surf qilayotgan olimlar, ishchilar, maishiy xizmat va sport sohasida ishlaydigan turli kasb sohiblari. «Grinpis», «Yashillar partiyasi», «Kedr» kabi oqimlar shular juunlasiga kirib, ular ko`piab uyushmalar safiga kirib 30 mln dan ortiq kishilarni birlashtirganlar.

Alarmizmchilarga yaqin bo`lgan dunyoqarash *ekologik inqiroz sabablari konsepsiysi – ekologik inqirozning kelib chiqish sabablari*

ilmiy-texnik taraqqiyot va aholi sonining tez sur'atlarda o'sib ketishi, deb qaraydiganlar. Ular sivilizatsiya va «demografik portlash» ekologik xavfsizlik darajasiga teskari proporsional ravishda va ekologik inqiroz holatidan chiqib ketish uchun demografik holatni boshqarish va tabiiy resurslarga qarab aholi sonini rejalashtirish fikrini olg'a surmoqdalar. Unda rejalashtirish har bir mamlakatning iqtisodiy ko'rsatkichlari, tabiiy sharoiti va tabiiy resurslar imkoniyatiga monand ravishda olib borilishi kerakligini e'tirof etuvchilardir.

Ilmiy-texnik revolutsiyasi va «demografik portlash» oqibatlaridan chiqib ketishni tavsiya qiluvchi g'arb sotsiologlarining harakatlar strategiyasi namoyandalari uch yo'lni ma'qul ko'radilar: *tabiatga aralashmaslik; muammosi bor tabiat qonunlariga hujum qilish yoki aralashish; atrof tabiiy muhitga kishilarni moslashtirish* orqali jamiyatni boshqarish.

Tabiatga aralashmaslik konsepsiysi namoyandalarini «harakatsizlar» strategiyasi deyish mumkin. Chunki ular ekologik tizimlarni ayrim hudud va mintaqalarda buzilganligiga besarq bo'tishni va Yer kurrasida yashayotgan 6 mlrd dan oshiq aholining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirimaslikni tavsiya etadilar. Tabiatga aralashmaslik prinsipini alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar – biosfera qo'riqxonasi va qo'riqxonalarda amalga oshirish mumkin, lekin ushbu tadbirni omnaviy tarzda – tabiadidan ajralgan insonlarning hayotini ko'z o'ngimizga keltirishimiz qiyin.

Muammosi bor tabiat qonunlariga hujum qilishni yoqlab chiquvchilar fikri aralashmaslik konsepsiyasidagi fikrlarga qarama-qarshi bo'lib, ular tabiat qonunlarini, ilmiy-texnik revolutsiya yutuqlaridan foydalanilgan tarzda, inson hayoti uchun xizmat qiladigan darajada o'zgartirishni taklif qilmoqdalar. Afsuski, bu oqim namoyandalari tabiat qonunlarining jamiyat qonunlaridan avval shakllanganligi, organizmlar esa ana shunday tabiat jarayonlari orqali paydo bo'lganligi va rivojlanganligini inkor etishlari hozirgi ko'rinishdagи tirik mavjudot(shular qatorida inson)larni genetik o'zgartirib yuborishdir. Bunday holat kinoko'rsatuvlarda keng namoyish qilinayotgan «mutant» odamlarni va hayvonlarni yuzaga keltirdi va tabiiy tizimlarni ishdan chiqardi.

Atrof tabiiy muhitga kishilarni moslashtirish orqali ekologik inqirozdan chiqib ketishni tavsiya etayotganlar, bir tomondan, ekologik tizimlarni tashqi kuchlarga nisbatan qarshi turish (buferlik) va o'z-o'zini tiklash qonuniyatlariiga ishongan holda insonlarning harakatlarini moslashtirishni tavsiya etsalar, ikkinchi tomondan, kishilarning evolyutsion jarayonlarini

jadallashtirishni yoqlab chiqadilar. Bunday konsepsiya namoyandalari, ta biat qonunlarini ko`chirishga urinayotganlar, desak mubolag'a bo`lmaydi.

O'sish chegarasi va organik rivojlanish konsepsiysi namoyandalarini Yer kurarsi resurslarining imkoniyatlariga monand ravishda, ilmiy-tehnik va insonlarni o'sish chegarasini belgilash yoki bunday ilmiy asoslangan o'sishni chegaralash ma'lum bir region (mintaqa), hudud yoki ma'muriy chegarada amalgaga oshirishni tavsiya etadilar.

Afsuski, ilmiy-tehnik jihatdan rivojlanmasdan turib tez sur'atlarda o'sib borayotgan aholining hayotiy ehtiyojlarini qondirib bo`lmaydi. Ilm-fanni «konservatsiya» qilish va insonlarning o'sishini «nol» variantga tushirish 5–10 yillik tadbir emas. Bu jarayon uzoq va katta kuch talab qiladigan tadbirdandir. Chunki aholisi tez o'sib borayotgan musulmon davlatlarida bu g'oyani, avvalambor, amalda tatbiq qilish kerak bo`ladi. Bu esa juda mushkul ishdir. Lekin «Rim klub» a'zolarining modeli jahon iqtisodiyotining ma'lum bir tipidagi mintaqalarda ilmiy-tehnik yutuqlarni hayotga keng tatbiq qilish va oilani rejalashtirishni, mahalliy iqtisodiy, madaniy, tarixiy, ma'naviy holatga qarab turib o'sish va organik rivojlanishni cheklashni tavsiya etganlar.

Global boshqaruv konsepsiysi – atrof tabitiy muhit komponentlari vagona bir tizimda harakat qiladi va ular ajralmasdir, degan g'oyani olyg'a suruvchilardir. Shuning uchun ham atrof tabiiy muhitni saqlab qolish malum bir hudud yoki mamlakat doirasida emas, balki xalqaro miqyosda butun dunyo hamjamatiining birqalikdagi tadbiri orqali amalgaga oshirishni yoqlab chiqqanlar. Ularning namoyondalari tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uchun davlatlar ustidan turuvchi yagona bir tashkilotni tuzishni va bu tashkilot nafaqat boshqaruv, balki nazorat vakolatiga ega bo`lishini yoqlab chiqdilar. Globalchilar BMTning YUNEP, YUNESKO, VOZ, MOP degan tashkilotlari hozirgi kunda faqatgina davlatlarning ekologiya borasidagi faoliyatini kuzatadilar va faktlarni keltiradilar, deydilar. Afsuski, bunday oqim namoyondalari Yer kurrasidagi hamma davlatlarning suveren huquqi bo`linish tabiiy resurslardan o'z milliy qonunlariga binoan foydalanish imkoniyatlarini osonlikcha berib qo`ymasliklarini inobatga olishmayapti. Lekin, bizning fikrimizcha, ekologik global boshqaruv tizimiga insoniyat oldinmi yoki kechmi albatta yetib boradi. Zero ma'lum bir joydagi ekologik inqiroz (Orol dengizi muammosi, Chernobil AES falokati. Oxota dengizining radioaktiv moddalar bilan zaharlanishi) mahalliy ekologik inqiroz emas, balki global miqyosidagi ta'sir kuchiga ega bo`lgan inqiroz ekanligi hammamizga ayondir.

Muhofaza qilish va rivojlanish konsepsiysi namoyandalari jamiyatning ekologik talablarini iqtisodiy-ijumoiy rivojlanish talablariga moslash tirishni taklif qiladilar. Bunday dunyoqarashlar rivojlangan «katta yettilik» davlatlarida keng targ'ib qilinayapti. Haqiqatan ham, ekologik tadbirlar iqtisodlashgandir¹. Misol tariqasida yana bir bor Orol dengizi muammosiga kelib to'xtalamiz. Paxta yakkahokimligidan O'zbekistonda olingan daromad (1960–1987 yy) Orol dengizi va uning atrofida ekologik inqirozni tugatishga ketadigan sarf-xarajatdan ko'ra 7–10 barobar kandir. «Ekologik inqirozning oldini olish, – deydi nemis ekolog olimi B. Grjimek, – unga qarshi kurashdan ko'ra doimo bir necha chandon arzonroqdir»².

Ekologik revolutsiyalar konsepsiysi – siyosiy tuzum va kishilarni ekologik dunyoqarashini keskin ravishda revolyutsion yo'l bilan iste'molchilik psixologiyasidan ekologik talablar doirasiga o'tkazish. Ammo bu taklif qanchalik yaxshi bo'lmasin, bit qoidani esdan chiqarmaslikka undaydi – kishilik jamiyatida (tabiatdagidek) revolyutsion yo'l bilan biron-bir tadbirni amalga oshirish ularda keskin ravishda salbiy oqibatlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Lekin hozirgi ekologik inqiroz holati ekologik ong, madaniyat, o'quv va tarbiyani keng miqyosda va jadal sur'atlarda moslashtirishni taqozo qiladi. Chunki ekologik tizimlarning evolyutsion rivojlanish qonuniyatini orqaga qaytarib bo'lmaydi, ulardagi salbiy jarayonlarni saqlab qolish va eski ijobjiy ekotizimni tiklash imkoniyati keyinchalik bo'lmasligi ham mumkin.

Sotsialistik konsepsiya, uning asoschilar K. Marks va F. Engels tomonidan keng ta'riflangan dunyoqarash bo'lib, ular *atrof tabiyi muhit holatini inobatga olgan tarzda jamiyat kuchlarini bir me'yorda rejali rivojlantirishni yoqlab chiqadiganlar*. Albatta, bu dunyoqarash amalda (70-yil sovet tuzumi hukm surgan davrda) o'z ifosasini topa olmadı. Tabiatni biron-bir mamlakatda rejali muhofaza qilish yoki undan foydalanish ekologik holatga emas, balki iqtisodiy-ijtimoiy-siyosiy holatga qarab olib borilishi kerakligini isbot qildi. Tabiiy resurslarning aniq hisobini olish va ulardan rejali foydalanish biron-bir hudud yoki mamlakatda emas, balki butun bir mintaqaga yoki Yer kurrami bo'yicha global miqyosda amalga oshirish mumkindir.

Bargoror rivojlanish konsepsiysi kelajak avlod ehtiyojlarini inobatga olgan tarzda ekologik muammolarni faqatgina ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning yechimini topish orqali kompleks ravishda mahalliy,

¹ A. N. Nig'mauv. 1960–1987-yil davridagi Atrof tabiyi muhit mehnatini II. Jumla va hisobot, 17 h. Гидиографические очерки о водных ресурсах Узбекистана в 1960–1987 гг. (Под ред. А. Нигматова). – Ташкент: Узреспублика, 1990. – С. 640.

milliy, mintaqaviy va global miqyosda uyushgan tarzda hal qilish mumkin, deya e'tirof etadi. Ushbu dunyoqarash asoschisi sobiq Norvegiya premyer ministri Gro Xorlem Brundtland bo`lib, u 1987-yilda BMT qoshida tuzilgan maxsus atrof-muhit Komissiyasi tayyorlagan «Birzning umumiy kelajagimiz» degan hisobotida to`liq aks ettirilgan. Mazkur konsepsiyanı amalga oshirish masalalari 1992-yil Rio-de-Janeyro shahrida bo`lib o`tgan «Atrof-muhit va rivojlanish» xalqaro konferensiyada hamda 2002-yil Yoxannesburg shahrida bo`lib o`tgan «Barqaror rivojlanish» Xalqaro Sammitida to`liq ko`rib chiqilgan va u bo`yicha tegishli xalqaro huquq ine'yorlari qabul qilingan.

Yuqorida sanab o`tilgan ekologik konsepsiyalardan tashqari dunyoning turli joylarida turlicha dunyo qarashlar tizimidagi partiyalar, oqimlar, harakatlar, kengashlar, jamg`armalar mavjud. Lekin, *ekologik konsepsiya - tabiat qonunlari bilan jamiyat qonunlari o`zaro uyg`unlashgan va ilmiy asoslangan holda rivojlanishini yoqlab chiqadigan qarashlar tizimi*dir. Bunga zid bo`lgan dunyoqarashlar tizimi esa noekologik konsepsiylar tizimiga kiradi, deb o`ylaymiz.

4. Ekologik prinsiplar (yo`naltiruvchi qoidalari)

Tabiat va jamiyat o`rtasidagi munosabat shakllari va konsepsiyalari dan kelib chiqqan holda ekologik munosabatlarning maqsadi va inohiyatini belgilab beradigan uchinchi qadam – kishilar o`rtasida yuzaga keladigan ekologik munosabatlar, ya`ni atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda amal qilinishi kerak bo`lgan asosiy prinsiplar yoki yo`naltiruvchi qoidalardir. Ekologik prinsiplar tabiat va jamiyat qonuniyatlarini uyg`unlashtirishga asoslangan bo`lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Tabiiy hodisa va jarayonlar ko`pqirralidir. Shuning uchun ham ular har tomonlhma obyektiv baholanishi kerak. Bu degan so`z – har bir tabiiy hodisa yoki jarayonga xalq xo`jatigining sohaviy zaruriyatiga qarab yondashish kerak. Lekin bu sohaviy yondashuv avvalambor ekologik tizimlarni saqlab qolish va ularni qayta tiklash nuqtai nazaridan amalga oshiniishi inaqsadga muvofiq bo`ladi.

O`rta Osiyoning tabiiy sharoitida o`rmonlar qurilish yoki kimyoviy xom ashyo manbai emas, balki ekologik tizim yoki landshaftlarni bir me'yorda ushlab turuvchi element sifatida qaralishi kerak. Mintaqaning hech qancha maydonini egallamaydigan siyrak daraxtzor va butazorlar suv va tuproq muhofazasida «yashil qalqon», iqlimni mo`tadillashtiruvchi

«konditsioner», aholini madaniy dam olishini ta'minlaydigan «koroni poli-sifatida qarashni taqozo etadi.

Suv fondidagi daryolar O'rta Osiyo sharoitida sug'orish va aholining maishiy xizmati uchun mo'ljallanishi kerak. Chunki issiq iqlim (arid) suv aholi uchun hayot manbaidir. Sibir, Uzoq Shaxq kabi sovuq yoki suvning olib mintaqalar uchun daryolar avvalambor alo'ning transporti bajaruvechi va arzon energetika manbai hisoblanadi. Daryolar inson hayotida bilvosita – qishloq xo'jaligi, metallurgiya, tog'-kon, kimyo san'at kabi suvni ko'palab qiluvechi xalq xo'jaligi tarmoqlariga xizmat qiladi. Tabiat pastqamlari yoki jarqliklari turli chiqitlar yoki maishiy axlatlar tashlaydigan «stabiliy qutি» bo'lib qolmasligi lozim.

2. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalananish mintaqaviydir, ya'nı mahalliy va regional sharoitlarni (tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy) inobatga olgan holda ekologik tadibilierni olib borish qoidasi demakdir. Mamlakatimiz iqtisodiy rivojinining tayanchi bo'lgan tabiat boyliklaridan foydalananish va ularni muhofaza qilish, ularni har tomonlama baholashni, istiqbolli yo'nalishlarni aniqlashni, mahalliy va ekologik sharoitlarni inobatga olgan holda amalga oshirishni talab qiladi. Chunki O'zbekiston Respublikasida (umuman Yer kurasida) tabiiy obyektlarning son va sifat ko'sratkichlari maydon va makon bo'yicha bir tekisda joylashmagan. Biron-bir mintaqada ma'lum bir tabiiy obyekti yoki resursning mo'lligi ikkinchi bir mintaqada uning yetishmasligini qoplab bera olmaydi yoki biron-bir mintaqada ekologik xavfsiz muhit sharoiti ikkinchi bir mintaqaning ekologik inqirozini bartaraf etishga asos bo'la olmaydi.

3. Tabiiy hodisalar va jarayonlar o'zaro uzriy bog'langandir Yuqoridaqgi ekologik prinsiplarning davomi sifatida shuni aytish kerakki, tabiatning ma'lum bir obyektini muhofazalash yoki uni buzish qolgan tabiiy obyektlarga o'z ijobjiy yoki salbiy tasirini albatta o'tkazadi, ya'nı «zanjir reaksiyasi» usulida ishlaydi. Masalan, tabiatda daryo va ko'llarni muhofazalash o'z-o'zidan undagi baliqlarni va suv o'tlarini muhofazalashga olib keladi. O'rmonlarni asrash esa, avvalambor, ulardagi hayvonot dunyosini saqlashga, songra atmosfera havosining va suvlarning tozaligini ushlab turishga, tuproqning unumdarlik xususiyatini saqlab qolishga imkon beradi. Aksincha, o'rmonlarda tuproq unumdotligini yo'qotish o'simlik dunyosining siyraklashuviga va ularda yashovchi va oziqlanuvchi hayvonot dunyosining kamayishiga yoki qirilib ketishiga olib keladi. Ekologik tizimdagagi bir obyekt muhofazasini ikkinchisi orqali amalga oshirish qonuniyatini shakllantiradi.

4. «Zanjir reaksiyası» qonuniyatining davomi, *biron-bir tabiiy obyekt muhofazasi ikkinchi bir tabiiy obyektning zarari bo`lishi ham mumkin*. Masalan, Afrika qit'asidagi milliy bog'larda tashkil etilgan qo`riqxonalarda fillar sonining ko`payib ketishi u yerdagi o'simlik dunyosining siyrak-lashuviga va tuproq unumdarligining pasayishiga olib kelmoqda. Shuning uchun ham malum bir obyekt muhofazasiga qaratilgan ekologik tadbirni qolgan tabiiy obyektlar imkoniyatlariga mos ravishda va ilmiy asoslangan tarzda amalga oshirish kerak bo`ladi.

5. Yuqorida zikr etilgan to`rt ekologik prinsip bizlardan *tabiat muhofazasiga kompleks yondashuv* prin sipi ni tatbiq qilishni taqozo qiladi. Tabiatni muhofaza qilish va shu bilan bir qatorda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni biron-bir soha yoki yo`nalish bo`yicha to`liq amalga oshirib bo`lmaydi, balki unga kompleks ravishda – sohalararo boshqaruv va nazorat asosida amalga oshirishni talab etadi. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasining faoliyatı xuddi ana shu komplekslilik prinsipiiga asoslangandir.

Umuman olganda, tabiatni muhofaza qilish, bir qaraganda, tabiiy resurslardan foydalanishga qarama-qarshi yo`nalishga o`xshaydi. Lekin ekologik tiziindagi katta yoki kichik doiradagi modda va energiya almashunuvi ham tabiiy obyektlarning birini ikkinchisiga ta'sir qilishi, ya'ni foydalanish va muhofaza qilish asosida bo`ladı. Hech qaysi bir tirk mavjudot (xoh u hayvonot yoki o'simliklar dunyosi, xoh u inson bo`lsin) atrof tabiatdan foydalanmasdan turib hayot kechira olmaydi.

Muayyan ekologik me'yordagi bu harakatlar ekologik tizimlarni ushlab turuvchi zaruriy hodisa va jarayonlar turkumiga kiradi. Bundan bir vaqtning o`zida ham tabiatni muhofaza qilish, ham foydalanish qoidalari kelib chiqadi.

Shunday qilib, jamiyatning tabiatga nisbatan yo`naltirilgan harakatlari ekologik prinsiplarga yondashgan va chuqur ilmiy asoslangan bo`lishni talab etadi. Chunki inson tabiatning bir bo`lagi, lekin uning teskarisi emas.

5. O'zbekistonning ekologik siyosati

Yer kurrasida yuzaga kelayotgan ekologik nobop muhitning chuqur-lashuvida ozmi-ko`pmi O'zbekistonning ham ishtiroki bor. Mamlakatimizda yashayotgan 26 milliondan ziyod aholining yarmidan ko`pi ekologik xavfli bo`lgan muhitda istiqomat qilmoqda. Orol dengizi va uning atrosida ro`y bergen ekologik inqiroz holati sovet davrining noekologik agrar va

iqtisodiy siyosatining natijasidir. Shuning uchun ham davlatimiz, shaxsan Prezident I.A.Karimov ekoologik masalalarni iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy islohotlar bilan uyg` unlashtirgan holda olib borishni lozim deb topmoqda'.

Ekoologik siyosat – davlatning atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilonra foydalanish va buzilgan tabiat komplekslarini tiklash borasida olib borayotgan ichki va tashqi faoliyat majmu'i.

Mustaqillik sharofati tufayli O'zbekistonda quyidagi taktik va strategik ekoologik yo`nalishlar ishlab chiqilgan: «1999-2005-yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi», «2006-2010-yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi», «O'zbekiston Respublikasida tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ekoologik ta'minlashning milliy harakatlar rejasи», «O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit gigiyenasi bo'yicha milliy harakatlar dasturi», «Biologik rang-haranglikni saqlash bo'yicha milliy strategiya va harakatlar rejasи», «Respublikada ekoologik ta'limi rivojlantirish va ekolog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish istiqbollari dasturi va konsepsiysi haqidagi» va boshqa me'yoriy hujjatlar.

Ushbu ekoologik dastur, konsepsiya va rejallarda hozirgi kunda hamda kelajakda mamlakatimizda jamiyat va tabiat o'rtaсидаги munosabat shakli qanday bo`lishi, uning ekoologik konsepsiysi, maqsadi va prinsiplari belgilab berilgan. Ekoologik maqsad va vazifalarni amalga oshirishning taktik va strategik harakatlar dasturi va yo`nalishlari ko`rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi ekoologik siyosatining asosiy maqsadi – fuqarolarning huyotiy zurur ehtiyoji bo`lgan ekoologik xavfsiz muhitni ta'minlash uchun mamlakatimizda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilonra foydalanish va buzilgan tabiat komplekslarini qayta tiklash, ya'ni tabiat bilan jamiyat o'rtaсидаги iqtisodiy-ekoologik munosabat shaklini qo'llashdir.

O'zbekistonning ekoologik siyosati negizida fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo`lish huquqini ta'minlash yotadi. Mamlakatimizda davlatning ekoologik siyosati muammolari taniqli huquqshunos olim S.H.Fayziyev tomonidan o'r ganilgan. Uning monografik tadqiqotlarida davlat ekoologik siyosatining yuridik tabiatni, mohiyati asosiy yo`naishlari, o`ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari, fuqarolarning atrof tabiiy muhitga ega bo`lish huquqini ta'minlashning davlat huquqiy mexanizmi masalalari yoritilgan.

Ma'lumki, mustaqillik davrigacha Turkiston, keyinchalik O'zbekiston chor Rossiyasiga va so'ngra sobiq ittifoqqa xom ashyo yefkazib beruvchi chekka o'lka hisoblangan. Shuning uchun ham ular tabiiy va mineral xom ashyo zaxiralaridan maksimal holda ekstensiv ravishda foydalanganlar, ya'n'i jamiyat va tabiat o'rtaida iqtisodiy munosabat shaklini qo'llaganlar. Totalitar tuzumdag'i iqtisodiy munosabat shaklidan birdaniga (sakrab) ekologik munosabat shakliga o'tishning na nazariy va na amaliy iloji bor. O'zbekiston Respublikasining tanlagan yo'li tabiat va jamiyat o'rtaisdagi munosabatiarni *iqtisodiy-ekologik shaklidan bosqichma-bosqich ekologik munosabat shakliga o'tishdan iboratdir*.

1997-yil 29-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Milliy xavfsizlik konsepsiysi to'g'risida»gi qonunida mamlakatimizning ekologik dunyo qarashida quyidagilarga e'tibor berilgan»:

– shaxsning hayotiy zarur ehtiyoji bo'lgan kishilarning sog'lig'ini muhofaza qilish va insonlarning turmushi uchun optimal holatdagi ekologik sharoitlarni yaratib berish;

– jamiyatning hayotiy zarur ehtiyoji bo'lgan oilani har tomonlama qo'llab-quvvatlash, mo'tadil ekologik vaziyatni tashkil etish, aholining sog'lig'ini ta'minlash, jismoniy baquvvat avlodni shakllantirish;

– davlatning hayotiy zarur ehtiyojlari bo'lgan – barqaror rivojlanishni ta'minlash, mintaqaviy iqtisodiy holatni mo'tadillashtirish, sog'lom hayot tarzini shakllantirish.

Shunday qilib, O'zbekiston uchun yagona – shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy zarur ehtiyojlaridan biri bo'lgan ekologik xavfsiz muhit milliy xavfsizlikning ajralmas bir bo'lagidir. Respublikamiz ekologik siyosatining asosiy maqsadini bajarmoq uchun davlatimiz barqaror rivojlanish bilan bir qatorda muhofaza qilish va rivojlanish konsepsiyasini analda qo'llashni ma'qul deb topdi. Bu degan so'z shaxs, jamiyat va davlatning ekologik talablarini mintaqalar bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish talablariga moslashtirish kerak, demakdir.

Prezident I.A. Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» degan usari hamda bir qator yuqorida sanab o'tilgan davlatimizning Dastur, Reja va Konsepsiyalarda *atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning asosiy chora-tadbirlari* quyidagilardan iborat, deb topildi:

- Ekologik texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish. Xalq xo`jalik tarmoqlaridagi tabiiy jarayonlarning keskin buzilishiga olib keladigan barcha zaharli kimyoiy moddalarini qo`llash ustidan qattiq nazorat o`rnauish. Atmosfera havosi va suvlarni insonning hayotiy faoliyatni uchun salbiy ta'sir etadigan moddalar bilan ifloslantrishni to`statish;
- Qishloq xo`jalik ekinlarini, eng avvalo, g`o zani sug`orishda suvni texnologiyalarni keng joriy etish. Kollektor-zovur suvlari daryolar va suv omborlariga tashlashni tartibga solish va oqova suvlarni chiqarib yuborishni batamom to`xtatish;
- Sanoat korxonalarida atmosfera havosiga, suv havzalariga va tuproqqa ifloslantruvchi hamda zararli moddalarini tashlaganlik uchun solinadigan maxsus soliqdan keng foydalanilgan holda mas`uliyatni oshirish. Uiarda zamонавиј, samarali tozalash qurilmalar tizimini joriy etish. Boshlang`ich xom ashayodan tayyor, pirovard mahsulot olgunga qadar kompleks foydalanishiga imkon beradigan yangi, zamонавиј, ekologik jihatdan samarali uskunalarini o`rnatish;
- Qayta tiklanadigan zaxiralarni qayta ishlab chiqishning tabiiy ravishda kengayishini ta'minlaydigan hamda qayta tiklanmaydigan zaxiralarni qat`iy mezon asosida iste'mol qilingan holda hamma turlaridan oqilona foydalanish;
- Foydali qazilmalardan oqilona foydalanish. Boshlang`ich xom ashayodan to`liq foydalanishni ta'minlash va uning uchun eskirgan uskunalarini almashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ayrim sextlar, uchastkalar va korxonalarini rekonstruksiya qilish asosida foydali qazilmalarni sanoat usulida yanada to`liq va oqilona qazib olish. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish uchun tog`-kon sanoatining chiqindilarini o`zlashtirishni yanada kengaytirish hamda buzilgan yelarni qayta yaroqli holga keltirish (rekultivatsiya qilish);
- Keng maydonlardagi tabiiy sharoitlarni tabiiy zaxiralardan samarali va kompleks foydalanishni ta'minlaydigan darajada aniq maqsadli, ilmiy asoslangan tarzda o`zgartirish (daryolar oqimini tartibga solish hamda suvlarni bir havzadan ikkinchisiga tashlash, yerning suv-fizik xususiyatlarini yaxshilash, suv chiqarish va shunga o`xshash tadbirlarni amalga oshirish);
- Jonli tabiatning xilma-xilligini saqlash, tabiiy genofondni madaniy ekinlar va hayvonlarning yangi turlarini ko`paytirish hisobiga boshlang`ich baza sifatida saqlab qolish;
- Qurilish va obodonlashtirish rejalarining ilmiy asoslangan, hozirgi zamон urbanizatsiyasining barcha salbiy oqibatlarini bartaraf etadigan

uzunni joriy etish yo li bilan shaharlarda va aholi punktlarida ekologik xavfsiz muhitni tarkib toptirish;

- Jahon jamoatchiligi e'tiborini mintaqaning ekologik muammolariga qaratish. Orol muammosi bugungi kunda chinakam keng ko'lamli, butun sayyoramizga daxldor muammo bo'lib qolganligini, uning hozirning o'zidayoq biologik muvozanatni, bepoyon hududlarda aholining genofondlarga halokatli ta'sir ko'rsatayotganligini nazarda atish;

- Xalqaro tuzilmalarning zaxiralari, imkoniyatlari va investitsiyalarini yuqorida zikr etilgan muammolarni hal qilishga jalgib etish.

- Tabiatni muhofaza qilishning Milliy dasturida ekologik xavfsizlikni ta'minlash va yuqorida aytib o'tilgan tadbirlarni quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirish tavsiya etilgan:

- Davlat ekologik islohotlarning yo'lboshlovchisi,

- Ekologik xarajatlarni moliyalash va ulaming yangi sxemalarini jalgib qilish;

- Makroiqtisodiy va sohaviy ekologik siyosatni takomillashtirish;

- Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini ekologiyalashtirish;

- Atrof tabiiy muhit sifatini yaxshilash maqsadini qo'yish va standartlashtirish;

- Ishlab chiqarishning ekologik talablarini chuqurlashtirish va h.k.

O'zbekiston Respublikasining yuqorida aytib o'tilgan ekologik siyosatini amalga oshiruvchi tabiat va jamiyat o'rtaсидаги munosabat shakli, tabiat va jamiyat qonunlarini uyg'unlashtirish, ekologik chora-tadbirlar va asosiy tanlangan tamoyillarning hayotga tatbiq qilish mexanizmini ishlab chiqish va amalda qo'llash, O'zbekistonda jamiyat va tabiat o'rtaсидаги ekologik munosabat shakliga o'tib olish imkonini beradi. Bunday ekologik siyosat shaxs, jamiyat, davlatimizning milliy xavfsizligini ta'minlashda katta xizmat qilishiغا hech shubba yo'q.

6. Atrof tabiiy muhitni huquqiy muhofaza qilish zarurati

Xo'sh, ekologiya sohasida kishilik jamiyatni tomonidan e'tirof etilishi mumkin bo'lgan yagona yo'l nimadan iborat, degan o`rinli savol tug'iladi. Mazkur yo'l, bizning fikrimizcha, umuminsoniyat qadriyatlarni ifoda etuvchi, xalqaro huquq prinsiplaridan kelib chiquvchi va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi huquqiy-demokratik yo'ldir. Chunki turli toifadagi kishilari, davlatlar, millatlar, xalqaro uyushmalarning fikrlarini umumlashtiruvchi masala barqarorlidir. Har bir inson avva-

Iambor o'z tinchligi, sihat-salomatligi, baxtli hayoti uchun qayg'uradi, albatta. Ushbu ezgu niyatlar amalga oshirish uchun odamlar butun kuch-qudratini ishga soladilar. Ular jamoa, uyushma, oqim, davlatga birlashadilar. Insoniyatning hozirgi rivojlanish bosqichida ~~harakat~~ xatti-harakat kishilarning yurih-turish qeda-va me yorlarini yozma ifodasi orqaligina amalga oshiriladi. Ijtimoiy munosabatlarning una shunday yozma ifodasi fanda ~~huquq~~ deb ataladi.

Atrof tabiiy muhit, ya'nı tabiatni muhofaza qilish, uning buzilgan qismalarini qavta tiklash va tabiiy resurslardan ogilona foydalanish jarayonida kishilar o'rtaida yuzaga keladigan munosabatlarni ijtimoiy ekologik munosabatlarni turkumiga kiradi. Ularni esa, fanda umumlashitilgan tarzda ekologik munosabat, deb ataydilar.

Barqaror rivojlanish yo'lda turgan har qanday davlat uchun huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish pirovard maqsad hisoblanadi. Unda xalq irodasi qonunlarda aks etadi, fuqarolar esa davlat boshqaruvida taol ishtirok etishlari qonun ustuvorligini ta'minlashda va adolatni yuzaga chiqarishda so'zsiz xizmat qiladi.

Prezidentimiz Islom Karimov 2002-yil avgustdagagi Oliy Majlisning II chaqiriq 9-sessiyasida qilgan ma'rurasida O'zbekiston Respublikasida demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini o'rnatishning asosiy sohalarini ko'rsatib berdi. Unda hamma ijtimoiy munosabatlarni faqatgina huquqiy yo'llar orqali tartibga solinishi kerakligi, ana o'shandagina ijtimoiy muhofazalangan bozor iqtisodiyotiga yetib borishimiz muunkinligi ta'kidlangan edi.

Ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solish uchun milliy va xalqaro huquqda ekologik me'yorlar va qoidalarni tabiat qonuniyatlariga mos ravishda ishlab chiqish, ularni vakolatli organ, tashkilot yoki ham-jamiyatlar tomonidan qabul qilish, uning ishtirokchilari o'rtaida ushbu me'yorlarni umummajburiy kuchga ega qilish va albatta, huquqbuzarlarga nisbatan yuridik oqibatlarni keltirib chiqarish mexanizmini yaratish zarur. Aks holda, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning huquqiy jihatdan tartibga solish imkoniyatini yuzaga chiqarish aslo mumkin emas.

Shunday qilib, ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solish nafaqat tabiat muhofazasiga, balki xalqlar va davlatlar o'rtaida barcha mahalliy, regional va global masalalarni tineh totuvlik blan hal etish hamda insoniyatni barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya qilishga olib keladi.

II BOB. EKOLOGIYA HUQUQINING TUSHUNCHASI, PREDMETI, TAMOYILLARI VA TIZIMI

1. Ekologiya huquqining tushunchasi, xususiyatlari va umumiy ekologiya tizimida tutgan o'rni

Tabiat va jamiyat o'rtaсидаги о'заро bog'liqlik turli yo nalish va shakllarda uzoq vaqt davomida amalga oshirilib kelinmoqda.

Asrlar davomida insoniyat tabiat qonuniyatlariiga moslashib, o'zining turli ehtiyojlarini qondirish uchun tabiatdan foydalanib, unga ta'sir o'tka/moqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, jamiyat a'zolari ongining tobora takomillashishi, yangi mehnat qurollarining ixtiro etilishi o'z navbatida, insonning turli ehtiyojlarining rivojlanishiga olib keldi. Inson o'z ehtiyojlarini qondirish uchun tabiiy resurslardan foydalanib salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Jamiyat a'zolarining tabiatdan foydalanish bo'yicha ehtiyojlarining oshishi, tabiiy resurslardan foydalanish qurollari, ya'ni texnikaviy vositalarning takomillashishiga olib keldi. Ushbu holat o'z navbatida tabiatga jamiyat tomonidan bo'ladigan ta'sirlarning bir necha barobar ko'paytirilg'i sabab bo'ldi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrlarda inson tafakkurning rivojlanishi ilmi-fanning taraqqiy etishi o'z navbatida insonning turli ehtiyojlarini qondirishga, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy negizini mustahkamlashga xizmat qildi. Albatta, yangi texnologik jarayon ish unumдорлиги, iqtisodiy daromadni ko'paytirishi bilan bir qatorda tabiiy resurslarning holatiga salbiy ta'sirlarni oshirishga, shuningdek tabiat bilan jamiyat o'rtaсидаги о'заро muvozanatni buzilishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham tabiat va jamiyat o'rtaсидаги munosabatning shunday yo'lga qo'yilishi kerakki o'zaro ta'sirlar natijasida tabiiy resurs, ekologik tizimlar holati va aholining sog ligi, hayoti va ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarining darajasiga bo'ladigan salbiy oqibatlarni iloji boricha kamayishiga olib kelinishi zarurdir.

Muhim tabiiy resurslar hisoblangan yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik, hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy zahiralarining inson, jamiyat hayotida tutgan o'rni beqiyosdir.

Shuning uchun har qanday jamiyatda tabiatdan foydalanish, uni muhofaza qilish, tabiat zahiralarini kelajak avlodga metos qilib qoldirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Tarixga nazar solib, fikr qiladigan bo'lsak tabiat-jamiyat o'rtaсидаги о'заро munosabatlar jamiyat hayotining turli bosqichlarida turlicha shakllarda olib borilgan, har bir tarixiy rivoj-

Ianish bosqichida turli foydalanish va ularni muhofaza qilishning qoidatalablari joriy etilib kelingan. Demak, jamiyatda yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik, hayvonot dunyosi va atmosfera havosidan foydalanish va muhofaza qilish yuzasidan ijtimoiy munosabatlar huquqiy jihatdan tartibga solinib, tabiat-jamiyat tizimida mavozanatni saqlashga xizmat qildi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan huquqiy chora-tadbirlar tizimi va ularning ta'sir doirasi har bir tarixiy bosqichda mavjud ilm, fan va texnika rivojlanishi hamda atrof tabiiy muhit holatining darajasiga bog'liq bo'ladi.

Shuning uchun ham XX asrda amalga oshirilgan fan-texnika revolutsiyasi natijasida yaratilgan yangi texnika vositalari, ishlab chiqarish obyektlari o'z navbatida tabiatga bo'lgan ta'sirini oshishi misti kutilmagan ekologik salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Ekologik munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan ijtimoiy-huquqiy chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqildi va amalga oshirila boshladи.

Ushub holat ekologik huquqiy munosabatlar doirasi va darajasini o'r ganuvchi ekologiya huquqi fanining paydo bo'lishi va rivojlanishiga zaruriyat yaratdi.

Ekologiya huquqi – tabiat bilan jamiyat o'rtaida paydo bo'ladi-gan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tomondan tartibga solishni o'r ganuvchi fandir.

Ekologiya huquqi bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining mustaqil huquq tizimida o'z o'rni va salohiyatiga ega bo'lgan alohida yo'nalish va xususiyatlarga ega bo'lgan huquq sohasi hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki har bir huquq sohasining mohiyati tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabatlar doirasi va darajasiga bog'liq bo'ladi. Shu jumladan, ekologiya huquqi huquq tiziminining sohasi sifatida tartibga solayotgan ijtimoiy munosabatlarning kengligi, murakkabligi, xilma-xilligi va o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa huquq sohalaridan ajralib turadi.

Hammamizga ma'lumki, davlat va huquq nazariyasiga asosan huquq sohalari ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish jarayonida tutgan o'rni va ishtiroki darjasini doirasi nuqtai nazaridan mustaqil va kompleks (majmualashgan yoki keng qamrovli, keng tarmoqli) huquq sohalari bo'lunishi mumkin. Mustaqil huquq sohalari ijtimoiy munosabatlarni asosan o'zinining kuchi, imkoniyatlari darajasida tartibga soladi. Masalan, ma'muriy huquq, jinoyat huquqi, fuqarolik huquqi, mehnat huquqi va boshqalar.

Keng qamrovli (kompleks) ahamiyatga ega bo`lgan huquq sohalari ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda boshqa huquq sohalarining huquqiy qoida-talablari va tamoyillardan foydalanadi.

Ekologiya huquqi ham tabiat-jamiyat tizimidagi global ahamiyatga ega bo`lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda birinchi navbatda ekologik umummatjburiy ahamiyatga ega bo`lgan tamoyil, usul va qoidatalablardan foydalanadi, ikkinchidan, ushbu murakkab ekologik muammo-larni hal qilish, ularning huquqiy tartibotini ta'minlashda o`zaro bog`liq bo`lgan huquqning boshqa sohalarining kuch va imkoniyatlaridan foydalanadi. Chunki, ekologiya huquqi hal qilishga qaratilgan ekologik muammo va vazifalarning ko`lami kengligi, murakkab va ahamiyatliligi sababli faqatgina jamiyat hayotining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma`naviyatdaniy jabhalarida mavjud bo`lgan barcha vosita cho`ra-tadbirlarini safarbar qilish orqali ekologik munosabatlarni tartibga solishi mumkin.

Shuning uchun ham ekologik muammolarini hal qilishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ekologik tamoyil, qoida va talablar bilan bir qatorda boshqa huquq sohalari ya`ni ma`muriy, jinoiy, mafqarolik, mehnat va xo`jalik-huquqiy vosita va qoida-talablaridan foydalanadi.

Demak, ekologiya huquqi - tabiat va jamiyat tizimida paydo bo`ladigan ekologik huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan keng qamrovli va ko`p tarmoqli huquq sohalaridan biri bo`lib hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, har bir fan yoki huquq sohasi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish jarayonida tutgan o`rni va tartibga solinayotgan munosabatlarning ko`lamiga ko`ra o`ziga xos xususiyatlariiga ega bo`fadi.

Shu jumladan ekologiya huquqi ham birinchi navbatda huquq tizimi ning alohida sohasi sifatida boshqa huquq sohalari bilan chambarchas bog`liq bo`lib, buquqning umum e'tirof etilgan tamoyil, shakl va qoidalardan foydalanib, rivojlanib bormoqda.

Shuning bilan bir qatorda ekologiya huquqi tartibga solayotgan ijtimoiy munosabatlar tabiat qonuniyatları, tabiiy resurslar, ekologik tizim va komponentlarga ta'sir etish, ya`ni holatining yomonlashishi, miqdorining kamayishi, muvozanatning buzilishi, turlarning yo`qolib ketishi va hokazolar kabi jarayonlarda paydo bo`ladi. Hammamizga ma'lumki, inson tabiat mahsuli, uning bir qismi, tabiat qonuniyatları doirasida shakllangan, rivojlanayapti va taraqqiy etib boradi. Bir so`z bilan aytganda “Tabiat-jamiyat” tizimida tabiat beqiyos darajada ustun huquqqa, ko`lamga va

salohiyatga egadir. Shuning uchun ham jamiyat o'z taraqqiyotiga erishmoqchi bo'sa, albatta tabiatning muqaddas, ustuvor qonuniyatlarini anglashi, e'tirof etishi, o'z xatti-harakatlarni moslashtirishi va eng muhimmi o'z ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq harakat yo`nalishlari tabiatning holatiga bog'lab rivojlantirishi lozim bo`ladi. Ko'rib turibmizki, ekologik huquqiy munosabatlarni tartibga solishda tabiiy qonuniyalarning ustuvorligi o'z navbatida ekoliya huquqining boshqa huquq sohalaridan farq qiluvchi, ajralib turuvchi xususiyatlari mavjudligini taqozo etadi. Ushbu xususiyatlar birinchedan, ekologik munosabatlarni tartibga solishda tabiat qonuniyatlarini ustunligini ta'minlash; ikkinchedan, jamiyat hayotida shakllangan ekologik umumma'buriy tamoyil, qo'da-talablarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda qo'llash; uchinchidan, ekologik munosabatlarni tartibga solish mehanizmida konstitutsiyaviy, ma'muriy, mehnat, jinoiy, fuqarolik, xo`jalik-huquqiy chora-tadbirlardan foydalanish va to`rtinchidan, ekologik muammolarni hal qilishda jamiyat hayotida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy jabhalarini chora-tadbirlarini keng safarbar qilish bilan belgilanadi.

Ekoliya huquqi murakkab ta'lilot tizimiga ega bo`lib, tabiat qonuniyatlari va jamiyat qonunlarining o'zaro moslashishi, muvosiqlashishi natijasida shakllanadi, rivojlanyapti va taraqqiy etadi. Shuning uchun ham tabiatda bo`ladigan o'zgarishlar, voqe'a-xodisalar bilan bog'liq nazariy ta'lilot va bilimlar o'z navbatida jamiyatning tabiat sir-asrорlari, ilimini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Chunki, tabiiy bilimlarni o'rganish o'z navbatida jamiyatning tabiat bilan bo`ladigan o'zaro munosabatlarini uyg`unlashtiradi, har bir davlat ekologik siyosatini yo`nalishlarini oqilona belgilashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda tabiat qonunlarini o'rganish tabiiy resurslarning rivojlanishi, o'zaro bog'liqligini darajasi ekologik tizimdagi muayyan tabiiy resurs, tur va komponentlar sifat va miqdoriy o'zgarishlari, ularga bo`ladigan ta'sir doiralarini aniqlash yoki bir so'z bilan aytganda tabiat ilmini o'rganishda tabiiy fanlar tizimida o'z yo`nalishi, xususiyatlariga ega bo`lgan ekoliya fani tobora rivojlanib bormoqda.

Biz ekoliya huquqi fanini chuqurroq o'rganmoqchi bo'lsak, avvalanbor "Ekoliya fani" haqidagi umumiy tushuncha va yo`nalishlarini yetarli anglashimiz kerak bo`ladi.

Ekoliya – murakkab tizimga ega bo`lgan, tirik organizmlarning yashash sharoiti va shu organizmlarning o'zlari yashab turgan muhit bilan o'zaro murakkab munosabatlarini o'rganuvchi fandir.

1866-yilda nemis biologi o`z ilmiy asarida birinchi bo`lib “Ekologiya” atamasini fanga kiritib, uning ma'nosini tirik organizmlarning o`zaro va ularning yashash muhiti bilan bog`liqligini o`rganuvchi iqtisodiyot sifatida ifodalaydi.

Ekologiya atamasi yunoncha “oikeos” – turar joy, yashash muhiti, uy – “logos” – ta'lilot, degan ma'noni bildiradi. Bir so`z bilan avtganda, ekologiya biz yashab turgan muhit, uy, vatanimiz haqidagi shundadir.

Ilm, fan-texnikanining rivojlanishi tabiat haqidagi bilimlarning tengayishi va o`z navbatida tabiat-jamiyat tizimidagi o`zaro ta'sirlarning keskinlashishi ekologiyaning biologiya fanining kichik bir qisimidan ajralib, alohida fan sifatida rivojlanishiga olib keldi. Ekologiya – tabiat fanlarining barcha soha va tannoqlariga kirib borib, jamiyat hayotining muhim jabhalari hisoblangan iqtisodiyot, siyosat, ma'naviyat-madaniyat, ijtimoiy majmuualarni qamrab oldi. Tabiat va jamiyat hayotining barcha soha va yo`nalishlarini qamrab olgan ushbu jarayon, ya`ni “Ekologiyalitsiyalashtirish” asosida bugungi kunda murakkab tizimga ega bo`lgan, global ahamiyatdagi ekologiya fani shakllandi. Ekologiya fani hozirgi kunda 70 ga ya`sun “Tabiat-jamiyat tizimida” gi ta'lilot va g`oyalar majmuusim o`z ichiga oladi, ya`ni, odam ekologiyasi, iqtisodiyot ekologiyasi, muhandishlik ekologiyasi, agro ekologiya, kimyoiy ekologiya, huquqiy ekologiya va boshqalar. Demak, ekologiya huquqi fani global ahamiyatdagi ekologiya fanining tarkibiy qismalaridan biri bo`lib hisoblanadi. Shuning bilan bir qatorda ekologiya huquqi fanini oldida “Tabiat-jamiyat tizimi” da turli shakl va yo`nalishlarda paydo bo`ladigan o`zaro ta'sirlarni barqarorlashtirish, harakat yo`nalishlarini aniqlash, jamiyat a`zolarining tabiatdan foydalaniш bilan bog`liq ehtiyojlарini qondirish me`yorlarini o`rnatish, tabiat qonunlari darajasida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish talablarini belgilash kabi ma suliyatli vazifalarni yuklaydi.

2. Ekologiya huquqi fanining rivojlanish tarixi

Hammamizga ma'lumki, tabiat va jamiyat o`rtasidagi o`zaro ta'sirni kuzatish, tadqiq etish uzoq tarixiy jarayonga egadir.

Yugorida ta'kidlanganidek, ekologiya atamasi 1866-yilda fanga kirib keldi va ekologiya fani biologiya fani tarkibidan ajralib chiqdi va o`z yo`nalishlari bo`yicha rivojlanib bormoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, insonning tabiat ilmiga bo`lgan qiziqishi, tabiiy resurslarning holatini kuzatish, o`rganish, tabiat boyliklarini asrab-avaylash, muhofaza

bilan bog'liq ta'lilotlarni jamiyat rivojlanish tarixining barcha bosqichlarida kuzatishimiz mumkin.

Insonning tabiat bilan bog'ligi nafaqat maxsus tadqiqotlarda balki jamiyat a'zolarining turmush tarzi, diniy va ijtimoiy urf-odatlari bilan tanishishda ketganligini kuzatishimiz mumkin.

Jamiyatning tabiatga bo`ladigan o`zaro ta'sir doirasi va darajasini maʼlum ongi, mehnat qurollari va boshqa ishlab chiqarish vositalari takomillashuvi bilan bog'lab kuzatishimiz mumkin.

Yangi mehnat qurollari, fan-teknika kashfiyotlari o`z navbatida tabiiy resurslardan ko`proq foydalanish, turli chtiyojlarini qondirishni ta'minlaydi va o`z navbatida tabiiy resurslar holatiga bo`ladigan salbiy ta'sirlar darajasini oshirib bordi. Tabiatga bo`ladigan zararli va xavfli ta'sirlarni kamaytirish, ularning oldini olish, tabiat boyliklarining holatini yaxshilash bilan bog'liq izlanish, tadqiqot, ta'lilotlar rivojlanib boraveradi. Ushbu jarayon o`z navbatida tabiat-jamiyat tizimidagi munosabatlarni takomillashtiradi, ekologik bilimlarning rivojlanishiga olib keladi.

Tabiatda bo`ladigan o`zgarishlarni kuzatish, ularning holatini tadqiq etishda xorijiy olimlar qatorida bizning yurtimiz olim va allomalari Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abdurazzoq Samarkandiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Sulton Balxiy, Maxsud ibn Vali va boshqalar ulkan hissa qo`shganlar.

Shuni ta'kidlashni istardikki, XIX asrgacha tabiat bilan jamiyat o`rtasidagi munosabatlar keskinlashmagan, salbiy ta'sirlar doirasi kengaymagani, bir so`z bilan aytganda tabiiy-ijtimoiy zaruriyatning mavjud emasligi tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq ta'lilotlar alohida, maxsus olib borilmagan. XIX asrdan boshlab ilm fonda yangi kashfiyotlar, yangi mehnat qurollari, texnika vositalari paydo bo`lishi tabiat-jamiyat o`rtasidagi munosabatlar tizimiga keskin burilish yasadi. Tabiatga bo`lgan jamiyatning ta'sirlari, yaʼni antropogen ta'sirlar ortib boraverdi. Bu esa o`z navbatida ekologiya fanining rivojlanishiga olib keldi.

Ekoliya huquqi – tabiat bilan jamiyat o`rtasida o`zaro ta'sirlar natijasida paydo bo`ladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishni o`rganuvchi fan va huquq tizimining alohida sohasi sifatida o`z rivojlanish tarixiga egadir.

Biz tabiat-jamiyat tizimidagi qadimiy-tarixiy jarayoni o`rganishni oson bo`lishi maqsadida shartli ravishda uch bosqichga bo`lamiz:

1. Sotsialistik tuzumgacha bo`lgan boy tarixiy davr (1017-1924-yil-largacha bo`lgan bosqich);

2. Sotsialistik tuzum (1924-1990-yilgacha);
3. Mustaqillik davri (1991-yildan hozirgacha).

Birinchi-boy tarixiy bosqich eramizdan avvalgi ming yilliklardan XX asming 20-yillarigacha bo`lgan davrni o`z ichiga olib, tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilish qoida-talablarining turli-tumanligi, o`ziga xosusiyatlarni kuzatishimiz mumkin.

Jamiyatning tabiat bilan bog`liq munosabatini tartibga solish odamlar qara-la-qabilalari bo`lib birlashib, o`z hududlarida yer, o`rmon, hayvonot dunyosi va resurslaridan foydalanish qoida-talablari joriy qilnib kelingan.

Insen ongingin rivojlanishi yangi mehnat quollarining vujudga kelishi natijasida tabiat boyliklaridan foydalanish miqdori va o`z navbatida tu`sir ko`rsatish darajasi ortib bordi.

Yuitimizda davlatchilik shakllana boshlashi, rivojlanishi bilan jamiyatdagi huquqiy munosabatlar takomillasha bordi. Ushbu huquqiy munosabatlar tizimida yer, suv, o`rmon va hayvonot dunyosidan foydalanishning qoida-talablari ham takomillashib bordi. Tarixiy merosimiz xisoblangan “Avesto” va boshqa diniy urf-odatlarda ham tabiatdan foydalanish bilan bog`liq qoidalarni uchratishimiz mumkin. Albatta, ushbu qoidalalar mahsus qoida sifatida shakllanmagan bo`lsada jamiyat a`zolarining tabiatga bo`lgan munosabatini tartibga solib turishga xizmat qilgan.

Tabiatdan foydalanish qoida-talablari jamiyat a`zolarining diniy qoida-talablari, urf-odatlari aholining turmush tauriga aylana borib, insonning tabiatdan foydalanish, uni avaylab asrash bilan bog`liq majburiyatlar, javobgarlik choralar belgilanib bo`tiladi.

Ayniqsa, eramizning o`rtalarda davlatchilikning rivojlanishi va taraqqiy etishida tabiiy resurslarning ahamiyati cheksiz hisoblanib, yersuvdan foydalanish qoida-talablari rivojlanu bordi. Ayniqsa, musulmon huquqining manbalari va boshqa tarixiy-huquqiy ahamiyatdagи merosimizda yer-suv, o`simlik va hayvonot dunyosidan foydalanish talablari, ulami muhofaza qihsh majburiyatlar, javobgarlik choralar kabi qoidalalar belgilangan bo`lib, ushbu sohada munosabatlarni tartibga solishga katta ahamiyat birligani.

Shuni alohida ta`kidlash joizki, XX asming 20-yillarigacha bosib tilgan boy tarixiy evolyutsion jarayonda tabiatdan foydalanish, uni asrab-avaylash bilan bog`liq umummajburiy ahamiyatga ega bo`lgan qoida-talablar o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lib, birinchidan, ushbu qoida-talablar alohida maxsus tizimga ega bo`lmay, mulk bilan bog`liq qoidalalar tizimida rivojlangan, ikkinchidan, tabiat boyliklaridan foydalanish va ularni asrab-avaylash qoida-talablari aholining madaniyati va turmush

tarziga singib ketganligi o`z navbatida huquqiy munosabatlarni rivojlantirishga hizmat qilgan.

XX asrning 20-yillaridan boshlab, zaminimizda sotsialistik tuzumning o`sishiga qarab O`zbekiston SSR ning ittifoqdosh respublikalar tarkibida o`sish davlat sifatida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilish yangi huquqiy qoida-talablarning joriy etilishi bilan bog`liqdir.

1917-yilda Yer haqida Dekretning imzolanishi mavjud tuzum uchun muhim ahamiyatga ega bo`lib, yerga nisbatan xususiy mulk shaklining bekor qilinishi, pomeshiklar, yer egalarining yerlari milliy lashtirilishi, ya`ni davlat tasarrufiga o`tishi, yerlarni ishchi, dehqonlarga berilishi kabi tamoyillar belgilangan. Ushbu dekretga asoslanib, yer kodeksi, yer osti boyliklari haqida, o`mon va suv resurslari va tabiiy obyektlardan foydalanish haqidagi nizomlar qabul qilindi.

1939-yilda O`zbekiston SSR ning yer-suv kodeksi qabul qilinishi yer va suv resurslardan foydalanish va muhofaza qilish munosabatlarni tartibga soluvchi birinchi kodifikatsiyalashgan hujjat hisoblanadi.

1941-yilda O`zbekiston SSRning “Qishloq xo`jaligida suvdan foydalanish to`g`risida” gi qonunning qabul qilinishi esa o`z navbatida qishloq xo`jaligida yer va suvdan foydalanish va ularni muhofaza qilishning rivojlanishini ko`rsatadi.

1957-1963-yillarda barcha ittifoqdosh respublikalarda, shu jumladan, O`zbekiston SSR da ham “Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida” gi qonuni qabul qilinib, birinchidan, tabiatni muhofaza qilishning tamoyillari, asosiy qoida-talablar mustahkanlanadi, ikkinchidan, tabiatni muhofaza qilish bilan bog`liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va o`rganishda alohida urg u beriladi.

Xalq xo`jalik maqsadlarida tabiiy resurslardan keng foydalanish o`z navbatida tabiiy resurslar holatining yomonlashishiga, tabiatni muhofaza qilishning ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyatini paydo bo`la boshlaydi.

Shumi alohida ta`kidlash kerakki, 1963-yilgacha yer, yer osti boyliklari, o`mon, suv va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilishning huquqiy-nazariy asoslari “Yer huquqi” fani dasturida belgilangan edi, ya`ni bir so`z bilan aytganda, tabiatni muhofaza qilishning huquqiy holati “Yer huquqi” fani tizimida o`rganilib kelindi. Bu holat tabiatni huquqiy muhofaza qilish nazariy –amaliy jihatdan keng miqyosda o`rganishga imkon bermas edi.

1963-yildan Ittifoq miqyosida "Tabiatni huquqiy muhofaza qilish" o`quv dasturi tasdiqlanib, tabiatni muhofaza qilishning asosiy yo`nalishlari ilmiy-amalii jihatdan asoslanib beriladi.

Fan-texnikaning tobora rivojlanib borishi, xalq xo`jaligi tarimoqlarida is`lab chiqarishi samaradorligining o`sishi, qishloq xo`jaligida paxta "yakkahokimligi" ning ilgari surilishi, mexanizatsiya va melioratsiya tizimlarining rivojlanishi o`z navbatida tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish zaruriyatini talab qila boshladi.

1986-yilda "Yer huquqi" fani va "Tabiatni huquqiy muhofaza qilish" maxsus kursi o`rniga "Tabiiy resurslar huquqi va atrof-muhitni muhofaza qilish huquqi" o`quv dasturi tasdiqlanib, barcha "ittifoqdosh" respublikalarda shu jumladan, bizning respublikamiz oly yuridik o`quv yurtlarida nazariy-huquqiy asoslar o`rganila boshlandi.

1986-yillarda "sovet" lar davlatining ko`plab mintaqalarida, ayniqsa O`zbekistonda 30-40 yil davomida olib borilgan noto`g`ri ekologik siyosat oqibatida ekologik muammo keskinlashib, Orol dengizi va orolbo`yi mintaqasida, Navoyi, Buxoro, Sariosiyo, Bekobod, Chirchik kabi viloyat va shaharlarda yerlarning sho`rlanish darajasi, suvlarning ifloslanishi, atmosfera havosi holatining yomonlashishi, aholining hayoti va sog`ligi darajasining pasayishi, turli kasalliklarning ko`payishi kabi salbiy holatlar paydo bo`lgan edi. Mana shunday sharoitda "Tabiat-jamiyat tizimidagi o`zar munosabatlarni birinchi navbatda tabiatning usluvoitligini tan olish tamoyilining joriy etilishi asosida tabiiy resurslardan foydalanish huquqiy asoslarini o`rganishni taqozo etadi.

1987-1989-yillarda yurist-ekolog olimlar tomonidan "Ekoliya huquqi" o`quv dasturini joriy etish va ekologianing huquqiy asoslarini yaratish g`oyasi ilgari surilib keldi va ba`zi respublikalarda joriy etila boshladi.

O`zbekiston Respublikasida "Tabiat-jamiyat" tizimidagi o`zar munosabatlaring ilmiy jihatdan asoslangan huquqiy asoslarini yaratish 1991-yilda respublikamiz mustaqillikka erishgandan so`ng analga oshira boshlandi.

1991-yilda Toshkent Davlat yuridik institutining Ilmiy Kengashi qarori bilan "Ekoliya huquqi" fanining o`quv dasturi tasdiqlandi. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Yer Kodeksi, "Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida", "Davlat sanitariya nazorati to`g`risida", "Suv va suvdan foydalanish to`g`risida", "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to`g`risida", "Atmosfera havosini muhofaza qilish to`g`risida", "Ekoliya ekspertizasi to`g`risida", "O`rmon to`g`risida", "O`simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risida", "Hayvonot dunyosini

muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonunlari va ushbu sohadagi qonunchilik hujjatlari O'zbekiston Respublikasi "Ekoliya huquqi" tanining huquqiy asoslarini mustahkamladi.

1999-yilda O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" asosida bakalavriat va magistratura tizimlari uchun "Ekoliya huquqi" o'quv Dasturi hamda ushbu dasturni yanada rivojlantirish maqsadida "Ekologik-huquqiy javobgarlik", "Yer huquqi muammolari", "O'rmon huquqi", "Suv huquqi", "Tog' huquqi" kabi maxsus o'quv kurslari dasturlari ishlaniib chiqildi va tasdiqlandi.

Hozirgi kunda "Tabiat-jamiyat tizimidagi o'zaro munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning ilmiy-amaliy asoslar "Ekoliya huquqi" fani asosida olib borilmoqda.

3. Ekoliya huquqining asosiy yo`nalishlari va predmeti

Tabiat va jamiyat o`rtasidagi o'zaro ta'sirlar natijasida turli ijtimoiy munosabatlar paydo bo`ladi. Ushbu sohada ijtimoiy munosabatlarni biz ijtimoriy-ekologik munosabatlar deb ataymiz.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ijtimoiy-ekologik munosabatlar shakli, mazmuni jihatdan turli-tuman bo`lib, ushbu munosabatlarni tartibga solishda ham keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilishini taqozo etadi.

Ijtimoiy-ekologik munosabatlarni yo`nalishlarini ilmiy jihatdan asoslangan holda oqilona aniqlash o'z navbatida, ushbu munosabatalrn tartibga solish huquqiy mexanizmini ixchamlashtiradi va amalga oshirishga yordam beradi.

Bugungi kunda tabiat-jamiyat tizimidagi ijtimoiy munosabatlar uchta quyidagi asosiy yo`nalishlarda paydo bo`ladi:

1. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bilan bog`liq ekologik - huquqiy munosabatlar;

2. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan bog`liq ekologik-huquqiy munosabatlar;

3. Aholini ekologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ekologik-huquqiy munosabatlar.

Ushbu ekologik-huquqiy munosabatlar yo`nalishlari o'z mazmun-mohiyatiga ko`ra bir-biri bilan chambarchas bog`liq bo`lib, jamiyatning tabiat bilan o'zaro ta'sirlar tizimida tutgan o'mi muammolarni hal qilishda qo'llaniladigan chora tadbirlari, usulblari va o'ziga xos xususiyatlari bir-biridan farq qiladi.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish - yer, yer osti boyliklari, suv, o'rmon, hayvonot va o'simlik dunyosi hamda atmosfera havosim muhofaza qilish, tabiiy hosilalar va ekologik komplekslarni saqlash, qayta tiflash, atrof muhitning biologik xilma-xilligini ta'minlash bilan bog'liq qoidatalab, chora-tadbirlarini , , ig'indisi hisoblanadi. Ayniqsa, XX asrda tabiiy muhitni muhofaza qilish yo'naltshiga katta e'tibor beriliib, har bir davlatda turli dastur, rejalar va qonunchilik hujjatlari qabul qilingandir.

Atrof tabiiy muhiini muhofaza qilish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari, qoida-talablari muhofaza ahamiyatidagi ijtimoiy-ekologik munosabatlarni tartibga soladi.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish deganda, jamiyat a'zolaring o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida tabiatning foydali qismlarini o'zlashtirishi tushuniladi.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tizimi - jamiyatning turli ehtiyojlarini qondirish maqsadida yer, yer osti boyliklari, suv resurslari, atmosfera havosi, o'simlik va hayvonot dunyosidan foydalanishga qaratilgan ilmiy jihatdan asoslangan davlat dastur va rejalar, qonunchilik hujjatlari qoida-talablari asosida tartibga solinadi.

Tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq umummajburiy qonunchilik hujjatlari qoida-talablari foydalanish ahamiyatidagi, ijtimoiy – ekologik munosabatlarni tartibga soladi.

Ekologik munosabatlar tizimida tabiiy resurslar, ya'ni yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosidan foydalanish keng va muhim o'rinni egallaydi. Chunki, juda qadimdan inson tabiatdan foydalanib kelinoqda va tabiiy resurslardan foydalanishning miqdori, muddati va tartibi har bir davlatda qat'iy ravishda belgilanib, tobora rivojanib bormoqda. Chunki, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik oqibatida tabiatda turli ekologik muammolar paydo bo'lishi va ekologik inqirozning keskinlashishiga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun ham respublikamiz mustaqilligining dastlabki kunlidan boshlab, tabiiy resurslardan faqat ilmiy jihatdan asoslangan, ya'ni oqilona foydalanish chora-tadbirlar tizimi orqali amalga oshirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash - antropogen ta'sirlar natijasida paydo bo'ladigan ekologiya vaziyati va ofati mintaqalarida baiqaror tabiiy muhitni saqlash, aholining hayoti va sog'ligiga ta'sir ko'rsatuvchi ekologik xavfli va zararli ta'sirlarni oldini olish bilan bog'liq keng qamrovli chora-tadbirlar tizimidan iborat.

Ekologik xavfsizlik bilan bog`liq muammolar va ularni bartaraf etish bilan bog`liq chora-tadbirlar 1980-1985-yillarda namoyon bo`lib, amalga oshirib kelinmoqda.

Ekologik xavfsizlik o`n yillar davomida respublikamiz hududida tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik va tabiatni muhofaza qilish qoida-talablariga muntazam amal qibmaslik sharoitida xalq xo`jaligi sohalarida olib borilgan ishlab chiqarish jarayoni natijasida yuzaga keldi. Demak, yer, yer osti boyliklari, suv, o`rmon, hayvonot, o`simlik dunyosi va atmosfera havosini muhofaza qilish va foydalanish kabi daylat ekologik siyosatining ikki muhim yo`nalishlaridagi qoida-talablarint ta'minlamaslik o`z navbatida, tabiat-jamiyat tizimida yangi yo`nalishi hisoblangan aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash bilan bog`liq huquqiy munosabatlarni paydo bo`lishga sabab bo`ladi.

Ekologik xavfsizlik - tabiat-jamiyat tizimining barqaror holati bo`lib, bunda atrof tabiiy muhit, tabiiy resurslar holati, jamiyat hayoti va inson sog`ligiga xavfli ta'silarni oldini olish va bartaraf etish tizimini ko`zda tutadi.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan bog`liq huquqiy munosabatlarni tizimi - atrof tabiiy muhit barqarorligi, aholining sog`ligiga xavfli ta'sir etuvchi omillarni kamaytirish, oldini olish, cheklash va bartaraf etishga qaratilgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohadagi quyidagi chora-tadbirlarni o`z ichiga oladi:

- ekologik xavfli hudud, ekologiya ofati mintaqalarini aniqlash;
- eklogiya ekspertizasini joriy etish;
- ekologik xavfli va zararli ishlab chiqarish obyektlarini passportlashtirish;
- xavfli va zararli ishlab chiqarish turlari faoliyatiga ruxsatnomalar berish;
- tabiiy ofat, sel, tosbqin va texnogen avariyalarni aniqlash, oldini olish;
- aholining ekologik-huquqiy madaniyatini oshirish;
- aholining sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaxshilash va boshqalar.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yuqorida tavsiflangan ekologik huquqiy munosabatlarni davlat ekologik siyosatining asosiy yo`nalishlarni tashkil etadi.

Ekologiya huquqi bir-biri bilan chambarchas bog`liq bo`lgan ekologik huquqiy munosabatlarning birligi va yaxlitligi asosida namoyon bo`ladi.

Ma'lumki, har bir fan shu jumladan huquq sohasi o'ziga tegishli ijtimoiy munosabatlar tizimini o'rghanish va tartibga solish nazariv-amaliy qoida-talablar tizimiga ega bo'lib, ushbu fanning predmetini tashkil etadi.

Ekologiya huquqi huquq tizimining alohida sohasi sifatida ijtimoiy-huquqiy munosabatlar yo`nalishlarini o'rghanish va tartibga solishni qamrab oluvchi o'z predmetiga egadir.

Ekologiya huquqining predmeti - atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash jarayonida paydo bo`ladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tomondan tartibga solishdan iboratdir.

4. Ekologiya huquqining tamoyillari, usullari va tizimi

Har bir fan sohasi, shu jumladan ekologiya huquqi fani ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish jarayonida o'z yo`nalishlari, ya'ni tamoyillarga ega bo'lib, o'z navbatida har bir fan sohasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqadi.

Ekologiya huquqining tamoyillari - tabiat-jamiyat tizimidagi o`zaro munosabatlar yo`nalishi, chegaralarini belgilab berishda ekologik-huquqiy mexanizmining barqarorligini kafolatlashda va qonunchilik qoida-talablarning ekologik munosabatlarni tartibga solish tartibini belgilashda muhim ahamiyatga egadir.

Bizga ma'lumki, ekologiya huquqi tabiat bilan jamiyat o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni huquqiy tartibga soladi. Shu jumladan, tabiatning imkor etib bo`lmaydigan qonuniyatlarini va ijtimoiy xatti-harakatlari tartibga soluvchi jamiyat-davlat qonunlari mavjud - ekologiya huquqi tamoyillarining asosiy vazifasi shundan iboratki, tabiiy qonuniyatlarining ustuvorligini tan olgan holda jamiyat a'zolarining tabiatga bo`lgan xatti-harakatlarini ilmiy asoslangan holda yo`naltirishdan iboratdir.

Tabiat va jamiyat o`rtasidagi o`zaro munosabatlar juda xilma-xil va murakkab bo`lganligi uchun ham ekologiya huquqining tamoyillarini quyidagi tizimga bo`lishimiz mumkin.

1. Davlat va huquqning umumiy tamoyillari;
2. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga oid tamoyillar;
3. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishiga qaratilgan tamoyillar.

Ekologiya huquqi huquq tizimining sohasi sifatida ekologik munosabatlarni tartibga solishda davlat va huquqning quyidagi tamoyillaridan toydalananadi:

- Qonuniylik;
- Ijtimoiy adolat;

- Oshkoralik;
 - Ishontirish va majburlov choralarining hamkorligi;
 - Shaxslarning huquq va burchlarining birligi va boshqalar.
- Atrof tabiiy muhit barqarorligini ta'minlash va tabiatni muhofaza qilishning asosiy tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:
- Biosfera va ekologiya tizimlari barqarorligi hozirgi va kelguchi avlodning genetik fondini saqlash;
 - Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishda tabiat qonumiylarini ustuvorligini tan olish;
 - Fuqarolarning hayot uchun qulay tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash;
 - Jamiyatning ekologik, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy mantaatlarni uyg`unlashtirish;
 - Tabiatni muhofaza qilish sohasida milliy, mintaqaviy va xalqaro uyg`unlashtirish;
 - Tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarining tabiiy resurslardan foydalanish tadbirlaridan ustuvorligini tan olish;
 - Tabiatni muhofaza qilish taoliyatini rag`batlantirish;
 - Tabiiy resurslar holatini tiklash majburiyligi;
 - Ekologiya ekspertizasini o'tkazishning majburiyligi;
 - Ekologik qonunchilik qoidalarni buzganlik uchun javohgarlikning qo'llanilishi va boshqalar.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar quyidagi tamoyillar doirasida tartibga solnadi:

- Tabiiy resurslardan faqat ilmiy asoslangan holda oqilona foydalanishning zarurligi;
- Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish faoliyatini rag`batlantirish;
- Yet, yer osti boyhlklari, o'simlik va hayvonot dunyosidan maxsus foydlanganlik uchun haq to'lash va umumiy asosda foydlanganlik uchun haq to'lamaslik;

- Yerlardan belgilangan toifalar doirasida maqsadli foydalanish;
- Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerkarning ustivorligi;
- Tabiiy resurslar kadastrini yuritish majburiyligi va boshqalar.

Tabiat va jamiyat o'rta sidagi o'zaro munosabatlar, davlat va ekologik funksiyasi ushbu tamoyillar asosida va doirasida amalga oshirilib, atrof tabiiy muhit barqarorligini ta'minlash, aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

Ekologiya huquqi o'z predmeti, yo`nalishlari, maqsad va vazifalariga ega bo`lgani kabi o'z usullariga ham ega, ushbu usullar tabiat-jamiyat tizinidagi ijtimoiy munosabatlar holatiga ta'sir efish orqali katta ahamiyat kach etadi.

Hozirgi paytda ekologik munosabatlar qatnashayotgan jismoniy va yuridik shaxslar xatti harakatlarni to`g`ri yo`nalshtirish uchun turli usullar qo'llanilib, ularning ko`lami ortub borimoqda.

Ekologik huquqiy munosabatlar tizimida quyidagi usullardan foydalaniladi:

- 1. Ekologizatsiyalashtirish**
- 2. Ma'muriy-huquqiy**
- 3. Fuqaroviyl-huquqiy**

Ekologizatsiyalashtirish usuli bugungi kunda jamiyat hayotining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'nnaviy-mafarifiy jabhalariga tobora kirib borib, tabiat qonuniyatlarining ustivorligini ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarining ishlab chiqarish jarayoniga qo'llanilishi sog`lom ekologik muhitga erishish zaruriyatini oldimizga qo`ymoqda, ushbu usul orqali shaxs, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarining ekologik qoida-talablar asosida olib borishini taqozo etadi.

Ma'muriy-huquqiy usul davlat va huquqning muhim usullaridan biri bo`lib, davlatning majburlov chora-tadbirlarining qo'llanilishda namoyon bo`ladi.

Ekologiya huquqida ma'muriy-huquqiy usul keng qo'llanilib, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan ogilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlovchi qoida-talablarning belgilishi, barcha yuridik va jismoniy shaxslari tormonidan qabul qilinishining majburiyligi, ekologik qoida-talablarni buzganlik uchun javobgarlik chora-tadbirlarining qo'llanilishida katta ahamiyatga egadir.

Fuqaroviyl-huquqiy usul ekologiya huquqida tobora rivojlanib borayotgan usul sifatida bevosita ekologik-huquqiy munosabatlar ishtiroy-chilarining tengligi, mulkning daxlsizligi, moddiy rag`batlantirish, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishda iqtisodiy chora-tadbirlarning qo'llanilishda namoyon bo`ladi.

Ekologiya huquqi – tabiat-jamiyat tizinidagi murakkab munosabatlarni tartibga soladi, shuning uchun ham turli tushunchalar, institutlar, toifalar keng qo'llanib, ekologik huquqiy qoida-talablarni qo'llanilishi va mazmunini ochib berishga xizmat qiladi.

Ekologik huquqiy munosabatlar tizimini o'rganishni oson bo'lishi uchun o'ziga xos institut, toifa va nazariy qoidalari majmuini birlashtirgan holda ekologiya huquqi o'z tizimiga ega.

Ekologiya huquqining tizimi - ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati va mazmuniga ko'ra asosiy institut, toifa va nazariy-huquqiy masalalarning ma'lum tartibda joylashishidir.

Biz murakkab ekologik huquqiy munosabatlar yo`nalishlarini tahlil qilish va o`rganishni yengillashirish maqsadida ekologiya huquqi tizimini ikki qismi, ya'ni umumiy va maxsus qismiga bo`lib o`rganamiz.

Ekologiya huquqining umumiy qismi

- tabiat va janiyat o`rtasidagi o`zaro bog`liqligi;
- ekologiya huquqining tushunchasi, predmeti va tizimi;
- tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi;
- ekologiya sohasida davlat boshqaruvi;
- ekologiya nazorati va ekologiya ekspertizasining huquqiy holati;
- ekologiya qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik kabi mavzularni;

o`z ichiga olib, tabiatni muhofaza qilish va ulardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari, huquqiy asoslari, ekologik-huquqiy mexanizmi va uning elementlarining umumiy ekologik-huquqiy qoidalarni belgilaydi.

Maxsus qismi esa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bilan bog`liq quyidagi:

yerlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishning huquqiy holati;

- suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishning huquqiy holati;

- yer osti boyliklarining huquqiy holati;

- o'simlik dunyosidan foydalanish va muhotaza qilishning huquqiy holati;

- hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishning huquqiy holati;

- atmosfera havosini muhofaza qilishning huquqiy holati;

- muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy holati;

xalq xo'jaligi sohalari va aholi punktlarida atrof tabiiy muhitni huquqiy muhofaza qilish;

- atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish kabi har bir tabiat obyektingin huquqiy holatini qamrab oluvchi maxsus ahamiyatdagি ekologik-huquqiy qoidalarni o`z ichiga oladi.

III BOB. EKOLOGIYA HUQUQINING MANBALARI

1. Ekologiya huquqi manbalarining tushunchasi, xususiyatlari va tizimi

Har bir fun, huquq sohasi o‘z manbalariga ega bo‘lib, ushbu manbalar asosida rivojlanadi.

Tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga solishda yordam beradigan, qatnashadigan huquqiy hujjatlar ekologiya huquqining manbasi sifatida qaratishi mumkin.

Ekologiya huquqining manbalari sifatida me'yoriy-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, har qanday huquqiy hujjat manba bo‘lib xizmat qilmaydi.

Ekologiya huquqining manbasi sifatida qaralayotgan huquqiy hujjat quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Vakolatli davlat organlari tomonidan qabul qilinganligi;
2. Belgilangan doirada majburiy ahamiyat kasb etishi;
3. Ekologik qoida-talablarni belgilashi;
4. Rasmiy shakl, tuzilish, amal qilish muddatlari va boshqa atributlarga ega bo‘lishi, hokazo.

Ekologiya huquqining manbalari deganda - atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda xizmat qildigan qonunchilik hujjatlari tushuniladi.

Ekologik munosabatlarni tartibga soluvchi konstitutsiyaviy qoidalar, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qatorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari hamda mahalliy davlat hokimiyat organlarining me'yoriy hujjatlari yig`indisi ekologik qonunchilik hujjatlari tizimini tashkil etadi.

Ekologiya huquqining manbalari keng qamrovli ijtimoiy munosabatlarni tartibiga solishi uchun ham ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Yuridik kuchi bo‘yicha manbalarni qonunlar va qonunosti me'yoriy hujjatlarga bo‘linadi.
2. Ekologik munosabatlarni tartibga solish yo‘nalishlari bo‘yicha:
 - tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi;
 - tabiiy resurslardan oqilona foydalanish qonunchiligi;
 - aholining ekologik xavfsizligini ta’minlash qonunchiligi.

3. Munosabatlarni tartibga solish predmeti bo`yicha:
 - umumiy va maxsus ekologik qonunchilik hujjatlari.
4. Huquqiy tartibga solish holati bo`yicha moddiy va protsessual ahamiyatidagi qonunchilik hujjatlari.
5. Qonunchilik hujjatlarining tizimi bo`yicha oddiy kodifikatsiya-lashgan manbalar.
6. Qonunchilik hujjatlarining qo`llanilish doitasi bo`yicha:
 - budodiy mintaqaviy
 - respublika miqqosida
 - xalqaro miqqosidaga manbalar va hokazo.

Demak ekoliya huquqining manbalari ekologik munosabatlarni tartibga solishda tabiiy qonunlar va jamiyat qonunchilik hujjatlarini mujassamlantirgan holda tartibga soladi. Bu esa o`z navbatida ekologik qonunchilik hujjatlarining hajmini ko`payishiga olib keladi.

Tabiat-jamiyat tizimida o`zaro munosabatlarni tartibga solishda bir tomondan qonun, farmon, qaror, nizom kabi me'yoriy hujjatlar, ikkinchi tomondan, ushbu qonun hujjatlarini qo`llanilishiga yordam berish va davomiyligini ta'minlashda ekologik normativ, standart va yo`riqnomalar kabi minglab me'yoriy-texnik ahamiyatidagi hujjatlar qo`llaniladi.

Ekoliya huquqining manbalari boshqa huquq sohalari manbalariga chambarchas bog`liq bo`lib, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish tamoyillari, usullari, qoidalarini qo`llashda umumiylikka egadir.

Lekin shuning bilan bir qatorda o`ziga xos xususiyatlarga ham ega bo`lib, boshqa huquq sohalari qonunchilik hujjatlari mazmun-mohiyatidan farq qiladi.

Ular muhim ahamiyatga ega bo`lib, birinchidan, ekoliya sohasida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda tabiiy qonuniyatlar ustuvorligini e'tirof etadi, ikkinchidan, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda jamiyat-davlatning mavjud barcha vosita va tadbirlaridan foydalanadi.

Ekologik qonunchilik hujjatlari birinchidan, tabiatning ustivor qonunlarini jamiyat-davlat qonunchilik hujjatlari bilan mujassamlantiradi. ikkinchidan, tabiatni muhofaza qilish va ulardan foydalanishning huquqiy holatini belgilash va kafolatlashda boshqa huquq sohalari ya`ni konstitu tsiyaviy huquq, ma`muriy huquq, mehnat huquqi, moliya huquqi, qishloq xo`jalik huquqi, jinoyat huquqi va fuqarolik huquqi kabilarining qonunchilik hujjatlari qoida-talablarini ekologik masalalarni hal qilishga yo`naltiladi.

Demak, ekologiya huquqining manbalari atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, abolinig ekologik qo'shisizligini ta'minlash bilan bog'liq jarayonlarda paydo bo'ladijan imtoiy munosabatlarni tartibga soladigan qonunchilik hujjatlari tizimidan olib.

Ekologik qonunchilik hujjatlari murakkab tizimga ega bo'lib, o'z mun-mohiyatiga ko'ra biz ularni o'rghanishni oson bo'lishi uchun urchasay qismga bo'lib o'rGANAMIZ:

1. Ekologiya huquqining konstitutsiyaviy asoslari;
2. Ekologiya sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunlari tizimi;
3. Ekologiya sohasidagi qonunosti me'yoriy hujjatlar tizimi.

2. Ekologiya huquqining konstitutsiyaviv asoslari

Ekologiya huquqining asosiy manbasi bo'lib O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hisoblanadi.

Konstitutsiyamizda shaxs, jamiyat va davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma'rifiy sohalaridagi asoslari mustahkamlangan bo'lib, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha davlat-huquqiy mexanizmining shakllantirishda suhim ahainiyatga ega hisoblanadi.

Shuning uchun ham Konstitutsiyada belgilangan qoidalar orqali jismoniy va yuridik shaxslar ekologik huquq, burchlari va erkinliklarini itoda etadilar.

Shuni alohida ta'kidlash joizki O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida tabiat-jamiyat tizimidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus qoida-talablar ham belgilangan bo'lib, ekologiya huquqi manbarining poydevorini tashkil etadi.

Asosiy qonunimizning 50, 54, 55 va 100-moddalarida tabiatni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarimizdan oqilona foydalanish bilan bog'liq ekologik qoida-talablar mustahkamlangandir.¹

Konstitutsiyamizning 50-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhit - ehtiyojkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar" – deb, belgilanib fuqarolarning ekologik majburiyatlarini konstitutsiya darajasida mustahkamlaydi.

"Jamiyatning iqtisodiy negizlari" – deb nomlangan XII-bobda, respublikamiz hayotining iqtisodiy asoslari ya'nii mulkchilik masalalari,

xo`jalik yuritish va tadbirkorlik faoliyatining kafolatlari belgilamb, hozirgi paytda bozor munosabatlarni rivojlantunsh amalga oshirilayotgan islohotlarni chiqurlashtirishda ahamiyati beqiyosdir.

Ushbu bobning 54-moddasida quyidagicha belgilangan: “Mulk-dor mulkiga o`z xohishicha egalik qiladi, undan toydalani va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo`riqlanadigan mansaftlarini buzmasligi shart”.

Ushbu moddada birinchidan, mulk huquqining mazmuni e'tirof etilsa, ikkinchidan, mulkdan foydalanish huquqiga ega bo`lgan jismoniy va yuridik shaxslarning xo`jalik va ishlab chiqarish jarayonida ekologik muhitga ziyon yetkazmasligi ya`ni ularning ekologik majburiyatlar mustahkamlanadi.

Konstitutsiyaning 55-moddasida “Yer, yer osti boyliklari, suv, o`simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umum-milliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir” deb ifodalangan bo`lib, davlat ekologik siyosatining asosiy tamoyillarini o`z ichiga oladi.

Ushbu konstitutsiyaviy qoidaning ahamiyati shundaki, birinchidan, mustaqilligimizning moddiy asosini tashkil etuvchi tabiiy boyliklarning xalqimizning boyligi, mulki ekanligi, ikkinchidan, tabiiy resurslardan faqat oqilona foydalanish zarurligi, uchinchidan, respublikamiz tabiatini davlat muhofazasiga olinganligi, ya`ni ekologik-huquqiy inunosabatlarni davlat tomonidan kafolatlanishi kabi muhim tamoyillarni mustahkamlaydi.

Asosiy qonunimizning XXI bobida mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqiy holati belgilangan. Ushbu bobning 100-moddasida mahalliy davlat hokimiyat organlari vakolatlarining asosiy yo`nalishi sifatida - atrof muhitni muhosaza qilish kabi ma'suliyyati e'tirof etilgan.

Konstitutsiyadagi qoida talablar ekologik huquqiy munosabatlar tizimidagi asosiy tamoyillarni mustahkamlaydi.

Ushbu konstitutsiyaviy tamoyillar asosida atrof tabiiy muhitni muhosaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qonun, farmon, qaror, nizomlar kabi me'yoriy-huquqiy nujsatlar qabul qilinadi.

3. O'zbekiston Respublikasi qonunlari-ekologiya huquqining maxsus maobasi sifatida

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qoida-talablari va tamo'yillari asosida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qonunlar qabul qilinadi.

Asosiy qonunimizda davlat ekologiya siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilansa, ushbu konstitutsion qoidalarga mos ravishda qabul qilingan qonunlarda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslar dan oqilona foydalanishning talablari, mexanizmi mustahkamlanadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng O'zbekiston Respublikasining qo'yidagi qonunlar qabul qilindi:

1. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida" gi qonuni;
3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida" gi qonuni;
4. O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" gi qonuni;
5. O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'ristda" gi qonuni;
6. O'zbekiston Respublikasining "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" gi qonuni;
7. O'zbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" gi qonuni;
8. O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi";
9. O'zbekiston Respublikasining "Yer osti boyliklari to'g'risida" gi qonuni;
10. O'zbekiston Respublikasining "Davlat yer kadastri to'g'risida" gi qonuni;
11. O'zbekiston Respublikasining "O'rmon to'g'risida" gi qonuni;
12. O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza to'g'risida" gi qonuni;
13. O'zbekiston Respublikasining "Metrologiya to'g'risida" gi qonuni;
14. O'zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to'g'risida" gi qonuni;

15.O'zbekiston Respublikasining "Xizmat va mahsulotlarni sertifikatlashtirish to`g`risida" gi qonuni;

16.O'zbekistou Respublikasining "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to`g`risida" gi qonuni;

17.O'zbekiston Respublikasining "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to`g`risida" gi qonuni;

18.O'zbekiston Respublikasining "Radiatsiya xavfsizligi to`g`risida" gi qonuni;

19.O'zbekiston Respublikasining "Chiqindilar to`g`risida"gi qonuni va boshqalar.

Ushbu qonunlarda tabiatni muhofaza qilish, tabiiy obyektlardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash bilan bog`liq ijtimoiy munosabatlarning maqsadi, vazifasi, obyekti va subyektlari, tabiiy resurslarning huquqiy holati, ushbu sohada yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari, majburiyatları, erkinliklari, katolatlari va vakolatlari, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish tartibi, muddati va talablari, ekologik qonunchilik talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlik chora-tadbirlari kabi ekologik-huquqiy qoida talablari belgilangandir.

Shuning uchun ham yuqorida ta'kidlangan O'zbekiston Respublikasining Qonunlari ekologik munosabatlarni tartibga solish uchun qabul qilingan bo`lib, ekoliya huquqining maxsus manbasi sifatida e'tirof etiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tabiat-jamiyat tizimidagi o`zaro ta'sirlar, ya'ni ekologik ijtimoiy munosabatlarning doirasi keng va munak-kab bo`lib, ularni tartibga solish jarayonida jamiyat va davlat hayotining barcha vositalaridan foydalanadi, ya'ni nafaqat ekoliya huquqining maxsus qoida-talablaridan, balki boshqa huquq sohalarining qoida-talablarini muvofiqlashtirgan holda qo'llaniladi.

Demak, ekologik huquqiy mexanizmni ta'minlashda turli huquq sohalarining quyidagi me'yoriy hujjatlari ham ekoliya huquqining manbasi sifatida ham qaraladi:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi;
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi;
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi;
4. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi va boshqalar.

Ushbu qonun hujjatlari ham ekologik qoida talablarni belgilagan holda ekologiya huquqidagi maxsus qoida-talablar bilan bog'liq ravishda ekologik qonunchilikni buzganlik uchun intizomiy, ma'muriy, jinoiy, fuqarolik javobgarlikni qo'llash, tabiatdan foydalanganlik uchun soliq va turli to'lovlarini to'lash bilan bog'liq jarayonlarni tartibga soladi.

Ekologiya sohasidagi O'zbekiston Respublikasining Qonunlari davlat ekologik-huquqiy mexanizmini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, qonun osti me'yoriy hujjatlar bilan o'zaro bog'liq ravishda ekologik munosabatlarni tartibga soladi.

4. Qonun osti me'yoriy hujjatlarning ekologiya huquqidagi tutgan o'rni va ahamiyati

Ekologiya huquqining manbalari tizimida qonunosti me'yoriy hujjatlarning tutgan o'rni beqiyosdir. Hammamizga ma'lumki, konstitutsiyaviy tamoyillar va O'zbekiston Respublikasining qonunlarida tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalananish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashning umumiy va maxsus qoida-talabari belgilanadi, mavjud ekologik munosabatlar tartibga solinadi.

Lekin, ekologik huquqiy munosabatlar doimo o'zgaruvchan, rivojanib turadigan tabiat-jamiyat o'rtaida paydo bo'ladi. Ayniqsa, muhim tabiiy obyektlarimiz hisoblangan yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi va atmosfera havosi o'zaro bog'liq holda doimiy o'zgaruvchan bo'lib, respublikamizning turli mintaqaga va hududlarida har xil tabiiy holatda mavjuddir. Shuning uchun ham respublikamiz viloyat, shahar va tumanlarining tabiiy holati bir-biridan farq qiladi. Ushbu hududda tabiatni muhofaza qilish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalananish qoida-talablarini belgilash va amalda qo'llashda mahalliy tabiiy o'zgaruvchan hududlarning holati, o'ziga xos-xususiyatlari e'tiborga olinishi juda muhim hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, amaldagi aksariyat asosiy qonunlarimiz o'zgaruvchan, turli tabiiy hududlarimizning o'ziga xos-xususiyatlarni belgilashning iloji yo'q. Mana shunday sharoitda qonunlarda mustahkamlangan qoida-talablarini mahalliy tabiiy hududlarda qo'llashda, ekologik muammolarni hal qilishda qonun osti me'yoriy hujjatlardan foydalaniлади.

Demak, qonun osti me'yoriy hujjatlarimizning asosiy maqsadi va vazifasi, konstitutsiyaviy tamoyillar, qonunlarda belgilangan maxsus qoida-talablarini amalda qo'llanilishini osonlashtirish, ma'muriy

hududlarning tabiiy holati asosida me'yoriy qoida-talablarni belgilash, ularning hayotiyligini ta'minlash va asosiy qoida-talablarni barcha yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazishdan iborat bo`ladi.

Ekoologiya huquqining qonun osti me'yoriy hujjatlari ham mu'akkab tizimga ega bo`lib, ekologik me'yorlar doirasi, co'llanilishi tartibi, amal qilish imuddati hamda markaziy va maxsus davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyat organlari tomonidan qabul qilish ahamiyatiga ko`ra quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo`lishi mumkin.

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari;

2. Maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlarining me'yoriy hujjatlari (qaror, nizom, yo`riqnomma, normativ va standartlar).

3. Mahalliy davlat hokimiyat organlarining me'yoriy hujjatlari.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari amaldagi qonun hujjatlari asosida qabul qilinib, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurlardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan bog`liq qoida-talablarni belgilaydi va begilangan doirada umum majburiy ahamiyat kasb etadi.

Xususan, Respublika yer fondidan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida "Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilingan bo`lib, yer qonunchiligini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ekologiya sohasida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 28-oktabr 508-sonli "Biologiya resurslaridan oqilona foydalanish, ularni O`zbekiston respublikasiga olib kirish va uning tashqarisiga olib chiqish ustidan nazoratni kuchaytirish to`g`risida"gi qarori;

"O`zbekiston Respublikasining Biologik rang-baranglikni saqlash bo`yicha milliy strategiyasi va harakatlar rejasi to`g`risida"gi 1998-yil, 1-aprel, 139-sonli qarori; "Chimyon - Chorvoq zonasiga tabiiy boyliklarini saqlash hamda hududni o`zlashtirishga kompleks va izchillik bilan yondoshishni ta'minlash chora-tadbirlari to`g`risida"gi 2000-yil 10-mart, 83-sonli qarori va boshqa yuzlab yer, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalamish bilan bog`liq qarorlarining ahamiyati kattadir.

Ushbu sohadagi farmon va qarorlar begilangan doirada vazirlik, davlat qo`mitalari, idoralar, korxona, tashkilot, muassasalar va jismoniy shaxslar uchun me'yoriy ahamiyat kasb etadi.

Ekologiya sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari hisoblangan O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasining sog'lioni saqlash vazirligi. O'zbekiston Respublikasining Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi kabi organlari o'z vakolatlari doirasida me'yoriy hujjatlarni qabul qilib, ma'lum tabiat obyekti sohasidagi ekologik qoida talablarni belgilaydi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi yer, yer osti boyliklari, o'simlik va bayvonot dunyosi, atmosfera havosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish tartibini belgilaydigan ekologik normativ, standartlarni tasdiqlaydi, nizomlar va yo'riqnomalarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi shart bo'lgan qarorlar qabul qiladi va hokazo.

Ekologik qonunchilik hujjatlari tizimida mahalliy davlat hokimiyat organlarining me'yoriy hujjatlari har bir viloyat, shahar, tuman hududida tabiatni muhofaza qilish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish bilan bog'liq qoida talablarni belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 100-moddasiga asosan mahalliy davlat hokimiyat organlarining asosiy vakolatlari tizimida atrof muhitni muhovaza qilish belgilangan bo'lib, ushbu sohada ularning ma'suliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, mahalliy davlat hokimiyat organlarining tabiatni muhofaza qilish bo'yicha, egalik va foydalanish uchun yer, o'rmon uchastkalarini ajratib berish, tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun mahalliy soliq-to'lovlarini joriy etish bilan bog'liq qarorlarni qabul qilib, ushbu hudud-dagi barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun umumajburiy ahamiyat kasb etadi.

Demak, qonun osti me'yoriy hujjatlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, konstitutsiyaviy tamoyillar va qonun hujjatlarini qo'llamishini va ularning hayotiyligini ta'minlab ekologiya huquqi manbalarini yanada takomil lashtirishga xizmat qiladi.

IV BOB. TABIIY RESURSLARGA NISBATAN MULK HUQUQI

1. Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi tushunchasi va uning yususiyatlari

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida yer, yer osti boyliklari, suv, o`simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir deb qayd etilgan. O`zbekistonning Asosiy qonuni tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi masalasini ularni umummilliy boylik deb tan olish yo`li bilan hal etgan. Tabiiy resurslar boshqa mol-mulk kabi O`zbekiston Respublikasining iqtisodiyotini rivojlantirishning moddiy asosidir.

O`zbekiston Respublikasi hududidagi yer, yer osti boyliklari, suv, o`simlik va hayvonot dunyosi, havo xavzasiga nisbatan mulk huquqi O`zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida, Yer kodeksida, "O`zbekiston Respublikasida mulkchilik to`g`risida"gi va tabiiy resurslar to`g`risidagi boshqa qonunlarda belgilangan.

Mulk huquqi tabiiy resurslarni kimiga tegishliligini va mulkdorlarning tabiiy resurslarga nisbatan vakolatlarini anglatadi. Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi mulkiy huquq obyektlarini egalik qilish, foydalanish hamda tasarruf etish jarayonlarida namoyon bo`ladi.

Tabiiy resurslarga yer, suv, yer osti boyliklar, o`simlik va hayvonot dunyosi kiradi. Ekologiya huquqi obyekti bo`lib, tabiat obyektlari, tabiiy resurslar va komplekslar hisoblanganligi sababli ekologik qonun hujjatlari bilan saqat tabiiy holatdagi obyektlarga mulkchilik munosabatlari tartibga solinadi. Masalan, "O`simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risida"gi qonunning 1-moddasiga va "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risida"gi qonunning 1-moddasiga muvofiq tabiiy sharoitda o`sadigan o`simlik va tabiiy erkinlik holatida yashaydigan yovvoyi hayvonlar yuzasidan vujudga kelgan munosabatlari mazkur qonunlar bilan tartibga solinadi.

O`zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq tabiiy resurslar asosan davlat mulki hisoblanadi. O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 214-moddasiga muvofiq yer, yer osti boyliklari, suv, havo bo`shlig`i, o`simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklar respublika mulki hisoblanadi. Ushbu kodeksning 170-moddasi yerga va boshqa tabiiy resurslarga bo`lgan mulk huquqi Fuqarolik kodeksi bilan birgalikda boshqa qonunlarda ham belgilanishini ko`zda tutadi.

Bundan tashqari, tabiiy resurslarga nisbatan mulkchilik masalasi Yer kodeksining 16 va 18-moddalarida, Yer osti boyliklar to`g`risidagi, Suv va suvdan foydalanish to`g`risidagi, "O`simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risida"gi, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risida"gi qonunlarning 3-moddasida, "O`zbekiston Respublikasida mulkchilik to`g`risida"gi qonunning 19-moddasida mustahkamlangan.

O`zbekistonda faqat ayrim hollarda, ya`ni Yer kodeksining 18-moddasida ko`zda tutilgan yer uchastkalari jismoniy va yuridik shaxslarning mulki bo`lishi mumkin. Shuningdek, "O`zbekiston Respublikasida mulkchilik to`g`risida"gi qonunning 19-moddasida yer (qonun hujjatlari na-zarda tutilgan hollarda, tartibda va shartlarda mulk qilib berilgan yerlardan tashqari), yer osti boyliklari, ichki suvlar, respublika hududi doirasidagi havo havzasi, o`simlik va hayvonot dunyosi O`zbekiston Respublikasining mutlaq mulki hisoblanadi.

Mulkchilik huquqi institutidagi ekologik va iqtisodiy belgilar o`zaro bog`liqdir. Yerni bir joyda ko`chmas mulk, boshqa joyda esa bizni o`rab turgan tabiiy muhitning tarkibiy qismi deb atash mumkin. Bir obyektda ham ekologik, ham iqtisodiy belgilarning omuxta bo`lib kelishi bu institutni xarakterlaydigan bir qator yangi, qo`shimcha belgilarni, ya`ni "moddiylashtirilganlik", "bebaho" kabi belgilarni paydo qiladi.

Atrof tabiiy muhitning tarkibiy qismi bo`lsalarda, o`zlarining obyek-tiv sifatlariga ko`ra o`zlashtirish yoki mulkka aylantirish ashyosi bo`la olmaydigan tabiiy zahiralar "moddiylashtirilmasdan" qoldiriladilar. Masa-lan, atmosfera havosi, iqlimiylar zahiralar va shunga o`xshagan tabiat ko`ri-nishlarini mulkka aylantirib bo`lmaydi. Ularning ba'zilaridan, masalan atmosfera havosidan davlatning tashqi chegaralarini, uning yurisdiksiya (sud qilish huquqisi) amalga oshiriladigan hududni belgilash maqsadida foydalanish mumkin. Bu holat endi mulkka emas, balki mustaqillikka, ya`ni iqtisodiy emas, siyosiy toifaga taalluqlidir. Shuning uchun ham "O`zbekiston Respublikasida mulkchilik to`g`risida"gi qonunning 19-moddasida mulk huquqining obyekti sifatida bevosita atmosfera havosi emas, balki havo havzasi belgilangan.

Tabiiy obyektlar bilan mulkning bizni o`rab turgan tabiiy muhitdan ajaralmaslik xususiyatiga mos ravishda tabiiy va ijtimoiy obyektlar o`rtasidagi farq belgilanganadi.

Tabiiy obyekt bir vaqting o`zida ham tabiiy obyekt, ham mulk bo`lib qolaveradi va uni atrof muhitdan ajaratib bo`lmaydi. Ekologik bog`-liqlikning bunday yo`qotilishi tabiiy zahiralarga nisbatan mulkchilikning

to'xtatilishiga va qonuniy asoslar bo`lganda moddiy va ashyoviy boyliklarga nisbatan imulkchilik huquqini vujudga kelishiga sabab bo`ladi. Ammo bunda faqat qonuniy ravishda foydalanish jarayonida tabiiy resurs atrof tabiiy muhitdan chiqarilib olinsa, u foydalanuvchining mulki hisoblanadi. Masalan, "Hayvonot dunyosini mohofaza qilish undan foydalanish to`g`risida"gi qonunning 16-moddasida foydalanuvchilar tutib olingan hayvonot dunyosi obyektlariga nisbatan mulk huquqiga egadirlar. Bunda, ushbu qonunning 3-moddasiga asosan davlat mulki bo`lgan obyekt foydalanish jarayonida xususiy mulkka aylanadi.

Tabiiy resurslar inson tomonidan varatilmamasligi, ularning cheklangan miqdorda mavjudligini va eng asosiysi insonning xo`jalik va o`zga faoliyati natijasida ularning kamayib ketishi, nobud bo`lishi tabiiy obyektlarning bebaholigi yoki bahosini mavjud emasligini anglatadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tabiiy resurslardan foydalanishning iqtisodiy asoslariga e'tibor kuchayadi. Tabiiy obyektlarning haqiqiy bahosini amqlash murakkab, ammo bu yerlar va boshqa tabiiy obyektlarning pulga chaqilgan bahosi bo`lishini ham tabiatdan foydalanganlik uchun haq to`lash lozimligini inkor etmaydi. Amaldagi qonunlarda ham bu holat ko`rsatib o`tilgan. O`zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga muvofiq yeming normativ bahosi ma'lum sifatlari yer uchastkasining joylashishi va sitatini ko`rsatadigan ko`rsatkich sifatida aniqlanadi. Bunda belgilangan davrda olinishi mumkin bo`lgan eng katta foya ham nazarda tutilishi shart.

O`zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 28-moddasida shunday deyiladi: "O`zbekiston Respublikasida yerdan foydalanganlik uchun haq to`lanadi. O`z egaligida va foydalanishida hamda mulkida yer uchastkalari bo`lgan yuridik va jismoni shaxslar yer uchun haq to`laydilar. Yer uchun haq har yili to`lanadigan yer solig`i shaklida olinadi, uning miqdori yer uchastkasining sisatiga, joylashishiga va suv bilan ta'minlanish darajasiga qarab belgilanadi. Yer uchastkalari ijara berilganda yer uchun haq ijara haqi shaklida olinadi, uning miqdori taraflarning kelishuviga muvofiq belgilanadi, lekin u yer solig`i stavkasining bir baravaridan kam va uch baravaridan ko`p bo`lmasligi kerak, yerdan qishloq xo`jalik ehtiyojlari uchun foydalilanigan taqdirda yer solig`i stavkasining bir barvari miqdorida bo`ladi".

Yer, yer osti boyliklari, suv, o`simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklar - tabiatning asosiy obyektlari - asosan davlat mulkini tashkil etadi. Bu esa tabiiy zahiralarning o`ziga xos alohida mohiyati bilan, shuningdek tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va

ularning muhofazasini ta'minlash singari zamonaviy jamiyat oldida turgan vazifalarining murakkabligi bilan aniqlanadi.

Jamiyat ixtiyorida bo`lgan tabiiy boyliklardan olinadigan eng katta qayta davlatda tabiiy shart-sharoitlerni dunye miqyosida saqlab qolish, qayta tuzlash va yaxshilash ishlariiga uyg`un bo`lishi lozim, zero bu shart-sharoitlar odamlarning hozirgi va kelgusi avlodlari hayoti uchun maqbul bo`lmog`i shart. Bu masalalarni hal etish har kimning ham qo`lidan qo`lavermaydi, bundan tashqari ular alohida mulkdorlarning manfaatlariga ham mos emas.

Yer, yer osti boyliklari, suv va havo kengliklariga, nahotot va hayvonot dunyosiga nisbatan yagona mulkchilik huquqi tabiiy obyektlarni davlatdan ajratib bo`lmasligi shart qilib qo`yiladi. Bu obyektlarning belgilangan narxi, bahosi yo`q, shu sababdan ularning mahsulot yoki pul shaklidagi ekvivalenti mavjud emas. Qonunlarda ularni sotib olish yoki sotib yuborish mumkin emas deyilgan. Bu holat ularning yuqorida tilga olingan pul shaklidagi ekvivalenti yo`qligidan kelib chiqadi.

Yerga nisbatan mulk huquqi masalasiga alohida e'tibor berish kerak, chunki u agrar iqtisodiyotning o`q ildizidir. O`zbekiston aholisining 60 toizi qishloqlarda yashashini hisobga oladigan bo`lsak, yerga nisbatan mulk huquqi butun O`zbekiston iqtisodiyotini belgilovchi mezondir. Farixiy, yuridik va iqtisodiy manbaalardan ko`rish mumkinki, Markaziy Osiyoda yerga nisbatan mulkchilik huquqi klassik suratda mavjud bo`limgan, ya'ni ekin ekiladigan yerlarning asosiy qismi (sug` oriladigan yerlar) asrlar davomida davlatning irrigatsiya tizimi qaroviga muhtoj bo`lgan. L.S. Sobolev o`zining 1874-yilda chop etilgan maqolasida shunday yozgan: "Umuman olganda to`liq, mulk huquqi mavjud emas. Davlat ham, xususiy shaxslar ham yerga nisbatan mulk huquqiga ega emas, ammo ular uni cheksiz darajada idora etadilar. Musulmonlarning qonunlarida zarurligi hududning tabiiy o`ziga xosligi bilan izohlanadigan ma'lum shartlar bilan chegaralangan yerni tasarruf etish va undan foydalanish huquqi mavjud. Yerni tasarruf etish va undan foydalanishda shaxslar undan foya ko`rishi zarurligi qonun bilan shart qilib qo`yilgan".

Shu sababdan, hozirgi davrda yerni davlat mulki shaklida qoldirish maqsadga muvosiqidir. Qishloqdagi yangi bozor munosabatlari esa "Mulkdor bo`limgan shaxslarning ularga meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqi va yer uchastkasiga doimiy egalik qilish va undan foydalanish huquqi"ga asoslanadi (Fuqarolik Kodeksining 165-moddasi, "Dehqon xo`jaligi to`g`risida"gi qonunning 5-moddasi, Yer Kodeksining 17, 55-moddalari). Ammo O`zbekiston Respublikasi Prezi-

dentining 1994 yil 24 noyabrdagi "Yerlardan foydalanish samarasini oshirish to`g`risida"gi Farmoni va Yer kodeksining 23, 27 va 55-moddalari bilan yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini auksion asosida sotishga ruxsat berildi va shu qoida Yer kodeksida ham o`z aksini topgan.

O`zbekiston Respublikasi alohida agroiqlim sharoitida joylashgan. Yomg`ir yog`ishining nomuntazamligi, yerning xarakteri, shuningdek suv zaxiralarining bir maromda joylashmaganligi sababli alohida va shaxsiy xo`jaliklar qishloq xo`jaltk ishlarini amalga oshirolmaydilar. Faqat katta jamoalarning yaxshi tashkillashtirilgan va maqsadga yo`nalturilgan xattiharlartlari natijasidagina talabga mos darajada faoliyat ko`rsatadigan xo`jalik bunyod etishi mumkin. Yerni sotish va sotib olish esa bir maromda ishlab turgan irrigatsiya tizimining buzilishiga olib keladi.

Bundan tashqari, yer uchastkalari ulardan belgilangan maqsadda foydalanmaydigan va ularga ishlov bermaydigan shaxslar qo`liga o`tib qolishi mumkin.

Professor I.D. Jalilov shunday yozadi: "Davlat yerkari, qoida bo`yicha, dehqonlarga muddatsiz merosiy foydalanishga berib qo`yilgan edi. Ular yetishtirgan hosildan "xiroj" olinar, qishloq xo`jalik ekinlari ekilgan yerkarning hajmiga qarab esa "tanob" olinardi. Mamlakat "o`lpon" hukmdoridan boshqa bironta xususiy shaxs davlat yerkari (amlok)ga nisbatan mulk huquqini to`liq yoki vaqunchalik boshqaga berish bilan bog`liq bo`lgan fuqarolik huquqiy bitim va shartnomalar tuzishga haqli emasdi.

Bu yerkarni olib ishlab, ekin-tekin qiluvchilar amalda ijara chilardan bo`lak kishi emasdilar, yagona farq shunda ediki, bu ijara muddatsiz savdo-sotiq bo`lib, u belgilangan tartibda olib qo`yilishi mumkin edi".¹

2. Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqining obyektlari va subyektlari

O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 167-moddasiga ko`ra, O`zbekiston Respublikasida mulk xususiy mulk va ommaviy mulk shakllaridadir.

O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 214-moddasi tabiiy resurslarni davlat-ommaviy mulki deb tan olgan. Shu bilan birga mazkur moddada ular respublika mulki obyektlari sifatida ko`zda tutilgan. Yuqorida qayd etilganidek tabiiy resurslar asosan davlat mulki hisoblanadi. Shuning uchun ham tabiiy resurslarga mulk huquqining subyektı daylatdir.

¹I.D. Jalilov

payda bulish va tarakkivoti." T.Fan. 1970. 33-34 hetlar

Fuqarolik kodeksining 214-moddasi ikkinchi qismiga asosan respublika mulki bo`lgan mol-mulkni O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti, O`zbekiston Respublikasi Hukumati yoki ular maxsus vakil qilgan organlar, agar qonunlarda boshqaicha tarib nazarda tutilniagan bo`lsa, tasarruf qiladilar.

Tabiiy resurslarni davlat nomidan tasarruf etishni O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, hamda maxsus vakolatli davlat organlari amalga oshiradilar. Mazkur organlarning tabiiy resurslarni tasarruf etish bo`yicha vakolatlari Yer kodeksi va boshqa tabiiy resurslar to`g`risidagi qonunlarda hamda ular to`g`risidagi qonun hujjatlarida, masalan, mahalliy davlat hokimiyati organlarining yer munosabatlarini tartibga solish bo`yicha vakolatlari "Mahalliy davlat hokimiyati organlari to`g`risida"gi qonunda, O`zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasini o`simlik va hayvonot dunyosini tasarruf etish yuzasidan vakolatlari O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 26-aprelda tasdiqlangan ushbu qo`mita to`g`risidagi Nizomda belgilangan.

O`zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 18-moddasida yer uchastkasiga nisbatan xususiy mulk huquqi asosida berish hollari belgilangan. Shuni aytib o`tish lozimki, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq faqat mazkur normida qayd etilgan hollardagina tabiiy resursga, aynan yer uchastkasiga nisbatan yuridik va jismoniy shaxslarning mulk huquqi vujudga kelishi mumkin. Boshqa tabiiy resurslar faqat davlatning mulkidir. Yer kodeksining 18-moddasiga muvofiq yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo`lgan mulk huquqi quyidagi hollarda vujudga keladi:

1. Yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo`lgan mulk huquqi savdo va xizmat ko`rsatish sohasi obyektilari ular joylashgan yer uchastkallari bilan birga xususiylashtirilganda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vujudga keladi.

2. Diplomiya vakolatxonalarini va ularga tenglashtirilgan, O`zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan halqaro tashkilotlarning yer uchastkalariga mulk huquqi ularga o`zları vakolatxona binosi sifatida foy-dalanayotgan imorat yoki imoratning qismlari, shu jumladan vakolatxona boshlig`ining qarorgohi ular joylashgan yer uchastkalarini bilan birga, shuningdek mazkur vakolatxonalarining imoratlarini qurish uchun yer uchastkalarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda realizatsiya qilinganda vujudga keladi.

3. Chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning - diplomatiya korpusi xodimlarining, O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan matbuot vakillarining, firmalar, kompaniyalar va halqaro tashkilotlar doimiy vakolatxonalari xodimlarining, chet el investitsiyasi ishtirokida korxonalarda doimiy asosda ishlovchi shaxslarning, shuningdek respublikada doimiy istiqomat qiluvchi va yashash uchun guvohnomasi bo'lgan shaxslarning yer uchastkalari bilan birga qonun hujjatlatida belgilangan tartibda realizatsiya qilinganda vujudga keladi.

O'zbekistonda yer uchastkasiga nisbatan xususiy mulk huquqi quyidagi xususiyatlarga ega: birinchidan, "sof ko'rinishdagi" yer uchastkasiga mulk huquqi tan olinmagan. Yer uchastkasiga bo'lgan mulk huquqi shu yerda joylashgan bino va inshoottlar bilan bog'liq, masalan, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari bilan. Ikkinchidan, mulk egasi yer uchastkasiga nisbatan cheklanmagan huquqlarga ega emas, mulkdorning huquq doirasi yerda joylashgan obyektning maxsus yo`nalishda foydalanish bilan belgilanadi. Uchinchidan, ushu mulk boshqa shaxsga o'tganda ham uning yangi egasi yermi va shu joydu joylashgan obyektning maxsus yo`nalishda foydalanishini ta'minlashi sharti.

Shundan kelib chiqqan holda, yer uchastkalari bo'lgan mulk huquqining subyektlari bo`lib, yer va boshqa ko'chmas mulkdan maxsus yo`nalishda foydalanadigan yuridik va jismoniy shaxslar bo`lishi mumkin.

Tabiyy resurslarga nisbatan mulk huquqining obyektlari tabiiy resurslar hisoblanadi.

O'zbekistondagi yerlar yer fondini tashkil etadi. Yer kodeksining 8-moddasiga muvofiq barcha yerlar foydalanish maqsadlariga qarab sakkizta toifaga bo`linadi.

Xususiy mulk huquqining obyekti bo`lib yer uchastkasi hisoblanadi. Yer kodeksining 10-moddasiga binoan yer uchastkasi qayd etilgan chegaraga, maydonga, joylashgan manziliga, huquqiy rejimiga hamda yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarning davlat yer kadastr hujjatlarida aks etirilgan boshqa xususiyatlarga ega bo'lgan yer fondining qismidir.

"Suv va suvdan foydalanish to`g`risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunini 3 va 4-moddalariga muvofiq suvgaga nisbatan mulk huquqning obyekti bo`lib daryolar, ko`llar, suv omborlari, kanallar va boshqa suv obyektlaridagi suvlar hamda yer osti suvlar va muzliklar hisoblanadi.

Yer osti boyliklariga nisbatan mulk huquqining obyekti bo`lib "Yer osti boyliklar to`g`risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunini 3-

moddasiga asosan yer osti va yerning yuzasida joylashgan minerallar, rudalar, suyuqlik va gazsimon foydali moddalar hisoblanadi.

O`rmonga nisbatan mulk huquqining obyekti bo`lib, O`zbekiston respublikasining "O`rmon to`g`risida"gi qonunning 4-6-moddalariga muvofiq O`rmonlar, ya`ni ma`lum bir hududdagi o`simlik dunyosi obyektining yig`indisi hisoblanadi.

O`simlik dunyosiga nisbatan mulk huquqning obyekti bo`lib, o`simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risida"gi qonunning 1,3-moddalariga muvofiq tabiiy sharoitda o`sadigan o`simliklar hisoblanadi.

Hayvonot dunyosiga nisbatan mulk huquqining obyekti bo`lib "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risida"gi qonunning 1,3 va 4-moddalariga muvofiq tabiiy erkinlik holatida yashaydigan yovvoyi hayvonlar hisoblanadi.

Tabiiy resurslarni tugaydigan va tugamaydigan, qayta tiklanmaydigan va qayta tiklanadigan turlarga bo`lish mumkin. Birinehisiga neft, ikkinchisiga torf qatlami va boshqa cho`kindilar kiradi. qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslarni muhofaza qilish uchun ulardan oqilona foydalanish, qazib olishda, ta'minlashda, qayta ishlatshda va ishlatishda nobudarchilikka qarshi kurashish lozim.

Qayta tiklanish jarayonida turli resurslar uchun har xil muddat kerak. Masalan: kesilgan o`rmonlarni tiklash uchun 60-70 yil zarur. Shuning uchun tabiiy resurslarni sarf qilish surati ularni qayta tiklash suratiga muvofiq kelishi kerak.

Qayta tiklanadigan tabiiy resurslarning insonni noma`qil xattiharakati tusayli qayta tiklanmaydigan bo`lib qolishi mumkin. Masalan, o`simlik va hayvonlarning bir qancha turlarini yo`q bo`lib ketishi.

3. Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqining mazmuni

Mulk huquqi keng ma`nodagi ashayoviy huquq bo`lib, huquq egasi, ya`ni mulkdorlarga "O`ziga tegishli mulklardan foydalanish mazinuni va yo`nalishini faqat o`zi belgilash hamda ular ustidan to`liq "xo`jalik hokimiyatini" amalga oshirish huquqini beradi. Ingliz huquqshunosи A.M. Onore mulk huquqining eng to`liq tasnitini berib, quydagilarni ajratib ko`rsatgan: tasarruf etish (ashyolar ustidan to`liq jismoniy nazorat); foydalanish (narsalarni shaxsan o`zi ishlatish); foyda undirish (ashyolarni shaxsan o`zi ishlatib yoki ishlatish uchun boshqa shaxslarga berish orqali); ashyolarni musodara qilib davlat foydasiga o`tkazish, sovurib yuborish,

o`zgartirish yoki yo`q qilish ashyolarni ekspropiatsiyadan (majburiy tortie olishdan) himoyalanish; ashyolarni birova berib yuborish, ulardan yomon tarzda foydalanishni taqiqlash, javobgarlik (qarz hisobiga ashyoni berish), buzilgan qonuniy huquqni tiklash.

Mulkdorning qonuniy huquqlarini uchlik siratida, ya`ni egairik qilish, foydalanish hamda idora qilishga ajratish an'anavi, hisoblanadi. O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 164-moddasiga asosan tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqining mazmunini mulkdorlarning egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlari tashkil etadi.

Mulkdor o`z mulkini tasarruf qilishga, ya`ni unga egalik qilishga, undan foydalanishga, ya`ni soyda undirishga (umumiy qoidalarga ko`ra faqat mulkdorgina o`zida mavjud bo`lgan mulklardan mevalar, mahsulotlar va soyda oladi), hamda idora qilishga, ya`ni mulkning yuridik taqdirini belgilashga, sotishga, sovg`a qilishga, ijara berishga, garovga qo`yishga haqlidir. Mulk huquqi tarkibida boshqa qonuniy huquqlar, jumladan mulknin boshqarish ham ajratib ko`rsatilishi mumkin.

Shu bilan birga, tabiiy resurslar davlat mulki bo`lganligi uchun mulkdorning huquqlarini amalga oshirish ma'lum bir xususiyatlarga ega.

Birinchidan, tabiiy resurslarga mulk huquqini mazmuni ham fuqarolik huquqiy normalar ham ekologiya huquqiy normalar bilan belgilanadi.

Ikkinchidan, barcha tabiiy resurslar, xususiy mulk qilib ajratilgan yer uchastkalarini istisno qilgan holda, yuridik va jismoniy shaxslar foydalanishida bo`lishidan qat`i nazar davlat mulki hisobladi, ya`ni davlatni egaligi saqlanib qolinadi.

Uchinchidan, davlat tabiiy resurslardan bevosita foydalanishni amalga oshirmaydi, ulardan foydalanish huquqini tartibi va shartlarini belgilaydi. Tabiiy resurslardan foydalanish huquqi har xil shaklda (egalik, foydalanish, ijara) yuridik va jismoniy shaxslarga beriladi. Shunday foydalanish uchun davlat o`rnatilgan soliqlar va to`lovlarning davlat foydasiga undiradi.

To`rtinchidan, aksariyat hollarda tabiiy resurslarni tasarruf etish natijasida davlat egalik huquqini yo`qetmaydi va tasarruf etish tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza etishni tashkil qilishga qaratilgan.

Beshinchidan, davlat tasarruf etish huquqini davlat organlari faoliyatini orqali amalga oshiradi. Tabiiy resurslarni muhotaza etish va foydalanishning davlat boshqaruvi avvalam bor tabiiy resurslarning davlat tomonidan tasarruf etishga yo`naltirilgan. Shu jumladan, vakolatli davlat organlari tabiiy resurslarni foydalanishga ajratadilar va foydalanuvchilardan qaytarib oladilar, foydalanish maqsadlarini belgilaydilar. Masalan,

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyat organlari Yer kodeksining 4-7-moddalariga muvofiq yerlarni yuridik va jismoniy shaxslarga ajratib berish va qaytarib olish vakolatiga egalar.

Uchastkalariga xususiy mulk huquqining maznuni boshqa mulk obyektlariga nisbatan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Yuqorida qayd qandek, yuridik va jismoniy shaxslar yer uchastkasiyadan faqat maqallli foydalanishlari shart, ya'nii shu yer uchastkasida joylashgan bino va shu oldidan foydalanish maqsadi bilan bog'liqdir. Masalan, savdo va izmat ko'rsatish obyektlari joylashgan yer uchastkalaridan foydalanish turi yuridik va jismoniy shaxsning mazkur faoliyat turi bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham yerga bo'lgan xususiy mulk cheklangan hisoblanadi. Bunday qoidalar boshqa davlatlar qonun hujjatlarida ham mavjud.

V BOB. EKOJ OG'YIYA SOHASIDA DAVLAT BOSHQARUVI

1. Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi tushunchasi, xususiyatlari va tizimi

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi davlat organlari tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishni tashkil qilishda namoyon bo`ladi va jamiyatda ijtimoiy boshqaruvning turkibiv qismi hisoblanadi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvini shakllantirish orqali davlat o`zining ekologik vakolatini va ekologik siyosatini amalgga oshiradi. Ushbu boshqarishni tashkil etish asosida inson atrof-muhitni yaxshilash, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash maqsadlari turadi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi orqali davlat tabiiy resurslarning mulkdori sifatida tabiiy resurslardan foydalanishni tashkil etish maqsadida ularni tessarruf etish huquqini amalgga oshiradi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi deb vakolati daylat organlarining tabiiy resurslardan foydalanish va atrof tabiiy muhitni muhofaza etish bo`yicha ijro etish va farmoyish berish faoliyati tushuniladi.

Davlat boshqaruv organlarining ijroiya faoliyati ushbu organlarning ijroiya hokimiyatiga taalluqliligidan kelib chiqib, qonun va vakillik organlarining qarorlarini amalgga oshirishga qaratilgan.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi organlarining farmoyish berishi ularning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda vakolat doirasidagi yuridik va jismoniy shaxslarga majburiy ko`rsatmalar berish huquqidан kelib chiqadi. Ushbu majburiy ko`rsatmalar ko`p marotaba qo`llanadigan, ya`ni ular tomonidan qabul qilingan me'yoriy hujjalarda belgilanadi, yoki bir marotaba qo`llanadigan, ya`ni ma'lum bir yoki bir necha subyektga taalluqli, masalan, huquqbuzarlikni to`xtatish bo`yicha ko`rsatmalardan iborat bo`ladi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi organlarining ijroiya etish va farmoyish berish faoliyati tabiiy resurslar to`grisidagi qonun hujjalarning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan.

Ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi quyidagi tamoyillarga asoslangan:

- boshqarishning qonuniylikka asoslanishi, ya`ni davlat boshqaruv organlarining ekologik munosabatlarni tartibga solishda faqat qonun

huquqlarda belgilangan vakolat doirasida hamda huquqlari asosida faoliyat xiritishi;

tarmoq va hududiy boshqarishni muvofiqlashturishga, ya'ni o'sebik munosabatlarni tartibga solishda davlat organlarining faoliyati ham hududning rivojlanishini, ham har bi tabiiy resurslardan foydalananishning oqilonaligi va ularni muhofaza etishning ta'minlanishiga qo'shatadi. Bundan tashqari, ekologiya sohasida davlat boshqaruvi bo'yicha ham hududiy ham tarmoq bo'ysunishda shakllantiriladi, masalan, tabiiy organlarning hududiy bo'linmalarini respublika tarmoq organlari tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo'mitasi)ga hamda mahalliy davlat hokimiyati organlariga bo'ysunadilar;

ekologiya masalalarini hal qilishda har tomonlama yondoshishga, ham tabiiy resurslardan foydalanishni tashkil etishda ushbu foydalanishning oqilonaligi va atrof tabiiy muhitni muhofaza etishda respublika xalq xo'jaligi va aholini tabiiy resurslarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishni himmlash;

ekologiya sohasida davlat boshqaruvini tashkil etishda tabiiy resurslardan foydalanish va nazorat qilishni ajratish, ya'ni ekologiya sohasida tabiiy resurslardan bevosita foydalanuvchilar nazorat qilish vakolatiga ega bo'lmasligida, ekologiya sohasida davlat boshqaruvi organlarini shakllantirish hamda ularni faoliyatlarini tashkil qilishda foydalanish va nazorat qilish vakolatlarini tariqga solishda ifodalanadi. Masalan, qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzurida O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi o'rmondan foydalanishni tashkil qiluvechi davlat organidir va uning korrona, tashkilotlari, o'rmon xo'jaliklari o'rmonidan asosiy foydalanuvchilar bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ushbu organ o'rmonidan foydalanish ustidan davlat nazoratini olib borish vakolatiga ega emas.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi ma'lum bir shakllarda va usublarda amalga oshiriladi. Ushbu boshqaruvning shakllari bo'lib, huquq ijod qilish, ijroiya va huquqni muhofaza qilish faoliyati hisoblanadi. Ijroiya organlari huquq ijod qilish yo'li bilan qabul qilgan me'yoriy hujjatlarida qonunlarda belgilangan qoidalarni yanada rivojlantirib, qomoiy munosabatlarni batafsil tartibga soluvchi me'yorlarni belgilaydilar. Masalan, Yer kodeksining va «Davlat yer kadastro to'grisida»gi qonunning qoidalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mashkamasining 1998-yil 31-dekabrdagi 543-soni qarori bilan tasdiqlangan "Davlat yer kadastrini yuritish to'grisida"gi Nizomi va Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 27-mayda 736-son bilan davlat ro'yxatiga

olingan "Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish tartibi to'grisida"gi Yiriqnomaga bilan tartibga solinadi.

Davlat boshqaruv organlarining ijroiya faoliyati qonun hujjatlarni amalga oshirish bo'yicha amaliy taoliyati hisoblanadi. Masalan, yer uchastkalarini joyda ajratib berish, yer uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatiga olish, tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilish qoidalariiga rioya etishni nazorat qilish va hokazo.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruv organlari huquqni muhofaza qilish faoliyati orqali tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish qoidalari buzilgan taqdirda aybdor shaxslarni jinoiy, ma'muriy va unto`zomiy javobgarlikka tortish masalasi huquqni muhofaza qilish organlari yoki u ishlaydigan tashkilotning ma'muriyati oldiga qiyiladi, agar ekologik nazorat organlari ma'muriy javobgarlikka tortish huquqiga ega bo'lsalar, ushbu masalani hal qiladilar, sud organlarida atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zararni undirish bo'yicha davo aro`zalarini qo'zgatadilar, tabiiy resurslardan foydalanuvchilarning buzilgan huquqlarini tiklashga qaratilgan chora taddbirlarni amalga oshiradilar.

Ekologik munosabatlarni tartibga solishda davlat boshqaruv orgaolari boshqarish uslublarini, ya'ni ijtimoiy munosabatlar subyektlariga davlat ta'sir ko'rsatish usullarini qo'llaydilar. Ular tarkibiga ruxsat berish, man qilish, rozilik berish, majburliy ko'rsatmalar berish kiradi.

Davlat boshqaruvining ruxsat berish uslubi asosan tabiiy resurslardan foydalanishni tashkil etishda qo'llaniladi. Tabiiy resurslardan maxsus foydalanish faqat vakolatli davlat organlarining ruxsati asosida vujudga keladi.

Rozilik berish (sanksiyalash) uslubi deb davlat organlarining foydalanuvchilar tomonidan tayyorlagan me'yirlarni hamda foydalanishga oid boshqa qoida va tartiblarni tasdiqlashi va rozilik berishi tushuniladi. Masalan, atmosferaga iflosantiruvchi moddalarni tasplash bo'yicha yo'l qo'yiladigan doiradagi normativlari tabiatni muhofaza qilish organlari tomonidan tasdiqlangandan so'ng, mazkur zararli moddalarni atmosferaga chiqarib tasplash mumkin ("Atmosfera havosini muhofaza qilish to'grisida"gi qonunning 8-moddasi), yoki qishloq xo'jalik korxonalarini tuman hokimi tomonidan tasdiqlangan ichki yer tuzilish sxemalariga muvofiq yerdan foydalanishni amalga oshiradilar (Yer kodeksining 13-moddasi).

Ekologiya sohasida boshqaruvni taqiqlash uslubi atrof muhitni muhofaza qilishni tashkil etishda keng qo'llaniladi va tabiiy resursdan foydalanish yoki tabiiy hududlarda ma'lum bir faoliyatni amalga oshirishni taqiqlash orqali man etishda ifodalanadi. Masalan, suvdan umumiy foyda-

Umishning turi bo`lgan cho` milish aholini xavfsizligini ta'minlash maqsadida ma'lum suv obyektlarida man etilishi mumkin yoki suv muhofaza sonalarida daraxt va butazorlarni kesish, yoqilgi va moy quyish shaxobchilarini joylashtirish va ishlatish, zaxarli ximikatlarni qo'llash, chorvaliuk fermalarini joylashtirish va boshqalar taqiqlanadi.

Ekoliya sohasida davlat boshqaruvi organlarining vakolat doirasida qabul qilgan qarorlari ekologik munosabatlar subyektlariga nisbatan majburiy hisoblanadi. Ammo majburiy ko'rsatmalar berish uslubi ushbu davlat organlarining faoliyatida asosan ekologik nazoratni amalga oshirish maydonida qo'llaniladi. Masalan, ekologik nazoratni amalga oshiruvchi organlar ekologik huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga ushbu huquqbuzarlik oqibatlarini, ularni sodir etish sabablarini va shart-sharoitlarini burtaraf etish bo`yicha majburiy ko'rsatmalar berishga haqlidirlar.

Ekoliya sohasida davlat boshqaruvi organlari qonun hujjatlariga muvofiq, ma'lum vakolatlarni amalga oshiradilar. Ushbu vakolatlar quyidagilardan iborat: tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish bo`yicha me'yoriy hujjatlarni qabul qilish; atrof tabiiy muhitni muhofazasini ta'minlovchi me'yorlarni belgilash; ekologik standartlash; ekologik sertifikatsiyalash; tabiiy resurslarning davlat hisobini va davlat kadastrlarini yuritish; tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishni rejalashtirish; tabiiy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash; tabiiy resurlarni hududiy joylashtirish; ekologik nazoratni amalga oshirish; nizolarni hal qilish. Bundan tashqari alohida tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza etish bo`yicha davlat boshqaruvi organlarining maxsus vakolatlari, (masalan, suvlar zararli ta'so'rining oldini olish, o'rmonlarni qayta ko'paytirish, yerlarning melioratsiyasi tashkil etish va hokazolar) mavjud.

2. Ekoliya sohasida davlat boshqaruvi organlari tizimi

Ekoliya sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiradigan organlarning doirasasi kengdir. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, ekoliya sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiradigan organlar umumiy va maxsus vakolatga ega bo`lgan davlat organlariga bo`linadi. Maxsus vakolatga ega bo`lgan organlar o'z naybatida tarmoqlararo va bir tarmoqqa oid turlarga bo`linadi.

Umumiy vakolatga ega bo`lgan organlar qatoriga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mashkumasasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va mahalliy davlat hokimiyati organlari kiradi. Ular iqtisodiyot

va ijtumoiy sohalarda davlat boshqaruvini amalga oshirish bilan bir vaqtida ekologiyaga oid ba'zi bir masalalarni hal qiladilar. Shuning uchun ham, ular umumiy vakolatga ega bo`lgan organlar deb nomlanadilar.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvida Vazirlar Mashkamasining vakolatlari O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (98-moddasi), O`zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-may (2003-yil 29-avgustagi onun taxriridagi) "Vazirlar Mashkamasi to`grisida"gi qonunini 9, 10, 11, 12, 20-moddalarida, O`zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabr "Tabiatni muhofaza qilish to`grisida"gi qonunini 9-moddasida hamda tabiiy resurslar to`grisidagi qonunlarning tegishli moddalarida belgilangan.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mashkamasi: tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalari bo`yicha normativ hujjatlar (qaror, no`zom, qoida va tartiblar) qabul qiladi; tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi; tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish bo`yicha davlat dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshirishni tashkil etadi; tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlar va to`lovlar miqdorini belgilaydi; atrof tabiiy muhit monitoringi, tabiiy resurslar davlat kadastrlari yuritilishini tashkil etadi; maxsus vakolatga ega bo`lgan davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi; davlat ekologik nazoratini tashkil etadi; yer uchastkalarini egalik qilishga, foydalanishga, shu jumladan ijaraga beradi, yer uchastkalariga bo`lgan huquqni bekor qiladi; yer osti boyliklaridan foydalanish huquqini beradi va uni bekor qiladi, yer osti boyliklaridan toydalanishning litsenziyalash tizimini tashkil etadi; umumtarqalgan foydali qazilmalar ro`yxatini belgilaydi; ekologik jihatdan tang vaziyatlar, tabiiy ofatlar va falokatlarning oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqadi; tabiiy ofatlar va yirik avariyalarning oqibatlarini tugatish chora-tadbirlarini amalga oshiradi; ekologiya sohasida xalqaro aloqalarni o`rnatadi hamda rivojlantiradi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvida mahalliy davlat hokimiyyat organlarining vakolatlari Konstitutsiyada (100-modda), O`zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentyabr "Mahalliy davlat hokimiyyat organlari to`grisida"gi qonunda (10, 24, 25-moddalar), "Tabiatni muhofaza qilish to`grisida"gi qonunda (10-modda) va tabiiy resurslar to`erisidagi qonunlarning tegishli moddalarida belgilangan. Masalan, mahalliy davlat hokimiyyat organlari yer munosabatlarni tartibga solishda muhim o`rin egallaydilar va bu masalaga Yer kodeksining 5-7-moddalarini bag`ishlangan.

Mahalliy davlat hokimiyyati organlari o`z hududlarida ekologiya sohasida davlat boshqaruvining quyidagi vakolatlarini amalga oshiradilar: mintaqada (hududda) tabiatni muhofaza qilishning asosiy yinalishlarini telgilaydilar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni inuhofaza qilishning hududiy dasturlarini tasdiqlaydilar; atrof tabiiy muhitga zarar yetkazayotgan obyektlar faoliyatini vaqtincha yoki butunlay to`xtatish va qayta ixtisoslashtirish to`grisida qarorlar qabul qiladilar; foydalanishni tushkil qilish maqsadida tabiiy resurslarni taqsimlaysaydilar (yer uchastkalari ni - egalikka, foydalanishga yoki ijara, suv obyektni tanho foydalanishga, o'simlik dunyosidan pichan o'rish yoki mol boqish uchun, aholi punktlarida daraxtlar kesish maqsadida foydalanish huquqini beradilar) va shunday foydalanish huquqlarini bekor qiladilar; atrof tabiiy muhit monitoringi, tabiiy resurslar davlat kadastrlari yuritulishini tashkil etadilar; tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiradilar.

Maxsus vakolatlari davlat organlariga ekologiya sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi vazirliklar, davlat qimitalari va idoralari kiradi. Ularning faoliyatni asosan ekologik munosabatlarni tartibga solish bilan bog'liq bo'lganligi sababli, maxsus vakolatlari organlar deb nomlanadilar. Ular tarmoqlararo, ya'ni bir necha tarmoqlarni va bir necha tabiiy resurslarni idora etuvchi organlarga hamda tarmoqqa oid, ya'ni ma'lum bir tabiiy resursni idora etuvchi organlarga bo'linadi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvining maxsus vakolatlari organlari ichida markaziy o'rinni O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi egallaydi. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil 26-apreldagi qarori bilan tasdiqlangan No'zomiga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi, 1996-yil 5-6 son, 70-modda) muvofiq tabiatni inuhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni qayta tiklash sohasida davlat nazoratini hamda tarmoqlararo boshqaruvni amalga oshiruvchi, idoralardan ustun turuvchi hamda muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatlari organdir. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga bo'y sunadi va unga hisobdordir.

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi quyidagi asosiy vakolatlari amalga oshiradi:

- atrof muhitni muhofaza qilishda iqtisodiy usullarni keng qo'llash, resurslarni tejaydig'an, kamchiqit va chiqitsiz texnologiyalarni barcha moylarda qo'llanilishini ragbatlantirish, ekologiya sohasidagi fan-texnika

yutuqlarini joriy etish asosida tabiatni muhofaza qilish faoliyatini kompleks boshqaradi:

- tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish yuzasidan respublika ekologik normativlar, qoida va standartlarni tasdiqlaydi;

- atrof muhitga ifloslantiruvchi moddalarni chiqarib tashlash (oqi zish) normativlarim belgilaydi hamda tabiatdan foydalanuvehilar e'tiboriga yetkazadi;

- davlat ekologik ekspertizasini o'tkazadi;

- atrof muhit ifloslanishning ahvoli va unga boshqacha zararli ta'sirlar, tabiiy resurslardan foydalanish to'grisidagi ma'lumotlarning respublika yagona ekologik axborot bankini tashkil etadi va yuritadi;

- respublikada qo'riqxonalarga doir ishlarga rahbarlik qiladi, muhofaza ettladigan tabiiy hududlar hamda hayvonot dunyosining davlat kadastrini yuritishda qatnashadi;

- ekologik tashviqotni amalga oshiradi, ekologik ta'lim va tarbiyani tashkil etish hamda yuritishda qatnashadi;

- ifloslantiruvchi moddalarni atrof muhitga chiqarib tashlash va oqo'zish, chiqindilarni joylashtirish va ko'mish, suvdan maxsus foydalanishga, ov qilish va baliq tutishga ruhsatnomalar beradi, yovvoyi dordarmon giyoohlari, ozuqa o'simliklari va manzarali o'simliklarni, texnikaviy xom ashyo va boshqa tabiiy hosilalarni (shu jumladan mumiyoni) yig'ish (tayyorlash), ulami respublika hududidan olib chiqish va respublikaga olib kirish huquqini beradi;

- tabiatni ifloslantirganlik va tabiiy resurslardan oqilona toydalanma-ganlik natijasida unga yetkazilgan ziyonni qoplash to'grisida yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan da'vo qo'zgatadi;

- bank muassasalariga ekologik qonun hujjalarni buzgan holda ish olib borilayotgan sanoat va boshqa obyektlarni loyihalash, qurish, qayta qurish yoki kengaytirish ishlarni mablag' bilan ta'minlashni to'xtatish to'grisida taqdimnomasi kiritadi;

- ekolgik qoidalarga amal qilmay ish olib borilayotgan sanoat va boshqa obyektlarni loyihalash, qurish, qayta qurish yoki kengaytirishni taqiqlaydi, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ishini tixtatib qiyadi;

- ekologik talablarga niova etmagan shaxslarni ma'muriy javobgarlik ka tortadi, zarurat bo'lganda huquqbazarlik to'grisidagi materiallarni huquqni muhofaza qiluvechi organlarga taqdim etadi;

- tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilish ustidan belgilangan hollarda va tartibda davlat nazoratini olib boradi va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo'mitasi 2003-yil 9-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan tashkil etilgan va uning Nizomi Vazirlari Mashkamasining 2004-yil 19-oktabrda 483-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu organ yer monitoringi, davlat yer kadastrini yuritadi; yer uchastkalariga bo'lган huquqlarni davlat ro'yxatiga oladi, yer resurslarini davlat hisobini olib boradi, yerdan oqilona foydalanish va uni muholaza etishi ustidan davlat nazoratini olib boradi; yer tuzish ishlarini tashkil etadi va boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi shaharlarda yerlarni foydalanishga ajratib berishda va yerlardan foydalanishni rejalashtirishda qatnashadi.

O'zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi Vazirlar Mashkamasining 2004-yil 25-martdagagi 139-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomiga muvofiq, konlarni geologik izlanish, mineral resursdan foydalanish ustidan davlat nazoratini olib boradi; hududlarni geologik jihatdan o'r ganilganligini tahlil qiladi; mineral xom ashyo bazasini rivojlanadirish dasturlarini ishlab chiqadi; geologik o'r ganish bo'yicha normativ hujjatlarni tasdiqlaydi; konlar to`grisidagi geologik ma'lumotlar davlat jamgarmasini, foydali qazilmalar davlat kadastrini, davlat suv kadastrining yer osti suvlar qismini yuritadi; geologik qidiruv ishlarining davlat hisobini yuritadi va ro'yxatini olib boradi; qazilma boyliklar joylashgan hududlarni qazilma boyliklardan foydalanish bilan bog'liq bo'lmasan maqsadlarda qurilish uchun yer ajratish masalasi bo'yicha xulosa beradi va boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning hexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 9-iyuldagagi Farmoniga muvofiq, foydali qazilmalarni qazib olish uchun, shuningdek foydali qazilmalarni qazib olish bilan bog'liq bo'lmanan yer inshootlarining qurilishi va ulardan foydalanish uchun kon ajratish hujjatlarini beradi; yer osti boyliklaridan foydalanish ustidan davlat nazoratini olib boradi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi va uning organlari, Vazirlar Mashkamasining 2003-yil 28-iyundagi 290-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomiga muvofiq, davlat suv hisobini va davlat suv kadastrini yer osti suvlarining iste'mol qilish qismida yuritadi, suvdan

foydalanishni rejalashtirishda qatnashadi, suvdan limitli foydalanish bo`yicha shartnomalar tuzadi; sun`iy suv havzalaridan va kanallardan suvdan foydalanish ustidan davlat nazoratini olib boradi.

O`zbekiston Respublikasi Sog`ligni saqlash vazirligi O`zbekistor Respublikasining 1999-yil 14-yanvardagi 18-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomiga muvofiq ichimlik suvlarning ifloslanishi ustidan sanitat nazoratini, atmosfera havosiga zararli fizikaviy ta'sir kirsatilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi.

O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Davlat avtomobil nazorati avtotransportlar tomonidan atmosfera havosining ifloslanishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mashkamasi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi Vazirlar Mashkamasining 2004-yil 14-aprel 183-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomiga muvofiq, davlat suv hisobini va davlat suv kadastrini yuritishda ishtirop etadi, suv va atmosfera monitoringini (kuzatuvini) amalga oshiradi.

O`zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo`jaligi vazirligi huzurida O`rmon xo`jaligi bosh boshqarmasi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 7-fevraldagagi Farmoniga muvofiq o`rmon xo`jaligini yuritishning davlat boshqaruvinu amalga oshiradi, o`rmonlarning muhofazasini, himoyasini, qayta ko`paytirishini tashkil etadi, o`rmon resurslaridan foydalanish huquqini beradi; o`rmonlarning davlat hisobini va davlat kadastrini yuritadi va boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

3. Ekoliya sohasida davlat boshqaruv organlarining vakolatlari

Ekoliya sohasida davlat boshqaruv organlarining vakolatlari deganda, ularning shu sohadagi faoliyatlarining alohida turlari tushunilishi lozim.

Ekoliya sohasida davlat boshqaruv organlari quyidagi vakolatlarni amalga oshiradilar:

Tanbiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish bo`yicha me'yoriy hujjatlarni qabul qilish yo`li bilan davlat organlari qonun va hukumat qarorlaridagi qoidalarni yanada rivojlantiruvchi va detallashtirilgan idoraviy normativ hujjatlar qabul qiladilar. Masalan, O`zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida yer solig`iga oid me'yorlar kiritilgan va uning 99-moddasiga muvofiq, yer solig`i stavkalari O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mashkamasi tomonidan belgilanadi. Bundan tashqari yer solig`ini shisoblash va undirish bo`yicha munosabatlar O`zbe-

Uston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo`mitasi tomonidan 2002-yil 21-yanvarda tasdiqlangan va Adliya vazirligida 27-mart 2002-yil 1118 raqam bilan davlat ro`yxatiga olingan “Yer solig`ini shisoblash va tashxus tartibi to`grisida”gi Yo`riqnoma bilan tartibga solinadi. Idoraviy me`yoriy hujjatlar asosan me`yoriy hujjatlarda texnik va tabiiy famlar kiritish lozim bo`lganda qabul qilinadi. Bunday yo`riqnomalar logiya va konlardan foydalanish sohasida ko`p qabul qilingan.

Davlat organlari atrof tabiiy muhitning muhofazasini ta`minlovchi normativlarni qabul qiladilar. Bularga: suvda iflosantiruvechi moddalarining yo`l qo`yiladigan darajada tiplanishi; atmosfera havosida iflosantiruvechi moddalar va biologik organizmlarning yo`l qo`yiladigan darajada to`planishi, fizikaviy omillar atmosfera havosiga akustik, elektromagnit, ionlashtiruvechi va boshqa zararli ta`sir ko`rsatishning yo`l qiyiladigan darajalari kiradi.

Ekologik standartlash orqali asosan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ekologik talablarga javob berishi belgilanadi. O`zbekiston Respublikasining “Standartlash to`grisida”gi qonunining 8-moddasida Tabiatni muhotaza qilish davlat qo`mitasi va Sog`liqni saqlash vazirligi standartlash organlari sifatida belgilangan va ular ekologik standartlashni amalga oshiradilar.

O`zbekiston Respublikasining “Sertifikatsiyalash to`grisida”gi va Tabiatni muhofaza qilish to`grisida`gi qonunlariga muvosiq, ekologik sertifikatsiyalash sertifikatsiya qilinadigan mahsulotni belgilangan ekologik talablarga muvosiqligini aniqlash bo`yicha faoliyatdir. Ushbu qonunning 5-moddasiga muvosiq, ekologiya sohasidagi davlat organlatini va boshqa yuridik shaxslar ekologik sertifikatsiya qilish uchun O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mashkamasi huzuridagi O`zbekiston Davlat standartlash, metrologiya va sertifikatsiya markazi organlarida akkreditatsiyadan o`tadilar, ya`ni ushbu faoliyatni amalga oshirish bo`yicha ruxsat beraildi.

Tabiiy obyektlar to`grisida ma`lumot yig`ish maqsadida davlat organlari ularning davlat hisobini amalga oshiradilar. Ushbu vakolat orqali tabiiy obyektlarning son va sifat ko`rsatkichlari, ya`ni ularning miqdori, turqalganligi, joylashgan joyi va boshqa tavsiflari aniqlanadi. Tabiiy obyektlarni davlat hisobi tabiiy obyektlarning monitoringi (ularni kuza-tib), inventarizatsiya yoki foydalanishini ro`yxatga olish yo`li bilan amalga oshiriladi.

Tabiiy resurslar davlat kadastrlarini yuritishdan maqsad tabiiy obyektlar haqida to`gri va to`liq ma`lumotlar olish, ularning holatini aniq-

lashdan iborat. Tabiiy obyektlarning miqdori va sifati, ularning huquqiy, tabiiy, xo`jalik holati, foydalanish darajasi to`grisidagi ma'lumotlar tizimi tabiiy obyektlar kadastrlari deb nomlanadi. Tabiiy obyektlar kadastrlari hali bir tabiiy obyekt yuzasidan alohida yuritiladi va ularni yuritish tartibi hujjalarda belgilanadi. Masalan, davlat yer kadastrini yuritish bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 15-moddasi, "Davlat yer kadastro to`grisida"gi qonuni, Vazirlar Mashkamasining 1998-yil 31-dekabrdagi 543-sonli qarori bilan tasdiqlangan Davlat yer kadastro yuritish to`grisidagi № zomi va Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 27 mayda 736-raqam bilan ro`yxatga olingan "Yer uchastkalarga bo`lgan huquqlarni davlat ro`yxatiga olish tartibi to`grisida"gi yo`riqnomasi qo'llaniladi.

Tabiiy obyektning kadastro shu tabiiy resursni idora etuvchi maxsus davlat organlari tomonidan yuritiladi va davlat budgeti mablag`laridan moliyalashtiriladi. Davlat kadastrini yuritishda tabiiy resurslardan foydalanuvchilardan olinadigan ma'lumotlarga asoslanadi, masalan, yetegalari va yerdan foydalanuvchilar yerdan foydalanishdagi o`zgarishlar to`grisida davlat organlariga ma'lumot berishlari lozim.

Davlat kadastro yagona tamoyillarga asoslangan holda yuritiladi: jumladan, qonuniylik, ya`ni ular qonunda belgilangan talablariga rioya qilingan holda davlat boshqaruvi organlarining vakolatlarini va ularning faoliyatlarini belgilaydi, kadastrlarni yuritish bo`yicha chora-tadbirlarni o`tkazishning uzlusizligi; kadastrlarni yuritish tartibiga rioya etilishining davlat nazoratini amalga oshirish; kadastrga kiritiladigan ma'lumotlarning to`griligi uchun mas`ul shaxslarning javobgarligi.

Kadastr ma'lumotlarining ishonchligini ta'minlash maqsadida kadastro materiallari vaqt-i-vaqt bilan yangilanib turiladi, masalan, tabiiy obyektning sifat va son ko`rsatkehlari o`zgarganda; yangi foydalanuvchilarga tabiiy resurslar ajratib berilganda va boshqa hollarda aniqliklar kiritilib turiladi.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ishlari respublika xalq xo`jaligi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar va boshqa aboli punktlarining rivojlantirish istiqbollarini belgilash chog`ida unumiy vakolatga ega bo`lgan organlar tomonidan rejalashtiriladi. Masalan, o`zlashtiriladigan yerlai maydoni va ularni qishloq xo`jaligi, sanoat hamda boshqa maqsadlarga ajratish mo`ljallangandi. Bundan tashqari, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilishning maxsus rejalarini tuziladi. Bular tarkibiga yer tuzish loyihalari, shaharlarning bosh rejalarini, suv xo`jaligi balanslari, suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish

o‘rnari, o‘rmon tuzish loyihalari va boshqalar kiradi. Tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilishning maxsus rejali umumiy va qo‘mitasi vakolatga ega bo‘lgan organlar tomonidan tasdiqlanadi (Yer kodeksining 13-moddasi, “O‘rmon ti”gi qonunining 16-moddasi).

Tabiiy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash bu vakolatli organlar davlat mulki bo‘lgan tabiiy resurslarni davlat nomidan tasarruf qilish ustadidan foydalanishni tashkil etishdan iborat. Ushbu vakolatni amalgalashish yo‘li bilan davlat organlari tabiiy resurslarni foydalanishga ajratib beradilar va qaytarib oladilar. Yer uchastkalarini egalikka, foydalananishga va ijaraiga berish to‘grisidagi qarorlarni O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 4-7, 23-moddalariga muvofiq, Vazirlar Mashkamasi, mahalliy hokimiyyat organlari qabul qiladilar. Suvlardan maxsus foydalanish bo‘yicha russatnomalar Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi organlari tomonidan beriladi (O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanimish to‘grisida”gi qonunning 27-moddasi). O‘rmonlardan foydalanish huquqi esa o‘rmon xo‘jaligi davlat organlari yoki ular vakolat bergen o‘rmon xo‘jaligi korxona, muassasa va tashkilotlari tomonidan beriladigan russatnomalar asosida vujudga keladi (O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘grisida”gi qonunning 20-moddasi). Tabiiy resurslarni foydalananishga ajratib berish huquqiga ega bo‘lgan organlar boshqa davlat va jamoat ehtiyojlari uchun, ekologik talablarni buzganlik uchun hamda jomun hujjatlarida belgilangan boshqa asoslarga ko‘ra shunday foydalananishni bekor qilishlari mumkin.

Davlat organlarining tabiiy resurslarni hududiy joylashtirish vakolati tabiiy resurslardan foydalanishga berish to‘grisidagi qarorlarni amalgalashishga qaratilgan. Tabiiy resurslarni hududiy joylashtirish yer tuzish, o‘rmon tuzish, qishloq xo‘jaligining tabiiy moslashuvi jishatidan yerkuni rayonlashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Masalan, yer tuzish ishlari orqali foydalanish huquqini olgan yuridik va jismoniy shaxslarga yer uchastkalari joyida (naturada) ajratilib, chegaralari belgilanib beriladi. Tabiiy resurslarni hududiy joylashtirishga maksus vakolatli organlar bo‘lmish Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo‘mitasi, Sanoatda, konchilikda va kommunal sektorlarda ishlarning bexa-ri olib borilishuni nazorat qilish Inspeksiysi, o‘rmon xo‘jaligi organlari ning vazifasiga kiradi. Ammo suv va hayvonot dunyosiga nisbatan mazkur vakolat amalga oshirilmaydi.

Ekologik nazorat vakolati tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza etilishi ustidan kuzatuv va tekshiruvlar orqali amalga oshiriladi. Ekologik nazoratni umumiy va maxsus vakolatga ega bo‘lgan

davlat organlari olib boradilar. Bugungi kunda ekologik nazorat to`grisida me'yoriy hujjat bilmasa ham, uni amalga oshiradigan organlarning vako latlari "Tabiatni muhofaza qilish to`grisida"gi qonunda, Yer kodeksida, tabiiy resurslar to`grisidagi boshqa qonunlarda hamda Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrai davlat qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Sanoatda konchilikda va kommunal sektorlda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish Inspeksiyasi, qishloq va suv xo`jaligi vazirligi to`grisidagi nizomlarda o`z aksini topgan. Bundan tashqari, ekologik nazoratni amalga oshirish chog`ida O`zbekiston Respublikasining "Xo`jalik yurituvchi subyektilar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to`grisida"gi 1998-yil 24-dekabr qonunning talablariga, shu jumladan ushbu qonunning 10-moddasi birinchi qismida ko`zda tutilgan tekshirishlar davriyiligiga noya etilishi lozimdir.

Tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza etish chog`ida foydalanuvchilar, davlat organlari va boshqa shaxslar o`rtasida kelib chiqadigan nizolarni hal qilishda davlat organlari qatnashadilar. Tabiiy resurslarning huquqiy holatini belgilovchi qonunlarda ushbu nizolarning hal qilinishi masalasi turlicha yoritilgan. Masalan, Yer tikodeksning 89-moddasida yer to`grisidagi nizolar faqat sud organlari tomonidan hal etilishi belgilangan. "Suv va suvdan foydalanish to`grisida"gi qonunning 85-moddasida esa O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mashkamasi, mahalliy davlat hokimiyyat organlari, shuningdek suvlarni idora etuvchi maxsus vakolatga ega bo`lgan organlar suvdan foydalanishga doir nizolarni hal qiluvchi organlar sifatida belgilangan.

Yuqorida qayd etilgan vakolatlardan tashqari, aloshida tabiiy resurslardan foydalanish va ularning muhofazasi bo'yicha davlat boshqaruvi organlari maxsus vakolatlarni amalga oshiradilar. Masalan, qonun hujjatlarida suvlar zararli ta'sirining (suv toshqini, zax bosishi va hokazolarning) oldini olish, o'rmonlarni qayta ko`paytirish, yerlarning melioratsiyasini tashkil etish va hokazolar ko`zda tutilgan.

VI BOB. EKOLOGIK ME'YORLASH, STANDARTLASHTIRISH VA SERTIFIKATLASHTIRISH

1. Ekologik me'yoralash tushunchasi

Ekologik me'yor atrof tabiiy muhitni muhofazasi yuzasidan belgilash uchun aniq bir talabdir. Ekologik me'yoralash esa, ushbu talabni belgilash uchun ha jarayonni anglatadi.

Astrof tabiiy muhit me'yorlari *tabiiy resurslardan foydalanish hujumlarini belgilash; tabiiy obyektlarni umumiylisat ko'rsatkichlari; tabiiy obyektlarga zararli ta'sir ko'rsatishning miqdorlari* ko'rsatkichlari uchun belgilashga qaratilgandir.

Astrof tabiiy muhitni me'yoralash «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risiga» Qonunning asosiy talablaridan biri hisoblanib, bu masalaga O'smonda alohida IV bo'limi (14-15-moddalar) bag'ishlangan.

Astrof tabiiy muhit sifat me'yorlari ekologik munosabatlarda subyekt-objekt harakatini to'g'riligini baholash mezonlarini o'z ichiga oladi va ekologik huquqiy talabning bajarilishini unumdonlik darajasini belgilaydi.

Ekologik me'yoralash vakolatli davlat organlarining astrof tabiiy muhit sifatini, tabiiy resurslardan foydalanish xajmini va boshqa ko'rsatkichlarini belgilash bo'yicha faoliyatidir. Ushbu faoliyat sertifikatlashtirish, standartlashtirish va boshqa me'yorlarlarni belgilashda namoyon bo'ladi. Ekologik me'yoralash ikkita yo'nalishda amalga oshirilib, *birinchedan*, huquqiy norma ahamiyatiga ega bo'lgan ko'rsatkichlari(standartlar)dan, va *ikkinchidan* huquqni qo'llovchi hujjalarda belgilanib, ma'lum bir obyekt uchun qo'llanildi. Birinchi holatda belgilangan ekologik me'yorlar barcha obyektlarga taalluqli hisoblanadi. Masalan, avtomobil dvigatellaridan hujjariladigan tutumni sifatini belgilash bo'yicha standartlar ham ishlab hujjarilayotgan ham foydalanishda bo'lgan transport vositalariga taalluqli hisoblanadi. Ikkinci guruhdagagi ekologik me'yorlar alohida bir tabiiy resurslardan foydalanuvchi yoki astrof tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'satuvchi shaxslarga taalluqli hisoblanadi.

Ekologik me'yoralashning *obyekti* bo'lib astrof tabiiy muhit, uning dasturi va son ko'rsatkichlari, tabiiy resurslarning sifat va son ko'rsatkichlari hisoblanadi. Ekologik me'yorlar orqali astrof tabiiy muhit sifati va uning obyektlaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilinishi ta'minlanadi.

Ekologik me'yoralashning *subyektlari* bo'lib davlat organlari, yuridik jismoniy shaxslar hisoblanadi. Ekologik me'yoralash bilan faqat vakolatli davlat organlari shug'ullanishlari mumkin. Yuridik va jismoniy

shaxslar esa ekologik me'yirlarni belgilashda manfaatdor shaxs sifatida qatnashishlari mumkin. Masalan, «Atmosfera havosini muhozaza qilish to`g`risida»gi Qonunning atmosfera havosiga statsionar manbalardan chiqariladigan yo`l qo`yiladigan doiradagi normativlari har bir ifloslaniruvchi moddalar yoki biologik organizmlar bo`yicha korxona, muassasa va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilib, tabiatni muhofaza qilish davla organlari tomonidan tasdiqlanadi.

Atrof tabiiy muhitni me'yorlash faoliyat sifatida ikkita *maysadni* o`z oldiga qo`yadi. Birinchidan, atrof tabiiy muhitga zararli ta'sirni oldini olish bo`lsa, ikkinchidan, inson yashashining tabiiy sharoitini yaxshilab, uning salomatligini ta'minlash.

Ekologik me'yorlashda me'yor sifatida atrof tabiiy muhitga va uning obyektlariga zararli ta'sir ko`rsatish darajasi hisoblanadi. Ekologik me'yorlashda yo`l qo`yiladigan doiradagi me'yor ishlatiladi. Shu orqali atrof tabiiy muhitga va uning obyektlariga ta'sir ko`rsatishning eng yuqori darajasi belgilanadi.

Insonlarning iqtisodiy, rekreatsion, ijtimoiy-madaniy manfaatlari bilan bog`liq bo`lgan va tabiiy muhitni fizikaviy, kimyoviy va biologik o`zgarishlariga olib keluvchi antropogen faoliyati atrof tabiiy muhitga **ta'sir ko`rsatish** deb tushuniladi. Zararli ta'sirning eng tarqalgan turi bo`lib atrof tabiiy muhitni ifloslanishi hisoblanadi. **Ifloslanish deganda**, atrof tabiiy muhit sifatini keskin o`zgarishiga, o`simlik va hayvonot dunyosi obyektlarining nobud bo`lishiga va inson salomatligiga putur yetkazuvchi zararli moddalar, biologik organizmlar chiqarish va unga fizik ta'sir ko`rsatish tushumiladi.

Atrof tabiiy muhit sifat **normativlari** umumiylarda insonning xo`jalik, rekreatsion va o`zga antropogen faoliyati natijasida atrof tabiiy muhitga ko`rsatiladigan yo`l qo`yiladigan doiradagi ta'sir ko`rsatish me'yirlari deb tushuniladi.

Atrof tabiiy muhitni sifat normativlarida uchta ko`rsatkich turadi. **Tibbiyot ko`rsatkichi**, u atrof tabiiy muhitga antropogen ta'sir ko`rsatishda insonning genetik fondiga va uning salomatligiga zararsiz darajadagi miqdorini hisobga olishdan iborat. Ekologik ko`rsatkich ekologik me'yorlar orqali o`simlik va hayvonot dunyosini saqlanib qolishi ta'minlanishi. **Texnologik ko`rsatkich**, bunda mavjud bo`lgan texnika va texnologiya bilan belgilangan me'yirlarni ta'minlash imkoniyati hisoblanadi. **Texnologiy-tashkiliy ko`rsatkich**, jamiyatdagi mavjud bo`lgan institutlar (davlat nazorati, monitoring va boshqalar) bilan zamонавиј о`лчаш ва баҳолаш

o'tkunalarini qo'llagan holda atrof tabiiy muhitga zararli ta'sirni aniqlash imkoniyatidir.

Ekologik me'yorlarni belgilashda atrof tabiiy muhitni saqlab qolish maqsadi tursa, *ikkinchidan*, ekologik me'yorlarni bajarish zararli ta'sirni satuvchi obyektlarga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarning o'simiyatiariga mos kelishi zarur. Eng avvalo, ekologik normativlarni tashishdan maqsad ekologik inqirozlarni oldim olish. Bunga yaqqol mo'jal qilib Orol dengizi fojeasini keltirsak bo'ladi. Bu fojea suvdan foydalanish qoidalarining asosi bo'lgan suvdan foydalanish *me'yorlarni* o'simiyati belgilanishidan kelib chiqqan. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ekologik me'yorlarni keskinlashirish maqsadga muvofiq emas.

Ekologik me'yorlar rejalashtirilayotgau xo'jalik va o'zga faoliyatni atrof tabiiy muhitga ta'sirini baholashda, ya'nii ekologik ekspertizani o'tkazishda, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ustidan nazoratni olib borish va atrof tabiiy muhit monitorigini yuritishda foydalaniladi. Chunki, tabiiy resurslardan foydalanish yoki atrof tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatish faqat belgilangan ekologik me'yorlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Tabiiy resurslardan foydalanishi me'yorlari atrof muhitdan olinadigan tabitiy obyektlarning miqdorini belaydi. Masalan, yig'ib olinadigan shifobaxsh o'simliklar, ularning qismlari, barglari va boshqa qismlari qat'iy me'yorda amalga oshirilishi mumkin.

Yerlar bo'yicha qurilish davlat qo'mitasi tomonidan yerlarni ajratib tashish *normativlari* mavjud. Bu me'yorlar yerdan ma'lum maqsadlarda foydalanish uchun xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha belgilanadi Shunday me'yorlarga avtomobil yoki temir yo'llari, aeroporflar, magistral truboprovodlar, melioratsiya tizimlari, neft va gaz skvajinalari, aloqa hamda elektr tarmoqlari va boshqa obyektlar uchun yer ajratish miqdorlari kiradi.

Ekologik me'yorlar tabiiy resurslarning sifat va son ko'rsatkichlarni belgilab, ulardan foydalanish va muhofaza qilishni tashkil etishda asosiy talablarni o'z ichiga oladi. Shu jumladan, ekologik me'yorlar foydalanishni rejalashtirish, uchun ruxsatnomalar berish, tejov undirish, nazorat qilish, javobgarlikka tortishda asos bo'lib hisoblanadi. Demak, ekologik me'yorlar tabiiy resurslardan foydalanish, atrof tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatishni tartibga soluvchi huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan texnik ko'rsatkich hisoblanib, har xil shakkarda o'z aksini topadi. Ekologik me'yorlash esa ushbu ko'rsatkichlarni belgilash, tasdiqlash va joriy qilish bilan bog'liq bo'lgan davlat organlarning faoliyatidir.

2. Ekologik me'yorlash tizimi, shakllari va turlari

Ekologik me'yorlashning tizimga ikki xil ma'noda urg'u bersak bo'ladi. Birinchidan, **keng ma'noda** tashkiliy-huquqiy ko'rinishda shu sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy aktlar va ularni amaga oshirishni ta'minlovchi davlat organlarining tizimi tushunilishi lozim. Ikkichidan, bu tizim **tor ma'noda**, ya'ni faqat tashkiliy tizimni tashkil etuvchi vakolatlidagi davlat organlarning tizimi sifatida tushunilishi lozim.

Ekologik me'yorlash tizimiga ekologik standartlarni belgilovchi, sertifikatlashtiruvchi, boshqa ekologik me'yorlarni tasdiqlovchi vakolatlidagi davlat organlari va ularning faoliyatini shu sohada tartibga soluvchi qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjalalar kiradi. Bularga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Vazirlar Mahkamasini xuzuridagi kimyoviy komissiya, O'zstandart agentligi, Sanoatda va konchilikda ishlarni bexatar olib borish ustidan nazorat davlat inspeksiyasi, Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi va boshqa organlar kiradi, Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo'mitasi, ushbu organlarning vakolatini belgilovchi va faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar, farmonlar, qarorlar va nizomlar kiradi.

Ekologik me'yorlarni belgilashda umumiyligi vakolatlidagi organlarning o'rni keng emas. Ushbu jarayonda ular faqatgina ayrim masalalarni hal etishda qatnashadilar.

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari oqava suvlardagi ifloslantiruvchi moddalarning yo'l qo'yiladigan me'yorlarini, atmosfera havosiga chiqariladigan zararli moddalarni yo'l qo'yiladigan me'yorlarini, suv obyektlarida va atmosfera havosida ifloslanuvchi moddalarning yo'l qo'yiladigan doiradagi to'planishi, hayvonot dunyosidan foydalanish kvotalarini belgilaydi hamda ekologik sertifikatlashtirishni amalga oshiradi.

Sog'liqni saqlash vazirligi atmosfera havosiga zararli fizikaviy ta'sir qo'rsatishni inson va atrof tabiiy muhit obyektlari uchun yo'l qo'yiladigan darajalarini belgilaydi

Uzstandart agentligi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan birgalikda ekologik standartlarni tasdiqlaydi, ekologik sertifikatlashtirishni amalga oshiruvchi organ va laboratoriyalarni akkreditatsiyadan o'tkazadi. Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 5-avgustdagagi 373-soni qaroriga' va O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi

to'g'risida Nizomga asosan "O'zstandart" Agentligining asosiy vazifalari va funksiyalari belgilangan:

Amaldagi «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi Qonunga va Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 25-martdagি 139-sон qaroriga, O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi to'g'risidagi Nizomga muvofiq Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi, Kontrazorat inspeksiyasi bilan bирgalikda qazilma boyliklaridagi mineral o'moni ashvosini konditsiyalarini belgilaydi¹.

Yuqorida qayd etilishiga ko'ra ekologik me'yorlash tizimida maxsus okolatlari organlarning faoliyat doirasi aniq qilib belgilangan. Ushbu organlarning orasida Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi markaziy o'moni egallaydi.

Ekologik me'yorlashning shakli ular belgilagan hujjat orqali umoyon bo'ladi. Ekologik me'yorlashning **shakllari** deganda, ekologik me'yorlar qaysi shakllarda belgilashi nazarda utilishi lozim. Masalan, standart, yo'l qo'yiladigan darajadagi ifloslantiruvchi muddalarni tashlash miqdorlari, chiqindilarni joylashtirish limitlari, hayvonot dunyosidan foydalanish limitlari va boshqalar.

Ekologik me'yor shakli uning qaysi obyekti va qaysi subyekti ga mulluqtidan kelib chiqib aniqlanadi.

Amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan ekologik me'yorlash tizimi orividagi me'yorni o'z ichiga oladi:

- **ekologik standartlar** – muddatsiz ma'lum bir mahsulotning ekologik xavfsizligi talabini belgilovchi ekologik me'yor;

- ifloslantiruvchi muddalarning atinosfera havosida va suv obyektlarida to planishining **yo'l qo'yiladigan darajalari (YQD)** – muddatsiz ushbu obyektlarni sifat ko'rsatkichini belgilovchi me'yor;

- hayvonot va o'simlik dunyosidan foydalanish **kvotalari** – muddatli, asosan bir yilga mo'ljallangan, hayvonot va o'simlik dunyosidan foydalanish sonini belgilovchi reja;

- qishloq va o'mon xo'jaligida qo'llanilishi mumkin bo'lgan kimyo-iv muddalar va ularni qo'llash **miqdorlari** – muddatsiz, lekin vaqt-i-vaqt bilan o'zgarib turaychi me'yor;

- ifloslantiruvchi muddalar yoki biologik organizmlarning chiqarishning **yo'l qo'yiladigan normativlari** – har bir statsional ifloslantiruvchi manbaa uchun belgilanadigan me'yor. Ushbu me'yor ifloslantiruvchi muddalarni yoki biologik organizmlarni atinosfera havosiga yoki suv obyektlariga tashlash uchun ruxsatnomaning bir qismi hisoblanadi. Bunda

zararli moddalarni atrof tabiiy muhitdagagi yo'l qo'yiladigan doiradagi to'planish miqdorlaridan qelib chiqib, har bir iflosantiruvchi manba atrof tabiiy muhit obyektlariga ta'sir ko'rsatishning zararli oqibatlari hisobga olinadi va ishlab chiqarish obyektlarini quvvatidan kelib chiqib belgilanadi.;

- **ekologik sertifikatlar** - har bir mahsulot, xizmatlar uchun ekologik talablarga mosligini tasdiqlovchi hujjat;

- **chiqindilarni joylashtirish limitlari** - chiqindilarni yo'l qo'yiladigan miqdorlarda joylashtirish miqdorlari.

Agar atrof tabiiy muhitdagagi zararli moddalarni mikroorganizmlarning yo'l qo'yiladigan doiradagi to'planish miqdorlari atrof tabiiy muhitni ekologik va sanitari-gigiyenik holatini belgilasa, zararli moddalarni biologik organizmlarning yo'l qo'yiladigan doiradagi chiqarish va tashlash me'yorlari zararli ta'sir ko'rsatuvchi manbaani belgilaydi va uning faoliyatini tartibga soladi. Zararli moddalarni biologik organizmlarning chiqarish yoki tashlash manbaalari bu shunday tashlash va chiqarishning hosil qiluvchi (sodir etuvechi) obyekt. Masalan, bitta korxonada bitta yoki bir nechta zararli moddalarni biologik organizmlarni chiqarish va tashlash manbaalari mayjud bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham yo'l qo'yiladigan doiradagi chiqarish va tashlash me'yorlari korxoana, tashkilot, muassasa bo'yicha emas, balki har bir zararli ta'sir ko'rsatuvchi manbalarning ulami xatlash asosida belgilanadi.

Zararli moddalarni **tashlash deganda**, tegishli manbalardan atmosfera havosiga ularning tushishi tushuniladi. Bunday talab Tabiatni muhofaza qilish. Atmosfera. Ifloslanishning manbaalari va meteorologik xususiyatlari. Sanoat tashlashlar. Iboralar va tushunchalar. Davst (GOST) 17.2.1.04-77 standartida belgilangan.

Davst (GOST) 17.1.1.01-77 Tabiatni muhofaza qilish. Gidrosfera. Suvlardan foydalanish va muhofaza qilish. Asosiy iboralar va tushunchalar standartiga muvofiq zararli moddalarni **chiqarish deganda**, suv obyektlariga oqava suvlar bilan iflosantiruvchi moddalarni tashlanishi tushunitadi.

Shahar va boshqa aholi punktlarining havosida zararli moddalarning yo'l qo'yiladigan doiradagi to'planish miqdorlari oshib ketsa, korxonalar esa obyektiv shart-sharoitlarga ko'ra shunday moddalarni tashlashni yo'l qo'yiladigan doiradagi miqdorlariga rioya etish imkoniyati bo'lmasa, shunday korxonalar uchun zararli moddalarni chiqarish vaqtincha kelishilgan me'yorlari belgilanadi. Shunday holatda mazkur korxona bosqichma-

ravishda zararli moddalarni yo'l qo'yiladigan doiradagi miqdorlari ta'minlashtiga o'tishi shart.

Shundan kelib chiqqan holda, zararli moddalarni yo'l qo'yiladigan darajada tashlash miqdorlari atrof muhit holati, uni muhofaza qilish bo'yildos bajarilayotgan chora-tadbirlar, ifloslantiruvchi manbaalarni quvvatini hisqa shunga o'xshash holatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Shundan kelib chiqqan holda zararli moddalarni yo'l qo'yiladigan darajadagi miqdorda atmosferaga chiqarish me'yordi ekologik ekspertizani o'tkazish davrida etilanadi. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari yangi yoki qayta ta'mirlanayotgan obyektlar loyihalarini ekspertizadan o'tkazish davrida atrof tabiiy mabitga ushbu obyektning zararli ta'sir ko'rsatishini baholanishini talab qiladilar. Shunday baholash faqat zararli moddalarni atrof tabiiy mabitga chiqarish yoki tashlash oqibatlaridan kelib chiqib malga oshiriladi va baholashda chiqariladigan moddalarni atmosfera havosidagi zararli moddalarning yo'l qo'yiladigan doiradagi to'planish miqdorlariga mosligi qo'rib chiqiladi.

Atrof tabiiy mabitga yo'l qo'yiladigan darajadagi ta'sir ko'rsatish me'yordi atrof tabiiy mabitni ekologik funksiyalarini buzilishiga olib kelmaydigan tabiiy resurslar yoki tabiiy komplekslarga antropogen ta'sir ko'rsatish miqdorlaridir.

Atrof tabiiy mabitga yo'l qo'yiladigan darajadagi ta'sir ko'rsatish me'yordi tarmoq yoki regional turlarga bo'linadi. Tarmoq atrof tabiiy mabitga yo'l qo'yiladigan darajadagi ta'sir ko'rsatish me'yordi ma'lum bo'lib tabiiy resurs yoki tabiiy kompleks bo'yicha belgilanadi. Shunday me'yordi o'rmonlarda aholini bo'lishi, muhofaza etiladigan hududlarga bir vaqtning o'zida kirib kelishi mumkin bo'lgan odamlarning maksimal soni, o'chilish hududlarida bir vaqtning o'zida ov qilishi mumkin bo'lgan o'chilarning soni bo'yicha me'yordi, tabiiy yaylovlarining ma'lum bir maydonida boqilishi mumkin bo'lgan uy hayvonlarining soni shu turdagiligi me'yordi belgilanadi. **Mintaqaviy** atrof tabiiy mabitga yo'l qo'yiladigan darajadagi ta'sir ko'rsatish me'yordi tabiiy komplekslarga xo'jalik yoki rekreatsiya faoliyatini ta'sir ko'rsatish darajasidan kelib chiqib ishlab chiqiladi. Bunday me'yordi orqali ma'lum bir hududlarda tabiiy resurslardan foydalananish va xo'jalik faoliyatini rivojlantirish ko'rsatkichlarini atrof mabitni muhofaza qilish manfaatidan kelib chiqib cheklashlar belgilanishi lozim.

Demak ekologik me'yorlashning shakllari deganda, shunday me'yorning ma'lum bir hujjatda belgilanishi tushunilish lozim, ya'nii huquqiy tusga ega bo'lgan texnik ko'rsatkichlar qandaydir hujjatda

aks ettiriladi. Bunday hujjatlar hilma-xil bo`lib har bir tabiiy resurs bo`yicha me'yor o`zgacha shaklda o`z aksini topadi. Ekologik me'yorlar standartlar, limitlar, yo`l qo`yiladigan doiradagi to`planish yoki tashlash (chiqarish) me'yorlari, yo`l qo`yiladigan doiradagi zararli ta'sir qo`rsatish darajalari, kvotalar va foydalanish me'yorlari shakllarida belgilanadi.

Ekologik me'yorlashning *turlari* deganda, ma'lum bir tabiiy obyektning muhofazasi yoki foydalanishini tartibga soluvchi, me'yorning obyekti, shakli, maqsadi, belgilangan ko`rsatkichlari bilan farqianuvchi ekologik me'yorning ma'lum bir guruhi tushunilishi lozim.

Ekologik me'yorlashning obyektlari, subyektlari, amal qilish muddatlari va shakllari bo`yicha klassifikatsiya qilish mumkin.

Ekologik me'yorlash obyektilari bo`yicha tabiiy obyektlarning sifat va son ko`rsatkichlarini belgilovchi me'yorlarga bo`lmadi. Har bir tabiiy obyektni sitat va son ko`rsatkichlari o`ziga xos ko`rsatkichlari bo`yicha aniqlanadi. Ushbu ko`rsatkichlarni belgilash va aniqlash usullari ham o`ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, hayvonot dunyosi bo`yicha ularning kamayib ketishini oldini oladigan me'yor, ya`ni **kvota** belgilanadi. Kvota bir yo`la hayvonot obyektlari turlarini foydalanish mikdorlarini o`z ichiga oladi. Atmosfera havosi bo`yicha me'yorlar belgilanganda faqat uning sifat ko`rsatkichlari e'tiborga olinadi. Suvlar bo`yicha me'yorlar esa ularni ham sifat ko`rsatkichlari ham son ko`rsatkichlarini belgilaydi. Suv xavzalaridagi ifloslantiruvchi moddalarning yo`l qo`yiladigan doiradagi me'yorlari suvlarning sifatiga taalluqli bo`lsada, suvdan foydalanish limitlari esa suvlardan foydalanishning xajmlarini belgilaydi.

Ekologik me'yorlashning subyektlari bo`yicha qo`yidagilarga bo`linadi:

hamma subyektlarga taalluqli *me'yorlar*, masalan, ekologik standartlar atmosfera havosida ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlarning inson va tabiiy muhit obyektlari uchun yo`l qo`yiladigan to`planish darajalari, suvlarda ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlarning inson va tabiiy muhit obyektlari uchun yo`l qo`yiladigan to`planish darajalari va boshqalar. Hamma subyektlarga taalluqli me'yorlar *umumiy* bo`lib, bular respublika yoki ayrim hududlar yohud ma'lum bir xalq xo`jaligi sohasi bo`yicha belgilanadi, masalan, atmosfera havosiga transport vositalaridan chiqariladigan zararli gazlar bo`yicha ekologik standartlar transport vositalarini ishlab chiqaruvchi, ularni respublika

Innudidga olib keluvchi yoki ta'mirlovchi hamda ulardan foydalanuvchi juridik va jismoniy shaxslarga taalluqlidir;

ma'lum bir subyektga taalluqli *me'yorlar*, masalan, atmosfera havosi doimiy manbaalardan ifloslantiruvchi moddalar, biologik organizmlar qo'yiladigan doiradagi normativlari. Ushbu turdag'i ekologik *me'yorlar* ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi bilan boshqa ekologik *me'yorlardan* farqlanadi. Odatda, ushbu ekologik *me'yorlar* manfaatdo'vuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ishlab chiqilib, tabiatni muhofazalash sanitar nazorati va boshqa tegishli organlar tomonidan tasdiqlanadi.

Bundan tashqari ma'lum bir ekologik *me'yorlar* bir yo'la hammabiyektlarga va ma'lum bir subyektlarga tegishli bo'lishi mumkin. Masalan, suvdan foydalanish limitlari suv xavzalari, tumanlar va viloyatlardagi xo'jaligi tarmoqlari va har bir suvdan foydalanuvchi bo'yicha belgilanadi.

Amal qilish muddati bo'yicha ekologik *me'yorlash* *muddatsiz* yoki *ma'lum bir muddatga mo'ljallangan* *me'yorlarga* bo'linadi. Ekologik muddatlar, atmosfera havosida yoki suvlarda ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlarning inson va tabiiy muhit obyektlari uchun yo'qo'yiladigan *to'planish* darajalari *muddatsiz* belgilanadi. Suvdan foydalanish limitlari, hayvonot dunyosi bo'yicha kvotalar faqat *muddatli* hisoblanadi, chunki ular odatda bir yilga mo'ljallab tasdiqlanadi.

3. Tabiat obyektlari sifatini me'vorlash

Atmosfera havosi kimyoviy moddalar, biologik organizmlar bilan ifloslanishi va zararli fizikaviy ta'sirdan muhofaza qilinadi. Atmosfera havosini kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi natijasida uning tabiiy tarkibi buziladi, unga xos bo'lмаган moddalar havoda paydo bo'ladi natijada inson slomatligiga, hayvonot va o'simlik olamiga zararli ta'sir ko'rsatiladi. Xuddi shuningdek, atmosfera havosiga biologik organizmlar hujarilganda uning biologik tarkibi buzitadi.

Atmosfera havosida ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlarning yo'l qo'yiladigan darajada *to'planishi* bu inson va atrof muhitiga zararli bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatilmaydigan atmosfera havosida zararli moddalar miqdorini tavsiflovchi *me'yor*. Bevosita ta'sir ko'rsatish deganda zararli moddalarning *me'yorlardan* ortiq *to'planishi* natijasida inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatiladi (yo'talish, yoqmas xidlarni ozish, bosh og'rig'i va boshqalar yoki organizmda ushbu moddalar ta'sirida patogen o'zgarishlar (kasallik) rivojlanadi). Bilvosita ta'sirga inson

salomatligiga ta'sir ko`rsatmaydigan, ammo uning yashash sharoitini yomonlashuviga sabab bo`lувчи omillar kiradi. Masalan, o`simliklarga zarar yetkazilishi va ularni kamayishi, tuman tushadigan kунларни ko`payishi va boshqalar). Bugungi kunda yo`l qo`yiladigan darajada to`planishi asosan inson organizmlariga ifloslantiruvchi moddalarning ta'sirini o`rganish natijasida belgilanmoqda. Yo`l qo`yiladigan darajada to`planishni aniqlash uchun hayvonlarda, ayrim hollarda (masalan hid sezishni aniqlash uchun) insonlarda tajriba o`tkaziladi.

Yo`l qo`yiladagan to`planish darajalarini ta'minlashning asosiy vositasi bo`lib har bir doimiy manbaalardan atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqarishning yo`l qo`yiladigan doiradagi (YQD) normativlari hisoblanadi. Ifloslantiruvchi moddalarning YQD normativlari ma'lum bir hududdagi ushbu va boshqa manbaalardan chiqadigan shunday moddalarning to`planishi natijasida yo`l qo`yiladagan to`planish darajalaridan oshib ketmaydigan miqdorda belgilanadi. YQD normativlarning boshqa me'yollaradan farqi uni har bir obyekt uchun aiohida belgilanishi. Bunda uning joylashgan joyi, shu turdagи ifloslantiruvchi moddalar bilan ifloslantiruvchi manbaatarning quvvati, hududning relyefi, klimatik xususiyatlari va boshqa omillar hisobga olinadi. Shuning uchun har xil joyda joylashgan statsionar ifloslantiruvchi manbaalar uchun har xil YQD normativlari belgilanishi mumkin.

YQD miqdori manbaadan chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalarning og irligi bilan o`lchalanadi. YQD nomativlar individual xarakterga ega, chunki ularni belgilashda har bir statsionar ifloslantiruvchi obyektning xususiyatlari inobatga olinadi. Masalan, uning joylashgan joyi, gazlarni atmosferaga tashlash shart-sharoitlari (quvurning balandligi va diametri, gazlarning temperaturasi va xajmi).

YQD normativlari zararli moddalarning yer ustidagi havodagi to`planishi va yo`l qo`yiladagan to`planish darajalari bilan solishtirish natijasida aniqladi. Manbaadan chiqayotgan gazlardagi har bir modda bo`yicha YQD normativlari alohida belgilanadi. YQD normativlari sekundda tashlanadigan grammlar bilan belgilanib, qulaylik uchun shuningdek, yil mobaynida chiqariladgan moddalarning tonnada hisoblanadi.

Korxonada bir necha ifloslantiruvchi manbaa mavjud bo`lsa YQD normativlari korxona bo`yicha qo`shilib gramm/sekundda va tonna/yilda bo`yicha hisoblanadi. Gramm/sekundagi YQD o`lchovi manbaalarning quvvati qo`shilgan holda 20 daqqa bo`yicha belgilanadi. YQD normativlarda belgilangan miqdordan ko`proq ifloslantiruvchi moddalar atmosferaga chiqarilsa yoki YQD normativlarida ifloslantiruvchi moddalar atmo-

steraga chiqarish shartlariga (masalan, ma'lum bir balandligiga tashlash bo'yicha) rivoj etish iloji bo'lmasa, ushbu manbaadan chiqarilayotgan zararli moddalarning miqdori vaqtincha kelishilgan miqdorlar bilan hisoblanadi. Bunda shunday shartlarda zararli moddalarni atmosferaga chiqarilish tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan ma'lum bii

'angan muddatga kelishiladi. YQD normativlaridagi ko'rsatkichlarga chiqish uchun texnologiyani, xom ashyomi, yoqilg'ini, gazlarni tozalash uchunlarini o'zgartirish bo'yicha har xil chora tadbirlar belgilanadi. Bu chora tadbirlarni amalga oshirish katta mablag'larni talab etadi. Shuning uchun vaqtineha kelishilgan miqdorlar ushbu chora tadbirlarni amalga oshurishi davriga belgilanadi. Bunda zararli moddalarni chiqarshning iloji boricha kamaytirilishi, shu jumladan, mavjud bo'lgan gazlarni tozalash uchunidan samarali foydalanishi lozim.

Yer usti va yer osti suvlarini ekologik talablarga mosligini ta'minlashda suv obyektlariga ta'sir ko'rsatish normativlarini belgilanishi va ularga rivoj qilinishi bilan ta'minlanadi. Suv obyektlariga ta'sir ko'rsatish me'yorlari qo'yidagilarga bo'linadi: suvlarda zararli moddalarni ta'minlashda qo'yiladigan doiradagi to'planish miqdorlari; oqava suvlardagi zararli moddalarni yo'l qo'yiladigan doiradagi miqdorlari; suvdan foydalanish limitlari; sanoat, kommunal va boshqa obyektlarda suvdan foydalanish me'yorlari; qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish me'yorlari.

Bugungi suvlarni ifoslantiruvchi 2679 ta moddalar bo'yicha standartlar yo'l qo'yiladigan darajadagi to'planish miqdorlari belgilangan. Ayrim moddalarni yo'l qo'yiladigan doiradagi to'planish miqdorlari tibbiyot nuqtai nazaridan o'rnatilgan bo'lib, ular inson salomatligiga ta'sir ko'rsatishda zararga olib kelmaydigan miqdorda belgilangan va ular juda hisoblanadi.

Suvlarni sisati suvlardagi zararli moddalar va biologik organizmlarning inson va atrof tabiiy muhit obyektlari uchun yo'l qo'yiladigan darajada to'planish va oqava suvlardagi ifoslantiruvchi ifoslantiruvchi moddalar, biologik organizmlarni suvlarga tashlashning yo'l qo'yiladigan doiradagi me'yorlari bilan ta'minlanadi.

Suvlardagi zararli moddalar va biologik organizmlarning uchun yo'l qo'yiladigan darajada to'planish me'yorlari respublika hududi uchun vapona hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Suvlardagi zararli moddalar va biologik organizmlarning uchun yo'l qo'yiladigan darajada to'planish me'yorlari respublika hududi uchun

yagona hisoblanadi va O`zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi va O`zbekiston Respublikasi Sog`ligni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Oqava suvlardagi ifloslantiruvchi moddalar, biologik organizmlarni suvlarga tashlashning yo`l qo`yiladigan doiradagi me'yordari korxonalar muassasalar, tashkilotlar tomonidan ishlab chiqiladi O`zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Suvlarni miqdorini me'yorlash suvdan foydalanish limitlar orq. amalga oshiriladi. Suvdan foydalanuvchilar limitlarning miqdori davlatda raro suv manbalaridan (Amudaryo, Sirdaryo va ularga qo`shiladigan, b. necha davlat hududidan o`tadigan darvolar) respublikalararo kelushuvining shartlarini. O`zbekiston hududidagi suv manbalaridan suvning haqiqiy xajmini, yer osti suvlardan foydalanish imkomiyatlarini va qaytarilgan suvlarni takroran ishlatalishini hisobga olgan holda belgilanadai. Limitlar qishloq va suv xo`jaligi organlari tomonidan qishloq xo`jaligi suvdan foydalanuvchilar uchun yilda ikki marotaba, boshqa suvdan foydalanuvchilar uchun yilda bir marotaba belgilanadai. Suvdan foydalanish limitlari suv manbaalari, basseyn irrigatsiya tizimlar, magistral kanallar (tizimlar), irrigatsiya tizimlar, birlamchi suvdan foydalanuvchilar, hududlar bo`yicha belgilanadi. Limitlarga rioya etish, suv xajmini hisobga olish ro`yxatga olingan suv olish nuqtalarida (xo`jalik taqsimlash bosh inshoot, kanal, skvajina, nasos stansiyasi va boshqa suv olish inshootlarida) limitlangan suvdan foydalanish shartnomasiga asosan amalga oshiriladi. Limitlardan ortiq xajmda yoki limiti belgilanmasdan suvdan foydalanish iqtisodiy jarimalar qo`llanilishiga asos bo`ladi. Bu jarima har bir ortiqcha olingan suvning kubometriga ma'lum bir miqdor pul mablag`ini undirishdan iborat bo`ladi.

O`simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishni me'yorlash bevosita va bilvosita amalga oshiriladi. *Bevosita me'yorlash* orqali o`simlik va hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanish va muhofaza qilish me'yordari belgilanadi. *Bilvosita me'yorlash* orqali o`simlik obyektlarni o`sish muhiti va hayvonlarning yashash muhiti ma'lum bir sifat darajasi ta'minlanadi. Bunday me'yorlash orqali atmosfera havosini, suvlarni va boshqa tabiiy obyektlarni o`simlik va hayvonot dunyosi uchun bezzarar sifat va son ko`rsatkichlari belgilanadi. Masalan, o`simlik va hayvonot dunyosini me'yorlash ham tegishlicha hayvonot va o`simlik obyektlariga ta'sir qiladi. O`simlik obyektlarini kamayib ketishi hayvonlarning ozuqasi kamayishiga va buning natijasida esa *birinchi navbatida* o`simlik bilan oziqlaradigan hayvonlarning soniga, *ikkinchi*

Natura esa yirtqich hayvonlarning kamayshiga sabab bo`ladi. Atmosfer, o`simlik va suv obyektlarning sifatini yomonlashuvi ham o`simlik va hayvonot obyektlarning soniga salbiy ta'sir etishi mumkin. Masalan foyvonotning ifloslanish baliq va boshqa suv organizmlarning kamayishiga qoldi ketadi.

Foytalarni belgilash tartibi bugungi kunda quyidagicha amalgam qilmoqda: hayvonot dunyosidan foydalanuvchi yuridik shaxslar haqida boshida tabiatni muhofaza qilish organlariga ularga biriktirilgan qo`mitasi bilan mayjud bo`lgan hayvonlarning turlarining soni bo`yicha ma`lum qo`raqdim etadilar. Ushbu ma`lumotlarga asosan, Fanlar Akademiyasining zoologiya instituti, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi hamda O`mon xo`jaligi bosh boshqarmasi vazillaridan iborat tarmoqlararo ko`rib chiqadi va har bir hayvon turi bo`yicha foydalanish imkonidan mayjudligi va atrof muhitdan ularni olinadigan tarzda foydalanish bo`yicha hayvonlarning turi va soni to`g`risida xulosa tayyorlanadi. Bunday xulosaga asosan, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasining Buyrug'i bilan har bir hayvon turi va uning foydalanish hududlari bo`yicha mazkur foytalarni belgilash to`g`risidagi buyruq vaqtin chetlik umummajburiy hisoblanib, Adliya vazirligida davlat ro`yxatida qozulazilmoqda. Ushbu buyruq bir yil muddatga mo`ljallangan bo`lib hayvonot dunyosidan foydalanish rejasi hisoblanadi va bir yo`la ushbu qo`mitadagi ekologik me'yorlarlashning vazifasini bajaradi. Masalan, 2004-yilda bioresurslardan foydalanish me'yorlari haqida O`zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasining 2004-yil 18-fevralda tayyorlangan Buyrug'i chiqarilgan va 2004-yil 5-aprelda 1332-son bilan O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro`yxatga olingan.

O`simlik dunyosidan foydalanish me'vorlari ham bir yilga mo`ljallangan bo`ladi. Tabiiy pichanzor va yaylovlarda pichan o`rish va mol boqish alohida har bir pichanzor va yaylov bo`yicha me'yor sifatida o`sish uchun muddatga belgilanishi lozim. «O`simlik dunyosini muhofaza qilishi va undan foydalanish to`g`risida»gi Qonunning 9-moddasiga asosan, ushbu me'yorlarda pichan o`rish va mol boqishning miqdori hamda muddatlar belgilanadi. Ushbu miqdor va muddatlar har bir tabiy pichanzor va yayloving o`simliklar holati va ularni tiklanish qobiliyatidari heib chiqib belgilanadi. Masalan, 2003-yil 15-maydagi F-77-soni Toshkent viloyati hokimining Farmoyishi bilan Ugam-Chotqol davla milliy tabiat bog'i boshqarmasiga qarashli yaylovlardan yozgi mavsumda chorva mollarini joylashtirilishi tartibga solingan. Ushbu Farmoyishga asosan Andijon viloyatinining chorva mollari uchun Ohangaron o`rmosi

xo'jaligidan 22000 hektar, Burchmullo o'rmon xo'jaligidan 4600 hektar yaylov maydoni va Fargona viloyati uchun Burchmullo o'rmon xo'jaligidan 4000 hektar va Ohangaron o'rmon xo'jaligidan 2000 hektar yaylov maydoni ajratib berilgan. Mazkur Farmoyishning ilovasida viloyat yaylovlariда joylashtirilishi lozim bo'lган otlar, yirik va mayda shohli mollarning miqdori belgilangan. Masalan, Pskent tuman yaylovlariда Pskent tumanidagi jamoa, fermer xo'jaliklariga va aholiga qarashi: mollarning soni quyidagicha belgilangan: yirik shohli mollar – 37000 ta, mayda shohli mollar – 370000 ta.

Yovvoyi holda o'sadigan shisobahsh va oziq-ovqatbop o'simliklari hamda o'simlik-texnik hom ashyosini tayyorlash kvotalarini Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi bilan kelishilgan holda tasdiqlaydi. Ushbu kvota hayvonot dunyosidan foydalanish to'g'risidagi kvota kabi har yili belgilanib, qaydi etilgan maqsadlarda foydalanadigan o'simlik dunyosi obyektlarini hisob ma'lumotlariga asosan o'simlik dunyosining har bir turi va foydalanilishi lozim bo'lган hududlar bo'yicha belgilanadi.

Hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlarining foydalanish me'yorlari ni belgilashda hayvonot va o'simlik obyektlarini yo'k bo'lib ketishiga yo'l qo'ymaydigan darajada kvotalar o'matiladi. Shuning uchun ham hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlarini haqiqiy tarqalgan sonidan kelib chiqilishi lozim. Agar hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlarining soni ma'lum bir minimal sondan kamayib ketsa, ushbu obyektning turi o'z-o'zini sonini tiklash qobiliyatini yo'qotib, vaqt vaqt bilan u kamayib ketayotgan va noyob o'simlik hamda hayvonot dunyosi turlariga kiritilishga sabab bo'ladi. Demak, hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish me'yorlari nafaqat ushbu obyektlardan foydalanish rejasi sifatida, balki ekologik me'yor sifatida ko'rilishi lozim. Hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish me'yorlarini belgilashda ilmiy asoslangan yondashishni ta'minlash uchun Fanlar Akademiyasining tashkilotlari, ilmiy hodimlarining xulosalari talab qilinadi. Ushbu me'yorlar mazkur obyektlardan foydalanish rejasi bo'lganligi sababli, ularni tasdiqlashdan oldin ekologik ekspertizasi o'tkazilishi lozim. Masalan, tabiiy yaylovlar va pichanzorlarda mol boqish va pichan o'rishning me'yor va muddatlan «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi Qonunning 9-moddasiga asosan qishloq va suv, hamda o'rmon xo'jaligi davlat organlarining taqdimotiga ko'ra mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan tasdiqlanadi. Shunday me'yorning loyihasi O'zbekiston

Respublikasining «Ekologik ekspertizasi to`g`risida»gi Qonunini 11-moddasiga asosan davlat ekologik ekspertizasidan o`tkazilishi lozim.

Tabiiy resurslardan foydalanish *limitlari* – tabiiy resurlardan foydalanishning yoki iste'mol qilishning yo`l qo`yiladigan me'yorlari. Limitlar boshqa ekologik talablar bilan bir qatorda atrof tabiiy muhit muhofaza qilishning samarali vositasi hisoblanadi. Limitlashning asosiy sababi tabiiy resurslar zaxiralarini cheklanganligi va ulardan foydalanish oqilona foydalanishi va qayta tiklanishini ta'minlash zarurligidan kelit chiqadi.

Tabiatdan foydalanish jarayonida tabiiy moddaning chiqarib olish limitlari tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklashning umumiy tamoyillariga asoslanadi. Limitlar aniq bir obyektlar bo`yicha belgilanadi.

Aslida, limitlangan foydalanish tushunchasi birinchi marotaba «Suv va sudan foydalanish to`g`risida»gi qonunda o`z aksini topgan. Suv xo`jaligi organlari tomonidan tasdiqlanadigan limitlar suv obyektlari, qishloq xo`jaligi, sanoat, kommunal xo`jaligi va har bir suvdan foydalanuvchi bo`yicha belgilanadi.

Tabiiy resurslardan foydalanish limitlarini belgilashdan ikkitagi magsad ko`zda tutiladi. **Birinchidan**, tabiatni va uning boyliklarini aqlash bo`lsa, **ikkinchidan**, iqtisodiy manfaat asosida resurlarni me'yorda yoki me'yordan ortiqcha foydalanganlik uchun to`lovlarini undirish. Tabiiy resurslarni iste'mol qilganlik uchun olingan to`lovlar ularni qayta tiklash va oqilona foydalanishni ta'minlash uchun sarflanadi.

Zararli moddalarning yo`l qo`yiladigan tashlash, joylashtirish miqdorlari ham tabiiy muhitdan foydalanishning bir turi bo`lib hisoblanadi. Bunday limitlashtirish tabiatni muhofaza qilish vazifasini bajaradi, ya`ni *birinchidan* ifloslantiruvchi manbaasidan chiqindilarning zararli moddalarini kamaytirish, *ikkinchidan* esa, ularni tashlaganlik uchun to`lovlardan shakllanadigan tabiatni muhofaza qilish fondlaridan ekologik maqsadlar uchun foydalanishni ta'minlashga qaratilgan.

Yerlarni va tuproqni muhofaza qilish sohasida me'ylash ularni nesli mahsulotlari, moylar, og`ir metallar, sanoat va maishiy chiqindilar, qishloq va o`rmon xo`jalgini kimyołashirish vositalari bilan ifloslanishini kamaytirishga hamda tuproq erroziyasini, sho`rlanishi va boshqa salbiy jaryonlarni rivojlanishini oldini olishga qartilgan.

Tuproqlarni saqlash va ulardan oqilona foydalanish bo`yicha choralarning maqsadini belgilovchi standartlashtirish obyektlaridan biri bo`lib tuproqlarni ifloslantiruvchi moddalar, tuproqlarni yo`qotishga,

ifloslanishiga, sho`rlanishiga, erroziyalanishiga sabab bo`layotgan xo`jalik va tabiiy faktorlarning klassifikatsiyasidir. Salbiy ta'sirdan tuproqlarni muhofaza qiluvchi chora-tadbirlar ham klassifikatsiya qilmishi lozim. Ushbu kalssifikatsiya tuproq-iqlim va boshqa shart-sharoitlarni, tuproqlardan foydalaniш xususiyatlarini, tuproqlarni o`z-o`zini muhofaza qilishini va boshqa bir qator tuproqlarni holatiga ta'sir etuvchi xususiyatlarini inobatga olishi kerak.

Tuproqni muhofaza qilish sohasidagi me'yordaga ifoslantiruvch, moddalarning yo`l qo`yiladigan to`planish darajalari, sanitar gigivenil normativlari kiradi. Tuproqlarning sifat normativlari birmchi navbatda qishloq xo`jaligi yerlari uchun belgilanadi.

Yerlarni muhofaza qilish sohasida me'yorlar ikkita asosiy yo`nalishga ega. *Birinchidan*, sanoat, fuqarolik, uy-joy qurilishi, foydal qazilmalarni qazib olish va qayta ishlash uchun hamda boshqa maqsadlarda yerlarni ajratib berishni tartibga solish yo`li bilan yer fondidan ogilona foydalanishni ta'minlash. *Ikkinchidan*, insonning ishlab chiqarish faoliyati natijasida rekultivatsiya orqali buzilgan yerlarning holatini yaxshilash. Yerlardan foydalanish va ulami muhofaza qilish sohasida asosiy qoidalar, kompleks standartlarning mazmuni va tarkibiga nisbatan talablar hududlarni ekologik va iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yer fondidan tizimli ravishda foydalanishni ta'minlash maqsadida belgilanadi.

Pestitsid qoldiglarini aniqlash uchun preparatlarni foydalanilayotgan maydonlardagi qoldiglarining o`rtacha miqdori hisoblanadi. Olingan ma'lumotlar kartosxemalarda aks ettiriladi va natijada har bir maydondagi pestitsid qoldiglari yo`l qo`yiladigan darajalar miqdorlari bilan solishtiriladi. Pestitsid qoldiglari to`g`risida ma'lumot olinishi lozim. Odatda ikkita ko`rsatkich olinadi. Pestitsidni belgilangan me'yorda qo`llanilganidan so`ng uning qoldig`i o`lchaniladi va u birlamchi ma'lumotlarni tashkil etadi. Keychalik uning qoldig`i nolga yoki bezzarar boshqa mikdorga tushishi lozim bo`lgan belgilangan ma'lum bir vaqt o`tgach ma'lumot yig`iladi. Oraliq davrda ma'lumot olinmaydi. Ammo nazoratni samarsini oshirish uchun oraliq vaqtida ham pestitsid qoldig`i bo`yicha ma'lumot yig`ilishi kerak.

4. Ekologik standartlashtirish

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida standartlashtirish ishlab chiqarishning unumligi va samaradorligini oshirish uchun yanada texnik,

iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda. Standartlashtirish obyektlarini kengayishi, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning ko`p tarmoqlariga kirishning rivoji uchun ko`p resurslarni jalb qilmishi talab etiladi. Boshchitardan esa standartlashtirishni rivojlantirish o`z navbatida resurlardagi jumladan tabiiy resurslardan oqilonqa foydalananishiga ijobji ta'sis etasadi. Mahsulot sifatini boshqarish davlat tizimida har xil uslubli shakliy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks ravishda qo'llaniladi. Ushbu shartlarga asosan standartlashtirish, metrologiya va mahsulotlari masalalarida huquqiy ta'sir ko`rsatish chegaralarini aniq belgilashtirish shu orqali ularni hal qilishda huquqiy vositalarni unumli qo'llanilishi iminlash mumkin.

Standartlar mahsulot sifatini tartibga solishning huquqiy shaklisoblanadi. Boshqa texnik reglamentlardan farqli ravishda ular normativ shakga ega bo`lib, davlatning majburlash kuchi bilan ularni bajarilish uchun qilinadi. Standartlar normativ aktlar hisoblanadi va ularni qabul qilishda joriy qilish jarayoni qonun hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi. Ularning mutaxassislik, balki huquqiy nuqtai nazarda tuzilgan bo`lishi shart. Yuristlarning standartlashtirishdagi roli, ularni huquqiy ekspertiza dan o`tkazib, amaldagi qonun hujjatlari talablariga mosligini aniqlashdi. Bu esa keychafik joriy qilingan standartlar yuzasidan vujudga kelish mumkin bo`lgan nizolarni oldini oladi. Standartlarni huquqiy ekspertiza dan o`tkazish birinchı marotaba 1975-yilda ko`zda tutilgan.

Xalq xo`jaligi nuqtai nazaridan yondashish - standartlashtirishda xalq xo`jaligi manfaatlatini ko`zda tutib mahalliy yoki tarmoq manfaatlariga mosbatan ustivor bo`ladi. Standartlashtirishning iqtisodiy samarasini uning mahsulotlarni loyihalashtirish, ishlab chiqarish, sotish va foydalanishdagi iqtisodning unumlilikiga ta'sir ko`rsatish darajasiga qarab aniqlanadi. Ayrim hollarda standartlarni joriy qilish mahsulotni ishlab chiqarish surayonida yetarli samara berinasligi mumkin, ammo ushbu mahsulotni tashish molchilar standart joriy etilishidan mansaftor bo`lishi mumkin. Shuning uchun standartning samarasini baholash mahsulot «hayot» livomida beradigan foydasidan kelib chiqqan holda baholash zarur.

Standartlashtirish mahsulot sifatini ta'minlovchi asosiy talab. ardabi hisoblanadi. Mahsulot sifatini boshqarishning kompleks tizimi deyarli mahsulotlarni loyihalashtirish, ishlab chiqish, muomalada bo`lish va ishlatalishda mal`umi bir sifat darajasini ta'minlovchi tadbirlar, uslublar va usullar majmuasi deb tushunilishi lozim. Mahsulot sifatini boshqarishning kompleks tizimi huquqiy, iqtisodiy, va texnik elementlardan tashkil topadi.

va ishlab chiqarishning ilg`or shakl va uslublaridan hamda ilmiy texnika yutuqlaridan samarali foydalanish natijasida sifatni ta'minlaydi.

Mahsulotlar sifati muammosi hozirda eng muhim, keskin va murakkab muammolardan biri hisoblanadi. Sifat muammosini yechish uchun quyidagilar zarur: *birinchidan*, fanning yuqori darajada rivojlanishi; *ikkinchidan*, sanoatda bozor talablariga javob beradigan ishlab chiqarish imkoniyati mavjud bo`lishi; *uchinchidan*, yuqori darajadagi malakali mutaxassislar va ishchilarni ishlab chiqarishga jalg qilinishi; *to rtinchidan*, ishlab chiqarishni tashkil etishda ekologik muammoлarni yechishning ustun qo`yilishi.

Mahsulot sifatini oshirishda standartlashtirish muhim o`rinni egallaydi. Standartlar bu nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosdagi har xil xo`jalik, ishlab chiqarish tarmoqlarining o`zaro birligini va bir-biriga muvosiqligini ta'minlovchi ilmiy-texnikaviy qonun. Sifat muammosi nafaqat texnik, balki iqtisodiy va ijtimoiy tusga egadir.

Standartlashtirishning atrof – tabiiy muhit uchun xavfsizligini ta'minlash, resurslarning barcha turlarini tejash, material va energiya sig`imini kamaytirish, kam chiqindisiz texnologiyalarni qo`llash kabi maqsad va vazifalari standarlarning ekologik ahamiyatini bildiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida standartlashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish vazifasini bajaradi, chunki u talab qiladigan texnik va texnologik qoidalar ishlab chiqaruvchilarning barcha turdagи mahsulotlarini eng yaxshi namunalariga asoslanib ishlab chiqarishga yo`naltiradi.

Standartlashtirishni bir tomondan muxandislik faoliyati deb tushunsak, ikkinchi tomondan qonunchilik huquq ijod qilish yuridik faoliyati deb tushunamiz. Standartni huquqning muhim manbaalaridan biri deb hisoblasak bo`ladi. Odatda barcha standartlarni normativ texnik hujjatlar sifatida ko`rishadi, chunki ular seriyali mahsulotlarning xarakteristikalarini belgilaydi. Haqiqatda qo`pchilik stanadartlar ishlab chiqarish darajasini belgilab ko`yadi. Lekin, standartlar bevosita yoki bilvosita ilmiy texnika taraqqiyoti bilan bog`liq munosbatlarni tartibga soladi. Standartlarda aks ettiriluvchi texnik oida va talablarga huquqiy shakl berilishi bilan ular nafaqat texnik, balki yuridik me'yorga aylanadi. Ularga texnik, iqtisodiy va yuridik xususiyatga ega bo`lgan talablar ko`yilishi lozim. Standatlarni hujjat sifatida huquqiy ishlov berish va ulardagи talablar qonunchilikka zid kelishini oldini olish maqsadida ularni huquqiy ekspertizadan o`tkazish kerak.

Davlat organlarining standartlarni belgilash, ularga rioya etish usi
nazoratni olib borish bo'yicha faoliyati **standartlashtirish** de
mlanadi.

Ekologik standartlashtirish standartlashtirish tizimning asosiy el
mentaridan biri bo'lib hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasini
tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi «Standartlashtirish
tizimida»gi Qonunning 2-moddasiga asosan standartlashtirish davl
atni hisoblanadi. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tabi
resurslardan foydalanish, atrof tabiiy muhitni ifloslanishi va boshqa zazar
resurslardan muhofaza qilish sohasidagi standartlarni va texnik shartlarn
uchlab chiqadi, tasdiqlaydi va chop etadi.

O'zbekiston Respublikasida ekologik standartlar o'tgan asming 70
yillaridan boshlab joriy qilib kelingan. Masalan, «Tabiatni muhofaza qilish
va tabiiy resurslardan foydalanishni yaxshilash sohasida standartlar tizimi
17.00.01-76 DAVST (GOST) standarti joriy qilingan. Ushbu standart
ekologiya sohasida standartlashtirishning bosh standarti hisoblanib, boshq
standartlar esa undan kelib chiqib belgilanishi lozim.

Dastlabki ekologik standartlarga qayd etilgan standartdan tashqa
qo'yidagilar kiradi: 17.2.1.04-77 DAVST «Tabiatni muhofaza qilish
Atmosfera. Ifloslanishning manbalari va meteorologik omillari.»; 17.1.01
17.1.02 DAVST «Tabiatni muhofaza qilish. Gidrosfera. Suvlardan foydalanis
va muhofaza qilish. Asosiy terminlar va tushunchalar.».

Davlat standarti atrof tabiiy muhit yoki uning obyektlarini majburi
sifat me'yorlari bo'lib, ularning fizik, kimyoviy, biologik va boshq
ko'rsatkichlarini belgilaydi.

Ekologik standartlashtirishning tizimi uchta asosiy yo'nalishda
borat. Birinchi yo'nalishdag'i standartlar atrof tabiiy muhitga zararli ta'si
ko'rsatishning yo'l quyladigan ekologik me'yorlarini belgilash tartibi v
shartlarini o'z ichiga oladi. Ikkinci yo'nalishdag'i ekologik standartlar
atrof tabiiy muhitni muhofaza qilinishini tashkillashtirishga taalluqli
talablarini belgilaydi. Masalan, aholi punktlarida havoning sifatini nazorat
qilish qoidalari 17.2.3.01-77 DAVST bilan belgilangan. Uchinchi yo'nalishdag'i
standartlar atrof tabiiy muhitni muhofazasiga taalluqli tushun
chalarni yagona talablarini belgilaydi. Masalan, 17.1.1.04-80 DAVST
bilan yer osti suvlarini foydalanish turlariga qarab klassifikatsiyasini
belgilangan.

Ekologik standartlar ustivor ravishda texnik qoidalarni belgilab, ular
huquqiy akt xususiyatlariiga egadir. Lekin, shu bilan birga, ular qonumla
va qonunosti hujjatlaridan quyidagilar bilan farqlanadi. *Birinchidan*, davlat

ekologik standartlari qonun hujjatlariga nisbatan yordamchi vazifani bajaradi. *Ikkinchidan*, ekologik standartlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga solmaydi, ular atrof tabiiy muhitni, uning obyektlarini yoki mahsulotlarni ma'lum bir sifat ko'rsatkichlariga mos kelishi lozimligini belgilaydi. *Uchinchidan*, standartlashtirish bir xil xususiyatlarga ega bo`lishi lozim bo`lgan tipik obyektlar bo`yicha belgilanishi lozim. To'rtinchidan, butunlay atrof tabiiy muhit yoki uning obyekti ekologik standartlashtirilmaydi, balki ularni ma'lum bir xususiyatlari, funksiyalari standartlashtiriladi.

Davlat huquqiy me'yorlar orqali ishlab chiqarishning ma'lum bir uslublari, mahsulotlar javob berilishi lozim bo`lgan qandaydir majburiy talablarni qo`yardi. Ushbu uslub va talablar texnik hususiyatga ega bo`lsada, davlat tomonidan huquqiy shaklda aks ettirilishi bilan huquqiy xarakterga ega bo`ladi va me'yorlar texnik mazmunga ega bo`lgan huquqiy normaga aylanadi.

Standartlashtirish o`z mohiyatiga ko`ra tartibga solishni anglatadi, texnik taraqqiyotni fan, texnika, ishlab chiqarishni boshqarishning huquqiy me'yorlarda aks ettirish bo`yicha davlatning faoliyatidir. Demak, standartlashtirish ikkita turdag'i ijtimoiy munosabatlarning, ya'ni texnika taraqqiyoti va huquq orasida turadi. Standartlashtirish bu texnik qonunchilikdir, chunki u davlatning texnik siyosatini huquqiy me'yorlarda aks ettiradi.

Standartlashtirishni huquqiy tartibga solish masalalarini o`rganganda huquqning vazifasi faqatgina texnik talablarni belgilash bilan cheklanmaydi. Huquqiy tartibga solishning ahamiyati insonlarning jamiyatdagi harakatlariga ta'sir ko'rsatishi bilan namoyon bo`ladi. Shu yo`nalishda huquqiy me'yorlarda texnik talablarni buzganlik uchun javobgarlik masalasi aks ettiriladi. Demak, huquqiy (texnik-huquqiy) me'yorlarda texnik talablarni aks ettirilishida; ushbu talablarni bajarishini huquqiy vositalalar bilan ta'minlashda huquqiy tartibga solishning vazifasi ko'rindi.

Iste'molchilarga olingen mahsulotning ekologik tozaligi to`g`risida aniq axborotlarni berish va ishlab chiqaruvchilarni atrof muhitni muhofaza qilish bo`yicha qoida va talablarga rioya etishlarini rag`batlantirish maqsadida Yevropa ittifoqida mahsulotlarni maxsus belgi bilan ekologik markirovka qilish joriy etilgan. Ushbu belgi yuqorida qayd etilgan direktivalarga muvofiq tarkibida belgilangan me'yorlarda xavfli moddalar va preparatlar bo`lgan mahsulotlarga beriladi. Har xil davlatlarda ushbu belgini rangi har xil qo'llaniladi (yashil yoki moviy).

Ishlab chiqaruvchi ekologik belgidan foydalanish huquqini olish uchun ishlab chiqargan mahsulotining ekologik xususiyatlarini baholash uchun sertifikatlashtirish bo`yicha organga, shartnoma asosida topshirishi

lozim. Ushbu organning ijobiy xulosasiga asosan da'vogarga ekologiya sertifikat beriladi va u ekologik belgini qo'llashga asos hisoblanadi. Ekologik belgi mahsulot ishlab chiqaruvchi va sotuvchilarga mahsulotni surishda hamda uni reklama qilishda katta yordam beradi.

ISO 14000 turkumidagi standartlar xorijiy mamlakatlarda keng joriy qilingan bo'lib ekosertifikatlashtirishni normativ bazasi sifatida xizmatladi. Yevropa ittifoqi mamlakatlarida ISO 14001 standartini qabul qilishni chop etilishidan oldin (1996 yil) «Atrof muhitni boshqarish va tekshish bo'yicha dastur» (YEMAS) qabul qilingan edi (1993 yil). Shuningdek, hun ham Yevropa mamlakatlarida ISO 14000 standartlariga va YEMA talablariiga mos keluvchi ekosertifikatlashtirishning turlari mavjud. Yaponiya va Olmoniyada minglab kompaniya va firmalar ISO 14000 turkumidagi standartlarni va sertifikatlashtirish tizimlarini joriy qilganlar.

Shuni ta'kidlash lozimki, jamiyatda ekologik so'f mahsulotlarni va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari dolzarb bo'lganda, kompaniya va firmalar atrof muhitni muhofaza qilish masalalarida o'z manfaatdorligini bildira boshladilar. ISO 14000 turkumidagi standartlarga mos kelishi to'g'risidagi sertifikatlar bu masala yuzasida kompaniya va firmalarning mahsuloti va ularni faoliyat eng yuqori darajada ekologik talablarga javob berishi to'g'risida dalolat beradi.

Nazariy jihatdan o'rGANIshI lozim bo'lgan muammolarga quyidagi tizimi kiritsak bo'ladi: standartlashtirishning davlat tiziminining huquqiy tizimlari; standartlashtirish organlari taomonidan tasdiqlanadigan standartlar; metrologik qoidalar, va boshqa normativ-huquqiy hujjalarning yuridik rabiati; standartlar va normativ-texnik hujjalarning toifalari, ularda texnik qoidalarning o'mi; standartlashtirish, metrologiya va sifat masalani bo'yicha qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalashtirish; standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish organlarning huquqiy maqomini belgilash.

Bo'lginda javobgarlik masalasi xam muxim kasb etadi. Aga korxonaning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari sifatsiz mahsulot chiqarsalar, bundan tashqari o'z mansab lavozimlarini suiste'mol qilishsiz bo'lalar ular ham mansab lavozimlarini suiste'mol qiliganligi va sifatsiz mahsulot chiqarganligi uchun javobgarlikka tortiladilar.

5. Ekologik sertifikatlashtirish

Sertifikat so'zi lotin tilidan tarjima qilinganda «to'g'ri qilindi» degan ma'noni anglatadi. Sertifikatlashtirishdan oldin mahsulotler qaysi

talablarga javob berishini aniqlash lozim. Mahsulotlar bo'yicha talablar standartlar va boshqa me'yorlarda belgilanadi. Shuning uchun ham ular **muvofiqlik sertifikati (Assurance of conformity)** deb nomlanadi va ISO/MEK tizimida ham muvofiqlik sertifikati qo'llaniladi.

Sertifikatlashtirish guvohlik berish, qayd yoki shaxodat etishi, ishonch bildirish ma'nolarini bildiuvchi certifus (lotincha) so zidan olingan bo'lib, kerakli ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini uchunchi, xolis va tan olingan tomon tarafidan tasdiqlaydigan faoliyatni bildiradi.

Sertifikatlashtirish deganda mahsulot (buyum, mol) yoki xizmat muayyan standartga yoki texnikaviy shartlarga mos kelishini tasdiqlash maqsadida o'tkaziladigan faoliyat tushunilib, ushbu faoliyat natijasida mahsulot (buyum, molning) sifati haqida iste'molchini ishontiradigan tegishli hujjat – sertifikat beriladi.

Sertifikat mahsulot ishlab chiqilgan mamlakat, fimaning nomi, uning yuridik manzili va boshqalarni bildiradi - kelib chiqish sertifikati. Ikkinchidan, sertifikat mahsulotning son ko'rsatkichlari, uning sifat xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotni o'z ichiga olib sifat sertifikati deb nomlanadi. Uchinchidan, sertifikat mahsulotning ko'rsatkichlarini standartlarga mosligini tasdiqlaydi va u muvofiqlik sertifikati deb nomlanadi.

Sertifikatlashtirish jarayoni boshqa me'yorlashdan farqli ravishda quyidagi xususiyatlarni tavsiflanadi. Birinchidan, sertifikatlashtirish uchinchi tomondan – davlat tan olgan (akkreditatsiyadan o'tgan) organ yoki tashkilot tomonidan o'tkaziladi. Ushbu organ yoki tashkilot mahsulot ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar orasida turib mahsulotning sifat va boshqa ko'rsatkichlari to'g'risida kafolat beradilar. Ikkinchidan, aniq bir ishlab chiqilgan mahsulot sertifikatlashtiriladi va bunda mahsulotni qalbakilashtirishning oldi olinadi. Uchinchidan, sertifikatlashtirish mahsulotning standart va boshqa me'yoriy hujjatlardagi belgilangan talablarga mosligini bildiradi.

Ekologik sertifikatlashtirish mahsulot, ishlarni atrof tabiiy muhitni holatiga zararli ta'sir ko'rsatmaslik darajasini aniqlaydigan uslub hisoblanadi. Sertifikatlashtirish ishlab chiqarilgan mahsulot yoki bajarilayotgan ishlarni belgilangan standartlar va boshqa me'yorlarga mos kelishimi aniqlaydigan jarayon. Shu nuqtai nazardan ekologik sertifikatlashtirishda ishlab chiqarilayotgan mahsulot bajarilayotgan xizmatlarni hamda ishlab chiqarish jarayonlarini belgilangan ekologik talablarga mosligini aniqlash bo'yicha davlat organlarini yoki ular vakil qilgan shaxslarni faoliyati

hisoblanadi. Ekologik sertifikatlashtirishda sertifikatlashtirish obyektir hisoblanadi. Ekologik sertifikatlashtirishda sertifikatlashtirish obyektir hisoblanadi.

Ekologik sertifikatlashtirishning maqsadi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va bajarilayotgan ishlarni ekologik xavfsizligini aniqlashdan iboratdir. Demak, ekologik sertifikatlashtirish fuqarolarni qulay atrof muhim qoidalari bo`lib huquqini amalga oshirishning alohida huquqiy kafolatidir. Ekologik sertifikatlashtirishning umumiy sertifikatlashtirishdan alohida hisoblanadi.

Ekologik sertifikatlashtirish atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, ekologik sertifikatlashtirish tizimini joriy qiladi.

Akkreditatsiyadan o`tgan ekologik sertifikatlashtiruvchi organ ekologik sertifikatlashtirish tizimini joriy qiladi, ekologik sertifikatlashtirishni ushkashkilashuradi va o`tkazadi. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni ishlash, aniqlash, xizmatlarni bajarish ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi.

Ekologik sertifikatlashtirish tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitas organlari, xususan ekologik sertifikatlashtirish, me`yorlashtirish Bosnoshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi. Ekologik sertifikatlashtirish tizimida mahsulotlar va xizmatlarning ekologik talablarga mosligini aniqlash uchun ekoanalitik labaratoriylar jalb qilinadi. Ushbu labaratoriylar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo`lib, ekologik sertifikatlashtiruvchi qatlashishi uchun O`zstandart organlarida akkreditatsiyadan o`tkazish shart. Akkreditatsiyadan o`tgan shaxslarga belgilangan shakldagi avohnoma beriladi.

Ekologik sertifikatlashtirish **tizimi** quyidagilarni o`z ichiga oladi:
ekologik sertifikatsiyalashtirish tamoyillari, me`yorlari va qoidalarini belgilovchi normativ hujjatlarning kompleksini;

ekologik sertifikatsiyalashni, ekspert auditorlarni attestatsiyadan, ekologik sertifikatlashtirish organlarini akkreditatsiyadan o`tkazish, inspeksion nazoratni amalga oshirish, yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli ma`lumotlarni taqdim etish bo`yicha faoliyatga tashkiliy uslubiy tibbarlik qiluvchi organlarning tizimini;

ekologik sertifikatlashtiruvchi organlarni, sertifikatlashtirilgan shaxslarni, berilgan ekologik sertifikatlarni hisobga olish uchun reyestriini va b.

Ekologik sertifikatlashtirish tizimi ko`yidagi **vazifalarni** bajaradi:
ekosertifikatlashtirish organlari, sinov - analitik laboratoriylarini akkreditatsiyadan o`tkazish;

ekspert-auditorlarni tayyorlash va attestatsiyadan o`tkazish;

yuridik va jismoniy shaxslarga ma'lumotlar berish va maslaxat uslubiy xizmatlar ko`rsatish;

boshqa sertifikatlashtirish tizimlari bilan sertifikatlarni, attestatlarni, muvofiqlik belgilarini, sinov va analiz natijalarini o`zaro tan olish;

ekologik sertifikatlashurishni o`tkazish;

reyestrni yuritish;

inspeksion nazoratni amalga oshirish.

Ekologik sertifikat umumiyy sertifikatning tarkibiy qismi sifatida yoki alohida mustaqil ravishda o`tkaziladi. Ekologik sertifikatning shakki O`zdavstandart tomonidan tasdiqlanadi va davlat reyestriga kiritiladi. Ekologik sertifikatlarni xuddi shunday mahsulot ishlab chiqaruvchi, xizmatlarni (ishlarni) bajaruvchi boshqa shaxslarga berish man qilinadi.

Majbuliy sertifikatlashtirilishi lozim bo`lgan mahsulot, xizmatlar (ishlar)ning ro`yxati Vazirlar Mahkaması tomonidan tasdiqlanadi. Odadta, bunday ro`yxatga fukarolarning hayoti va sog`ligiga, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga, atrof tabiiy muhitga zararli ta'sir ko`rsatishi mumkin bo`lgan mahsulotlar, xizmatlar (ishlar) kiritiladi. Majbuliy sertifikatlashtirish ishlab chiqarish jarayonini o`rganish, mahsulotlarni sifat ko`rsatkichlarini normativ hujjatlar talablariga mosligini aniqlash uchun sinash, sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni inspeksion nazorat qilishni o`z ichiga oladi.

Majbuliy sertifikatlashtirilishi lozim bo`lgan mahsulotlarni O`zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish faqat ekologik sertifikatu mavjud bo`lgandagina amalga oshirishi mumkin. Ushbu talab to`g`risida import kontraktlariga tegishli qoida kiritilishi lozim. Ekologik sertifikatlar tegishli mollar respublika hududiga olib kelinganda deklaratsiya bilan birgalikda bojxona organlariga taqdim etiladi. Majbuliy ekologik sertifikatlashtirish mahsulotlarni hamda chiqindilarni ro`yxati Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 19-apreldagi 151-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu qarordagi to`rt guruh ro`yxat tasdiqlangan.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish yuridik va jismoniy shaxslarning tashabbusiga asosan murojaat etuvchi va sertifikatlashtirish organi o`rtasidagi shartnomalar shartlari bo`yicha o`tkaziladi. Shuning uchun ham sertifikat lashtirish tizimi mahsulot, xizmat va jarayonlar uchun belgilangan talablarni o`z ichiga oluvchi normativ hujjatni murojaat etuvchi tomonidan tanlanadi. Murojaat etuvchi bo`lib mahsulot va xizmatlar ishlab chiqaruvchi, yetkazib beruvchi, sotuvchi, iste'mol qiluvchi bo`lishi mumkin. Odadta, ixtiyoriy sertifikatlashtirish obyekti bo`lib majbuliy sertifikatlashtirish ro`yxatiga kirmagan mahsulot, xizmatlar va jarayonlar hisoblanadi.

Majburiy sertifikatlashtirishdan farqli ravishda ixtiyoriy sertifika lashtirishning obyekti bo'sib majburiy sertifikatlashtish obyektlari kiritilinagan mahsulot, ishlar va xizmatlar yuzasidan o'tkaziladi. Ixtiyor sertifikatlashtirishni o'tkazishdan maqsad mahsulot va xizmatlar bozorid intemolchilarga ularning sifati to'g'risida yanada ko'proq kafolatla maqsadida o'tkaziladi.

Ekologik sertifikatsiyalashtirishning maqsadi mahsulot ishlash qigaruvchilarning atrof tabiiy muhitni ifloslantirmaydigan va istemochilarning hayoti, sog'ligi, mol-mulki va yashash muhitini xavfsizligini kafolatlaydigan texnologik jarayonlani qo'llash va mahsulotlarni ishlash qigarishni rag'batlantirishdan iboratdir. Mahsulotlarni ekologik sertifika lashtirish ularni raqobatdoshligi hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Ekologik sertifikatlashtirishning to'rtta guruhini ajratish lozim: atrobuny muhitning obyektlari; atrof muhitni ifloslanturuvchi manbaala tabiatni muhofaza qilishga mo'ljallangan mahsulotlar; ekologik axbori resurslari; mahsulot va texnologiyalar.

Ekologik belgililar bilan belgilash masalasi yuzasidan Standartlashtirish xalqaro tashkiloti shug'ullanadi (PKZ ISO/TK207 «Atrof muhitining etiketlash (markirovkalash)»).

Atrof muhitni boshqarish va ekologik audit bo'yicha talablarni 1400 turkumdag'i ISO xalqaro standartlarda belgilanishi ekologik sertifikatlashtirishni o'tkazishga asos yaratdi.

VII BOB. EKOLOGIYA NAZORATI VA EKOLOGIK EKSPERTIZASINING HUQUQIY HOLATI

1. Ekologiya nazoratining tushunchasi, maqsadi, vazifasi va usullari

Ekologiya nazorati - davlat ekologik siyosatining muhim tarkibi. qismi sifatida tabiat-jamiyat tizimidagi ekologik munosabatlarning barda rorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir.

Hammamizga ma'lumki, ekologik huquqiy munosabatlarni tartibga solish jarayonida ekologiya nazorati muhim vazifalarni amalga oshiradi.

Ekologiya nazorati - atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan ogilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash qoida-talablarini barcha vazirlik, davlat qo`mitalari va idoralari, korxonalar, tashkilotlar, muassasa, mansabdar va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishini tekshirish, tabiiy muhit holatini o`rganish va kuzatish, chora-tadbirlarni qo'llash bilan bog`liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlar iyg`indisini o`z ichiga oladi.

Ekologiya nazoratining asosiy maqsadi atrof tabiiy muhit barqarorligini saqlashdan iborat bo`lib, davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirgan holda olib borilishini taqozo etadi.

Hozirgi va kelajak avlodga barqaror atrof tabiiy muhitni ta'minlash maqsadida O`zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida"gi qonunining 29-moddasiga asosan, ekologiya nazoratining asosiy vazifalari sifatida qo`yidagilar belgilangan:

-atrof tabiiy muhit holatini hamda xo`jalik yuritish va boshqa faoliyat ta'siri ostida unda bo`ladigan o`zgarishlarni kuzatib borish;

-atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan ogilona foydalanish, atrof tabiiy muhitni sog`lomlashtirish, tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlar talablari va atrof tabiiy muhit sifatining normativlariga rioya etish borasidagi dasturlar hamda ayrim tadbirlar baiaralishini tekshirish¹.

Ekologiya nazorati murakkab jarayonni o`z ichiga oladi va turli xil chora-tadbirlar tizimini amalga oshirishni taqazo etadi.

Ekologiya nazorati jarayonida qo`yidagi chora-tadbirlar amalgma oshiriladi:

- atrof tabiiy muhitda bo`ladigan o`zgarishlarni kuzatish, axborot jamlanmasini shakllantirish;
- atrof tabiiy muhit holatiga antropogen ta'sirlarni o`rganish;
- ishlab chiqarish va xo`jalik yuritish jarayonining barcha jahbalarida ekologik qonunchilik qoida-talablariga rivoj etilishini tekshirish;
- ishlab chiqarish va xo`jalik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik a jismoniy shaxslarning tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarning belgilangan amalga oshirilishini tekshirish;
- tabiiy resurslardan foydalanish bo`yicha ruxsatnomalar berish;
- ekologik qoida-talablarni buzgan yuridik va jismoniy shaxslarni aniqlash, ogohlantirish, javobgarlikka tortish;
- aholi orasida ekologik qonunchilik qoida-talablarni targ`ib va tashviqot qilish va boshqalar.

Demak, ekologiya nazorati bilan bog`lik murakkab faoliyatini olib borishda ekologiya nazorati subyektlari tomonidan qo`yidagi asosiy tashkiliy-huquqiy usullar qo`llaniladi:

- 1. Kuzatish** - atrof tabiiy muhitda bo`ladigan o`zgarishlarni o`rganish va ma'lumotlarni to`plash;
- 2. Umumlashtirish** atrof tabiiy muhit holatiga zararli va xavfli ta'sirlarni aniqlash, tahlil qilish asosida ma'lumotlarni tasniflash;
- 3. Baholash** antropogen faoliyat ishlaring zararli, xavfli va noqonuniyligini aniqlash;
- 4. Ruxsatnomalar berish** yuridik va jismoniy shaxslarga yer, suv, o`simlik va hayvonot dunyosi, yer osti boyliklari va atmosfera havosidan foydalanish uchun litsenziya berish;
- 5. Oghohlantirish, cheklash va to`xtatish** - ekologik xavfli va zararli xo`jalik va boshqa faoliyatni cheklash, vaqtincha to`xtatib qo`yish va bekor qilish;
- 6. Javobgarlikka tortish** - ekologik qoida-talablarni buzgan, yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan ma'muriy-huququqiy javobgarlik choralarini qo`llash.

Ekologiya nazorati ekologik-huquqiy mexanizmning muhim tarkibiy qismi sifatida atrof tabiiy muhit barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

2. Ekologiya nazoratining tizimi

Ekologiya nazorati murakkab jarayonlardan iborat bo`lib, ta'sirlarning holatini kuzatish, tabiiy resurslarning holatiga baho berish va ularning istiqbolini belgilash, ekologik qoida-talablarning barcha yuridik va jismoniy

niy shaxslar tomonidan bajarilishini tekshirish, salbiy ekologik oqibat va zararli ta'sirlarni oldini olish va cheklash, tabiatni muhofaza qilishning keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlarini amalga oshirish, ekologik bilimlarni targ'ibot qilish va aholining ekologik madaniyatini oshirishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirilishini muvfiqlashtirishga qaratilgan davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, nafaqat xo'jalik yurituvchi subyektlar va jamoat tashkilotlarining faoliyatlarini qamrab oladi.

Ekologiya nazoratini amalga oshirishda nafaqat davlat hokimiyati va boshqaruv organlari balki, xo'jalik faoliyatini amalga oshmuruvchi korxonalar, tashkilot va muassasa hamda jamoat tashkilotlarining faoliyati alohida o'rinni egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" qonunnnng 29 muddasiga asosan ekologiya nazorati tizimi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- 1) Atrof tabiiy muhit holatini kuzatib borish davlat xizmati;
- 2) Davlat ekologiya nazorati;
- 3) Idoraviy ekologiya nazorati;
- 4) Ishlab chiqarish ekologiya nazorati;
- 5) Jamoatchilik ekologiya nazorati.¹

Ekologiya nazorati tizimida **Atrof tabiiy muhit holatini kuzatib borish davlat xizmati** muhim ahamiyatga ega bo`lib, tabiatda bo`ladigan fizikaviy, kimyoiy biologik, gidrologik, seysmologik va boshqa o`zgarishlarni kuzatish, ma'lumot to`plash, yer, suv, o`simlik va hayvonot dunyosi, yer osti boyliklari va atmosfera havosi hamda aholi hayoti va sog`lig`iga xavfli va zararli ta'sir etuvchi omillarni o`rganish, atrof tabiiy muhitda bo`ladigan o`zgarishlarni davlat organlari va keng aholi qatlamlariga yetkazish kabi laoliyatini o`z ichiga oladi.

Atrof tabiiy muhit holatini kuzatib borish davlat xizmatining asosiy yo`nalishlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Gidrometeorologiya Markazi amalga oshiradi.

Atrof muhitda ro'y berayotgan tabiiy-ekologik jarayonlarni kuzatib borish bilan bir qatorda har bir tabiiy resurslarning holatiga ta'sir etuvchi tabiiy va antropogen omillarning hisobim yuritish, xalq xo'jaligining turli sohalarida yer, suv, o`simlik va hayvonot dunyosi va yer osti boyliklaridan oqilonona foydalanishni ta'minlashda tabiiy resurslar kadastirini yuritish ham ushbu xizmatning asosiy yo`nalishlaridan biri sifatida qarashimiz mumkin.

Bundan tashqari, har bir tabiiy resurs bo'yicha alohida kadastro xizmati tegishli maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari tomonidan amalga oshirilib, tabiiy resurslarning holati va ularda bo'ladigan o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlarni to'plab, iqtisodiyotning barcha jahbalarida tabiatni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ekologik nazorati tiziimida davlat ekologiya nazorati markaziy o'rinni egallaydi.

Davlat ekologiya nazorati - atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ahohning ekologik xavfsizligini ta'minlash qoida-talablarini barcha vazirlik, davlat qo'mitalari, idoralar, yuridik shaxslar, mansabdar shaxslar va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi yuzasidan maxsus vakolatli organlarning tekshirish va choralarни ko'rish bilan bog'liq faoliyatini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi qonunning 31-moddasida:

"Tabiatni muhofaza qilish sohasida" gi davlat nazorati, davlat hokimiyyati va boshqaruv idoralari, maxsus vakolatli davlat tabiatni muhofaza qilish idoralari tomonidan amalga oshiriladi.

Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunalmaishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo'mitasi maxsus vakolatli davlat tabiatni muhofaza qilish idoralari hisoblanadi

Maxsus vakolatli davlat tabiatni muhofaza qilish idoralari tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazoratini amalga oshirishda qutnashishga idoraviy ekologik xizmat bo'linmalarini belgilangan tartibda jalb etishlari mumkin.

Ushbu sohada davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlari tiziimida O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining faoliyati muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1994-yilning 19-aprel kuni imzalagan.

O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni tiklash sohasida davlat nazoratini hamda tarmoqlararo boshqaruvni amalga oshiruvchi, idoralardan ustun turuvchi va muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatlari organ bo'lib, o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga bo'ysunadi va hisobot beradi.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi o'z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlari me'yoriy ahamiyatiga ega bo'lib barcha vazirlik, davlat qo'mitalari va idoralari, yuridik shaxslar mansabdor shaxs va fuqarolar ijro etishlari shart.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi quyidagi ustidan davlat nazoratini olib boradi:

- ekologiya tizimlari, tabiiy genosond, biologik muvozanatning atmosfera havosini, yer usti va yer osti suvlarini, tuproqni ifsoslantiruvchi manbalarning, o'simlik dunyosi va biologik suv obyektlarining, yovvoy hayvonlar yashash muhitining holati;

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qonun hujjatlarining bajarilishi holati;

- yangi va qayta qurilgan korxonalar hamda boshqa obyektlarni joyiashtirish, loyihalash, qurish va ishga tushirishda ekologik normativlar, standartlar va talablarga mosligini;

- atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish ularni saqlash va qayta tiklash dasturlari va topshiriqlarini bajarish boshqalar.

Davlat ekologik nazoratini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi ushbu sohadagi boshqa davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi ham davlat ekologik nazoratini amalga oshiruvchi muhim davlat organi hisoblanib, aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida respublika sanitariya-epidemiologiya bosh boshqarmasi mavjud bo'lib, qonun hujjatlarida belgilangan sanitariya, gigiyena va epidemiologik qoida-talablar, normativ va standartlarning bajarilishi yuzasidan davlat nazoratini olib boradi.

Respublika sanitariya-epidemiologiya bosh boshqarmasi O'zbekiston

Respublikasining "Davlat sanitariya nazorati to`g`risida"gi qonuni va, boshqa me'yoriy hujjatlarga asosan sanitariya, gigiyena va epidemiologik, qoida-talablarning barcha vazirlik, davlat qo`mitasi, idoralar, korxona, tashkilot, muassasa, mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan og`ish-may amal qilinishini nazorat qiladi.

Usibu sohada davlat nazoratini amalga oshirishda bevosita O`zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi va boshqa idoralar bilan hamkorlik qiladi.

O`zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo`mitasi yer munosabatlarini tartibga solish, yer tuzishni, yer monitoringini tashkil etish, davlat yer kadastroni yuritish, yerdan foydalanish va uni muhofaza qilishni nazorati qilish sohasidagi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi va o`z vakolatlari doirasida qabul qilinadigan qarordari barcha, yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy ahamiyatga egadir.

O`zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining 2004 yil 19 oktabrdagi 483-son qarori bilan tasdiqlangan "O`zbekiston respublikasi yer resurslari, Geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo`mitasi to`g`risida" Nizomga muvofiq Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo`mitasining asosiy vazitalariga quyidagilar kiradi:

- yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer munosabatlarini tartibga solish, yer tuzishni va yerlar monitoringini tashkil qilish, tuproq unum-dorligini saqlash, oshirish va qayta tiklash bo`yicha yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlash;

- tuproq unumdorligini oshirish, yerdan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- yerdan oqilona foydalanishi va ular muhofaza qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

- geodeziya va kartografiya faoliyatini boshqarish;

- davlat geodeziya nazoratini tashkil etish;

- davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrolarini yuritish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

- davlat yer kadastroni, davlat kartografiya-geodeziya kadastrini, binolar va inshootlar davlat kadastroni, shuningdek Davlat kadastrolarini tizimini yuritish.

Davlat ekologiya nazoratini amalga oshirishda O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi alohida o`rinni egallaydi.

Ichki ishlar vazirligi tizimida yo`l harakati xavfsizligini ta'minlash

faoliyatini olib boruvchi boshqarma mavjud bo`lib, atmosfera havosini avtomobil tansportlari tomonidan ifloslanishini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Ushbu boshqarma davlat ekologiya nazoratini amalga oshirishda qo`yidagi vakolatlarga ega:

- atmosfera xavosini avtomobil tansporti vositalari tomonidan ifloslanishini oldini olishga qaratilgan tushuntirish va ogohlantirish bilan bog`liq choralarni belgilash;

- atmofera havosiga belgilangan normativ va standart darajasida yuqori bo`lgan ifloslaniruvchi moddalarni chiqarganligi uchun transport vositasini boshqarishni cheklash, to`xtatib qo`yish, boshqarish huquqidar mahrum etish;

- atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi qoidalarni buzganlik uchun ma`muriy javobgarlikka tortish;

- avtomobil tansporti tomonidan atmosfera havosiga yetkazilayotgan ta'sir va zararni kamaytirish, aholining ekologik madaniyatini oshirishga qaratilgan profilaktik tadbirlar tizimini amalga oshirish va boshqalar.

Yer osti boyliklaridan oqilona foydalanish, yer osti boyliklarini muhofaza qilish qoida-talablarini barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishini nazorat qilish O`zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasining asosiy yo`nalishlaridan biridir.

O`zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiysi ("Sanoatkontexnazorat" davlat inspeksiysi) respublika hudu didagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarning sanoatda ishlarni bexatar olib borish, yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir qonun hujjatlari va normativ-texnik hujjatlar talablariga rioya qilishlari ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolati davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiysi o`z faoliyati to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Vazirlari Mahkamasiga hisob beradi.

Demak, yuqorida sanab o`tilgan davlat organlari davlat ekologiya nazoratini amalga oshirishda umumiy mazmun va shakldagi vakolatlarga ega bo`lib, ular quyidagilardan iborat:

- barcha turdagisi ishlab chiqarish va xo`jalik korxona, tashkilotlari

faoliyatining ekologik qoida-talablarga mosligini tekshirish huquqi;

- korxona, tashkilot hududida va ishlab chiqarish jarayonida tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishni talab qilish, ko'rsatma berish;

- yer, suv, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosidan foydalanish uchun ruxsatnomalar berish, foydalanish limitlarini belgilash;

- ekologik qonunchilik qoida-talablarni buzgan yuridik va jismoniy shaxslarga nishbatan mal'muriy huquq tartibda jarima jazosini qo'llash, yetkazilgan zararni qoplash, undirib olish bo'yicha da'veo qo'zg'atish, jinoiy javobgarlikka tortish yuzasidan prokuratura organiga hujjatlarni taqdim etish;

- ekologik xavfli va zararli ishlab chiqarish, xo'jalik korxona, tashkilotlarning faoliyatini cheklash, to'xtatish va bekor etish yuzasidan qarorlar qabul qilish;

ekologik bilim, qoida-talablarni aholi orasida targ'ibot qilish, abolinining ekologik ongini oshirishga qaratilgan tadbirlarni belgilash va foydalanish.

Slimming uchun ham, ekologiya sohasida maxsus vakolatli davlat organularining ekologiya nazorati tizimida tutgan o'mi beqiyos bo'lib, tabiatni muhofaza qilish, tabuy boyliklardan foydalanish, abolinining ekologik xavfsizligini ta'minlashiga xizmat qiladi.

Ekologiya nazoratining navbatdagi turi - ekologiya sohasida idoravy nazorat hisoblanadi.

Ekologiya sohasida idoraviy nazorat respublikamizdag'i faoliyati tabiiy resurslardan foydalanish va tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq barcha vazirlik, davlat qo'mitalari, idoralari tizimi doirasida olib boriladi.

Barcha vazirlik, davlat qo'mita va idoralarda ushbu faoliyat bilan maxsus shug'ullanuvchi ekologiya xizmati tuzilmalari mavjud bo'lib, tegishli vazirlik ichki tizimi doirasida tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish jarayonining ekologik qoida-talablariga mosligini kuzatish, tekshirish, chora-tadbirlarni belgilashdan iboratdir.

Ekologiya sohasida ishlab chiqarish nazorati ham idoraviy nazorat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini olib borayotgan korxona, muassasa, tashkilotlarda olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi qonunning 32-moddasiga asosan, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi ishlab chiqarish nazoratini korxonalar, birlashmalar, tashkilotlarning ekologiya xizmati amalga oshiradi va tabiatni muhofaza qilish, tabiiy

resurslardan oqilona foydalanish va ularni tiklash, atrof tabiiy muhitni sog`lomlashtirish, tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlarning talablar bajarilishi yuzasidan dasturlar hmda ayrim tadbirlar ijroqini, tekshirish maqsadini ko`zlaydi.

Ekologiya sohasidagi jamoat nazorati jamoat birlashmalari mehnat jamoalarari, siyosiy partiyalar, turli uyushma va jamiyalar, fuqarolar tomonidan amalga oshiriladi.

Jamoat tashkilotlari tomonidan olib borilgan tekshirish natijalari tavsiya ahamiyatiga ega bo`lib, davlat hokimiyati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlariga taqdim etilishi mumkin.

Demak, Ekologiya nazorati murakkab tizimdan iborat bo`lib, ekologik qonunchilik hujjatlarining bajarilishiga va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

3. Ekologik ekspertizasining tushunchasi, maqsadi, tamoyillari va usullari

Ekologik ekspertiza – ekologik huquqiy mexanizmning tarkibiy qismi sifatida atrof tabiiy muhitning barqarorligini saqlash, tabiiy boyliklardan unumli va samarali foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir.

Amaldagi qonunchilik hujjatlariga asosan ekologik ekspertiza deganda rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo`jalik va boshqa xil faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash hamda ekologik ekspertiza obyektini ro`yobga chiqarish mumkinligini aniqlash tushuniladi.

Ekologik ekspertizaning huquqiy holati konstitutsiyaviy qoidalarda, O`zbekiston Respublikasi “Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida”, “Ekologik ekspertiza to`g`risida” gi qonunlarda, O`zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi, O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni saqlash vazirligining ekologik ekspertizani o`tkazish tartibi to`g`risidagi me'yoriy hujjatlarida belgilangan.

O`zbekiston Respublikasi “Ekologik ekspertiza to`g`risida” gi qonunning 3-moddasiga asosan ekologik ekspertiza quyidagi maqsadlarda o`tkaziladi:

- mo`ljallanayotgan xo`jalik va boshqa xil faoliyatni amalga oshirish to`g`risida qaror kabul qilinishidan oldingi bosqichlarda bunday faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini aniqlash;
- rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo`jalik va boshqa

xil faoliyat atrof tabiiy muhit holatiga va fuqarolar sog'lig'iga salbiy ta'si
xo'sratishi mumkin bo'lsa, bunday faoliyatning ekologik xavflilik
darajasini aniqlash;

- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona
toydalanish bo'yicha nazarda tutilayotgan tadbirlarning yetarliligi va
esosligini aniqlash.

Ekologik ekspertizaning eng asosiy vazifasi atrof tabiiy muhit va
holining hayoti va sog'lig'iga xavfli va zararli ishlab chiqarish va xo'jalik
obyektlarining ta'sirlarini oldini olish, bartaraf etish bilan bog'liq preventiv
chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Ekologik ekspertizasi muhim va murakkab faoliyat turi sifatida
quyidagi umumiy va o'ziga xos tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- qonuniylik;
- ekologik ekspertizaning mustaqilligi;
- oshkoraliqi;
- ilmiy-texnikaviy asosliligi;
- ekologik xavfsizlik talablarini hisobga olishning majburiyligi;
- har qanday rejalashtirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatning
chitmat tuttilari ekologik xavflilik prezumpsiyasi;

xo'jalik va boshqa xil faoliyatning atrof tabiiy muhitga va
aholining sog'lig'iga ta'sirini baholashning keng ko'lamli va keng
qamrovlligi;

- ekologik ekspertizani o'tkazishda jamoatchilikning qatnashishi va
boshqalar.

Ushbu tamoyillar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ekologik ekspertizasini
o'tkazishning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Xususan,
qonuniylik tamoyili – ekspertizani tayinlash, o'tkazish, xulosa berish bilan
bog'liq barcha jarayon belgilangan qonunchilik hujjatlari qoidalariiga mos
ravishda o'tkazishni talab etadi. Mustaqillik tamoyili – birinchidan,
ekspertizani idoralardan ustun turuvchi davlat organi tomonidan
o'tkazishni, ikkinchidan, ekologiya ekspertizani o'tkazish jarayonida
boshqa davlat organi, mansabdar shaxs va fuqarolarning aralashuviga,
taziq o'tkazishiga yo'l qo'ymasligini ta'minlaydi.

Demokratik tamoyillardan biri hisoblangan oshkoraliq ekspertiza
xulosalarining aholining keng qatlamlariga yetkazishni taqozo etadi.

Loyihalashtirilayotgan, ishga tushirilayotgan, ishlab chiqarish jarayonini
amalga oshirayotgan zavod, fabrika va boshqa texnologiya uskunalarining
ekologik talablarga mosligini faqatgina ilmiy texnikaviy jihatdan

asoslangan malakaviy xulosa bilan ta'minlash mumkin.

Ekspertiza obyekti sifatida qoralayotgan loyihalarga baho berishda atrof tabiiy muhit baroqarorligi, aholining sog`lig`i va bayotiga ta'su ko`rsatuvchi omillarga e'tibor berish ustunligini ko`zda tutadi.

Navbatdagi tamoyil ham ekologik ekspertizasining o`ziga xo`tamoyillaridan biri bo lib, har bir xo`jalik va ishlab chiqarish obyeli belgilangan tartibda o`tkazilgan ekspertiza xulosasi asosidagina ekologijihatdan xavflilik darajasi aniqlanadi.

Ekspertiza natijalari to`g`ri, odilona bo`lishi uchun biologik, kimyoviy, fizikaviy, texnologik, demografik, agro-ekologik, iqtisodiy va boshqa jabhalardagi bilimlarni jamlagan holda keng qamrovli ijodiy mehnat mahsuli bo`lishi va tekshirilayotgan obyektga nisbatan real, obyektiv baho berilishi kerak.

Ekologik ekspertizaning muhim tamoyillardan biri sifatida ushbu jarayonda nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning ishtiroki bo`lib, ekologik ekspertizaning omnnaviy va adolatli bo`lishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, ekologik ekspertiza ushbu tamoyillarga qat`iy rivoja etilgandagina, har bir obyektga nisbatan xolisona, keng qamrovli, adolatl, qonuniy, mustaqil va obyektiv xulosa berish mumkin.

Ekologik ekspertiza jarayonida turli shakldagi quyidagi usullardan foydalangan holda ko`zda tutilgan maqsadga erishiladi:

- **ma'lumotlar to`plash** – ekspertizadan o`tayotgan muayyan obyektga tegishli bo`lgan barcha axborot, ma'lumotlarni yig`ish va to`plash;

- **umumlashtirish** – obyekt haqidagi to`plangan iqtisodiy, texnologik, ekologik, gidrologik kimyoviy va boshqa ma'lumotlarni o`yo`nalishlari bo`yicha ma'lum tizimga keltirish;

- **tahlil qilish** – umumlashgan ma'lumotlar bankini o`z yo`nalishi va xususiyatlari bo`yicha alohida o`rganish, tasniflash;

- **baholash** – ekspertiza o`tkazilayotgan obyekt yo`nalishlari, bo`limlari, tashkil etuvchi qismlari bo`yicha xavfli va zararlik darajasini aniqlash;

- **xulosa berish** – ekspertiza o`tkazilayotgan obyektning ekologijihatdan zararli yoki zararsiz, xavfli yoki xavfsiz, ekologik qoida talablarga mos keladi yoki ushbu qoidalarga zid ekanligi haqida yakuniy, adolatl, obyektiv xulosaga kelish.

4. Ekologik ekspertiza tizimi

Ekologik ekspertiza keng qamrovli va muhim ahamiyatga ega bo`jarayon bo`lib, uni amalga oshirish yo`nalishlari, tartibi, qo`llanilayotgan usullari, beri`ayotgan xulosaning mohiyatiga asosan murakkab tizimni tashkil etadi.

Tabiat-jamiyat tizimida ekologik ekspertizaning bir necha turlari yu`ni ijtimoiy-iqtisodiy ekspertiza, siyosiy-huquqiy ekspertiza, ilmiy-texnikaviy ekspertiza, sanitariya-ekologiya ekspertiza, jamoatchilik ekologiya ekspertizalari qo`llanilishi mumkin.

Amaldagi qonunchilik hujjatlarda ekologik ekspertizaning ixcham tizimi e'tirof etiladi.

O`zbekiston Respublikasi "Ekologik ekspertiza to`g`risida"gi qonunning 4-moddasida ekologik ekspertizaning quyidagi tizimi belgilangan: "Ekologik ekspertiza davlat va jamoat ekologik ekspertizasi, shuningdek, ekologik audit tarzida amalga oshiriladi".

Shuni alohida ta'kidlab o`tish kerakki, ekologik ekspertiza tizimining poydevorini davlat ekologiya ekspertizasi tashkil etadi.

Davlat ekologik ekspertizasi O`zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi olib boradi va quyidagi asosiy vakolatlarga ega hisoblanadi:

- davlat ekologik ekspertizasini tayinlaydi va o`tkazadi;
- ekologiya ekspertizasiga tegishli bo`lgan me`yoriy-texnik, huquqiy-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;
- ekologik ekspertizasi komissiyasi, uming a`zolari va ekspertlar puruhini tuzadi;
- davlat ekologiya ekspertizasi xulosalari talablarini bajarilishini nazorat qiladi va hokazo.

Ekologiya qonunchilik hujjatlarda ekspertiza o`tkazilishi shart bo`lgan obyektlar belgilangan bo`lib, ular jumlasiga:

- davlat dasturlarining, konsepsiyanalarining ishlab chiqarish kuchlarini, iqtisodiy va ijtimoiy soha tarmoqlarini joylashtirish hamda rivojlanish sxemalarining loyihalari;

barcha turdagи qurilishlar uchun yer uchastkalarini ajratish materiallari;

- loyiha oldi va loyiha hujjatlari;
- tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog`liq xo`jalik va boshqa xil faoliyatni tartibga soluvchi me`yoriy-texnik va yo`riqnomal-uslubiy hujjat-

larning loyihalari;

- texnika, texnologiya, materiallar, mahsulotlarning yangi turlarini yaratishga doir hujjatlar;
- atrof tabiiy muhit holatiga va fuqarolar hayoti va sog'lig'i zararli va xa-fli ta'sir ko'rsatuvchi ishlab chiqarish jar yuzani umud, oshirayotgan barcha turdag'i korxonalar;
- shahar sozlik hujjatlarining barcha turlari;
- maxsus huquqiy rejimli obyektlar va boshqa obyektlar.

Ushbu obyektlarga nisbatan davlat ekologiya ekspertizasini o'tkazish majburiy hisoblanadi va mulkchilik shakli hamda ma'murot bo'yusunishidan qat'i nazar hech bir obyektiga bu borada imtiyoz berilmaydi.

Davlat ekologik ekspertizasining subyektlari bo`lib, odatda buyurtmachi, pudratchi, iste'molchi hisoblanadi. Buyurtmachi ekspertizani tayinlash, tashkil etish huquqiga ega bo`lgan maxsus vakolatli orgанди. Pudratchi – muayyan obyektni ekspertiza qiladigan tashkilot, bular qatorida ilmiy-tadqiqot institutlari, korxona yoki maxsus komissiya, ekspertlar guruhi bo`lishi mumkin. Iste'molchi bo`lib, ekologiya ekspertizasi hisoblangan korxona, tashkilot, muassasa hisoblanadi.

Davlat ekologiya ekspertizasi jarayoni har bir obyektning hajmi va o`ziga xos xususiyatlari ko`ra bir necha bosqichlarni o`z ichiga oladi yani:

- 1) **tayinlash** – obyektga nisbatan ekologik ekspertiza tayinlash maxsus komissiya, ekspertlar guruhi tuzish;
- 2) obyekt haqida ma'lumotlarni **to`plash, umumlashtirish va baho berish** bosqichi;
- 3) obyektning ekologik qoida-talablarga mos yoki zid ekanligi haqida xulosa **tayyorlash va uni tasdiqlash**;
- 4) obyekt haqidagi xulosani bank muassasalatiga **yuborish**;
- 5) davlat ekologik ekspertizasi xulosasi yuzasidan **nizolarni hal qilish**.

Shuni ta'kidlash kerakki, Davlat ekologik ekspertizasining xulosa muhim ahamiyatga ega bo`lib, obyekt haqida salbiy xulosa berilgan taqdirda, bank muassasalari ushbu obyektni moliyalashtirmaydi – faoliyati bekor bo`lishi mumkin.

Demak, davlat ekologik ekspertizasining ekologiya ekspertizasi tizimida alohida o'rinni egallaydi va ekologik xavfsizlikni ta'minlashni xizmat qiladi.

Ekologik ekspertizasining tizimida jamoatchilik ekspertizasi alohida

ahamiyat kasb etadi.

Jamoat ekologik ekspertizasi nodavlat notijorat tashkilotlar, a nuqarolar tomonidan amalga oshirilib, rejalashtirilayotgan, amal qilayotgan turli obyektlar yuzasidan o`tkazilishi mumkin.

Jamoat ekologik ekspertizasi davlat ekologik ekspertizasi o`tkazilishidan qat'i nazar amalga oshiriladi.

Jamoat ekologik ekspertizasining xulosasi tavsiya ahamiyatiga ega bo`ladi, davlat hokimiyyati va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga, qidim etilishi mumkin.

Shuni ta'kidlash joizki, rivojlangan xorijiy davlatlarda jamoatchilik ekspertizasining taraqqiy etganligini, aholining keng qatlamlarining ekologik madaniyati saviyasi darajasining yuqoriliginini ko`rishimiz mumkin.

Ekoliyiya ekspertiza tizimida ekologik audit ham muhim ahamiyatga, ega hisoblanadi.

Ekologik audit – ekologik auditorlar tomonidan qonun hujjatlarida, belgilangan tartibda va shartlarda o`tkaziladigan, atrof tabiiy muhit holatiga salbiy ta'sir ko`rsatayotgan, ishlab turgan korxonalar va boshqa, obyektlarni mustaqil ekologik ekspertiza qilishdir.

Ekologik audit davlat ekologik ekspertizasidan farqli ravishda jalik va ishlab chiqarish obyekti mulkdorining qaroriga binoan, o`tkaziladi.

Ekologik ekspertiza – muhim va murakkab jarayon bo`lib, atrof tabiiy muhitni barqarorligini saqlash, tabiatdan samarali foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlardan iboratdir.

VIII-BOB. ATROF TABIIY MUHITINI MUHOFAZA QILISH VA TABIA IDAN FOYDALANISHINING IQTISODIY-HUQUQIY MEXANIZMI

1. Atrof tabiiy muhitini muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishning iqtisodiy-huquqiy mexanizmi tushunchasi

Qishloq xo`jaligi va sanoat ishlab chiqarishining o'sishi sharoitlari atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalananish hozirgi davrning dolzARB muammosiga aylanib bormoqda. Insonning tabiatga ta'siri natijasini nafaqat texnika taraqqiyoti hamda aholi o'sishida, balki, ular vujudga keladigan ijtimoiy sharoitlar bilan bog'li holda ham ko`rib chiqish lozim. Tabiiy muhitga bo`lgan munosabat insoniyat jamiyatining sivilizatsiya darajasini xarakterlaydigan ijtimoiy texnik muvaffaqiyat chorasi hisoblanadi.

Atrof-tabiiy muhitni saqlab qolinishini ta'minlovchi iqtisodiy huquqiy mexanizmning mohiyati, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo'yicha qonunchilik talablarini amalga oshirishda, faoliyatni tabiat holatiga ta'sir ko`rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslarga ijtimoiy ekologik ta'sir etish vositalarini qo`llashda namoyon bo`ladi.

Bunday ta'sir etish vositalari tizimi ekologik tarbiya, ta'lim, qonun chilik va qonun osti me'yoriy hujjatlari hamda tashkiliy va nazorat tadbitlari orqali ishlab chiqarish faoliyatida ekologik talablarga ixtiyoriy vijdonan rivoja etishga munosib sharoit yaratish lozim.

Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish hamda tabiatdan foydalanishning iqtisodiy-huquqiy mexanizmi o'zida tabiatni muhofaza qiluvchilarni moliyalashtirish, xo`jalik subyektlari faoliyatini soliq va boshqa imtiyozlar orqali rag`batlantirish, atrof tabiiy muhitni ifloslantirganlik hamda unga boshqacha zararli ta'sir ko`rsatganlik uchun to`lanadigan pol vositalari sarflanishi shartlari va usullariini tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar majmuuni qamrab olgan huquqiy institutni ifodalaydi.

Ekologiya huquqida iqtisodiy-huquqiy mexanizm o'rni ularning mazkur sohada amalga oshiradigan funksiyalari bilan belgilanadi. Avvali lambor, u tabiatdan oqilona foydalanish hamda atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishni iqtisodiy ta'minlashga yo`naltirilgan. Mazkui funksiyalar iqtisodiy-huquqiy mexanizmga kiruvchi barcha iqtisodiy chora-tadbirlarini bevosita muntazam qo`llab borish orqali amalga oshiriladi.

Iqtisodiy-huquqiy mexanizmning yana bir muhim funksiyasi bu rag`batlantirishdir. U tadbirkorlar va tashkilotlar uchun ekologik qonun

chilikda ular uchun ko`zda tutilgan talablarni bajarishlarda iqtisodiy manfaatdorlik sharoitini yaratishni nazarda tutadi. Ushbu funksiya barcha iqtisodiy choralar bilan ham emas, balki ba'zi birlari orqali amalga oshiriladi. Rag`batlantiruvchi funksiyaning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo`ladi: a) yer, tuproq, suvdan va boshqa tabiiy resurslardan foydalanganlik hamda atrof tabiiy muhitni ifloslantirganlik uchun to`lovlar undirishda; b) tabiatni muhofaza qilish sohasida soliq va kredit imtiyozlari ajartishda. Rag`batlantiruvchi funksiyaning muhim va mashhur chorasi sifatida ekologik sug`urta namoyon bo`ladi.

Ekologik strategiyaning asosiy yo`nalishlariga quyidagilar kiradi:

Birinchidan, iqtisodiy va ekologik siyosatni muvofiqlashtirish, ya'ni bozor tizimida ekologik omillarni yanada samarali muvofiqlashtirish;

Ikkinchidan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning afzalligi va ustunligini ta'minlash;

Uchinchidan, alohida hududlar hamda respublika bo`yicha, tabiiy resurlar zahirasi bo`yicha ishlab chiqarishni kengaytirish;

To`rtinchidan, atrof tabiiy muhit hamda tabiiy resurslar zahirasidan foydalanish, ularni qayta tiklash va muhofaza qilish bo`yicha, moliyaviy resurslarni shakllantirish;

Beshinchidan, tabiatdan foydalanuvchilarning tabiiy resurslardan oqilona foydalanishida va atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishida iqtisodiy manfaatdorligini oshirish.

Ekologik siyosatni amalga oshirishda iqtisodiy vositalardan foydalanish dunyoning barcha yetakchi mamlakatlarida keng qo'llaniladi. Iqtisodiy vositalarni qo'llash "ifloslantiruvchi - to'laydi", "tabiatdan foydalanuvchi - to'laydi" degan tamoyillarga asoslanadi.

Iqtisodiy mexanizm hamda vositalarni qo'llashning asosiy maqsadi atrof tabiiy muhit resurslariga munosib baho berish va ulardan samarali hamda yaxlit foydalanishni kafolatlashdir.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish hamda undan foydalanishning iqtisodiy-huquqiy mexanizmi elementlariga quyidagilar kiradi:

tabiatdan foydalanish hamda atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishni rejalashtirish;

- atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishni moliyalashtirish;

- tabiatdan foydalanganlik uchun haq to`lash;

ekologik sug`urtlash;

- iqtisodiy rag`batlantirish choralarini.

Tabiatdan foydalanish hamda atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy choralarining asosiy talablari "Tabiatni muhofaza

qilish to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrdagi qonunida o`z aksini topgan. Qonunning 8 bo`limida tabiatni muhofaza qilishni kafolatlashning asosiy iqtisodiy choralari mustahkamlangan.

Qonuning 33 - moddasida tabiatni muhofaza qilishni ta'minlashning iqtisodiy chora tadbirdi belgilangan:

- tabiiy resurslardan maxsus foydalanganlik uchun, atrof tabiatni ifloslantirganlik (shu jumladan chiqindilarni joylashtirganlik); atrof tabiiy muhitga boshqacha tarzda zararli ta'sir ko`rsatganlik to`lov undirishni;

- kamchiqitli va resurslarni tejaydigan texnologiyalar joriy etilganida, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslarni qayta tiklashda samara beruvchi faoliyat amalga oshirilganida korxonalar, muassasalar tashkilotlarga, shuningdek ayrim shaxslarga soliq, kredit imtiyozlari va o`zga imtiyozlar berishni;

- ekologiya nuqtai nazaridan xavfli texnologiyalarni qo'llaganlik o`zga faoliyatni amalga oshirilganida korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga nisbatan maxsus soliqlar joriy etishni;

- atrof tabiiy muhitni ifloslantiruvchi moddalarni chiqarish, oqizish yoxud ekologiya nuqtai nazaridan o`zga zararli faoliyatni amalga oshirish huquqini beruvchi litzenziyalar (ruxsatnomalar) olishni;

- tabiiy muhitning qulay holatini buzgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar zimmasiga uni tiklash vazifasini yuklashni;

- tabiat obyektlarini buzish yoki yo`q qilib yuborish oqibati yetkazilgan zarar uchun belgilangan tartibda tovon puli undirishni;

- tabiatni muhofaza qilish borasidagi rejalar va chora-tadbirkor bajarilmagan, tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlarning normativ texnik va boshqa tatlablari buzilgan hollarda mansabdor shaxslar yoki boshqa xodimlarni asosiy ishlab chiqarish faoliyatida erishilgan natijalar bo`yicha beriladigan pul mukofotlari yoki boshqa mukofotlardan to`liq yoki qisman mahrum etishni;

- ekologik sof mahsulot chiqarganlik uchun rag`batlantiruvchi narxlar va ustama haqlar belgilashni;

- tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik, me`yon belgilanganidan ortiqcha foydalanganlik uchun tabiatdan foydalanuvchilarga nisbatan iqtisodiy jazo choralarini hamda tabiiy resurslardan tejab tergab va oqilona foydalanganlik uchun iqtisodiv rag`batlantirishni qo'llanishni;

- tabiiy muhitni saqlash sohasida va ekologik sof mahsulot ishlab chiqarishda hammadan yuqori ko`rsatkichlarga erishgan davlat, koopera-

bu, jamoat korxonalarini, muassasalarini va tashkilotlari, boshqa korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlarning jamoalarini va ayrim xodimlarini, uningdek ayrim shaxslarni moddiy rag' batlantirishni ko'zda tutadi.

2.Tabiyy resurslardan foydalanganlik uchun haq to`lash

Haq to`lash tabiiy resurlardan foydalanishning asosiy tamoyillaridan bir hisoblanadi. Atrof tabiiy muhit to`g`risidagi qonunchilikka muvofiq, bu to`lash tamoyilining kiritilishi bir qator maqsadlarni ko`zlaydi. Birinchidan, tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to`lanadigan haq davlat va mahalliy budgetni, shuningdek, ekologik fondlarni shakllantirish uchun bai hisobalanadi. Ikkinchidan, to`lovlarning muhim maqsadi – tabiatdan foydalantuvcilarini ular haq to`laydigan resurslardan oqilona foydalanişlarini rag`batlantirish va ularning tabiatni muhofaza qilish samaradorligini oshirish.

Tabiatdan foydalanganlik uchun haq birinchidan, tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun, ikkinchidan esa, atrof tabiiy muhitga salbiy ta'sir ko`rsatganlik uchun to`lanadi. Alovida tabiiy resurslar uchun haq to`lash tabiiy resurslar to`g`risidagi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi. Shu o`rinda ta'kidlab o`tish joizki, tabiiy resurslar ichida yer alovida o`rin qayllaydi. Yer resurslari holati hamda ulardan oqilona foydalaniş usalalari nafaqat milliy miqyosda, balki butun dunyo darajasida dolzarb muamminoga aylanib bormoqda. Qator chora-tadbirlar ko`rilishiga qaramay, etlarning ifloslanishi holatlari ortib, qishloq xo`jaligi uchun u o`ljallangan yerlar hajmi kamayib ketmoqda. Bu kabi oqibatlarni bataraf etishda tabiiy resurslardan, xususan yerdan foydalanganlik uchun haq to`lash tizimining joriy etilganligi alovida muhim ahamiyat kasb etadi. O`zbekiston Respublikasi Yer Kodeksining 28-moddasiga muvofiq, yerdan foydalaniş haq evaziga amalga oshiriladi.

O`z egaligida va foydalanişida hamda mulkida yer uchastkalari bo`lgan yuridik va jismoniy shaxslar yer uchun haq to`laydilar. Yer uchun har yili to`lanadigan yer solig`i shaklida olinadi, uning miqdori yer uchastkasining sifatiga, joylashishiga va suv bilan ta'minlanish darajasiga qarab belgilanadi. Yer uchastkalari ijara berilganda yer uchun haq ijara bo`qi shaklida olinadi, uning miqdori taraflarning kelishuviga muvofiq belgilanadi, lekin u yer solig`i stavkasining bir baravaridan kam va uch baravaridan ko`p bo`lmasligi kerak, yerdan qishloq xo`jalik ehtiyojlari uchun foydalaniłgan taqdirda yer solig`i stavkasining bir barvari miqdorida bo`ladi.

Yerdan haq evaziga foydalanishning umumiy talablar O`zbekiston Respublikasi Qonuni - Yer Kodeksida belgilangan, yerdan foydalangan uchun haq to`lash esa maxsus yo`riqnomalar bilan har tomonlama tartibi solinadi:

1. O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 27.03.2001 yil 1118-son bilan ro`yxatga olingan O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo`mitasining 2002-yil 21-yanvardagi 19 va 2002-20-son qarori bilan tasdiqlangan “Yer solig`ini hisoblab chiqarish” to`lash tartibi to`g`risidagi Yo`riqnomasi;

2. Moliya vazirligi va Davlat soliq qo`mitasining 2002-yil 31-yanvardagi 29 va 2002-27-son qarori bilan tasdiqlangan “Qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan yagona yer solig`ini hisoblab chiqarish va to`lash tartibi to`g`risidagi Yo`riqnomasi”.

O`z mulkida, egaligida yoki foydalanishiida yer uchastkalariga eg. bo`lgan vuridik va jismoniy shaxslar yer solig`i to`lovchilar hisoblanadi.

Yuridik shaxslar uchun quyidagi yer uchastkalari soliq solinadigan obyekt hisoblanadi:

a) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;

b) qishloq yoki o`rmon xo`jaligini yuritish uchun egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

v) korxonalar, binolar va inshootlar qurish uchun yoki qishloq xo`jaligiga taalluqli bo`lмаган boshqa maqsadlarda foydalanish uchun berilgan yer uchastkalari;

g) korxonalar, binolar yoki inshootlarga bo`lgan mulk huquqi o`tishi bilan birga egalik qilish va foydalanish huquqi ham o`tgan yeti uchastkalari.

Jismoniy shaxslar uchun quyidagi yer uchastkalari soliq solinadigan obyekt hisoblanadi:

a) turar joylar etagida va jamoat yerlarida shaxsiy yordamchi xo`jalik yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

b) yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

v) jamoa bog`dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligin yuritish uchun berilgan yer uchastkalari;

g) xizmat yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq berilgan chek yerlar;

d) meros bo`yicha, hadya qilinishi yoki sotib olinishi natijasida uy-dala hovli bilan birgalikda egalik qilish huquqi ham o`tgan yer uchastkalari;

ye) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;

ji) tadbirdorlik faoliyatini yuritish uchun doimiy foydalanishga yoki mazkur berilgan yer uchastkalari.

Qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini amaldagi jami umum-davlat soliqlari hamda mahalliy soliqlar va yig`imlarni to`lash o`rniga, bundan aksiz solig`i va import qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun qo`shilgan qiymat solig`i mustasno, budgetga o`zlarini ishlab chiqarjan qishloq xo`jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashdan agona yer solig`ini to`laydilar.

Qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini o`zlarini ishlab chiqargan qishloq xo`jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bo`yicha mazkur faoliyat turidan yagona yer solig`ini to`laydilar va ular boshqa soliqqa tortish tizimini tanlash huquqiga ega emaslar.

O`rmon, baliqchilik, ovchilik xo`jaliklari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va ilmiy muassasalarning tajriba, eksperimental va o`quv-tajriba xo`jaliklari, mustaqil yuridik shaxslar hisoblanmagan yordamchi qishloq xo`jaliklari, dehqon xo`jaliklaridan tashqari, qishloq xo`jaligi kooperativ (shirkat)lari, fermier xo`jaliklari, agrofirmalar, shuningdek qishloq xo`jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchi boshqa shaxslar, ushbu yuridik shaxslar qishloq xo`jaligi mahsulotini ishlab chiqarish bilan bir qatorda boshqa xo`jalik faoliyatini bilan shug`ullanishlaridan qat'i nazar, yagona yer solig`ini to`laydilar.

Agar yagona yer solig`ini to`lovchi qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini o`zlarini ishlab chiqargan qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug`ullanalsalar, ular alohida hisob yuritishlari va boshqa faoliyat turlari bo`yicha shu toifadagi to`lovchilar uchun amaldagi qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan soliqlarni to`lashga majburdirlar. Bunda, agar qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini mikrosirmalar va kichik korxonalar toifasiga kirsa, faoliyatning boshqa turlari bo`yicha (savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalari uchun belgilangan soliqlar va yig`imlar to`lanadigan savdo va umumiyligi ovqatlanishdan tashqari) ular faoliyatning mazkur turi uchun nazarda tutilgan yagona soliq yoki umumbelgilangan tutibda soliqlar to`laydilar.

hamda fuqarolarga beriladigan soliqqa, kreditga oid va boshqa imtiyozlarni;

- suvdan kompleks va oqilona foydalanishda hamda uni muhofaza qilishda huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy, ekologik va o`zga rag`batlantirish omillarining samarali choralarini tizimini qo`llashni nazarda tutadi

Respublika, xalqaro va o`zga darajadagi jamoat birlashmalar, fondlar, jamiyatlar, uyushmalar o`z nizomlariga muvofiq qonunlar o`sishiga qaratilgan samarali tadbirlarni tafsiq etilishini rag`batlantirishlari va taqdirlashlari mumkin.

“Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish va to`lash tartibi to`g`risida”gi yo`riqnomaga muvofiq, quyidagilar suv soliq`i to`lovchilar hisoblanadi:

- O`z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar, dehqon xo`jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshinuvchi jismoniy shaxslar;

Suvdan foydalanish joyida yuridik shaxslar, davlat soliq xizmati organlarida ro`yxatga olinish joyidan qat`i nazar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to`laydilar;

- Aholi punktlarining suv ta`minoti uchun suv yetkazib beruvchi yuridik shaxslar o`z faoliyatida ishlataliladigan suv uchungina soliq to`lovchilar hisoblanadi.

Yer ustı va yer ostı manbalaridan foydalaniladigan suv resurslarining hajmi soliq solish obyekti hisoblanadi. Yer ustı manbalariiga daryolar, ko`llar, suv omborlari, yer yuzasidagi boshqa havzalar va suv manbalari, turli xil kanal va hovuzlar kiradi. Yer ostı manbalariiga esa, artezian quduqlar va skvajinalar, vertikal va gorizontal zovur tarmog`i kiradi.

O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi botanika instituti ma'lumotlariga ko`ra, hozirgi kunda O`zbekiston florasida 4100 turdan ziyodroq o`simlik mavjud. Ularning 3000 dan ziyodi yuqori yovvoyi o`simliklar bulib, ularning 9 foizini endemalar tashkil qiladi. Bu O`zbekiston o`simlik dunyosi tarkibining xilma-xillik boyligini ko`rsatadi. Biroq o`simlik dunyosi boyligini saqlashga ma'suliyatsizlik bilan yondashish va undan oqilona foydalanmaslik uning qashshoqlanishiga olib keldi. Masa lan, 1991-yilda O`zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga 163 xil o`simlik kiritilgan bo`lsa, 1993-yilda mazkur ko`rsatkich 301 taga yetdi. O`simlik larning ba`zi ko`rinishlari Qizil kitobga yovvoyi o`simliklardan muntazam

xom-ashyo sifatida foydalanganligi hamda manzarali o'simliklarning o'mmaviy yig'iliishi sababli kiritildi.

O simlik va hayvonot dunyosini saqlab qolish maqsadida ulardan foydalanishni va haq to'lashni tartibga soluvchi qator qonunchilik boshqatlari qabol qilingan.

O'simlik va hayvonot dunyosidan foydalanganlik uchun to'lovlar O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, 2004-yil 3-dekabrda qabul qilingan "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi, 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi va "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vizirlar Mahkamasining 2004-yil 28-oktabrdagi "Biologiya resurslaridan oplona foydalanish, ularni O'zbekiston respublikasiga olib kirish va uning tashqarisiga olib chiqish ustidan nazoratni kuchaytirish to'g'risida"gi №-108 sonli Qarori va ushba qaror asosida qabul qilingan "O'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish, ularni O'zbekiston Respublikasiga olib kirish va uning tashqarisiga olib chiqish tartibi to'g'risida"gi va "Hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanish, ularni O'zbekiston Respublikasiga olib kirish va uning tashqarisiga olib chiqish hamda ovchilik-baliq ovlashni o'jaligini yuritish tartibi to'g'risida"gi nizomlar bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanganlik uchun to'lovlar quyidagi foydalanish turlari uchun belgilangan:

O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan o'simliklari turlaridan (bir o'simlikning yoki bir ildizning qiymati - o'simlik niqomiga qarab) foydalanganlik uchun;

Dorivor va ozuqbop o'simliklarning yovvoyi turlari hamda tayyorlash uchun mo'ljallangan o'simliklar texnik xom ashylaridan (1 kg niymani) foydalanganlik uchun;

Davlat o'rmon fondidan tashqaridagi daraxtlar va butalarni o'sganlik uchun.

O'zbekiston 38 mln.ga yaqin keng baliq ov havzalari hududiga ega. Respublika faunasiga 97 xil sut emizuvchi, 424 xil partanda, 58 xil sudraluvchi va 83 xil baliqdan tashkil topgan. Ulardan O'zbekiston Qizil kitobiga 24 xil sut emizuvchi, 48 xil qush, 18 xil sudraluvchi, 18 xil qush, 18 xil umurtqasizlar kiritilgan.

Bugungi kunda baliq-ov xo'jaligidan foydalanuvchilar tomonidan 1776,4 ming ga. yer maydoni foydalanishga kiritilgan, "hayvonot dunyosi-

dan foydalanish va muhofaza qilish to`g`risida"gi Qonunga muvofiq, o`xo`jaligi yurituvchilar yovvoyi hayvonlarni va ularning oziqlanish man balarini qayta tiklash va saqlab qolish chora-tadbirlariga ko`rishi lozim. 2004 yilda mazkur tadbirdar uchun atigi 6514,7 ming so`m sarflangan, qaysiki o`rtacha har bir ga, havza uchun 1,7 sumni tashkil qilgan. Bu jud. ham oz.

3. Atrof tabiiy muhitga salbiy ta'sir etganlik uchun haq to`lash

Atrof tabiiy muhitni ifloslantirganlik va unga salbiy ta'sir ko`rsatishning boshqa ko`rinishlari uchun haq to`lash ekologiya huquqida faoliyat tabiatiga shunday ta'sir etish bilan bog`liq bo`lgan tabiatdan foydalanuvchi - korxonalar qonunchilik talablariga muvofiq atrof tabiiy muhitning illoslanishini kamaytirish chora-tadbirlarini ko`rislari uchun asosiy iqtisodiy stimullardan biri hisoblanadi.

Bunday chora-tadbirlar turli shakllarda namoyon bo`lishi mumkin. Atrof tabiiy muhitni haddan tashqari ifloslantirganlik uchun muntazam yuqori to`lovlardan manfaatdor bo`lmasdan tabiatdan foydalanuvchilar ishlab chiqarish texnologiyasini mukammallashtirishlari, samarali tozalash inshootlarini qurishlari yoki mayjud inshootlarning yuqori samarador faoliyatini ta'minlashlari mumkin. Nihoyat atrof tabiiy muhitni ifloslantirish darajasini kamaytirishda ahamiyatli natijaga mehnat va texnologik intizomga rioya etilishini ta'minlash va xodimlarga nisbatan talablarni oshirish hisobiga erishish mumkin.

Kelajakda tabiatni muhofaza qilish faoliyatini boshqarishning iqtisodiy metodlariga o`tishni ta'minlash, shuningdek, tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmini bosqichma-bosqich yo`lga qo`yish maqsadida 2003-yil 1-mayda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O`zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun to`lovlar tizimini takomillashtirish to`g`risida"gi № 199 sonli qarori bilan 01.05.2003 yilda O`zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun kompensatsion to`lovlar joriy qilindi.

Atrof tabiiy muhitga salbiy ta'sir etganlik uchun haq to`lashning umumiyligi talablari "Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida"gi Qonunning 34 muddasida belgilangan. Atrof muhitni ifloslantirganlik uchun kompensta tsiya to`lovlarining miqdorlari O`zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasining taqdimiga binoan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasasi tomonidan tasdiqlanadi. Tabiiy resurslardan

foydalanganlik uchun to`lovlar tabiatdan foydalanuvchi korxonalar mahsulotlarining (bajargan ishlaringin, ko`rsatgan xizmatlarining) tannarxiga qo'shiladi. Atrof muhitni ifoslantirganlik uchun, shuningdek tabiatdan hunitda (normativda) belgilanganidan tashqari va o`zgacha tarzda nooqilona maxsus foydalanganlik uchun kompensatsiya to`lovlari yuridik shaxsing daromadidan (foydasidan) undiriladi. Tabiiy resurslardan foydalanganlik, ularni muhofaza qilganlik va qayta tiklaganlik uchun to`lov Davlat budjetiga tushadi.

M.M. Brinchuk fikricha, atrof tabiiy muhitga salbiy ta'sir ko`rsatganlik uchun undiriladigan haq ko`rinishlariga quyidagilar taalluqlidir:

atmosfera havosiga chiqarilgan ifoslantiruvchi va boshqa moddalar;

yer usti, yer osti suv obyektlari va suv omborlari maydonlariga ifoslantiruvchi va boshqa moddalar hamda mikroorganizmlarni chiqarish;

tuproq, yer osti boyliklari ni ifoslantirish;

iste'mol va ishlab chiqarish chiqindilarini joylashtirish;

atrof tabiiy muhitni shovqin, issiqlik, elektromagnit, ionlashtiruvchi va jismoniy ta'sirning boshqa ko`rinishlari bilan ifoslantirish;

atrof tabiiy muhitga salbiy ta'sir ko`rsatishning boshqa ko`rinishlari.

Atrof tabiiy muhitga salbiy ta'sir ko`rsatganlik uchun haq to`lash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 1-maydag'i "O'zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhit ifoslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun to`lovlar tizimini takomillashtirish mafarisida"gi № 199 sonli qarori, 2003-yil 1-maydag'i "O'zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhit ifoslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun kompensatsiya to`lovlari qo'llash tartibi mafarisida"gi Nizomi bilan bataysil tartibga solinadi. Nizomga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhit ifoslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun kompensatsiya to`lovlari to`lovchilar, idoraviy mansubligidan, mulkchilik shakllari va xo`jalik faoliyatini eulishidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi hududida ifoslantiruvchi moddalarni atrof tabiiy muhitga chiqarib tashlovchi va chiqindiluni joylashtiruvchi yuridik shaxslar hisoblanadi.

Ifoslantiruvchi moddalarni atrof tabiiy muhitga chiqarib tashlash, oqova oqizish va chiqindilarni joylashturishning normativ va normativdan shingcha (limitdan ortiqcha), shuningdek avariyalari va zaubli massa kompensatsiya to`lovlari obyekti hisoblanadi va u o'z ichiga quyidagilarni oladi:

turg un va ~~ro'jina~~ manbalardan ifoslantiruvchi moddalarini atmosfera havosiga chiqarish massasi; ifoslantiruvchi moddalarni quy' obyektlariga va joylarning relyesiga oqizish massasi;

O zbekiston ~~tabiatni~~ massasi.

va zaharli bo'limagan.

O zbekiston Respublikasi ~~tabiatni~~ hududida atrof tabiiy muhit ifoslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun kompensatsiya to'lovlarini ~~tabiatni~~ muhofaza qilish qo'mita.

O zbekiston Respublikasi ~~tabiatni~~ ~~tabiatni~~ va quyidagi tartibda taqsimlanadi:

organlari tomonidan ~~tabiatni~~ Respublikasi Vazirlar Mahkamasining.

50 foizi - O zbekiston ~~tabiatni~~ qarori bilan tasdiqlangan Tabiatni muhofaza 1993-yil 24-maydagi 24-~~taqsimlanishi~~ Nizomga muvofiq foydalanish uchun qilish jamg armalari to'g'iramalariga;

50 foizi - ~~tabiatni~~ budgetiga.

Atrof tabiiy muhit ifoslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun kompensatsiya to'lovlarini to'lovchi tomonidan tegishli bank muassasa ~~tabiatni~~ O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi ~~tabiatni~~ organlarining tabiatni muhofaza qilish jamg armasi hisob raqamiga ~~tabiatni~~ o'tkaziladi.

Yuridik shaxslar ~~tabiatni~~ kompensatsiya to'lovlarini atrof tabiiy muhitni ifoslantiruvchi moddalari chiqindilari, oqovalari hosil bo'lgan joy bo'yicha to'laydilar.

Yuridik shaxslarning urli hududlarda joylashgan bo'linmalari va filiallari yuridik shaxs ~~tabiatni~~ hisob raqamlariga ega bo'lish masa atrof tabiiy muhit ifoslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun kompensatsiya to'lovlarini yuridik shaxslar to'laydi. Kompensatsiya to'lovlarini korxonalarning bo'satib n'tilgani bo'linmalari va filiallari joylashgan hududlarning tabiatni muhofaza qilish jamg armalariga yo'nal tiriladi.

Atrof tabiiy muhit ifoslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun kompensatsiya to'lovlarini to'lash to'lovchilarni ushbu chiqindilarni ~~tabiatni~~ tashlik qilish, oqovalarni oqizganlik va chiqindilarni joylashtirganlik tufayli ~~tabiatni~~ zararni to'lash majburiyatidan ozod qilmaydi.

4. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni iqtisodiy rag`batlantirish

Iqtisodiyotni rivojlantirish va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni tuminlash tabiatni muhofaza qilish faoliyatini iqtisodiy rag`batlantirish vositasida amalga oshirilishi mumkin. Iqtisodiy rag`batlantirish atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish muammosini tadbirdorlik faoliyatini soddalashish yo`li bilan hal qilish vositasidan bin bo`lib, mazkun jarayonda tabiatni muhofaza qilish masalasi ham hal etiladi. Iqtisodiy rag`batlantirish moralari tizini xo`jalik subyektlarini atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo`yicha qonunchilik talablarini bajarish bo`yicha manfaatdorligini tuchaytirish va shu bilan dastavval, ular zimmasiga yuklangan soliq ukinini kamaytirishni ko`zlaydi. Iqtisodiy rag`batlantirish, bir tomondan soliqqa tortish, imtiyozlar belgilash, aksiz sohasida maxsus siyosatni amalga oshirish, kreditlash va h.k. yo`llar bilan ta'minlanadi, ikkinchi tomondan, ekologik zararli mahsulot va ekologik xavfli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan mahsulotlar bo`yicha maxsus soliqqa tortish uzimini nazarda tutadi.

Tabiatdan oqilona foydalanish, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni rag`batlantirish quyidagi yo`llar orqali amalga oshiriladi:

korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar tabiiy resurslar-dan oqilona foydalanish va tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirganlari taqdirida ularga soliq solishda imtiyozlar berish;

tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tabiat muhofazasini tuminlash borasidagi chora-tadbirlarni ro`yobga chiqarish uchun imtiyozli bartlarda qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlar (ssudalar) berish;

asosiy ishlab chiqarish fondlari uchun yuqori amortizatsiya normalari belgilash;

atrof tabiiy muhitga ifloslantiruvchi moddalar chiqarish va oqizish hamda chiqindilarni joylashtirish barqaror sur'atda pasaytirib borilgan taqdirda bunday moddalarni chiqarganlik va oqizganlik hamda hujindi-larni joylashtirganlik uchun to`lovlarni kamaytirish;

tabiatni muhofaza qilish jamg`armalari mablag`larining bir hismini ifloslantiruvchi moddalar chiqarish va oqizishni kamaytirish chora-tadbirlarini ro`yobga chiqarish maqsadida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va ayrim shaxslarga foizli qarzlar sifatida shartnomalar asosida berish.

Yer qonunchiligidagi yerdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni iqtisodiy rag`batlantirish yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijrarachi-

larning tuproq unumdorligi saqlanishi va tiklanishidan, yerlarni ishlab chiqarish faoliyatining salbiy oqibatlaridan himoya etilishidan mansaftorligini oshirishga qaratilgan bo`lib, o`z ichiga quyidagilarni oladi:

yangi o`zlashtirilayotgan va meliorativ holatini yaxshilash jarayonida turgan mavjud sug oriladigan yerlarga qonun hujjatlari belgilangan taribda yer solig`i bo`yicha imtiyozlar berish;

yerlarni muhofaza qilish va qayta tiklash bo`yicha faoliyat amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslarga kamchiqit va resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etishda soliqqa, kreditga oid va boshqa imtiyozlar berish;

yerlarning sifatini yaxshilashni, ilmiy asoslangan almashlab ekishni joriy etishni, qishloq xo`jaligi va o`rmon xo`jaligiga mo`ljallangan yerlarning unumdorligini oshirishni, ekologik sof mahsulot yetishtirishni rag`batlantirish;

yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarning aybi bo`limgan holda buzilgan yerlarni qayta tiklash uchun, zarurat bo`lgan taqdirda, respublika budgetidan yoki mahalliy budgetdan mablag`lar ajratish, agro-texnika, o`rmon melioratsiyasi tadbirlari va tuproqni himoya qilish yuzasidan boshqa tadbirlar o`tkazish;

yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarning aybi bo`limgan holda buzilgan yer uchastkalarini vaqtincha konservatsiya qilish natijasida ulardan keladigan daromadning kamayishini davlat budgeti mablag`lari hisobidan qisman qoplash.

O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 27.03.2002-yil 1118-son bilan ro`yxatga olingan O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va DSQning 2002 yil 21 yanvardagi 19 va 2002-20-son qarori bilan tasdiqlangan “Yer solig`ini hisoblab chiqarish va to`lash tartibi to`g`risida”gi Yo`riqnomaga muvofiq quyidagi jismoniy shaxslar yer solig`i to`lashdan ozod etiladilar:

yaylov chorvachiliginining cho`ponlari, yilqiboqarlan mexanizatorlari, veterinar vrachlari va texniklari, boshqa mutaxassislar va ishchilari;

“O`zbekiston Qahramoni”, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo`lgan shaxslar, uchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlar, 1941-1945-yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari. Mazkur imtiyoz “O`zbekiston Qahramoni” unvoni berilishi to`g`risida guvohnoma; Sovet Ittifoqi Qahramoni va Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo`limining mal-

motnomasi, urush qatnashchisi guvohnomasi, imtiyozlarga huquq to`g`ri asosida guvohnoma asosida taqdim etiladi;

xizmatni Afg`oniston Respublikasida va jangovar harakatlari olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo`lgan qo`shinlarning heklangan kontingenti tarkibida o`tagan harbiy xizmatchilar hamda quv va sinov yig`inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar. Mazkur imtiyoz imtiyozlarga huquq to`g`risida guvohnoma asosida taqdim etiladi;

haqiqiy muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan harbiy xizmatchilarining oilalari - xizmat muddatiga. Muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan fuqarolar uchun ularni chaqirish sanasi tuman va shahar hokimiyatlarining mudofaa ishlari bo`limlari ma'lumotlariga ko`ra qabul qilinadi. Xizmatdan qaytgan fuqaroning mudofaa ishlari bo`lim tomonidan hisobga qo`yilgan kuni harbiy xizmatning tugash sanasi det qabul qilinadi. Muqobil xizmatni o`tayotgan harbiy xizmatchilarga mazkur hechik band tomonidan belgilangan imtiyozlar taqdim etilmaydi;

I va II guruh nogironlari. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo`limining ma'lumotnomasi asosida taqdim etiladi;

yolg`iz pensionerlar. Soliq solish maqsadlari uchun yolg`iz pensionerlar deganda bir o`zları yoki voyaga yetmagan bolalari yoki nogiron bolasi bilan birgalikda alohida uyda, kvartira yoki yotoqxonada yashaydigan pensionerlar tushuniladi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo`limining ma'lumotnomasi asosida taqdim etiladi;

boquvchisini yo`qotgan ko`p bolali oilalar. Soliq solish maqsadlarida boquvchisini yo`qotgan ko`p bolali oilalar deganda otanonadan biri yoki ikkalasi vafot etgan hamda oilada 16 yoshga yetmagan 5 ya undan ortiq bola bo`lgan oilalar tushuniladi. Mazkur imtiyoz tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo`limining ma'lumotnomasi asosida taqdim etiladi;

konsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqunlari, Chernobil AESdagagi talokat oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslar. Mazkur imtiyoz imtiyozlarga huquqlar to`g`risida guvohnoma yoki tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo`limining ma'lumotnomasi asosida taqdim etiladi;

ko`chirib keltirilgan fuqarolar kelib joylashgan yer uchastkalari bo`yicha - yer uchastkalari berilgan vaqtidan e'tiboran besh yilga;

ilgari shaxsiy pensiya tayinlangan shaxslar;

gastrol-konsert faoliyati bilan shug`ullanish huquqini beruvchi litseziyasi bo`lgan jismoniy shaxslar.

Ko`rsatilgan imtiyozlar yer uchastkalari yakka tartibda uy-joy qurilishi va shaxsiy yordamchi xo`jalik (dehqon xo`jaligi) yuritish uchun qonun hujjatlarda nazarda tutilgan me'yorlat doirasida taqdim etilgan jismoniy shaxslargagina tatbiq etiladi. Yer solig`i to`tanmaydigan yer uchastkalarining maydonlari yer uchastkasiga huquqni tasdiqlaydigan hujjatlarga binoan qabul qilinadi. Imtiyoz huquqi yer solig`ini to`lashdan ozod etilgan shaxslar yashaydigan va birgalikda xo`jalik yuritadigan butun oilaga tatbiq etiladi.

“Fermer xo`jaligi to`g`risida”gi Qonunning 14-moddasiga muvofiq fermer xo`jaligi tegishli loyihada nazarda tutilgan yerni o`z hisobidan o`zlashtirayotgan davrda va yer o`zlashturib bo`linganidan keyin besh yil davomida yerning mazkur o`zlashtirilgan qismi uchun yagona yer solig`i to`lashdan ozod qilinadi.

“Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish va to`lash tartibi to`g`risida yo`riqnomani tasdiqlash haqida”gi 2002 yil 14-yanvarda qabul qilingan Yo`riqnomaga muvofiq, quyidagilari yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq to`lashdan ozod etiladilar:

a) yer osti boyliklarini geologik jihatdan o`rganuvchi yuridik va jismoniy shaxslar;

b) geologik, mineralogik va boshqa alohida qo`riqlanadigan tabiiy hududlarda ilmiy ish olib boruvchi yuridik va jismoniy shaxslar;

v) hamma joyda tarqalgan toydali qazilmalarni ularga berilgan yerdan uchastkalari doirasida belgilangan tartibda, o`z xo`jalik va maishiy ehtiyojlari uchun qazib olishni amalga oshiruvchi yer egatari va yerdan foydaluvchilar, 1-ilovaga binoan. Mazkur kichik bandga muvofiq yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan bog`liq bo`lmagan maqsadlar uchun o`z hududida qazib olingan va ishlataladigan keng tarqalgan toydali qazilmalar hajmi yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni to`lashdan ozod etiladi.

O`zR Moliya vazirligi va Davlat soliq qo`mitasining 2002-yil 14 yanvardagi 7 va 2002-8-sod Qarori bilan tasdiqlangan “Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish va to`lash tartibi to`g`risida”gi Yo`riqnomaga muvofiq, suv resurslaridan foydalanuvchi quyidagi yuridik shaxslar soliq to`lashdan ozod etiladilar:

a) notijorat tashkilotlari, ana shu faoliyatda ishlataligancha suv hajmidan kelib chiqib, suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanuvchilardan tashqari.

Soliq solish maqsadida notijorat tashkilotlari deganda quyidagilari tushuniladi:

faqat davlat budjeti mablag`lari hisobiga moliyalanadigan, xarajatlar uchun qoplash uchun belgilangan smetalar doirasida dotatsiya oladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar;

xayriya birlashmalari, uyushinalari va jamg` armalari, xalqaro tashkilotlar, diniy birlashmalari va boshqa tashkilotlar;

1) ijtimoiy-xayriya yoki tadbirdorlik faoliyatidan daromad olishni to`zlamaydigan, ta'sis hujjatlarida ta'kidlangan boshqa maqsadlar uchun barpo etilganlari;

2) moliyaviy va boshqa mablag`larni mazkur tashkilot xodimlari, muassislari yoki a'zolarining shaxsiy manfaatlari uchun taqsimlamaydigan va investitsiyalamaydiganlari (qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnatga haq to`lashlar bundan mustasno);

b) yer osti mineral suvlardan davolash maqsadlarida foydalanadigan sog`liqni saqlash muassasalari, ular mineral suvlardan savdo tarmog`ida yotish uchun foydalanadigan hollar bundan mustasno;

v) farmatsevtika faoliyati bilan shug`ullanadigan va suvdan dorivor vositalar tayyorlashda foydalanadiganlar;

g) atrof muhitga zararli ta'siri oldini olish maqsadida chiqarib tashlanadigan yer osti suvlari uchun (ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun ishlataladigan suv hajmlaridan tashqari). Masalan, sizot suvlarning qutini pasaytirish maqsadida chiqarib tashlanadigan zovur suvlari;

d) uning uchun budjetga soliq to`lagan yuridik shaxslardan suv olgan odatmolchilar;

ye) foydali qazilmalar qazib olish bilan yo`l-yo`lakay va shaxtadan avni chiqarib tashlash uchun olingan yer osti suvlari uchun, ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalananiladigan suv hajmlaridan tashqari;

j) agregatlar ishlashi uchun suvdan foydalanganlik uchun hidroelektrostansiyalar;

z) birlamchi foydalanganlik uchun haq to`langan suvdan ikkilamchi foydalanuvchilar (masalan, sug`orish uchun kollektor-zovur tarmog`idagi suvdan foydalanish);

i) taoliyatning asosiy turi bo`yicha qishloq xo`jalik mahsuloti yetishtiruvchilar sho`rlangan yerlarni sug`orishga suvdan foydalanganlik uchun. Mazkur imtiyoz yordamchi qishloq xo`jaligiga ega yuridik shaxslarga ham tatbiq etiladi;

k) umumiy ishlovchilarining kamida ellik foizi nogironlar bo`lgan, nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroniy" jamg`armasi va "O`zbekiston chernobilchilar" uyushmasi mulkida bo`lganlari, savdo-

sotiq, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslardan tashqari;

I) bo shatib olinadigan mablag`lar ular tomonidan moddiy-texnik bazani mustahkamlashga, uskunalar, anjomlar, didaktik materiallar, bolalar o`ynichoqlari va kitoblarini xarid qilishga sarflanishi sharti bilan nodavlat maktabgacha ta'lif muassasalari ro'yxatiga olingan paytdan boshlab uch yil muddatga.

IX BOB. EKOLOGIK QONUN HUJJATLARNI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

1. Ekologik qonun hujjatlarni buzganlik uchun javobgarlik tushunchasi, mohiyati va turlari

Atrof tabiiy muhitni musofaza qilish va tabiatdan oqilona foyda-
lari ta'minlash choralari tizimida qonun hujjatlariga rioya qilmaganlik,
ekologik talablarni buzganlik uchun yuridik javobgarlik choralari muhim
muhiyini egallaydi.

Yuridik javobgarlik deganda, huquq normalarini buzganlik uchun
choralarini qo'llash oqibatida huquqbuzarga salbiy oqibatlar tug'di-
rilib, va davlat tomonidan huquq talablarini bajarishga majbur etish
muhibi bo'lib. Yuridik javobgarlik ijtimoiy javobgarlikning bir turi bo'lib,
huquq normalarda belgilanadi va davlatning majburlash kuchini qo'llash
okoniyatlari bilan hamisha bog'liq bo'ladi.

Yuridik javobgarlik huquqbuzarlik sodir etilganda va uning salojiy
jabati kelib chiqqanda vujudga keladi. Yuridik javobgarlik davlatning
majburlov xarakteridagi choralarini huquqqa xi洛 harakat (yoki harakat-
sizlik) sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llanilishi bilan bog'liq va u huquq-
bzarlikka qarshi kurashning muhim huquqiy vositasidir.

Ekologiyaga doir qonunchilikni buzganlik uchun yuridik javobgarlik
ning asosiy maqsadi va tamoyillari bilan boshqa qonunchilikni
buzganlik uchun javobgarlikdan farq qilmaydi, ammo ma'lum bir o'ziga
xususiyatlarga ham ega. Ushbu xususiyatlar o'simlik va hayvonot
niyosiga yetkazilgan zararni taksa uslubi asosida undirish va ekologik
qonun shujjatlarini buzganlik uchun maxsus jazo choralar, ya'ni tabiiy
turslardan foydalanish huquqini cheklash, to'xtatib turish va undan
mashrum qilish choralarini qo'llashdan iboratdir.

Ekologik qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik quyidagi maq-
dlarga ega: tabiiy obyektlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish
qondalarini buzgan shaxslarga nisbatan jazo choralarini qo'llash; atrof
tabiiy muhitga va inson salomatligiga yetkazilgan zararni qoplash; yangi
ekologik huquqbuzarlikni sodir etishni ogohlantirish.

Hozirgi davrda ko'pchilik olimlar tomonidan "ekologik huquqiy
javobgarlik" termini qo'llaniladi. Ushbu terminni qo'llanilishi huquqning
kompleks tarmog'i bo'lmish ekologik huquq konsepsiysi, o'ziga mustaqil
ta yaqin tarmoqlar, ya'ni yer, tog, suv, o'mon huquqi hamda tabiatni
huquqiy muhofaza qilish bilan chambarchas bog'liq.

Ekologik javobgarlik bo'yicha ijtimoiy munosabatlar ekologik huquqbuzarlik sodir etilganda vujudga keladi. Ekologik huquqbuzarlik deganda tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish to'g'ini sidagi qonun hujjatlarini buzuvchi aybli, noqonuniy harakat yoki harakat sizlik tushuniladi. Ekologik huquqbuzarlik sodir etilganda atrof tabiiy muhitga hamda u orqali inson salomatligiga zarar yetkaziladi yoki zarar yetkazish xavfi tug'iladi. Ammo, ma'lum bir holatlarda zarar ekologil huquqbuzarlikni belgilashda hisobga olinmasligi mumkin, chunki tabiiy resurslardan foydalanish huquqini buzish oqibatida ekologik munosabatlarning boshqa bir subyektlarini huquq va manfaatlari buzilishi mumkin. Masalan, hech kim tomonidan foydalilmayotgan yer maydonini o'zbo'shimchilik bilan egallab olishda davlatning yerga bo'lgan mulk huquq buziladi.

Ekologik huquqbuzarliklar obyekti tabiiy resurslar, atrof tabiiy muhit, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza etish bo'yicha belgilangan tartibi hisoblanadi. Ekologik huquqbuzarliklarning subyekti esa uni sodir etuvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadilar.

Ekologik huquqbuzarlikning obyektiv tomoni xatti harakatning noqonuniyligi, ekologik zararni yetkazish yoki yetkazish xavfi tug'ilishi hamda ekologik munosabatlarning boshqa subyektlarini huquq va manfaatlari buzilishi, ushbu xatti harakat bilan vujudga kelgan yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan oqibat o'rtaisdagi sababiy bog'lanish bilan ifodalanadi.

Ekologik huquqbuzarlikning subyektiv tomoni deganda huquqbuzar ning aybi tushumilishi lozim. Huquqbuzarning aybi qasddan yoki ehtiyyotsizlik shaklida vujudga kelishi mumkin. Ekologik huquqbuzarlik qasddan sodir etilayotganida huquqbuzar taqiqlangan qoidani yoki bajarishi lozim bo'lgan majburiyatni atayin buzadi yohud bajarmaydi va bunda u o'z xatti harakatlari natijasida zararlari oqibatlarni kelib chiqishini biladi hamda ongli ravishda unga yo'l qo'yadi. Masalan, yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olish, ruxsatsiz ov qilish yoki daraxtlarni kesish va boshqalar.

Ehtiyyotsizlik oqibatida huquqbuzarlik sodir etilganda, huquqbuzar o'z xatti harakatining natijasida salbiy oqibatlarni kelib chiqishini bila turib, ular vujudga kelmaydi deb hisoblaydi yoki zararli oqibatlar kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko'rishi lozim va mumkin bo'lgani holda, uni oldindan ko'ra bilmaydi. Masalan, chiqindilarni tozalovchi nosoz uskulalarni ishlatish, kimiyoviy moddalarni me'yordan ortiq ishlatish va boshqalar.

Ekologik huquqbazarlik o`zining xavflilik darajasiga qarab jinoiy, mu'muriy, fuqarolik (mulkiy) huquqbazarlik hamda intizomiy xatti harakat tuzida bo`lishi mumkin. Ekologik huquqbazarliklar uchun tegishlicha intizomiy, moddiy, ma'muriy, jinoiy, fuqarolik huquqiy (mulkiy) javobgarlik qo'llaniladi. Bundan tashqari ekologik huquqbazarlikni sodir etgan muassalarning tabiiy resurslardan foydalanish huquqi cheklanishi, io`xlatib bo`lishi va undan mahrum etilishi mumkin.

: Ekologik qonun hujjatlarni buzganlik uchun intizomiy va moddiy javobgarlik

Ekologik qonun hujjatlarni buzganlik uchun intizomiy javobgarlik forxona, tashkilot va muassasalar bilan mehnat munosabatlarida bo`lgan fuqslarga nisbatan qo'llaniladi. Ekologik huquqbazarlik uchun intizomiy choralar qo`llash uchun xodimlarga tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza etish vazifalari yuklatilgan bo`lishi lozim. Ushbu vazifalar mehnat shartnomalarida yoki mehnat majburiyatlarni taqsimlovchi boshqa hujjatlarda, masalan, mansab yo`riqnomasida o`z iksini topishi lozim. Xodim atrof tabiiy muhitga zararli moddalar chiqarish hisobini noto`g`ri yuritganligi, tozalash uskunalaridan foydalanish qoidalarini buzganligi va boshqa mehnat vazifalari bilan bog`liq bo`lgan ekologik majburiyatlarni bajarmaganligi uchun intizomiy javobgarlikka tortiladi.

O`zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 181-moddasiga muvofiq mehnat intizomini buzganlik uchun quyidagi jazo choralar qo'llaniladi: xayfsan; o`rtacha oylik ish haqining o`ttiz foizidan ortiq bo`limgan miqdorida jarima; ichki mehnat tartibi qoidalarida nazarda tutilgan hollarda xodimga o`rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ortiq bo`limgan miqdorida jarima solish; mehnat shartnomasini bekor qilish. Mazkur Kodeksda nazarda tutilmagan intizomiy jazo choralarini qo'llashi taqiqlanadi. Mehnat kodeksining 180-moddasi to`rtinchi qismiga muvofiq intizomiy jazo amal qilib turgan muddat mobaynida xodimga nisbatan rag`batlanirish choralar qo'llanilmaslik belgilangan. Bu muddat, O`zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini 183-moddasiga muvofiq, agar ushbu jazo bir yil o`tmasdan oldin ish beruvchi tomonidan olib tashlanmasan bo`lmasa, bir yilda oshib ketishi mumkin emas.

Intizomiy jazo choralar korxona, tashkilot, muassasa rahbari yoki ustavda belgilangan boshqa shaxs yoki organ (mulkdor, kollegial organ) tomonidan qo'llaniladi (Mehnat kodeksining 82, 182-moddalari). Intizo-

niy jazo chorasi qo'llash tartibi quyidagilardan iborat: jazo qo'llanishidan avval xodimdan yozma ravishda tushuntirish xati olinadi; nojo`ya catti-harakatining og`irligi, qaysi vaziyatda sodir etilganligi, xodimning oldingi ish faoliyati va xulq-atvori inobatga oliniladi; har bi`ze nojo`ya xattiharakat uchun faqat bitta intizomiy jazo qo'llanilishi mumkin; agar O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida boshqa muddat ko`rsatilganda bo`lmasa, nojo`ya xattiharakat aniqlangandan keyin bir oy ichida ushbu jazo qo'llanilishi mumkin.

Intizomiy jazo chorasi berilganligi to`g`risidagi buyruq yoki qaror kodimga yozma ravishda ma'lum qilinadi va u tanishganligi to`g`risidagi nusxasiga imzo qo`yadi. Intizomiy jazo chorasi berilganligi to`g`risidagi qaror ustidan O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini 184-noddasida belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

Atrof tabiiy muhitga ekologik talablar buzilishi oqibatida yetkazilgan zarar aybdor shaxsdan undiriladi. Agar zarar yetkazuvchi yuridik shaxs bo`lsa, u zararni qoplash majburiyati bilan birga, ushbu zarar yetkazilishi shiga bevosita aybdor xodimni moddiy javobgarlikka tortish huquqiga ega bo`ladi.

Korxona, tashkilot, muassasaning atrof tabiiy muhitga zarar yetkazilishida aybdor bo`lgan xodimining moddiy javobgarligining fuqarolik qonun hujjatlarda belgilangan mulkiy javobgarlikdan farqlash lozim. Moddiy javobgarlik mulkiy javobgarlikdan undiriladigan zararning miqdorini belgilash va zararning faqat xodimning mehnat munosabatlari natijasida vujudga kelishi bilan farq qilinadi.

Xodimlarning moddiy javobgarlikka tortish tartibi va shartlari mehnat qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Moddiy javobgarlikning vujudga kelishi uchun quyidagi shart-sharoitlar mayjud bo`lishi kerak: xodimning noqonuniy xattiharakati, ya`ni o`z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida korxona, tashkilot, muassa saga haqiqiy zarar yetkazilgan bo`lishi zarur; xodimning harakat yoki harakatsizligi aybli bo`lishi lozim, xodimning harakat yoki harakatsizligi bilan kelib chiqqan oqibatlar o`rtasida sababiy bog`lanish bo`lishi lozim.

Aksariyat hollarda moddiy javobgarlikning miqdori qonun bilan chegaralangan, masalan, Mehnat kodeksining 201-moddasiga muvofiq, agar mazkur Kodeksda boshqacha holat nazarda tutilgan bo`lmasa, xodim yetkazilgan zarar uchun o`zining o`rtacha oylik ish haqi miqdori doirasida moddiy javobgar bo`ladi. Agar xodim ekologik talablarni buzib qasddan zarar yetkazgan bo`lsa yoki alkogolli ichimlik, giyovandlik yoki toksik modda ta'siridan mastlik holatida zarar yetkazganda, hamda qonunlarda,

shuningdek hukumatning qarorlarida nazarda tutilgan hollarda, yetkazilgan surʼar uchun xodim toʼliq moddiy javobgarlikka tortiladi (Mehnat kodeksining 202-moddasi).

Ish beruvchi xodimlardan yetkazilgan zararni undirish toʼgʼrisida qarorni qabul qilishidan oldin uning miqdorini va zararni, kelib chiqish sabablari aniqlashi lozim. Bu maqsadlarda komissiya tuzilishi hamda xodimdan tushuntirish xati olinishi lozim.

Xodim tomonidan zararning ixtiyoriy ravishda qoplashini yoki uni mujburiy undirilishi tartibi Oʼzbekiston Respublikasining Mehnat kodeksining 206 va 207-moddalarida oʼz aksini topgan. Korxona, tashkilot va muassasa rahbarining zararni undirish toʼgʼrisidagi qarori zarar yetkazilganligi aniqlangan kundan boshlab bir oy ichida chiqarilishi lozim. Zararning miqdori xodimning oʼrtacha oylik ish haqidan ortiq boʼlmasa, korxona, tashkilot va muassasa rahbarining qaroriga binoan undiriladi, agar zarar miqdori xodimning oʼrtacha oylik ish haqidan ortiq boʼlsa, yoki zarar aniqlangan kundan keyin bir oylik muddat oʼtgan boʼlsa, zarar sud tartibida undiriladi.

Korxona, tashkilot va muassasa mol-mulkiga yetkazilgan zararni undirish haqidagi qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Xodimlarning moddiy javobgarlikka tortilishidan qatʼi nazar ularga nisbatan intizomiy jazo choralar qoʼllanilishi mumkin.

3. Ekologik huquqbazarliklar uchun maʼmuriy javobgarlik

Ekologik huquqbazarliklar uchun maʼmuriy javobgarlik eng koʼp qoʼllaniladigan javobgarlik turidir. Maʼmuriy javobgarlikka tortishga maʼmuriy huquqbazarlik asos boʼladi. Qonun hujjatlarida maʼmuriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi gʼayri huquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyyotsizlik oqibatida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik maʼmuriy huquqbazarlik deyiladi.

Ekologik huquqbazarliklar uchun maʼmuriy javobgarlik Oʼzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʼgʼrisidagi kodeksida nazarda tutilgan. Maʼmuriy javobgarlik choralar ushbu huquqbazarlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish sabablari boʼImaganida, qoʼllaniladi.

Ekologik huquqbazarliklar uchun quyidagi maʼmuriy jazo choralar qoʼllaniladi:

- jarima. Uni qoʼllashning asosiy tamoyillari Oʼzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʼgʼrisidagi kodeksning 25-moddasida belgilangan. Jarimani qoʼllash oqibatida maʼmuriy huquqbazarlik sodir

etishda aybdor shaxsdan davlat hisobiga pul undiriladi. Ekologik huquq buzarliklar uchun belgilangan jarimaning miqdori O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 60, 65-96, 125, 139, 162, 174, 198, 212, 214-moddalarida belgilangan;

ma'muriy huquqbazarlik sodir etish quroli hisoblangan vos bevosita shunday narsa bo`lgan ashyni musodara qilish jazosi tunko (shaxar) sudining ma'muriyy ishlari bo`yicha sudyasi tomonidan qo`llaniladi (O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 27-moddasi). O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 90-moddasi ikkinchi qismiga muvosiq ov qilish qoidalari qo`pol ravishda buzilgan taqdirda ov qilish qurollari, ushbu Kodeksning 94-moddasiga muvosiq esa noyob yox yo`q bo`lib ketish xavfida turgan hayvonlarni yo`q qilib yuborish yox ushbu moddada ko`zda tutilgan boshqa huquqbazarliklarni sodir etga taqdirda shu huquqbazarliklarni sodir etish quroli bo`lgan ashylarni musodara qilish mumkin. Ma'muriy huquqbazarlik oqibatida tabii obyektlar o`zlashtirib olinsa (yer egallanib olinsa, daraxt kesilsa hayvonlar ov qilib o`ldirilsa), ular davlatga qaytarib beriladi va bu musodara hisoblanmaydi. **Fuqar** huquqbuzarning mulki bo`lgan huquqbazarlikni sodir etish quroli yoki ashysosi musodara qilinishi mumkin;

- maxsus huquqdan mahrum etish. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksini 28 moddasi va 90-moddasi ikkinchi qismiga muvosiq, ov qilish qoidalarini qo`pol ravishda buzgan hollarda ov qilish huquqidan o`n besh kundan uch yil muddatgacha mahrum etilishi mumkin;

- ma'muriy qamoqqa olish uch sutkadan o`n besh sutkagacha muddatga qo`llaniladi. Ma'muriy qamoqqa olish chorasini xomilador ayollarga, uch yoshgacha bolasi bo`lgan ayollarga, o`n to`rt yoshgacha bo`lgan bolasini yakka o`zi tarbiyalayotgan shaxslarga, o`n sakkiz yoshgacha bo`lgan shaxslarga, I va II-guruh nogironlariga nisbatan qo`llanilishi mumkin emas (O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 29-moddasi). Ekologik huquqbazarlik uchu ma'muriy qamoqqa olish O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksini 60-moddasida nazarda tutilgan.

Ma'muriy javobgarlik choralarini qo`llashda organ yoki mansabdo shaxs javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarni va huquqbuzarning moddiy ahvolini inobatga olgan holda, sababini, albatta, ko`rsatib turib ma'muriy javobgarlikdan ozod etishi (O'zbekiston Respublikasining

Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksini 20-moddasi) yoki mazkur kodeksning maxsus qismi moddalarining jazo belgilash qismida nazarda tilgan eng kam jazodan ham yengilroq jazo chorasini qo'llashi mumkin.

Yerlarning huquqiy holatini buzganlik uchun O`zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksini 60, 65-69-moddalarida javobgarlik belgilangan. Mazkur kodeks quyidagi huquqbazarlik bilan nazarda tutadi: yerdan o`zboslimchalik bilan foydalanish; yer bilan bo`lgan g`ayriqonumiy bitinlar tuzish; yer uchastkasiga bo`lgan huquqlarni boshqa shaxsga o`tkazish; yer uchastkalarini o`zboshimchalik bilan egallah; yerlardan xo`jasizlarcha foydalanish yoki ularni yaroqsiz hujra keltirish; yerlarni kimyoviy va radioaktiv moddalar hamda oqova bilan bilan ifloslantirish; yer berish tartibini buzish; vaqtincha egallab bo`lgan yerlarni o`z vaqtida qaytarib bermaslik yoki ularni yaroqli holga itirmaslik; yer tuzish loyihibaridan o`zboshimchalik bilan chetga chiqish; davlat yer kadastri qoidalarini buzish; yerdan foydalanish to`g`risidagi hisobotlarni buzib ko`rsatish; axborotlarni berishdan bo`yin tovlash yoki noto`g`ri axborot berish va boshqalar.

O`zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksini 60, 70, 71-moddalarida yer osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish talablarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Xususan, yer osti boyliklaridan o`zboshimchalik bilan foydalanish; yer osti boyliklariga nisbatan mulk huquqini buzish va ulardan foydalanish huquqini boshqa shaxslarga berish; foydalni qazilmalar joylashgan maydonlarda o`zboshimchalik bilan imorat qurish; yer osti boyliklaridan foydalanish talab va tartiblarini buzish; yer osti boyliklarini muhofaza qilish qoidalariga rioya etmaslik; geologik jihatdan o`rganish ishlarini olib borish qoidalarini buzish va boshqalar.

Suvlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik O`zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksini 60, 72-76-moddalarida belgilangan. Ushbu Kodeks quyidagi huquqbazarliklar uchun javobgarliklarni belgilaydi: suvdan o`zboshimchalik bilan foydalanish; davlatning suvgaga bo`lgan mulk huquqini buzish; suvdan foydalanish huquqini boshqa shaxslarga berish; ishlarni ifloslantirish va bulg`atish; korxonalar va boshqa obyektlarni suvlarning ifloslanishi va bulg`anishi yoki ularni zararli ta'sirini oldini oluvchi inshootlar va qurilmalarsiz foydalanishga topshirish; yer osti suvlardan foydalanish inshootlari va uskunalaridan foydalanish qoidalarini buzishi; suvdan foydalanish me'yorlari va limitlariga rioya etmaslik; hidrotehnika ishlarini o`zboshimchalik bilan boshqarish va ulardan

foydalanish qoidalarini buzish; suvdan foydalanishni dastlabki hisobni yuritish va oqova suvlarning sifatini aniqlash qoidalarini, shuningdek kadastri yuritish tartibini buzish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risida kodeksini 60, 77-81 va 84-moddalarda o`rmonlarning huquqiy hola ni buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Mazkur masala bo`yicha Kodek quyidagi huquqbuzarliklarni nazarda tutadi: o`rmonlar o`zboshimchalik bilan foydalanish; o`rmonlarga bo`lgan mulk huquqni buzish; o`rmondan foydalanish huquqini boshqa shaxsga berishi kesiladigan o`rmon fondidan foydalanish tartibini buzish; daraxtlar va boshqa o`rmon o`simliklarini shikastlantirish yoki yo`q qilish; o`rmonlarning tiklash qoidalariga rioya etmaslik; qizil kitobga kiritilgan o`simliklarni yig`ish; o`rmonlarda yong'in xavfsizligi talablarini buzish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risida kodeksning 60, 90, 92, 93 va 94-moddalarida hayvonot dunyosiniga huquqiy holatini belgilovchi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Mazkur Kodeks shu borada quyidagi huquqbuzarliklarni nazarda tutadi: ov qilish yoki baliq tutish qoidalarini, shuningdek hayvonot dunyosidan foydalanishning boshqa turlarini amalga oshirish qoidalarini buzish; hayvonlar yashaydigan muhitni muhofaza qilish qoidalarini buzish; Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar va o`simliklar turlarini saqlashiga zarar keltiradigan hayvonlar yoki o`simliklarni qonunga xilof ravishda O'zbekistonga olib kelish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risida kodeksining 85-88-moddalarida atmosfera havosini muhofaza etish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Bular: ifloslantiruvchi moddalarni va biologik organizmlarni yo`l qo`yiladigan normalardan ortiq darajada atmosferaga chiqarib tashlash; atmosfera havosiga yo`l qo`yiladigan normativdan ortiq darajada zararli fizikaviy ta'sir ko`rsatish atmosferaga ruxsatsiz ifloslantiruvchi moddalarni va biologik organizmlarni chiqarib tashlash yoki ruxsat talab qilinadigan hollarda bunday ruxsatsiz atmosfera havosiga zararli fizikaviy ta'sir ko`rsatish; zararli moddalarni yoppasiga chiqarib tashlashning oldini olish chora-tadbirlarini amaly oshirmsaslik; atmosferaga chiqariladigan zararli moddalarni tozalash inshootlaridan foydalanish qoidalarini buzish, shuningdek, ulardan foydalanmaslik; chiqindilarda ifloslantiruvchi moddalarni normativdan ortiq bo`lganda transport va boshqa harakatlanuvchi vositalarni tayyorlash, ta'milash va foydalanishga chiqarish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 82-moddasida alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar bolatini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish qoidalariga riosa etmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 89, 89¹, 91, 95, 96-moddalarida javobgarlik ko`zda tutilgan. Bularga: o'simliklarni himoya qilish vositalari va boshqa dorilarni tashish, aqlash hamda qo'llash qoidalariga riosa qilmaslik, ishlatish taqiqlangan ishga yaroqsiz bo'lib qolgan kimyoviy moddalarini zararsizlantirish yicha qoidalarini buzish, sanoat va o'zga chiqindilarini tashish, oylashtirish, utilashtirish, ko'mib tashlash chog'ida tabiatni muhofaza qilish talablarini buzish, tabiiy muhitni tiklash, tabiiy zaxiralarni qayta bosil qilish va tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatish oqibatlarini bartaraf ish choralarini ko'rmaslik hamda loyihalarni davlat ekologik (sanitariyalogik) ekspertizasining ijobjiy xulosasisiz ro'yogha chiqarish kabi huquqbuzarliklar kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan toydalanish bilan bog'liq bo'lgan boshqa huquqbuzarliklar uchun ham javobgarlik belgilangan. Bularga quyidagilar kiradi: 174-moddada soliq olinadigan foydani (daromadni) yoki boshqa obyektlarni qasddan yashirish (kamaytirib ko'rsatish) yoxud sofiqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlardan to'lashdan bo'yin tov lash uchun javobgarlik belgilangan. Agar haxs yer solig'ini to'lashdan qasddan bo'yin tovlasa yoxud foydalanayotgan yer uchastkasi miqdorining soliq organlariga noto g'ri ko'rsatsa yoki atrof tabiiy muhitga chiqarib tashlangan chiqindilar miqdorini kamaytirib ko'rsatsa, mazkur modda bilan javobgarlikka tortilishi. Ushbu Kodeksning 198-moddasida hokimiyat vakilining qonuniy talablarini bajarmaganlik yoki xizmat vazifasini bajarishiga to'sqintlik qilish uchun javobgarlik belgilangan. Atrof tabiiy muhitni muhofaza etish va tabiiy resurslardan toydalanish ustidan davlat nazorati va boshqa vakolatli davlat organlarining qonuniy talablarini, shu jumladan huquqbuzarlik oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarini bajarmaslik yoki ularni tekshirishga to'sqintlik qilish mazkur huquqbuzarliklarning turini tashkil qiladi.

Ekologik standartlarni yoki ekologik sertifikatlashirish qoidalarini buzganlik uchun O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 212, 214-moddalarida javobgarlik belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning uchinchi bo'limga ma'muriy huquqbuzarliklar to`g`risidagi

ishlarni ko`rib chiqishga vakolatli bo`lgan organlar (mansabdon shaxslari ko`rsatilgan. Tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlarni bo`yicha sudyoshi ushbu Kodeksning 245-moddasiga muvofiq 60, 66, 67, 90-moddanin ikkinchi qismida nazarda tutilgan huquqbazarliklar to`g`risidagi ishlarni hamda huquqbazarlik faktini inkor etsa, ma'muriy huquqbazarliklari to`g`risidagi barcha ishlarni, ya`ni ko`rib chiqish boshqa organlar vakolatiga kiradigan ma'muriy huquqbazarlik to`g`risidagi ishlarni ko`rib chiqadi. Ekologik huquqbazarliklar to`g`risidagi ma'muriy ishlarni maxsus vakolatga ega bo`lgan organlarning mansabdon shaxslari - inspektorlari ko`rib chiqishga haqlidirlar. Ularning ushbu ish bo`yicha vakolatlari O`zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 251-moddasida (davlat sanitariya organlari), 260-moddasida (Sanoatda konchilikda va kommunal sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish inspeksiya organlari), 261-moddasida (Tabiatni muhofazalash qilish davlat qo`mitasi organlari), 266¹-moddasida (Yer resurslari geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo`mitasi organlari), 266²-moddasida (Qishloq va suv xo`jaligi vazirligining "O`zsuvnazorat" respublika suv inspeksiya organlari) belgilangan.

O`zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning to`rtinchi va beshinchi bo`limlariда ma'muriy huquqbazarliklari to`g`risidagi ishlarni ko`rib chiqish va ma'muriy jazo tayinlash to`g`risidagi qarorlarni ijro etish tartibi belgilangan.

4. Ekologik jinoyatlar uchun javobgarlik

O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasiga muvofiq, mazkur Kodeksning maqsadlaridan biri bo`lib tabiiy muhitni jinoiy tajovuzlardan qo`riqlash hisoblanadi. Ushbu Kodeksning 193-201 va 229¹-moddalarida ekologik jinoyatlar uchun jinoiy javobgarliklari belgilangan.

O`zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 193-196-moddalarida atrof muhitni muhofaza qilish talablarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Ushbu jinoyatlar tarkiblari umumiy ekologik talablarni buzish oqibatida vujudga keladi. Ushbu jinoyatlar barcha tabiiy resurslarni muhofaza qilish bilan bog`liqidir. O`zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini ekologik jinoyatlar bilan bog`liq bo`lgan mazkur moddalar uchun tabiiy resurslarning huquqiy holatini buzganlik uchun jinoiy javobgarliklari belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida belgilangan ekolojik jinoyatlar tarkibi ekologik huquqbuzarlik natijasida og'ir oqibatlarning vujudga kelishi bilan bog'liqdir. Bularga insonning o'limti, odamlarnini ommaiy ravishda kasallanishi, hayvonlarning qirilib ketishi, ko'p yoki ucha miqdorda zarar yetkazilishi va boshqa og'ir oqibatlar kiradi. Mazku moddalarda ko'rsatilgan boshqacha og'ir oqibatlar har bir alohida holda ekologik huquqbuzarlikning og'irligini inobatga olgan holda huquqni qo'llovchi organlar tomonidan belgilanishi lozim.

Ekologik jinoyatlar uchun Kodeks eng kam ish haqining yuqorida baravarigacha jarima, uch yilgacha axloq tuzatish ishlari, uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish, olti oygacha qamoq, besh yilgacha ozodlikdan mahrum etish, mol-mulkini musodar etish kabi jazo choralarin nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 17-moddasiga muvofiq ekologik jinoyatlar uchun 16 yoshiga to'lgan, ushbu Kodeksning 193-196-moddalarida ko'rsatilgan jinoyatlar uchun esa 18 yoshga to'lgar jismoniy shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 193-moddasida ekologiya xavfsizligiga oid norma va talablarni buzganlik uchun javobgarlik ko'zda tutilgan. Ushbu jinoyat sanoat, energetika, transport, qishloq xo'saligi va boshqa obyektlarni loyihalashtirish, joylashtirish, qurish va ishga tushirib foydalanishda belgilangan ekologik normalarni buzishdan iborat. Mazkur ekologik talablarga obyektlarni joylashtirishda shamoq qo'mimi, sanitar zonalarga oid talablar, zararli moddalarni chiqarib tashlashning yo'lli qo'yiladigan doiralari, obyektlarni ekologik ekspertizadan o'tkazish yoki uning salbiy xulosasi bo'lgan taqdirda obyektlarning qurilishi va ishga tushirilishuning man etilishi kiradi. Ushbu moddada obyektlarni ishga tushirish uchun qabul qilish qoidalarini buzganlik, ya'ni ekologik talablarga javob bermaydigan obyektlarni ishga tushirish uchun qabul qilish uchun ham javobgarlik belgilangan. Ekologik xavfsizlik qoidalari O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunini 41-moddasida, tabiiy resurslar to'g'risidagi qonunlarning tegishli moddalarida hamda qonun osti aklilarda o'z aksini topgan. Ushbu normalarning mohiyati shundan iboratki, obyektlarni qurish, loyihalashtirish, joylashtirish, ishga tushirish faqat tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlari ko'zda tutilgan holdagina amalga oshirilishi mumkin, har bir turdag'i obyektlar uchun aniq ekologik xavfsizlik talabi qurilish me'yordi va qoidalarda, alohida obyekt uchun esa, uning qurish loyihalarida o'z aksini topadi. Jinoyat kodeksining 193-moddasida ko'zda

tutilgan jinoyatning obyekti bo`lib ekologik xavfsizlikni ta'minlashtirish qaratilgan qoidalar kiradi. Mazkur jinoyatning subyekti bo`lib tashkiloti mansabдор shaxslar hisoblanadi. Ularning qatoriga loyihami tasdiqlovchi ma'lum bir ishlarga ruxsat beruvchi, yuqorida ko`rsatilgan obyektlarni qabul qilib oluvchi yoki ekologik xavfsizlik talablarining bajarilishi uchun tashkil etuvchi yoxud nazorat qiluvchi mansabдор shaxslar kiradi. Jinoyatning subyektiv tomoni bo`lib ehtiyyotsizlik aybi hisoblanadi. Jinoyatning obyektiv tomoni mazkur mansabдор shaxslarning aybli harakati (istish, tushirish bo`yicha ruxsat berish, loyiha talablarini buzib, uni amalga oshirish va hokazo) yoki harakatsizligi (tozalash uskunalarini ta'mirlamaslik, ulardan soydalaninaslik va hokazo) kabilarda ifodalananadi.

Atrof tabiiy muhitni ifloslanganligi to'g'isidagi ma'lumotlari qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatish uchun jinoiy javobga O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 194-modda belgilangan. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning moddasiga muvofiq shunday ma'lumotlarni taqdim etish atrof tabiiy muhitning holati, tabiiy resurslardan foydalanish ustidan kuzatuv, maxsus vakolat berilgan organlar, shuningdek, faoliyati atrof tabiiy muhitni holatini yomonlashtiradigan yoki yomonlashtirishi mumkin bo'lgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu kuzatuv ma'lumotlarini, Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga va boshqa organlarga berilish shart. Bundan tashqari, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunning 38-moddasiga muvofiq korxona, muassasa va tashkilot falokat haqida va uni bartaraf etish yuzasidan ko'rيلayotgan chora tadbirlar to'g'risida mahalliy davlat hokimiyati va tabiatni muhofaza qilish organlariga darhol xabar berishlari shart. "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunning 24-moddasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlari qatorida chiqariladigan chiqindilar hamda fizikaviy omillarning hisobini yuritish va belgilangan tartibda statistika hisobini taqdim etish hamda korxonalar va transport kommunikatsiyalarini tadoirasida atrof muhitga hamda aholining salomatligiga zararli ta'ko'rsatilishini baholash ko'zda tutilgan. Mazkur jinoyat maxsus vakolatiga bo'lgan mansabdor shaxs, ya'ni atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to'g'risida ma'lumotlarni yig'adigan yoki yig'ish ustidan nazorat olib boradigan hamda tegishli organlarga taqdim etish bo'yicha ma'sul shaxs tomonidan sodir etiladi. Ushbu moddada mazkur ma'lumotlar turlari qilib berilgan. Bular qatoriga ekologik xalokatlar yoki atrof muhitning holatini yomonlashtiradigan yoki yomonlashtirishi mumkin bo'lgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu moddada mazkur ma'lumotlar turlari qilib berilgan. Bular qatoriga ekologik xalokatlar yoki atrof muhitning holatini yomonlashtiradigan yoki yomonlashtirishi mumkin bo'lgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tomonidan amalga oshiriladi.

adiatsion, kimyoviy va bakteriologik ifloslanishi yoxud aholi domatligining holatiga doir ma'lumotlar kiradi. Mazkur jinoyatning tukibi faqat atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to`g`risidagi ma'lumotlarni yashirish yoki buzib ko`rsatish oqibatida aholining ommaviy kasallanishi, hayvonlarning qirilib ketishi yoki boshqa og`ir oqibatlarni kelib qo`qishiga sabab bo`lgan taqdirda vujudga keladi. Mazkur jinoyat faqat usdan sodir etilishi mumkin. Obyektiv tomondan harakat yoki harakatsizlik orqali sodir etiladi.

O`zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 195-moddasida tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralarini to`maslik uchun javobgarlik belgilangan. "Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida"gi Qonunning 47-moddasi oltinchi xat boshiga muvosiq atrof tabiiy muhitni tiklash, unga zararli ta'sir oqibatlarini bartaraf etish choralarini ko`rmaganlikda aybdor bo`lgan shaxslarning javobgarlikka tortilishi to`zda tutilgan. O`zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksini 95-moddasida tabiiy muhitni tiklash, tabiiy viralarni qayta hosil qilish va tabiiy muhitga zararli ta'sir ko`rsatish oqibatlarini bartaraf etish choralarini ko`rmaganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan. O`zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 195-moddasida atrof tabiiy muhit ifloslangan joylarni dezaktivatsiya qilish yoki boshqacha tarzda tiklash choralarini ko`rmaslik yoki bunday ishlarni zararli darajada bajarmaslik uchun jinoyt javobgarlik nazarda tutilgan. Mazkur jinoyatning tarkibi, agar ushbu huquqbazarlik odamlarning ommaviy ravishda kasalla nishi, hayvonlarning qirilib ketishi yoki boshqa og`ir oqibatlarga sabab bo`lsa, hosil bo`ladi. Ushbu jinoyatning obyekti bo`lib atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish to`yicha belgilangan tartibi hisoblanadi, uning subyekti bo`lib esa, to`xonaning atrof tabiiy muhitning muhofaza qilish majburiyatni bajarish uchun mas`ul bo`lgan mansabdor shaxslar hisoblanadilar. Obyektiv tomondan, bu jinoyat harakat yoki harakatsizlik natijasida sodir etiladi, obyektiv tomondan esa, ehtiotsizlik oqibatida sodir etiladi.

O`zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida"gi Qonunini 14-moddasiga binoan, xo`jalik faoliyatining atrof tabiiy muhitga zararli ta'siri atrof tabiiy muhit sifati, aholining ekologik jihatdan bo`lib, tabiiy resurslarni tiklash va muhotaza qilishni kafolatlovchi normativlar hamda standartlar bilan cheklanib qo`yiladi. Masalan, atmosfera havosida va suvlarda ifoslantiruvchi moddalar va biologik organizmlarning inson va atrof tabiiy muhit obyektlari uchun yo`l yo`yiladigan darajada to`planish normativlari belgilanadi. Ushbu

normativlardan kelib chiqqan holda, har bir ifoslantiruvchi moddalar biologik organizmlar chiqaruvchi doimiy manbalar (korxona, tashkilotlarning obyektlari) uchun yo'l qo'yiladigan doiradagi normativlarni belgilanadi. Bundan tashqari, atmosfera havosiga va suv obyektlariga zararli moddalar va biologik organizmlarni chiqarish Tabiatni muhofazalish davlat qo'mitasi organlarining ruxsati asosida amalga oshiriladi. Demak, atrof tabiiy muhitga zararli moddalar va biologik organizmlarni ruxsatsiz chiqarish yoxud belgilangan normativlardan ortiq chiqarish noqonununi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksini 79-moddasiga muvofiq yerlarni muhofaza qilish maqsadida ularni ishlab chiqarish, kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifoslanshidan, suv va shamol eroziyasidan sho'tlanishidan va boshqa salbiy toifadagi buzilishlardan yuridik va jismoniy shaxslar himoya qilishlari shart. Ushbu Kodeksning 81-moddasiga muvofiq, kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifoslanshish natijasida ekologiya va sanitariya-gigiyenaga oid talablarga javob beradigan mahsulot olish ta'minlanmayotgan yer uchastkalari qishloq xo'jaligi oborotidan chiqarilishi va konservatsiya qilinishi lozim. Yerlarni buzish sifatida keyinchalik xo'jalik uchun foydalanishga to'sqinlik qiluvchi uning foydah xususiyatlarini to'liq yoki qisman yo'qotishga olib keluvchi harakatlari tushunilishi lozim. Asosan, qishloq xo'jaligi yerlari ulardan noto'g'ri foydalanish (noto'g'ri sug'orish, kimyoviy moddalarni me'yordan ortiq qo'llash va boshqalar) natijasida buzilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 196-moddasida ko'zda tutilgan jinoyat obyekti yer, suv va atmosfera havosining ifoslanshidan muhofaza qilishni belgilangan tartibi. Mazkur jinoyatning subyekti bo'lib, ham mansabdar shaxslar, ham fuqarolar hisoblanadilar. Jinoyat ehtiyoitsizlik yoki qasdan sodir etiladi. Jinoyatning obyekti tomoni aybli harakat yoki harakatsizlikdir.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 197-moddasi yoki yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzzaganlik uchun javobgarlik belgilaydi. Mazkur moddadan belgilangan jinoyatning obyekti yerdan va yer osti boyliklaridan foydalanishning belgilangan tartibi. Yerlardan foydalanish shartlari O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksida belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Yer Kodeksini 40-moddasida yer egasi, yerdan foydalanuvchi va ijarachi yer uchastkasidan belgilangan maqsadlarda oqilona foydalanishi, tuproq unumdotligini oshirish, ishlab chiqarishda tabiatni muhofaza qiluvchi texnologiyalarni qo'llashi, o'z xo'jalik faoliyatini natijasida

bududda ekologik vaziyatning yomonlashuviga yo`l qo`ymaslik va boshqa majburiyatlar ko`zda tutilgan. Bundan tashqari, shunga o`xhash boshqa majburiyatlar mazkur kodeksning 48, 79 va boshqa moddalarida mustahkamlangan. Agar ushbu talablarni bajarmaganlik natijasida og`ir oqibatlar vujudga kelsa, mazkur moddada ko`zda tutilgan jinoyat sodir etilgan deb hisoblanadi. Yerdan foydalanish qoidalarining buzilishi natijasida odamlarning kasallanishi, hayvonot va o`simlik dunyosining nobud bo`lishi, shloq xo`jaligi ekinlari hosildorligining keskin pasayib ketishi og`ir oqibatlar toifasiga kiradi.

Yer osti boyliklaridan foydalanish talablari O`zbekiston Respublikasining “Yer osti boyliklari to`g`risida”gi Qonunning 13-15, 18, 24-25, 29, 30, 33, 36-38-moddalarida o`z aksini topgan. Masalan, yer osti boyliklariidan foydalanuvchitarga yer osti boyliklaridan foydalanish bilan bog`liq bo`lgan ishlarning bexatar olib borilishi, atrof tabiiy muhitni, binolar va oshshootlarni yer osti boyliklaridan foydalanish bilan bog`liq bo`lgan ishlarning zararli ta`siridan muhofaza qilish majburiyatları yuklatilgan. Agar yer osti boyliklaridan foydalanish qoidalaring buzilishi natijasida odamlarning kasallanishiga, hayvonot va o`simlik dunyosini nobud bo`lishiga, foydali qazilmalarni qazib olishning to`xtatilishiga va boshqa og`ir oqibatlarga olib kelsa, mazkur moddada ko`rsatilgan jinoyat sodir etilgan deb hisoblanishi lozim. O`zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 197-moddasida belgilangan jinoyatning subyekti mansabdar baxslar va fuqarolar hisoblanadilar. Mazkur jinoyat qasddan yoki ehtiyojsizlik orqasidan sodir etilishi mumkin. Jinoyatning obyekti tomoni harakat (inan etilgan talablarni sodir etish) yoki harakatsizlik (qonun hujjatlarida belgilangan majburiyatlarni bajarmaslik) bilan tafsiflanadi.

O`zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 198-moddasida qunzor, o`mon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Ushbu moddaning birinchi qismida olovga ehtiyojsizlik bilan munosabatda bo`lish natijasida qunzor, o`mon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish natijasida ko`p miqdorda zarar yetkazilsa yoki boshqa bir oy`ir oqibatlar vujudga kelsa, jinoiy javobgarlikka tortish belgilangan. O`zbekiston Respublikasining “O`simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risida”gi qonunining 10-moddasiga muvofiq, o`simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish joylarida yuridik va jismoniy baxslar yong`in xavfsizligiga rioya etishlari va yong`inga qarshi tadbirli amalga oshirishlari, yong`in chiqqan hollarda esa uni o`chirish chora qulbirlarini ko`rishi shart. Xuddi shunday majburiyat O`zbekiston

Respublikasining "O'rmon to'g'risida"gi qonunim 30 va 32-moddalarida mustaxkamlangan. Ushbu jinoyatning obyekti o'rmonlarda va o'simlik dunyosi joylashgan joylarda yong'inga qarshi xavfsizlikning belgilangan talablaridir. Ushbu jinoyatning subyekti fuqaro va mansabdar shaxslar bo'lishi mumkin. Subyektiv tomondan, bu jinoyat faqat ehtiyoitsizlik orqasidan sodir etiladi. Obyektiv tomondan, harakat yoki harakatsizlik oqibatida sodir etiladi.

Ushbu moddalar ko'rsatilgan ko'p miqdorda zarar yetkazish deganda, eng kam ish haqining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdordagi zarar tushuniladi. Boshqa og'ir oqibatlar deganda, dov-daraxtlarning katta maydonda tiklab bo'lmaydigan darajada nobud qilinishi tushuniladi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarni qonunga xilof ravishda kesib, ko'p miqdorda zarar yetkazilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Daraxtlar va boshqa dov-daraxtlarni, shu jumladan o'rmonlarda, kesish uchun soydalanish o'simlik dunyosidan maxsus soydalanish toifasiga kiradi va buning uchun o'rmon xo'jaligi yoki tabiatni muhofaza qilish organlari bilan kelishilgan holda mahalliy davlat hokimiyyati organlerining ruxsatiga binoan, amalga oshirish mumkin. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini mazkur moddasida dov-daraxtlarni qominga xilof ravishda kesish deganda, ruxsatsiz yoki ruxsati bo'la turib, uning talablarini buzсан holda dov-daraxtlarni kesish tushuniladi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'zda tutilgan jinoyatning obyekti o'rmon va boshqa dov-daraxtlarni kesishning belgilangan tartibidir. Subyektiv tomondan, qasddan yoki ehtiyoitsizlik aybi bilan sodir etiladi. Ushbu jinoyat obyektiv tomondan faqat harakat orqali sodir etilishi mumkin.

Mazkur moddaning uchinchi qismida ekinzor, o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish, ularni payxon qilish, nobud qilish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Ushbu jinoyat ekinzor, o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish, ulami payxon qilish, nobud qilish, nognoniy ravishda mol boqish yoki mollarni haydar o'tish, avtomobil yoki qishloq xo'jaligi va boshqa texnikani haydar o'tishda yoxud ekinzor larda qurilish va boshqa ishlarni amalga oshirishda sodir etilishi mumkin. Ushbu jinoyatning obyekti o'rmonlarda va boshqa ekinzorlarda mol boqish va pichan o'rish, daraxtlarni va boshqa ekinzorlarni muhofaza qilishning belgilangan tartibidir. Ushbu jinoyatning subyekti fuqarolar va mansabdar shaxslar hisoblanadi. Mazkur jinoyat subyektiv tomondan

pasddan yoki ehtiyyotsizlik orqasidan obyektiv tomonidan esa harakat yoki harakatsizlik bilan sodir etiladi.

Mazkur moddada belgilangan jinoyatlar oqibatida yetkazilgan zararni aniqlashda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 27-iyuldagagi 293-sonli "O'zbekiston Respublikasi o'simlik dunyosiga yetkazilgan ziyonni undinsh bo'yicha miqdorini hisoblash hun taksalarni tasdiqlash to`g`risida"gi qarori qo'llanilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 199-moddasida o'simliklar kasalliklari va zararkunandalari bilan kurashish talablarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. "Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida"gi Qonunning 42-moddasiga muvosiq yuridik va jismoniy shaxslar kimyoviy moddalarni saqlash, tashish, qo'llash chog'ida ekologiya talablariga rivoja qilishlari, ularni qo'llashning zararli oqibatlarini oldini olish va bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rishlari shart. O'zbekiston Respublikasida qo'llanilishi ruxsat etilgan kimyoviy moddalar ro'yxati Vazirlar Mahkamasi qoshidagi maxsus komissiya tomonidan tasdiqlanadi. O'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurashish chora-tadbirlari amalga oshirilganda, inson salomatligini ta'minlovchi sanitariya va gigiyena qoidalariga hamda o'simlik, hayvonot dunyosi, shuningdek atof tabiiy muhitning boshqa obyektlarini muhofaza etish talablariga rivoja etilishi lozim. Xususan, "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risida"gi Qonunning 24-moddasida, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risida"gi Qonunning 33-moddasida o'simliklarni himoya qilish vositalari va boshqa dorilarini qo'llash paytida o'simlik hamda hayvonot dunyosi obyektlari o'sadigan (washaydig'an) muhitni muhofaza qilish talablarini hisobga olinishi to`g`risidagi qoidalarga rivoja etish majburiyati mustaxkamlangan. Mazkur jinoyatning obyekti o'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurashish bo'yicha belgilangan tartib hisoblanadi. Ushbu jinoyatning obyekti fuqarolar va mansabdor shaxslar hisoblanadi. Obyektiv tomonidan, harakat bilan sodir qilinadi. Subyektiv tomonidan esa ehtiyyotsizlik yoki qasddan sodir etilishi mumkin. Ushbu moddada nazarda tutilgan og'ir oqibatlar deb odamlarning zaxarlanishi oqibatida kasal bo'lishi, o'simlik hayvonot dunyosi obyektlarining ko'p miqdorda nobud bo'lishini tushunish lozim.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 200-moddasida veterinariya yoki zootexnika qoidalarini buzish hayvon yoki parrandalar epidemiya (epizootiya)sining taqalishiga, ularni yalpi qirilib ketishiga yoki boshqa oqibatlarni kelib chiqishiga sabab bo'lganda jinoiy javob-

garlik belgilangan. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentabrda "Veterinariya to'g'risida"gi Qonunining 12 va 18-moddalarida xizmati hamda hayvonlar egalarining veterinariya bo'yicha majburiyat belgilangan. Veterinariya va zootexnika qoidalari hayvonlarni yuqum kasalliklarining oldini olish yoki ular kasallikka chaligan taqib qoidalari kasallish oqibatlarini bartaraf etish hamda kasallik tarqalishiga qoidalari chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Hayvonlarning yalpi kasalliklar oqibatida ularning mahsuloti orqali insonlarning salomatligiga yuqum bo'lgan brutsellez, salmonellez va boshqa yuqumli kasalliklar bilan yetkazilishi mumkin. Mazkur jinoyatning obyekti veterinariya zootexnika ishlarini amalga oshirishning belgilangan tartibidir. Ushbu jinoyatning og'ir oqibatlariga insonlarning yuqumli kasalliklar kasallanishi, hayvon va parranda mahsulotlarining yaroqsiz bo'lgan yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish uchun sarflangan xarajat kiritish mumkin. Bu jinoyat subyektiv tomondan, qasddan ehtiyojsizlik orqasidan sodir etilishi mumkin. Obyektiv tomondan ushbu jinoyat harakat yoki harakatsizlik bilan sodir etiladi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 201-moddasida xo'jalik faoliyatida o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari mineral o'g'it, o'sish biostimulyatori yoki boshqa kimyoviy dorilar ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoki ulardan foydalanish qoidalari buzganlik uchun jinoiy javobgarlik ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunini 42-moddasi kimyoviy moddalarni ishlab chiqarish, saqlash, tashish, qo'llash chog'ida ekologiya talablariga belgilangan normativ va qoidalarga noyu qilish, ularni qo'llashning zararli oqibatlarini oldini olish va bartaraf eti chora-tadbirlarini ko'rish bo'yicha yuridik hamda jismoniy shaxslarning majburiyati belgilangan. Ushbu jinoyatning obyekti xo'jalik faoliyatida o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy moddalarni ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoki ulardan foydalanishning belgilangan qoidalari hisoblanadi. Ushbu jinoyatning subyekti bo'lib fuqarolar va mansabdar shaxslar hisoblanadilar. Obyektiv tomondan, bu jinoyat harakatsizlik yoki ehtiyojsizlik orqasidan sodir etiladi. Mazkur moddada ko'zda tutilgan og'ir oqibatlarga odamlarning ommaviy kasallanishi, hayvonlarning qur'ketishi, xosillar va ekinlarning nobud bo'lishini, ichimlik suvining zaharlanishini kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 202-moddasi hayvonlarning va o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzganlik uchun jinoyat

o‘sobgarlikni belgilaydi. Ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq, o‘soblik, baliqchilik yoki noyob hayvonlarning yoki shisobaxsh, oziq-qop va dekorativ o‘simliklardan yoxud muhofaza qilinadigan hududlarda qonot va o‘simlikdan foydalanish tartibi va shartlarini buzganlik uchun menbiy javobgarlik belgilangan. Mazkur jinoyat, agar ancha miqdorda (eng kam ish g‘aqining o‘ttiz baravaridan yuz baravarigacha) ziyon qarorini turgallanishi hisoblanadi. Mazkur moddada ko‘zda tutilgan qoidalar O‘zbekiston Respublikasining “O‘simlik dunyosini muhofaza etish va undan foydalananish to‘g‘risida”gi, “Hayvonot dunyosini muhofaza etish va undan foydalananish to‘g‘risida”gi, “O‘mon to‘g‘risida”gi qonunlarida, Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 10-aprel 95-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi hududida ov qilish, ovchilik baliq ovlash xo‘jaligi yuritish to‘g‘risida”gi Nizomida, Tabiatni muhofaza qilish davlat qonusasi tasdiqlagan “O‘zbekiston Respublikasi hududida ov qilish va baliq tutish qoidalar”da o‘z aksimi topgan. Hayvonot va o‘simlik dunyosidan foydalanishning umumiy talablariga ruxsatnomalar asosida maqsadli hunda ruxsatnomada ko‘zda tutilgan miqdor va turlarda foydalanish usadi.

Agar hayvonot va o‘simlik dunyosidan foydalanish qoidalarini buzib, pol kitobga kiritilgan obyektlardan foydalanish yoki katta miqdorda (eng kam ish g‘aqining o‘ttiz baravaridan yuz baravarigacha) ziyon yetkazilsa, bu unda bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilsa, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 202-moddasi ikkinchi qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Qizil kitobni yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 9-martidagi 95-sonli “O‘zbekiston Respublikasining qizil kitobi to‘g‘risida”gi qarori bo‘lib belgilangan.

Agar ov qilish, baliq tutish, yoxud hayvonot va o‘simlik dunyosidan foydalanishning boshqa qoidalari xavfli retsedivist tomonidan shaxsning qizil qonot mavqyeidan foydalanib, yer, suv yoki havoda ishlataladigan usullar sanizatsiyalashgan vositalardan foydalanib; portlash qurilmalari, shu kimyoiy moddalar yoki boshqa yalpi qirib yuboradigan usullarni (shu sabab, uyushgan guruh tomonidan, juda ko‘p (eng kam ish haqining uchun baravaridan ortiq bo‘lgan) miqdorda zarar yetkazib sodir etilsa, bu shu qaror mazkur moddaning uchinchi qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Bu jinoyatning obyekti hayvonot va o‘simlik dunyosidan foydalanishning belgilangan tartibi hisoblanadi. Bu jinoyatlar fuqaro va mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilishi mumkin. Ushbu jinoyat qasddan sodir etilishi Obyektiv tomonidan, harakat bilan tavsiflanadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 203-moddasida yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzganlik uchun jinoi javobgarlik belgilangan. Suv va suv havzalaridan foydalanish shartlari 16-biatni muhofaza qilish to`g`risida"gi Qonunning 19-moddasida, "Suv va suvdan foydalanish to`g`risida"gi qonunning 12-15, 17, 30, 35 va boshqa moddalarida haimda Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 3-avgustdagisi sonli "Limitlangan suvdan foydalanish to`g`risida"gi qarorida ko`z til tilgan. Suv va suv havzalaridan foydalanish qoidalarini buzish quyidagilar kiradi. o'zboshimchalik bilan suvdan foydalanish, limitlariyoa qilmasdan suv olish, suvlarning ifloslanishi, bulg`alanishi hamda ularni zararli ta'sirining oldini oluvchi qurilma va moslamalarsiz korxona yoki boshqa obyektlarni ishga tushirish, suvlardan xo`jasizlarcha foydalanish, suv xo`jalik inshootlari va qurilmalarini buzish hamda ulardan foydalanish qoidalarini buzish va boshqalar. Mazkur jinoyatning obyekti suv va suv havzalaridan foydalanishning belgilangan tartibi. Uning subyekt fuqaro va mansabdar shaxslar hisoblanadi. Subyektiv tomondan, bu jinoyat qasddan yoki ehtiotsizlik oqibatida sodir etiladi. Obyektiv tomondan, bu jinoyat harakat yoki harakatsizlik orqasidan sodir qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 204-moddasida muvofiq, alohida muhofaza qilanadigan tabiiy hududlarning huquq holatini buzganlik uchun jinoi javobgarlik belgilangan. Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning huquqiy holati O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to`g`risida"gi Qonunida va har bo`qo`riqxona, milliy tabiiy bog`lar, buyurtmali qo`riqxona, tabiiy yodgorlo`va boshqa muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to`g`risidagi nizomlandiaks ettirilgan. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy holat ularda tabiiy resurslardan foydalanishning man qilinishi yoki cheklari bo`va ularni muhofaza etishning qattiqroq talablari bilan tavsiflanadi. Mazkur moddada ko`zda tilgan jinoyatning obyekti muhofaza etiladigan hudud larning huquqiy holati hisoblanadi. Ushbu moddaning birinchi qismida ko`rsatilgan jinoyatlar ko`p miqdorda (eng kam ish haqining yuzdan uch yuzgacha baravarida) ziyon yetkazilsa yoki noyob o`simlik va hayvonon dunyosining turlarining kamayib ketishi, ularning tabiiy shartlarni o`zgarishi kabi oqibatlar vujudga kelsa, tugallangan hisoblanadi. Itto`n kodeksining 204 moddasi ikkinchi qismida nazarda tilgan jinoyat muhofaza qilinadigan hududlarda tabiiy obyektlarni qasddan nobud qilib yoki shikastlantirib, ko`p miqdorda zarar yetkazilsa, yoxud muhofaza etiladigan hududning o`z noyob xususiyati va qimmatligini yo`qotsa yoki

boshqa og`ir oqibatlarga olib kelsa, sodir etilgan hisoblanadi. Mazkur muddada ko`rsatilgan jinoyatning subyekti fuqarolar va mansabdar shaxslar hisoblanadi. Muhofaza qilinadigan hududlarning huquqiy holatini buzish harakat yoki harakatsizlik oqibatida, qasddan yoki ehtiyoitsizlik uchun sodir etiladi.

O`zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 229 muddasi yetkazishda shaxsning o`zboshimchalik bilan egallab olish uchun jinoiy javobgarlikni belgilaydi. Agar aybdor shaxs O`zbekiston Respublikasining Ma'mur javobgarlik to`g`risidagi kodeksining 60-muddasi bo`yicha o`zboshimchalik bilan yetkazishda shaxsning o`zboshimchalik bilan egallab olish uchun javobgarlikka tortilgan bo`lib, mazkur huquqbuzarlikni bir yil mobaynida takroran sodir etsa, u onoyat sodir etgan deb hisoblanadi. Mazkur jinoyat subyekti fuqarolar va mansabdar shaxslar hisoblanadilar. Jinoyatning subyektiv tomoni qasddan sodir etilishi bilan itodalanadi. Ushbu jinoyatning obyektiv tomoni faqat qurakat bilan sodir etilishi mumkin.

5. Atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zararni undirishning huquqiy asoslari

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik va uni ifloslantirish matnida atrof tabiiy muhitga ekologik va iqtisodiy zarar yetkaziladi.

Iqtisodiy zarar tabiiy obyektlarning nobud bo`lishi, buzilishi, yo`q bo`lib yoki kamayib ketishi hamda tabiiy resurslardan foydalanuvchilarning xo`jalik manfaatlariga ziyon yetkazilishi bilan namoyon bo`ladi. Masalan, suvlarning ifloslanishi oqibatida suv havzasida baliqlar nobud bo`ladi, ushbu suv ichimlik va qishloq xo`jalik maqsadlarida foydalananishga yaroqsiz bo`lib qolishi oqibatida boshqa suv manbaalaridan foydalananish yoki suvlarni tozalash uchun qo`shimcha sarf xarajatlarni oltinib chiqaradi.

Ekologik zarar tabiiy sharoitning yomonlashuvi, tabiiy obyektlarning o`sish va sifat jihatdan salbiy o`zgarishlari orqali namoyon bo`lib, insonlarning toza, sog`lom va qulay tabiiy muhitiga bo`lgan huquqlari buziladi. Ushbu salbiy atmosfera havosining ifloslanishi oqibatida odamlarning yashash xavotisi yomonlashib, ularning sog`lig`iga zarar yetkazilishi mumkin. Ekologik zarar insonlarning sog`lig`iga hamda kelajak avlodlar salomatli suv ziyon yetkazishi mumkin.

Odatda, atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zarar ham ekologik ham iqtisodiy ahamiyatga ega bo`lib, salbiy o`zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Atrof tabiyi muhitga yetkazilgan zarar oqibatlarini bartaraf bo`lmasligi, ya`ni ba`zi tabiiy obyektlar (tabiiy yodgorliklar, qazilma bo`liklar)ni qayta tiklanmasligi, ekologik zararning oqibatlari ma`lum mudda o`tgach, vujudga kelishi (o`simlik hamda hayvonot dunyo`si obyektlarini turlidan foydalanish va muhofaza qilish qoidalarini buzish oqibatlari ularning keyinchalik keskin kamayib ketishi, noyob va yo`qolib boragan toifalarga tushib qolishi) mumkin yoki ushbu oqibatlarni ekolog talablar buzilmagan hududlarda, shu jumladan boshqa davlatlarda yujun kelishi kabi xususiyatlarga ega.

Atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zararni undirishning asosiy tamoyillaridan biri bo`lib faqat noqonuniy ravishda yetkazilgan zarar undirish mumkinligi hisoblanadi. Bu qoidaning negizi tabiiy resurslari har qanday foydalanishda atrof tabiiy muhitga ma`lum darajada sallo`ta`sir ko`rsatishidan iborat, chunki zamonaviy sharoitda chiqindan ekologik jixatdan sof toza texnologiya mayjud emas va tabiiy resurslari foydalanmasdan turib ishlab chiqarishni rivojlantirib bo`lmaydi. Shundan uchun iqtisod va ijtimoiy sohani rivojlantirish maqsadida insoniyat tabiiy resurslarni oqilona ravishda o`zlashtirishi lozim. Ayni vaqtda atrof tabiiy muhitga jiddiy salbiy ta`sir ko`rsatishning oldini olish maqsadida qonun hujjatlarida unga zararli ta`sir ko`rsatishning yo`l qo`yiladigan doiralar (chegaralari) belgilanadi. Ushbu doiralar har bir tabiiy resurs bo`yidagi alohida belgiladi. Masalan, yerlarga mineral o`g`itlar, pestosit, gerbisid va qo`llash me'yori orqali uning tabiiy holati saqlanadi, atmosfera havo chiqariladigan zararli moddalar va biologik oragnizmlar uchun qo`yiladigan miqdorlari orqali havoning insonga va tabiiy muhitga zarar ko`rsatmaydigan sifati ta'minlanadi. Shundan kelib chiqqan holda, shu aytish mumkinki, atrof tabiiy muhitga faqat noqonuniy, aybli harakat harakatsizlik natijasida yetkazilgan zarar undiriladi.

Atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zarar O`zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksini 985-moddasiga, "Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida"gi Qonunning 49-modasiga va tabiiy obyektlar to`g`risidagi tayyor qonunlarning tegishli moddalariga muvofiq, zarar yetkazgan shaxs uchun qoplashning asosiy talabini belgilaydi. Shu bilan birga, ushbu Kodeksning 2-moddasi beshinchi qismida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish munosabatlari nisbatan fuqarolik qonun hujjatlari ushbu munosabatlardan maxsus qonunlar bilan tartibga solinmaydigan hollarda qo`llanilishi to`satsilgan. Shuning uchun atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zararni undirishning quyidagi o`ziga xos xususiyatlari mayjud: o`simlik va hayvonot

wosiga yetkazilgan zararni taksa uslubi asosida undirish. Bu xususiyatni eleilashdan sabab shundan iboratki, ushbu obyektlarga yetkazilgan haqiqi zararni aniqlashning murakkabligi amaliyotdan kelib chiqqan holda, bir hayvonot va o'simlik dunyosi turidan noqonuniy foydalanish yoki bud qilish uchun oldindan belgilangan miqdorlar asosida yetkazilgan zarar undiriladi. Masalan, o'simlik dunyosiga yetkazilgan zarami qoplash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 27-uldagi 293-sonli qarori bilan tasdiqlangan taksalar asosida amalgaliriladi.

Atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zarar har xil ko'rinishda namoyon ladi. Birinchidan, tabiiy obyektlar nobud bo'ladi, ularning holati monlashadi. Ikinchidan, yuridik va jismoniy shaxslarning moddiy o'aatlariga ziyon yetkaziladi, masalan, atmosfera va suvlarning holati monlashishi oqibatida qishloq xo'jalik mahsulotlari nobud bo'ladi yoki ildorlik pasayib ketadi. Uchinchidan, inson salomatligiga ziyon kazilib, odamlarning kasallanish hollari (dararjasi) ko'payadi.

Atrof tabiiy muhitga zarar fuqarolik-huquqiy huquqbuzarlik sodir olishi oqibatida yetkaziladi. Atrof tabiiy muhitga zarar yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ehtiotsizlik yoki qasddan hamda harakat yoki harakatsizlik natijasida sodir etiladi. Ushbu holatda huquqbuzarlikning tekibi hosil bo'lishi uchun qilingan harakat yoki harakatsizlik va kelib oqibatlar o'rtaсидаги sababiy bog'lanish mavjud bo'lishi lozim.

Atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zararning tarkibiga quyidagilar kirdi: haqiqiy yetkazilgan zarar, ekologik zararning oqibatlarini bartaraf chea qaratilgan xarajatlar, olinmagan daromadlar va boshqalar.

Haqiqiy yetkazilgan zararga nobud bo'lgan o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlarining, qishloq xo'jalik ekinlarining qiymati kiradi. Bu obyektlarni tiklash, iloslangan suvlarni, tuproq va havoni tashliga ketgani harajatlar hamda ekologik zarar oqibatlarini bartaraf qilgani qaratilgan boshqa surʼi-harajatlar majburiy xarajatlarni tashkil etadi.

Olinmagan daromadga shu tabiiy obyektning foydalanishidan kelib bo'lishi lozim bo'lgan, ammo uning nobud bo'lishi yoki yomonlashushi tashha da olinmagan yoxud olish imkoniyati yo'qolgan daromadlar kiradi, olibdan, tuprog i kumyoviy moddalar bilan iloslangan yer maydonidan o'chadigan daromad olinmagan daromad hisoblanadi.

Atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zararni qoplash ixтиори yoki majburiy bo'lishi mumkin. Uni majburiy undirish Tabiatni muhofaza qo'shi davlat qo'mitasi, tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza etishni qiluvchi davlat organlarining, manfaatdor yuridik va jismoniy

shaxslarning da'vosiga asosan, tegishli sud yoki xo'jalik sudining qaror binoan amalga oshiriladi.

6 . Tabiiy resurslarga bo`lgan huquqlarni cheklash, to`xtatib turish va undan mahrum etish

Atrof tabiiy muhitni musofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishning oqilonaligini ta'minlashda javobgarlik sifatida qo'llaniladi. Tabiiy resurslarga bo`lgan huquqlarni cheklash, to`xtatib turish va undan mahrum etish alohida ahamiyatga ega.

Yuridik adabiyotlarda ekologik huquqiy javobgarlik ikki ma'noda tahlil qilinadi. Birinchidan, keng ma'noda, ya'ni ekologik talablarni borganlik uchun, umuman, barcha turdag'i yuridik javobgarlik choralarini qo'llanilishi va ikkinchidan, tor ma'noda, ya'ni tabiiy resurslarga bo`lgan huquqlarni cheklash, to`xtatib turish va undan mahrum etish¹ tushuniladi. Tabiiy resurslarga bo`lgan huquqlarini cheklash, to`xtatib turish va undan mahrum etish kabi jazo choralarining huquqiy nazariyada tan olinip yuridik javobgarlikning to`rtta turiga mansub javobgarlik choralarini kiritib bo`lmaydi. Chunki o`z mohiyatiga hamda qo'llash tartibiga ko'ribular mulkiy, ma'muriy, jinoiy va intizomiy jazo choralaridan tubdan foyiladi.

Ekologik huquqiy javobgarlikning asoslari va uni qo'llash tajribasi bevosita ekologik qonun hujjatlardida o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida"gi Qonunning 23-moddasi muvofiq, tabiiy resurslardan foydalanish talablarini muttasil borgan foydalanuvchi tabiiy resurslardan foydalanish huquqidan mahrum etilishi mumkin. Bunday qoidalar alohida tabiiy resurslarning huquq holatini belgilovchi qonunlarga kiritilgan, masalan, O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36 va 38-moddalari, "Yer osti boyliklari to`g`risida"gi Qonunning 19-moddasi, "Suv va suvdan foydalanish to`g`risida"gi Qonunning 43, 57, 60, 74-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirligi Mahkamasining 1993 yil 3 avgustdag'i 385-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Suvdan limitlangan foydalanish bo'yicha vaqtinchcha Tartibi"ning 6-band "O'rmon to`g`risida"gi Qonunning 40-moddasida mazkur tabiiy resurslardan foydalanish huquqining cheklanishi, to`xtatib turilishi va mahrum etilishi ko'zda tutilgan. Ushbu normalarda tabiiy resurslardan foydalanish huquqining cheklanishi, to`xtatib turilishi va mahrum etilishi taqsimli ekologik talablarni qo'pol va muntazam ravishda buzish og'ibatida qo'llib mumkinligi ko'zda tutilgan.

Ekologik qonun hujjatlariga muvofiq, tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklanishi, to`xtatib turilishi va mahrum etilishi ushbu huquqni yangi organ tomonidan amalga oshiriladi. Bu esa ushbu jazo choralarini o`tashning ma`muriy, jinoiy, fuqarolik jarayonidan farqini namoyon qiladi. Masalan, O`zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36 va 38-mlidalariga muvofiq, yer uchastkasidan boshqa maqsadlarda foydalaniylinda, yer uchastkasidan oqilonqa foydalanimaganda, yer uchastkasidan toproq unumidorligini pasayishiga, uning kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishiga, ekologik vaziyatni yomonlashuviga olib keladigan o`sullar bilan foydalangan taqdirda, yerdan foydalamish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi Yer resurslari,odeziya, kartografiya va davlat kadastrini davlat qo`mitasi va Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi organlari yer egalari va yerdan foydalana chilarni oldindan ogohlantirilgandan keyin yer uchastkasini bergen unga uni olib qo`yish haqida taqdimnomasi kiritadi. Yer uchastkasini o`sugan organ taqdimnomasi asosida bir oylik muddatda yer uchastkasini olib qo`yish haqida qaror chiqaradi.

Qishloq va o'rmon xo'jaligi ishlab chiqarishi nobudgarchiligin qoplash uchun tushgan mablag'lar maxsus maqsadga ega bo'lib quyidagilari uchun foydalilanadi: yangi yerlarni o'zlashtirish, sug oriladigan yerlarni to'la - to'kis qayta qurish, sug oriladigan yerlarni tubdan tekislash, daraxtzorlar barpo etish va tiklash kabilar.

Bundan tashqari, ushbu mablag' yo'qolib ketgan o'rmon urug'lari, tut daraxtlari va sanoat daraxtzorları, bog'lar, o'rmonzorlar, tutzorlar, mevazorlar, ko'kalamzorlar barpo etish, yerlarning unumdonligini oshirish,

tog` qiyalarini pog`ona qilib ishlash, o`rmon tuzish ishlari maqsadida ham ishlatiladi.

Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarish nobudgarchiligining miqdorlari olib qo`yilgan maydonlar, ko`p yillik daraxtlar, bo`z yerlar, pichanzorlar va yaylovlardan hisoblanadi. Olib qo`yilgan lalmi yerlarning I gektari o`rniga teng bahodagi yangi yerlarni sug`orish va o`zlashtirish qiymati quyidagi miqdorlarda aniqlanadi: tekislikdagi zonada - haydaladigan lalmi yerlar uchun 7,5 va bo`z lalmi yerlar 2,4 ming so`m. past balandlikd. zonada - haydaladigan lalmi yerlar uchun 11,1 va bo`z lalmi yerlar uchun 3,6 ming so`m, tog` oldi va tog` zonasida haydaladigan lalmi yerlar - ko`p yillik daraxtzorlar uchun 13,8 va bo`z yerlar uchun 4,4 ming so`m.

Shuni aytish kerakki, qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi nobudgarchiliga qo`shimcha ravishda sof daromad qo`shiladi. Bu daromad loyihi lashtirish, yangi yerlarni sug`orish va o`zlashtirish, ularni madaniylashtirishga oid ishlarni bajarish zarur bo`lgan 4 yil davomidagi davrda olib qo`yilgan yer maydonida sof daromadning suminasi jamoa va davr xo`jaliklari hamda boshqa korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning oxirgi uch yilgi ma`lumotlariga ko`ra, olib qo`yilgan maydonlardagi qishloq xo`jaligi ekinlari va daraxtzorlarining o`rtacha hosildorligidan kehl chiqib, yer ajratish loyihasi ishlab chiqilishi jarayonida aniqlanadi.

Pichanzorlar va yaylovlar olib qo`yilishi munosabati bilan qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi nobudgarchiligining miqdorlari ularning mahsuldarligiga ko`ra balandlik mintaqalariga qarab, ya`ni cheb mintaqasi uchun 1125 so`m, adir mintaqasi uchun 1315 so`m, top mintaqasi uchun 1846 so`m qilib belgilanadi.

O`rmondan foydalanish huquqini buzishda qo`llailadigan choralaridan yana biri jinoiy huquqiy chora-tadbirlardir. Bu turdagidan tadbirlar jinoyat qonuni normalarida belgilangan ijtimoiy xavfli xato harakat yoki harakatsizliklar sodir qilgan shaxslarga nisbatan qo`llaniladi.

Ma`lumki, jinoiy huquqbuzarlik jamiyat uchun o`zining o`ta xavflihi darajasi bilan ajralib turadi. O`rmondan foydalanish huquqini buzishda jamiyat uchun o`ta xavfli bo`lgan jinoyatlar ichida birinchi navbatda o`monlarga nisbatan davlatning mulk huquqini buzishga qaratilgan g`ayn qonuniy bitimlar, ya`ni o`rmonlarni sotib olish va sotish, sovg`a qilish garovga qo`yish, o`zboshimchalik bilan ayirboshlash xatti-harakatlar alohida ajralib turadi.

Bundan tashqari, O`zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksidi ko`rsatilishicha, ekinzor, o`rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shika

yetkazish yoki ularni nobud qilish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning tartibini buzish kabi huquqbuzarliklar uchun ham jinoiy javobgarlikni o`lash mumkin.

Ma`lumki, O`zbekiston Respublikasining "O`rmon to`g`risida"gi qonunida huquqbuzartiklar uchun tegishli javobgarlik qo`llanilishi lozimligi ta'kidlanadi. Lekin shuni aytish kerakki, O`zbekiston Respublikasining Jinoyat qonuni O`rmon to`g`risidagi qonunida ko`rsatilgan barcha o`rmon munosabatlariiga oid huquqbuzarliklar uchun ham jinoiy javobgarlikni elgilamaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida o`rmon boyliklarining alohida muhim ahamiyatga ega ekanligini etiborga olib, mana shu qonunlar qaymuasida o`rmon munosabatlariiga oid jamiyat uchun xavfli hisoblangan ayriqonuniy xatti-harakatlariga nisbatan jinoiy javobgarlik o`rnatisla maqsadga muvofiq bo`lur edi.

O`zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi quyidagi o`rmon huquqbuzarliklari uchun jinoiy javobgarlik belgiladi. Bular: ekinzor, o`rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish (198-modda). Unda olovga ehtiyoatkorsizlik bilan munosabada bo`lish natijasida ekinzor, o`rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish ko`p miqdorda zarar yetkazilishi yoki boshqacha og`ir oqibatlarga sabab bo`lsa - eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch oygacha qamoq bitan jazolanishi birinchi qismida ko`rsatilgan. Ikkinchi qismida esa, o`rmon yoki boshqa dov-daraxtlarni qonunga xilot ravishda kesish ko`p miqdorda zarar yetkazishga sabab bo`lsa - eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch oydan olti oygacha qamoq yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi ko`rsatilgan. Uchinchi qismida esa, ekinzor, o`rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga qasddan shikast yetkazish, ularni payhon qilish, nobud qilish ko`p miqdorda zarar yetkazishga sabab bo`lsa - eng kam ish haqining yetmish baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi ko`rsatilgan. Ushbu Jinoyat kodeksini 202-moddasida hayvonot yoki o`simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzganlik uchun birinchi qismida: ovchilik, baliqchilik yoki hayvonot dunyosining boshqa turlarini ushslash qoidalarini buzish, noyob hayvonlarni tutishning belgilangan tartibi yoki shartlarini yoxud o`simliklarni dori-darmon, oziq-ovqat va manzarali (dekorativ) turlarini yig`ish yoki tayyorlash, shuningdek,

maxsus qo'riqlanadigan tabiiy hududlardagi hayvonot va o'simliklarning dunyosidan foydalanish tartibini buzish ancha miqdorda zarar yetkazilishi sabab bo'lsa, eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud og'ri oygacha qamoq jazosi belgilangan. O'sha qilmishlar: a) hayvonlarning parrandalari, baliq, hayvonot va o'simlik dunyosining Qizil Kitobi, kiritilgan boshqa turlarini nobud qilish bilan; b) ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda; v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirish sodir etilgan bo'lsa - eng kam oylik ish haqining ellik baravaridagi yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud mol-mulki musodara qilinib uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi ko'rsatilgan. O'sha qilmishlar: a) retsidiivist tomonidan; b) shaxsning o'z xizmat mavqeidan foydalanishi; v) yer, suv yoki havoda ishlataladigan mexanizatsiyalashtirilgan vositalardan foydaanib; g) portlash qurilmalari zaharlilik kiniyoviy moddalari yoki boshqa yalpi qirib yuboradigan yoki nobud qiladigan usullarni qo'llagan holda; d) uyushgan guruh tomonidan; ye) juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa - eng kam oylik ish haqining yetmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki mol-mulki musodara qilinib yoki musodara qilinmay uch yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi deb o'rnatilgan. Mazku Kodeksning 199-moddasida esa o'simliklar kasalliklari yoki zarar qunandalari bilan kurash talablarini buzganlik uchun jinoiy javobgarli belgilangan. Ya'ni o'simliklar kasalliklari yoki zararqunandalari bilan kurash talablarini buzish og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa - eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi o'rnatilgan. Shuningdek, ushbu Jinoyat kodeksida o'rmen huquqbazarligiga yaqin atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatda foydalanish sohasidagi ekoliya xavfsizligiga oid normalar va talablarini buzish (193-modda), atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi te'g'risidan ma'lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatish (194-modda), atrof muhitning ifloslanishi oibatlarini bartaraf qilish choralarini ko'rmashish (195-modda), atrof tabiiy muhitni ifloslantirish (196-modda), muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning tartibini buzish (202-modda) kabilalarini nisbatan jinoiy javobgarliklar o'rnatilgan.

XVI BOB. HAYVONOT DUNYOSINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING HUQUQIY HOLATI

1. Hayvonot dunyosini muhofaza qilish tushunchasi va xususiyatlari

Hozirgi kunda Respublikamizning huquqshunos olimlari, M.B. monov, Y. Jo rayev, J.T. Xolmo'minovlar tabiiy resurslardan foydalash birinchi navbatdagi masala emasligi, tabiiy resurslarni birinchi navbatda muhofaza etib, undan keyingina ratsional tarzda foydalanish huquqi haqida so'z yuritish lozimligi haqida to'xtalmoqdalar. Bu borada sholog huquqshunos olim SH.X. Fayziyev "Bugungi kunda davlat ekologik vosatining asosiy yo'nalishlari sifatida, birinchidan atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish, ikkinchidan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ..." lozim deb e'tirof etadi.

Shu sababli biz hayvonot dunyosi va uni muhofaza qilish tushunchalariga to'xalishimiz lozim. Hayvonot dunyosi deganda biz hayvonot dunyosida mavjud bo`lib tabiiy erkin sharoitda yashayotgan hayvon galalurini, shuningdek suv va cho`lda yashovchi barcha yovvoyi hayvonlarning majmuasini tushunamiz. Hayvonot dunyosiga berilgan bu ta'tif 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan "Hayvonot dunyosini muhotaza qilish va undan foydalanish to`g'risida"gi qonunning mazmunidan kelib chiqadigan hayvonot dunyosi yuridik tushunchasining aynan o`zidir.

Hayvonot dunyosi muhofazasini ikki ma'noda tushunmoq lozim.

1) Hayvonot dunyosini muhofaza qilish;

2) Hayvonot dunyosini huquqiy muhofaza qilish.

Bu tushunchalar ko`rinishidan bir xildagi maqsad, ya'nii muhofazani nazarda tutsada, ammo ma'no va mazmun jihatdan bir-biridan farq qiladi.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish deganda, har bir fuqaro yoki fuqaroligi bo`lmasan shaxslar hamda chet el fuqarolarining hayvonot dunyosi obyektlarini asrash va "Qizil kitob"ga" kiritilgan yovvoyi hayvonlarning kamyoq yoki yo`qolib ketish xavfi ostida bo`lgan turlarini o`zining onglilik darajasiga ko`ra uni kelajak avlodga yetkazishni burch deb bilishi va himoya etishidir.

Hayvonot dunyosini huquqiy muhofaza qilish deganda, Konstitutsiya, qonunlar va qonun osti me'yoriy hujjatlarda o`z aksini topgan davlatning vakolatli organi tonionidan sanksiyalangan, ya'nii bajarilishi umum-majburiy ahamiyatga ega bo`lgan normalarda o`z aksini topgan qoidalar va bu qoidalar asosida hayvonot dunyosini huquqiy nuqtai nazardan hirnoya

etishdir. Chunonchi, hayvonot dunyosini huquqiy muhofaza qilib huquqning roli beqiyosdir. Bu borada Davlat tomonidan ko`rsiladigan tadbirlarda muhofaza etiladigan territoriyalarni belgilash, muhofaza qilish haqida qonunlar chiqarish bu qonunlarning amalga osdirilishini ta`minladi va boshqalar kiradi.

O`rtta Osiyo regioni o`z hayvonot va o`simlik dunyosining xilligi va boyligi bilan ajralib turadi. Masalan, O`zbekistonda 65%-ni ortiq umurqahayvoolar, shu iunladan sut emizuvchilar - 99 tur, qo`sma - 410 tur, sudralib yuruvchilar - 57 tur, suvda va quruqlik yashovchilarning 3 turi uchraydi.

Ta`kidlash joizki, hayvonot dunyosini muhofaza qilish xususiy shundan iborati, ular asosan tabiatning barcha obyektlari, faoliyatining ma`lum mutanosiblikda saqlanishi bilan bog`liq.

"Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida"gi (1992-yil), "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risida"gi (1997-yil), Oliy Majlisning «Noyob va yo`q bo`lib ketayotgan o`simlik va havzalarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni tartibga solish to`g`risida» (1993), «O`zbekiston Respublikasiga yirtqich qushlar cheklarini kelinishini va ularning chetga chiqarilishini tartibga solish to`g`risida» (1996), O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.10.2000-yil 508-soni «Biologiya resurslaridan oqilonona foydalanish, ularni O`zbekiston Respublikasiga olit kirish va uning tashqarisiga olib chiqish ustida quruladigan nazoratni kuchaytirish to`g`risida»gi qarori va boshqa qonunchidagi hujjatlarning chiqarilishi respublikamizdagи hayvonot dunyosini muhofaza qilish uchun g`oyalit muhim ahamiyatga ega bo`ldi.

Yuqorida qonun hujjatlari quruqlikda, suvda, atmosferada, tuproqda tabiiy erkinlik holatida yashaydigan, O`zbekiston Respublikasi hududida doimiy yoki vaqtincha turadigan yovvoyi hayvonlarni, shuningdek ilmiy yoki tabiatni muhofaza qilish maqsadlarida yarim chiqish sharoitida yoki sun`iy yaratilgan yashash muhitida boqilayotgan hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi mumkinliklarni tartibga soladi.

Shu o`rinda "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risida"gi Qonunning 30-moddasida "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish tadbirlari" ko`rsatilgan.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish:

- hayvonot dunyosi obyektlarini muhofaza qilish, ulardan oqilonona foydalanish va ularni takror yetishtirish qoidalari va normalarini belgilash.

hayvonot dunyosidan foydalanishda cheklashlar va taqiqlar belgilash;

- hayvonot dunyosidan o'zboshimchalik bilan foydalanishning va undan foydalanish borasida belgilangan tartibni boshqacha buzishlarning oldini olish;

- hayvonlarning yashash muhiti, ularning urchishi shart sharoitlari va ko'chib yurish yo'llari muhofaza qilinishini tashkil etish;

- xo'jalik va boshqa faoliyatni amalga oshirish, transport vositalarian toydalanish paytida hayvonlar nobud bo'lisingning oldini olish;

- alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar barpo etish;

- kamyoib va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hayvon turlarini tutqunlikda urchitish;

- hayvonlar kasallikka chalinganda, ularning tabiiy olatlar va boshqa sabablar oqibatida nobud bo'lishi xavfi tug'ilganda ularga g'rdam berish;

- hayvonot dunyosini muhofaza qilish tadbirlarini asoslashga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlarni tashkil etish.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish bo'yicha boshqa tadbirlarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Hayvonot dunyosidan foydalanuvchi subyektlar yuridik va jismoniy shaxslar, fuqarolar hamda jamoa birlashmalari hayvonot dunyosini hamda uning yashash muhitimi muhofaza qilish sohasida ham e'tiborli huquq va majburiyatlarni amalga oshirishlari zarur. Jumladan fuqarolar va jamoat birlashmalari:

hayvonot dunyosini va uning yashash muhitini muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshiradilar;

hayvonot dunyosini muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlari ro'yobga chiqarilishiga ko'maklashadilar;

ekologiya sohasida jamoatchilik ekspertizasini o'tkazadilar;

jamoatchilik nazoratini amalga oshiradilar;

hayvonot dunyosini muhofaza qilish sohasidagi axborotni qonun hujjatlari ida belgilangan tartibda oladilar;

hayvonot dunyosiga va uning yashash muhitiga yetkazilgan zararni qoplash masalasini qo'yadilar;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquq va majburiyatlarni amalga oshiradilar.

Hayvonot dunyosining inson hayotida tutgan o'rning juda beqiyosligini inobatga olgan holda, O'zbekistonda u davlat mulki-umummilliy boylik deb e'tirof etilgan. Davlat o'zining umumiylari va maxsus vakolatli

organlari orqali hayvonot dunyosini ekologik-huquqiy jihatdan boshqarish tartibga soladi va muhofazasini ta'minlaydi.

2. Hayvonot dunyosidan foydalanish huquqi va tartibi

Hayvonot dunyosidan foydalanish huquqi deb fauna huqnqidagi belgilangan yuridik va jismoniy shaxslarning hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanish sohasida huquq va majburiyatlarini ta'minlaydigan me'yorlar yig' indisiga aytildi.

Hayvonot dunyosidan foydalanish huquqi tushunchasini to'g'risida tushunish uchun hayvonot dunyosidan foydalanish turlari haqida to'xtalish o'tish lozim. Hayvonot dunyosi obyektlaridan oqilona foydalanish hamda ularni muholaza qilinishini amalga oshirish uchun bu muhim ahamiyatli ega. Shu o'rinda "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning 17-moddasi diqqatga sazovordir. Shundan kelib chiqib, hayvonot dunyosidan foydalanishni quyidagicha turlari bo'lish mumkin:

- ov qilish;

- baliq ovlash;

- hayvonot dunyosidan ilmiy, madaniy-ma'rifiy, tarbiyaviy va estetik maqsadlarda foydalanish,

- hayvonlar faoliyatining foydali xususiyatlaridan foydalanish;

- hayvonlardan ularning faoliyati mahsulotlarini olish maqsadida foydalanish.

Qonun hujjatlarda hayvonot dunyosidan foydalanishning boshqa turlari ham naza'da tutilishi mumkin.

Hayvonot dunyosidan foydalanish hayvonot dunyosi obyektlarini ularning yashash muhitidan ajratib olib yoki ajratib olmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Yuridik va jismoniy shaxslar, alohida hollarda chet el fuqarolarni hayvonot dunyosidan foydalanish huquqi subyektlari bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan.

Hayvonot dunyosidan foydalanish huquqiga ovchilar va baliq ovchalar jamiyatlaridan birining a'zosi bo'lgan, 18 yoshga yetgan, joriy yil uchun belgilangan miqdorda a'zolik badallarini va davlat bojini to'lagan barcha fuqarolari o'q otish va boshqa ovchilik qurollari, ruxsat etilgan boshqa ovchilik qurol-yaroglari bilan ov qilish huquqiga egadir.

Hayvonot dunyosidan foydalanuvchilarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular birinchidan tegishli huquq va majburiyatlarini da-

inulk huquqining obyekti bo`lgan hayvonot dunyosi fondiga nisbatan amalga oshiriladi; ikkinchidan, bu yerdagi ayrim foydalanuvchilar bir vaqtning o`zida ham boshqaruv organi, ham foydalanuvchi yoki egalik qiluvchi organ bo`lib hisoblanadilar; uchinchidan, foydalanuvchilar maxsoydalanuvchilar, ya`ni maxsus boshqaruv organlariga bo`ysinadigan organlarga hamda xo`jalik yuritish mastaqilligiga ega bo`lgan tadbirkorlik faoliyati subyektlariiga bo`linadi. Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, tadbirkorlik faoliyati subyekti hayvonot dunyosi fondiga nisbatan to`liq ulunronlikni amalga oshira olmaydilar.

O`zbekiston Respublikasi hududida yashaydigan va ro`yxatdan o`tkazilgan xorijiy fuqarolar hayvonot dunyosidan umumiy asoslarda foydalanish huquqiga egadir.

Yovvoyi hayvonlarni ovlash uchun O`zbekiston Respublikasiga keladigan xorijiy fuqarolarga foydalanish huquqi O`zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo`mitasining ruxsatnomasi asosida beriladi.

Hayvonot dunyosidan foydalanish umumiy va maxsus tarzda amalga oshiriladi. Umumiy foydalanish ekologiya huquqining prinsiplaridan kelib chiqqan holda bepul amalga oshiriladi.

Hayvonot dunyosi obyektlaridan umumiy foydalanishda jismoniy yoki yuridik shaxslar ushbu obyektlarga qonunda belgilangan tartibda ta'sir etib bepul foydalansa unda umumiy ahamiyatga ega. Masalan, barcha suv havzalarida fuqarolarga sport va havaskorlik maqsadida shaxsiy iste'mol uchun belgilangan qoidalarga amal qilgan holda bepul baliq ovlashga ruxsat etiladi.

Hayvonot dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish letsenziya asosida amalga oshirilib, pullik tizim amalda bo`lgan holda hukumatemonidan amalga oshiriladi. A'zolik badalkarini va davlat bojini to`laganlik to`g`risida belgi qo`ylgan ovchilik bileyti, belgilangan tartibda belgilangan letsenziya, ruxsatnomasi yoki yo`llanma sport-havaskorlik maqsadida ovqilish huquqini beruvchi guvohnoma hisoblanadi.

Istisno hollarda fuqaroligi bo`lmagan shaxslarga yo`llanmalar, belgilangan ruxsatnomalar bo`yicha ovqilish huquqi berilishi mumkin.

Qonunning 16-noddasiga binoan hayvonot dunyosidan foydalanuvchilariga quyida keltirilgan huquqlar beriladi va majburiyatlar yuklatiladi:

Huquqlar:

- hayvonot dunyosi obyektlaridan ularni berib qo`yish shartlariga muvofiq foydalanish;
- tutib olingan hayvonot dunyosi obyektlariga va ulardan olingan

mahsulotga nisbatan mulkdorlik bo`lish;

- yuridik shaxslarga hayvonot dunyosi obyektlaridan belgilangan normalar doirasida foydalanish uchun ruxsatnomalar berish shartnomalar tuzush;

- ov va baliq mahsulotini qayta ishlash hamda dunyosi obyektlaridan buyumlar ishlab chiqarish;

- hayvonot dunyosi obyektlaridan ishlab chiqarilgan mahsulot buyumlardan foydalanish hamda ularni sotishga;

- sun'iy ravishda yetishtirilib, tabiiy yashash muhiqiga yuborilgan hayvon turlaridan foydalanish.

Majburiyatlar:

- hayvonot dunyosidan foydalanishning belgilangan normalari muddatlariga rioya etishlari;

- hayvonot dunyosining muhofaza qilinishini ta'minlashlari;

- hayvonot dunyosidan tabiiy galalarining butligi buzilishiga yo`q oymaydigan va foydalanishga berib yo`yilmagan hayvonlarning saqlab qolinishini ta'minlaydigan usullar bilan foydalanishlari;

- hayvonlarning yashash muhiti buzilishiga yo`l yo`ymasliklari;

- hayvonlar miqdorini hamda ulardan foydalanish hajmlarini hisob olishlari;

- hayvonot dunyosini tiklash va takror yetishtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishlari kabilar.

Hayvonot dunyosidan foydalanuvchilar qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquq va majburiyatlarga ega bo`lishlari mumkin.

Hayvonot dunyosidan foydalanuvchilarning alohida majburiyatlari dan birinchisi bu-hayvonot dunyosining muhofaza qilinishini ta'minlashlari chora-tadbirlarini amalga oshirish, ikkinchisi, hayvonlarning yashash muhiti buzilishiga yo`l yo`ymasliklari va aksincha yaxshilashlari, uchinchisi, hayvonlar miqdorini hamda ulardan foydalami hajmlarini hisobga olishlari shart.

Shuningdek, hayvonot dunyosidan foydalanish turlari va usullarini huquqiy holati hayvonot dunyosidan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishga katta yordam beradi.

Hayvonot dunyosidan quyidagi maqsadlarda belgilangan huquq normalar asosida foydalilanadi:

1) Hayvonot dunyosidan ilmiy, madaniy-ma'rifiy, tarbiyaviy va estetik maqsadlarda foydalanishga hayvonot dunyosi obyektlarini ularning yashash muhitidan ajratib olib va ajratib olmasdan qonun hujjatlarini belgilangan tartibda yo`l yo`yiladi.

Hayvonot dunyosidan ilmiy maqsadlarda foydalanishni-O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademeyasi tegishli tartibda foydalanimishini ta'minli va bu borada Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan ham-shikda faoliyatlarini muvofiqlashtirishni (kelishilishi) mumkin. Madaniy-sifriy va estetik maqsadlarda foydalanish haqida so'z ketganda hozirgi davtda keng darajada tarqalayotgan hayvonot dunyosi obyektlarini o'smoniy shaxslar uya yoki boshqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik haxslar ularning yashash muhitidan ajratib olib madaniy estetik maqsadlarda foydalanmoqda. Turli hayvonot dunyosi obyektlaridan zavq olish uchun ularni ma'lum bir turlarini saqlaydi (ilonlar, baliqlar). Masalan, batta-katta akvarium va zooparklari tashkil etishi mumkin.

2) Hayvonlarning foydali xususiyatlaridan - tuproq hosil qiluvchilaridan, muhitning tabiy sanitarlaridan, o'simliklarni changlatuvchilardan, shuningdek hayvonot dunyosi obyektlarining boshqa xususiyatlaridan foydalanish ularni yashash muhitidan ajratib olmasdan va ularga yoki ular yashaydigan muhitga zarar yetkazmasdan amalga oshiriladi.

Qonun talabiga ko'ra yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona, samarali foydalanishda hayvonot dunyosi turi muhim ahamiyatga ega. Bu yerda biz yer bilan hayvonot dunyosi o'rtaida o'zaro bog'liqlik borligini ta'kidlab, hayvonot dunyosi o'zining tabiy xususiyatlari bilan yerning unumli bo'lishiha xizmat qiladi deyishimiz mumkin. Shu o'rinda yerlarga kimyoiy ishllov berish emas, balki hayvonot dunyosi obyekti turi hisoblangan chuvalchangning foydali xususiyatlaridan foydalanmoq lozim ekanligini tan olish lozimdir. Changlatuvchilardan, shuningdek hayvonot dunyosining boshqa xususiyatlaridan foydalanish deganimizda biz hayvonot dunyosi obyekti turi hisoblangan asalarilarning moddiy boylik keltiruvchi manba ekanligini e'tirof etgan holda tabiiy muhitga ekologik nuqtai nazardan foydali ham ekanligini ta'kidlash lozim. Masalan, daraxt va o'simliklarning changlanishiga yordam beradi, bu esa qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirishda ahamiyathdir. Mazkur joylardan foydalanish ularni yashash muhitidan ajratib olmasdan va ularga yoki ular yashaydigan muhitga zarar yetkazmasdan amalga oshiriladi

3) Hayvonlardan ularning mahsulotlarini olish maqsadida foydalanishga hayvonot dunyosi obyektlarini yashash muhitidan ajratib olmasdan va ularni nobud qilmasdan, shuningdek ular yashaydigan muhitni buzmasdan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo'l qo'yiladi.

Hayvonot dunyosi obyekti turlaridan ularning faoliyati mahsulotlarini olish maqsadida foydalanish uchun yo'l qo'yiladi va hayvonot dunyosi obyektlarini yashash muhitidan ajratib olmasdan va ularni nobud

qilmasdan toydalanishda biz avvalo fauna obyekti turi bo`lgan ilonlari foydali xususiyatlardan foydalanib, ulardan zahar olish maqsadida (bo`lib tibbiyotda muhim ahamiyatli) ular yashaydigan tabiiy muhitni buzma uning foydali xususiyatlarini o`zlashtirish mumkin bo`lib hisoblanadi. Hozir sonor tonyosining iqtisodiy ahamiyati - - - naqshdan - - - resurs, eng-ovqat mahsulotlari, sanoatbop texnikaviy va dorivchi ashyo hamda boshqa moddly boyliklar olish manbayi ekanligi ma`lum. Qolaversa mo`yna tayyorlashda va boshqa ko`pgina so`hami muhim rol o`ynaydi. Shunday ekan, bu albatta foydalanuvchi e'tiboridan hech qachon chetda qolmaydi.

Hayvonot dunyosidan foydalanuvchilar hayvonot dunyosi obyi dan sohibkorona va sainarali haimda oqilona foydalanishi, shu qanday shartlarda berib qo'yilgan bo'lsa, shu shartlarda ularning faoli mahsulotlarini olish maqsadida foydalanishlari kerak.

Shuningdek, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va foydalanish to'g'risida"gi qonunning 24 moddasiga asosan: haydunyosi obyektlarining miqdorini tartibga solish kvotalar asosida oshiriladi. Kvotalar O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qidavlat qo'mitasi tomonidan hisobga olinadi va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining xulosalari asosida qonun hujjatlariga muvralavishda o'rnatiladi.

3. Ov qilish ya baliq ovlashni huquqiy tartibga solish

Hayvonot dunyosidan foydalanishning turi sifatida ov qilish va ovlash bir qator qonunchilik hujjatlari bilan alohida tartibga solingan.

Ov qilish - tabiiy erkin holatda yashaydigan yovvoyi hayvonlarni qushlarni tutish maqsadida izlash, iziga tushish va quylab borib tutish harakat qilish yoki uni ushlab olish (otish, tutib olish)ga qaratilgan faoliy tushuniladi.

Ta'kidlash lozimki, ov qilishda umumiyligini qoidaga ko'ra asosan u qalib hayvonot dunyosi obyektlari ovlanishi nazarda tutiladi. Ov havaskorlik va sport maqsadida olib borilishi mumkin.

Baliq ovlash- baliq va umurtqasiz suv hayvonlarini tutish ||| ovlash deb hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ov qilish va baliq ovlashdagi huqqa majburiyatlar, ta'qiqlar, ov qilish mavsumlari, shunga oid huqqa munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining 2006-yil 22-mart №27 sonli qarori bilan tasdiqlan

O'ZR Adliya vazirligidan ro`yxatdan o`tgan. №1569, 2-may 2006. yil)
O`zbekiston Respublikasi hududida ov qilish va baliq ovlash qoidalari"ga
muvofiq tartibga solinadi¹.

Ovchilik-baliq ovlash xo`jaligi xalq xo`jaligining tarmog'i bo`lib,
yovvoyi hayvonlarni qo`riqlash va ko`paytirish, shuningdek, havaskorlik,
o`t ovchiligi va baliq ovlash yo`li bilan ulardan oqilona samarali
tardalanish uning vazifasi hisoblanadi. O`zbekiston Respublikasi ovcilar
baliq ovlovchilar jamiyatlaridan birining a`zosi bo`lgan o`n sakkiz
shiga yetgan, joriy yil uchun belgilangan miqdorda a`zolik badallarini va
taylat bojimi to`lagan jismoniy shaxslar o`q otish va boshqa ovchilik
nirol-yaroq'i bilan ov qilish huquqiga egadir.

O`zbekiston Respublikasi suv havzalarida jismoniy va yuridik
shaxslar sport va havaskorlik maqsadida shaxsiy istemol uchun belgilangan
qoidalarga rioya qilgan holda bepul baliq ovlashga ruxsat beriladi.

Shu o`rinda takidlash lozimki, qo`riqxonalar, baliq pitomniklari,
hovuz va boshqa madaniy baliqchilik xo`jaliklari bundan holi hisoblanadi.

Respublikamiz fuqarosi bo`lgan shaxslar yoki chet el fuqarolari
voxud fuqaroligi bo`lmasan shaxslarga ham yo'llanmalar, belgilangan
tartibda berilgan litsenziyalar (ruxsatnomalar) bo`yicha ov qilish huquqi
berilishi mumkinligi qonunchilikda mustahkamlangan.

Vazirlar Mahkamasining "Hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanish,
ularni O`zbekiston Respublikasiga olib kirish va uning tashqarisiga
olib chiqish hamda ovchilik-baliq ovlash xo`jaligini yuritish tartibi
to`g`risida"gi NIZOM²ga muvofiq, yovvoyi hayvonlarni ovlash uchun
O`zbekiston Respublikasiga keladigan xorijiy fuqarolarga foydalananish
huquqi O`zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo`mita-
sining ruxsatnomasi asosida quyidagi tartibda beriladi:

ov qilish va baliq ovlash uchun xorijiy fuqarolarning O`zbekiston
Respublikasiga kelishi, bu yerda bo`lishi va O`zbekiston Respublikasidan
ketishi qonun hujjatlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

ov qilish uchun buyurtmanoma, shuningdek havonot dunyosidan
foydalanish uchun to`lov to`langanligi to`g`risidagi hujjat xorijiy fuqarolarga
ruxsatnomalar berish uchun asos hisoblanadi, xorijiy fuqaroning o`zi
yoki uning manfaatlarmi ifodalovchi shaxs tomonidan jo`natiladigan
mazkur buyurtmanomada ovlanadigan hayvonlar turlari va ov qilish
muddatları ko`rsatiladi;

¹ O`zbekiston Respublikasi O`smoni hujjatlari to`plami
1.06.2006-yil 12-savdoni

yil. № 18, modda. 158 ber
yil. 41 no. 459 modda.

ovlash uchun ov quroldan soydalanuvchi xorijiy fuqaro qurollar va o'q-dorilarni respublikaga olib kirish uchun O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ruxsatnomasini olishi zarur.

O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan hayvonot dunyosi obyektlari ayrim turlarini, shu jumladan tuvdog' qushini oshish uchun O'zbekiston Respublikasiga keladigan xorijiy fuqarolarga toyda qo'shish huquqi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida beriladi.

Ovlangan hayvonlarni, ularning qisimlarini, o'ljalarni va shu kabi, respublikadan olib chiqib ketishga ruxsatnomalar hayvonot dunyosidan oshish uchun ruxsatnomalar hamda tabiatni muhofaza qilish bo'yicha vakolatni davlat inspektorisi va ovcchi tomonidan imzolangan ovlangan hayvonot to'g'risidagi dalolatnomalar asosida beriladi.

Ovchilik-baliq ovlash joylarida qurol-yarog', ov qushlari, qopqonlari, to'ri materiallari va ov qiladigan hamda baliq tutadigan boshqa ash-shuningdek, yig'ilgan qurol-yarog' bilan yo'llarda bo'lish ov qilish baliq ovlash hisoblanadi.

Ov va baliq ovlash ilmiy, madaniy-ma'rifiy, xo'jalik, shuningdek sport-havaskorlik maqsadlari uchun yovvoyi hayvonlarni ovlash O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi huzurida hayvonot va o'sinlik dunyosini muhofaza qilish inspeksiyasi tomonidan belgilangan tartibda bepul yoki qonun osti me'yoriy hujjatlarida ko'rsatilgan tartibda haq evaziga amalga oshiriladi.

"Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan soydalamish to'g'risida"gi qonunda ov qilish va baliq ovlash bilan bog'liq munosabatlardan huquqiy jio'atdan tartibga solingan. Ushbu qonunda ov qilish va baliq ovlashning man qilingan usullari ham yoritilgan.

Ov qilish va baliq ovlashda umumxavfli qurollar va usullari qo'llash man etiladi.

Falokatga uchragan va o'zi uchun notabiiy sharoitda turli hayvonlarni ov qilish man etiladi (20-modda).

Ta'qiqlangan muddatlarda ovchilik baliq ovlash mahsulotlarini sotish va sotib olish. Shuningdek, ruxsat berilmagan usulda portlatish qurilmlarni qo'llash yoki elektr toki va hokazo.

Ta'qiqlangan joylarda tegishli ruxsatsiz hayvonot dunyosi obyektlaridan ya'ni ovlangan, man etilgan turlar yoki ruxsat berilmagan usularda belgilangan normadan ortiqcha ovlangan ov qilish va baliq ovlash mahsulotlari noqonuniy ov qilish va baliq tutish mahsulotlari hisoblanadi.

Mazkur qonunning 25-moddasiga binoan ov qilish va baliq ovlash o`jaligini yuritish yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan:

ov qilinadigan va baliq ovlanadigan yer-suv maydonlari loyihalarini davlat ekologiya ekspertizasi;

hayvonlar miqdorini hamda ov qilinadigan va baliq ovlanadigan maydonlar holatini hisobga olish materiallari;

hayvonot dunyosidan foydalanish huquqini beradigan kvotalar va satnomalar, hayvonot dunyosi obyektlarini va ular yashaydigan muhitni muhofaza qilish, ulardan foydalanish, ularni takror yetishtirish tadbirlarini tkazish to`g`risidagi shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Ov to`g`risidagi hamda ov qilish va baliq ovlash xo`jaliklarini yuritish to`g`risidagi nizom O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan tasdiqlanadi.

O`zbekiston Respublikasida ov qilish va baliq ovlash xo`jaligini yuritish qoidalari ishlab chiqilgan bo`lib, ushbu hujjat Vazirlar Mahkama-ung «Biologiya resurslaridan oqilona foydalanish, ularni O`zbekiston Respublikasiga olib kirish va uning tashqarisiga olib chiqish ustidan nazoratni kuchaytirish to`g`risida»gi 2004-yil 28-oktabr 508-sonli qarori hisoblanadi. Ushbu qarorning ilovalarida davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan ishlar ham ko`rsatilgandir. Ov qilinadigan va baliq ovlanadigan yer-suv maydonlari loyihalarining davlat ekologiya ekspertizasi o`tkaziladi va hayvonlar miqdorini hamda ov qilinadigan va baliq ovlanadigan maydonlar holatini hisobga olish materiallari tablib qilinadi.

Unda prognoz qilinayotgan, mo`ljallanayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo`jalik va boshqa xil faoliyatning ekologik talablarga muvoifiqligini tekshirib ko`rish uchun davlat ekologik ekspertizasi o`tkaziladi. Davlat ekologik ekspertizasi aslida ixtisoslashtirilgan eksport bo`linmalari. O`zbekiston Respublikasi Davlat tabiatini muhofaza qilish qo`mitasi organlari tomonidan amalga oshiriladigan ekologik ekspertiza turi hisoblanadi.

Ovchilik va baliq ovlash ho`jaligini yuritish huquqi berilgan korxonalar, muassasalar va tashkitotlar o`zlariga biriktirilgan ovchilik va baliq ovlash joylarda hayvonot dunyosi obyektlarini ko`paytirish va ularning yashash muhitini qo`riqlash bo`yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga majburdirlar. Bu borada foydalanish huquqini beradigan ruxsatnoimalar, hayvonot dunyosi obyektlarini va ular yashaydigan muhitni muhofaza qilish, ulardan foydalanish, ularni takror yetishtirish tadbirlarini o`tkazish to`g`risidagi shartnomalar asosida amalga oshirilishini qonun talab etadi.

4. Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarligi

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish
dagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik va jazo
davlat organlari, korxona, muassasa, tashkilotlar va jismeniy
O`zbekiston Respublikasining hayvonot dunyosiga oid qonunlari
may amal qilishlari hamda hayvonot dunyosidan foydalanuv
buzilgan huquqlarini tiklashda alohida rol o`ynaydi.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish
dagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikka tortish
bo`lib, hayvonot dunyosi obyektlardan foydalanishdagi huquq
fakti va shu xildagi huquqbazarlik uchun qonunda javob
chorasining mayjudligi hisoblanadi. Demak, hayvonot
muhofaza qilish va undan foydalanishi to`g`risidagi qonun bu
buzganlik uchun javobgarlik bu hayvonot dunyosi obyektlaridin
va oqilona foydalanishga hamda hayvonot dunyosidan
foydalanuvchilarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan.
Umme`yorlarida o`z ifodasini topgan ma'lum choralar tizimidir.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish
to`g`risidagi qonun hujjatlarining buzilishi qator javobgarliklarni
chiqaradi: ma'muriy, intizomiy, fuqarolik, jinoiy-huquqiy javobgarlik
choralari qo`llaniladi. Shulardan biri ma'muriy-huquqiy javobgarlik
chiqaradi: ma'muriy-huquqiy javobgarlik deganda, O`z R MTKning
moddasiga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish ko`zda tutilgan
davlat yoki jamoat taribiga, mulkehitlikka, fuqarolarining huquq
liklariga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g`ayrihuquqiy, aybli
yoki ehtiyyotsizlik orqasida sodir etilgan harakat yoki haral
tushuniladi. Hayvonot dunyosidan foydalanish huquqini buzganlik
ma'muriy noyo`ya xatti-harakat sodir etilganda kelib chiqadi.
MTKning 10-moddasiga binoan ma'muriy huquqbazarli
xususiyatiga ko`ra jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo`lmagan
ijtimoiy xavfi katta bo`lmasa amalga oshiriladi. Demak, bu javob
xarakteriga ko`ra jinoiy javobgarlikka qaraganda tezlikda qo`llanil
sudlanganlik oqibatini keltirib chiqarmaydi.

Hayvonot dunyosidan foydalanish huquqini buzganlikda
javobgarlik davlatning hayvonot dunyosiga egalik qilishi (uniform
boylik) huquqini buzish, hayvonot dunyosidan xo`jasizlarcha

Hayvonot dunyosidan foydalanish qoidalarini buzish, g`ayrigomuniy ov qilib, baliq ovlash, qizil kitobga kiritilgan va noyob hayvonlarni tutish, Lemda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tartibini buzish va shu kabi bo`ya harakatlar uchun kelib chiqadi, ma`muriy huquqbazarlikni sodir bo`ylarga nisbatan O`zbekiston Respublikasning MJTKning 23-moddasiga binoan jarima, ma`muriy huquqbazarlik harakatini sodir etish uchun qurlovi hisoblangan predinet yoki bevosita shunday obyekt (buyum)ni haq qilash sharti bilan olib qo`yish, ma`muriy huquqbazarlik harakatini sodir bo`sh quroli hisoblangan qurolni va bevosita shunday obyekt bo`lgan buyumni musodara etish, muayyan huquqni unga berilgan maxsus huquqdan mahrum qilish kabi jazo choralar qo`llaniladi.

Hayvonot dunyosidan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun ma`muriy jazo chorasini qo`llash tuman, shahar hokimlari huzuridagi ma`muriy komissiyalar, tuman (shahar) hududlari, ichki ishlar organlari, davlat inspeksiya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O`z R MJTKning 90-moddasida ov qilish yoki baliq tutish qoidalari, shuningdek, hayvonot dunyosidan foydalanishning boshqa qoidalari amalga oshirish qoidalari uchun fuqarolarga eng kam oylik ish bo`yning bir baravaridan ikki baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa ikki baravaridan un baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo`ladi. Uch ko`rsatilgan.

Ushbu Kodeksning 92-moddasida esa hayvonlarning yashaydigan muhitini muhofaza qilish qoidalari, zoologik va botanik kollekstiyalarini qandga kettirish ular bilan savdo qilish qoidalari uchun buzish, xuddi bo`uningdek hayvonlarni o`zboshimchalik bilan boshqa joyga ko`chirish, qobilashtirish yoki kengaytirganlik uchun suqarolarga eng kam ish bo`yning undan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa bir baravaridan un baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo`lishi, uch huddi shunday huquqbazarlik ma`muriy jazo chorasi qo`llanilgandan keyin bir yil davomida takror sodir etiladigan bo`lsa jinoiy-huquqiy obgarlikni keltirib chiqaradi.

Mazkur Kodeksning 93-moddasida qizil kitobga kiritilgan hayvonlar va o`simliklar guruhlarini saqlashga zarar keltiradi deb topilgan hayvonlar yoki o`simliklarni qonunga xilof ravishda olib kelishga oid huquqbazarlik uchun jazo belgilangan.

Ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 94-moddasida esa ob yoki yo`q bo`lib ketish arafasida turgan hayvonlarni yo`q qilib bo`lib, o`lja qilish yoxud shunday hayvonlarning qirilib ketishiga, soni mayib ketishiga yoki yashash muhitini buzilishiga sabab bo`lishi

mumkin bo`lgan boshqa harakatlar sodir etish, ya`ni qizil kitobga kiritish turlariga mansub noyob yoki yo`q bo`lib ketish xavfida turgentan hayvonlarning yo`q qilib yuborish, o`lja qilish yoxud ularning tuxumi. Shartlarni qo`yadigan inlarini, boshpanalarini yo`q qilish, inlari, uyalari va boshpanlar yashirinish joylarini buzish yoxud shunday hayvonlarning qirilib ketishi yoki yashash muhitini buzilishiga sabab bo`ladigan boshqa harakatlar sodir etish yoxud shunday hayvonlarni ovlash ruxsatnomasida ko`rsatilgan shartlarni buzgan holda o`lja qilishshu huquqbuzarlikni sodir etish qidorda bo`lgan ashayolarni musodara qilib yoki musodara qilmay fuqarolarini kam ish haqining ikkidan bir qismidan ikki baravarigacha, manzil shaxslarga esa ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda qidorda solinishi ko`rsatilgan.

Shuningdek, boshqa bir qator nojo`ya xatti-harakatlar uchun hamda R MTK da javobgarlik belgilangan. Hayvonot dunyosiga oid hayvon munosabatlari buzilishi ijtimoiy xavfli ma`muriy nojo`ya harakat darajasi bo`lmasa, bunday holatlarda huquqbuzarlarga nisbatan intizomiy choralarini qo`llanilishi mumkin. Intizomiy javobgarlik huquqiy taʼsiz sifatida shaxslarga o`zlarining xizmat faoliyatları, ya`ni jihat tashkilotlariga a`zolik munosabati bilan intizomiy nojo`ya harakat etganlarida qo`llaniladi. Bu javobarlik hayvonot dunyosidan foydalanishda qoidalarani buzishga qaratilgan quyidagi intizomiy nojo`ya xatti-harakat sodir etilganda, ya`ni masalan, hayvonot dunyosidan foydalanishda mehnat majburiyatları bajarilmaganda, sifatsiz ish qilinganda qo`llaniladi.

Xo`jaliklarning mansabdar shaxslari mehnatni o`z vaqtida etishmaganlarida, hayvonot dunyosini muhofaza qilish choralarini ko`rganlarida intizomiy javobgarlikka tortiladilar. Intizomiy javobgarlikka bir qator o`ziga xos xususiyatlari mavjud. Bular, birinchidan, intizomiy javobgarlik ma`muriy yoki boshqa turdagisi javobgarlikka nisbatan oddiyroq va yengilroqdir, ikkinchidan, intizomiy javobgarlikka faoliyatini yuritayotgan va mehnat shartnomasi tuzgan shaxslarga mukammal qo`llaniladi. Intizomiy jazo choralar Mehnat Kodeksida hamda yoeki Nizomda belgilanadi. Intizomiy jazo choralar sifatida quyidaplo qo`llaniladi: xayfsan, o`rtacha oylik ish haqining 30% dan ortiq bo`lgan miqdorda jarima (ichki mehnat tartib qoidalarida belgilangan o`rtacha oylik ish haqining 50% dan ortiq bo`lmasan miqdorda), shartnomasini bekor qilish.

Intizomiy jazo chorlari mehnat intizomini buzish oqibatida xodim kelib, xodim ishlayotgan korxona, tashkilot rahbari tonasi

Mansabdor shaxslarga esa xo'jalikning umumiy yig'ilishi
qonundan qo'llaniladi.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish taribi
mazganda qo'llaniladigan javobgarliklardan yana biri—fuqarolik huquqiy
tobgarlikdir. Bu huquqiy javobgarilik turi hayvonot dunyosidan
foydalanuvchilarga mulkiy zarar yetkazish bilan bog'liq holda buzilganda
qo'llaniladi. Hayvonot dunyosini huquqiy ekologik muhofaza qilishda
mu'min ahatiyatga ega u asosida yetkizilgan zararni qoplash yoki to'lash
to'la bilan amalga oshiriladi.

Hayvonot dunyosiga oid huquqiy asoslar, soydalanish qoidalarini
orqali yetkazilganda ularni qoplash lozimligini belgilaydi.
Chamonchi, O'zbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza
qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, hayvonot
dunyosidan foydalanuvchilarning huquqlarini buzish orqali yetkazilgan
zarar to'la hajmda qoplanishi kerak. Shu qonunda ko'rsatilishicha,
xonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolar O'zbekiston Respublikasi
dunyovonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'-
ridagi normativ-huquqiy hujjatlarini bajarmasliklari tufayli yetkazilgan
tunaming o'rni ni qoplashga majburdirlar.

Hayvonot dunyosidan foydalanuvchilarga yetkazilgan mulkiy zararni
fuqarolik qonunlariga murojaat etishning bosh asosi, fuqarolik
qonunlari me'yorlarining hayvonot dunyosiga oid huquqbazarlikka
mubatan joriy qilinishining sababi, birinchidan, fuqarolik qonunlari bilan
tartibga solinadigan mulkiy munosabatlarning bir xilligi, o'xshashligi
ta'sisa, ikkinchidan, hayvonot dunyosiga oid qonunlarda hayvonot
dunyosidan foydalanuvchilarga yetkazilgan mulkiy zararni qoplashning
to'la tartibga solinmaganligidir.

O'z R.F.ning majhuriyatlarni bajarmaslikdan kelib chiqadigan
javobgarlikka bag'ishtlangan umumiy qoidalarini bevosita hayvonot
dunyosidan foydalanishda yetkazilgan zararni undirishda ham qo'llash
mu'min. Bundan tashqari Kodeksning 179-moddasida belgilanishicha,
fuqarolarning shaxsiga yetkazilgan to'la miqdorda zarar yetkazgan shaxs
qonundan to'lanishi shart.

"Yuridik va jismoniy shaxslar hayvonot dunyosini muhofaza qilish
va undan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish tufayli
yetkazilean zararni fuqarolik qonun hujjatlarida belgilangan tartibda
qoplashlari shart."

Yuqorida qayd etilgandek, hayvonot dunyosidan foydalanish
huquqbazarlikning subyekti nafaqat fuqarolar yoki mansabdor shaxslar,

balki korxona, muassasa, tashkilotlar ham bo`lishi mumkin. Hayvonot dunyosidan foydalanuvchi va uni muhofaza qiluvchitarga zarar va kuzish shunday tashkilotlar ham fuqarolik huquqiy javobgarlikka tortilib, kelib chiqgan zararni to`lashga majburlar. Hayvonot dunyosidan foydalanishda huquqini buzishda qo`llaniladigan javobgarlikdan yana biri jinoiy-jinoqchi javobgarlikdir. Bu turdag'i javobgarlik jinoyat qonunida belgilangan ijjitmoiy, haflı xatti-harakat yoki harakatsizliklar sodir qilgan shaxsonlarning nisbatan qo`llaniladi.

Ma'lumki, jinoiy huquqbuzarlik jamiyat uchun o`zining o`ta hujjati darajasi bilan ajralib turadi. Hayvonot dunyosidan foydalanish huquqni ishda jamiyat uchun ijtimoiy havfli bo`lgan jinoyatlar ichunda hayvonot navbatada, hayvonot dunyosiga nisbatan davlatning mulk huquqini ishshiga qaratilgan g'ayriqonuniy harakatlar. Masalan, ovchilik, baliqchilik qoidalarini buzish, hayvon, parranda, baliq va hayvonot dunyosiga nisbatan boshqa turlarining hamda boshqa qimmatbaho hayvonlarning yeppey qurilishini qurilish ketishi va ekologik mutanosiblikning buzilishi kabilar.

O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 202-moddasi 1-qismi hayvonot yoki o`simlikdan foydalanish tartibini buzganlik uchun, 2-qismi ovchilik, baliqchilik yoki hayvonot dunyosining obyekti turlanni ustida qoidalarini buzish, noyob hayvonlarni tutishning belgilangan tartibini, 3-qismi sharoitlarini yoxud o`simliklarning doridarmoq, oziq-ovqat va manzil (dekorativ) turlarini yig`ish yoki tayyorlash, shuningdek maxus qo`llaniladigan tabiiy hududlardagi hayvonot va o`simlik dunyosida foydalanan tartib buzganligiga nisbatan jarima yoki axloq tuzatish ishlari yoxud qurilish bilan jazolanishi belgilangan.

Hayvonot yoki o`simliklar dunyosida foydalanish tartibini belgilagan quyidagi hollarda: 1) hayvonlar, parrandalar, baliq, hayvonot va o`simlik dunyosining qizil kitobga kiritilgan boshqa turlarini nobud qilish bilan, 2) ko`p miqdorda zarar yetkazgan holda 3) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo`lsa, aybdor JK 202-moddasi 1-qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

Bu boradagi jinoyatlar havfli retsidivist tomonidan, shaxsning o`sish xizmat mavqeidan foydalanib, yer, suv yoki havoda ishlatali, mekanizatsiyalashtirilgan vositalardan foydalanib, portlatish qurilishi, zaxarli kimyoiy moddalar yoki boshqa yalpi qirib yuboradigan, nobut qiladigan usullarni qo`llagan hamda uyushma guruh tomonidan juda ko`p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo`lsa. O`zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 202-moddasi 3-qismi 1-qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

Ushbu yuqoridagi xavfli harakatlar hayvonot va o'simlik dunyosidan o'talarish tartibini buzganlik natijasida, qo'lga kiritilgan mahsulotlar (ish, baliqlar, terilar, tuxumlar va mevalar) olib qo'yiladi va realizatsiya toradi.

Mahsulotni sotishdan tushgan moddiy mablag'lar yetkazilgan zarar o'mini qoplashga ishlatilmaydi. Yetkazilgan moddiy zarar tabiatni muhotaza qiluvchi idoralar foydasiga to'lanadi. Mazkur idoralar olingan bol mablag'larining bir qismini davlat budgetga o'tkazadi.

Mazkur Kodeksning 199-moddasida esa o'simliklar kasalliklari va muatkunandalarga qarshi kurash talablarini buzganlik uchun jinoiy jirobgarlik belgilangan. Ya'ni, o'simliklar kasalliklari va zararkunandalar bilan kurash talablarini buzganlarga nisbatan muayyan huquqdan mahrum qilish yoki ahloq tuzatish ishlari yoxud ozodlikdan mahrum qilish bilan o'talarishni o'rnatilgan. Shuningdek, Jinoyat kodeksida hayvonot dunyosini foydalanish bo'yicha huquqbazarliklarga yaqin atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi ekologiya xavfsizligiga oid me'yorlar va talablarni buzish kabilarga jinoiy jazo o'rnatilgan.

XVII BOB. MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARNING HUQUQIY HOLATI

1. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatining tushunchasi va xususiyatlari

Bugungi kunda jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri muammolarni qoldi. Katta ahamiyatga ega bo'lmoqda va hozirgi, shuningdek katta avlodlarning faravonligi, umuman jahon sivilizatsiyasining taqdri qidirgik muammolarning ijobiy hal etilishiga ko'proq bogliq bo'lib qolmoqda.

Ilmiy - texnika rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida keskin tarzda garib borayotgan atrof muhit ekologik muammolarni keltirib chiqarishni inson uni hayotiga, turmush tarziga, hamda genetik fondi va irdsiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa hozir yer yuzida yashab turganlarini emas, balki kelgusi avlodlar salomatligiga. avniqsa yer, suv, atmosfera, havosi, yer osti boyliklari, hayvonot va o'simliklar dunyosi, tabiat tarixiy yodgorliklarning tabiiy holatiga ham salbiy ta'sir qilmoqda.

Mazkur masalaga, O'zbekiston Respublikasi dastlab mustaqilligini erishgan paytidan boshlab e'tibor berdi va birinchilar qatorida 1991-yilda O'zbekiston Respublikasining "Alohibo muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonunini qabul qildi. Shuningdek, 2001-yil dekabrda esa yangi tahrirda "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

Mazkur qonun hozirgi va kelajak avlod manfaatlarini ko'zlab hamda ekologik, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, sanitariya, estetik nazardan milliy boylik va umumxalq mulki bo'l mish qimmathi majmualarni muhofaza etishning umumiyligi, huquqiy, ekologik, iqtisodiy tashkiliy asoslarini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasida o'simliklar va hayvonot dunyosi hamda davlat milliy tabiat boyliklari, davlat tabiat va tarixiy yodgorliklarni saqlab qolish, ularni sonini ko'paytirish inson hayotini ekologiya normal saqlashga tabiat bilan jamiat va inson o'rtaсидаги таъсирларини саqlashga katta yordam beradi.

Hozirgi paytda respublikamizda qo'riqlanadigan yerlarning umumi maydoni 2 million hektardan ortiq, alohibo qo'riqlanadigan 11 ta qo'riqlanadigan hududiy obyekt, jumladan 9 qo'riqxona, 400 dan ortiq tabiat yodgorliklari mavjud.

Hozirda, oxirgi 10 yil ichida ushbu maydonlarning o'zgartiqliklari, O'zbekistonning o'simlik va hayvonot dunyosini muammolarni qoldi.

shunga qaratulgan zakazniklar tashkil etilgan bo'lib, ularning umumiy nomi 1563 ming gektarni tashkil etadi¹.

Demak ana shunga o'xshash Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar muhofaza qilinmog'i lozim.

Shuni ta'kidlash joizki, respublikamizdagi barcha muhofaza etiladigan tabiiy hududlar qonun bilan muhofaza qilinmog'i va huquqiy tartibga solinishi maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni olib etish, ulardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi mosabatlar ushbu qonundan, shuningdek yer, suv, o'rmon to'g'risidagi qonunlar, yer osti boyliklaridan foydalanish to'g'risidagi, atmosfera havo ni muhofaza qilish to'g'risidagi hamda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlardan iborat. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlari va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish, ulardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari bilan ham tartibga solib turiladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tog'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining vazifalari tipik, noyob, qimmatli tabiiy obyektlar va majmualarni, o'simliklar va hayvonlarning irsiy fondini saqlab qolishdan, inson faoliyatining tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatishi oldini olishdan, tabiiy jarayonlarni o'rganishdan, atrof tabiiy muhit monitoringini olib borishdan, ekologik ma'rifat va tarbiyani takomillashtirishdan iborat.

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar"ning ta'risi va ularni huquqiy maqomi yuqorida nomi tilga olingan qonunning 4-moddasida quyidagicha berilatulgan.

Yerning va (yoki) suv kengliklarining (akvatoriyalarning) ustuvor ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya-sog'lomlashish ahamiyatiga molik bo'lgan, xo'jalik maqsadidagi doimiy yoki suqincha foydalanishdan to'liq yoki qisman chiqarilgan uchastkalari muhofaza etiladigan tabiiy hududlar hisoblanadi.

Tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va o'lash maqsadida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda muhofaza qilish va foydalanish rejimi o'matiladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar biologik, landshaft
barangligini ta'minlash va ekologik muvozanatni saqlab turish uchun
mo'ljallangan yaxlit ekologik tizimni tashkil etadi.

Tabiat rang-barangligini saqlab qolish, ekologik muvozanatni
biosfera monitoringini saqlab turishga, shuningdek shikast yetgan ta'min
majmualarni tiklashga mo'ljallangan yagona tizimni tashkil etish uchun
O'zbekiston Respublikasining muhofaza etiladigan tabiiy hududlari
xo'jalik maqsadida foydalanishdan to'liq yoki qisman, bir umrga
vaqtincha tortib olinishi mumkin.

Tabiiy zaxiralardan foydalanish va ularni Muhofaza qilishga
rejalar va dasturlar, yer tuzilishi va joylarni tekislash kesmalari hisobiga
boshqa rejalarни ishlab chiqishda Muhofaza etiladigan tabiiy hududlari
hisobga olinadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar belgilangan maqsadi va rejimi
qarab quyidagi toifalarga bo'linadi: davlat qo'riqxonalari; majmua (land
shaft) buyurtma qo'riqxonalari; tabiat bog'ları; davlat tabiat yodgorligi;
ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish
tiklash uchun mo'ljallangan hududlar; muhofaza etiladigan landshaft
ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlar.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat mulkidir va inde
muhofazasidadir. Yer uchastkalari va boshqa tabiiy obyektlar xususiy
buyurtma qo'riqxonalari hamda tabiiy pitomniklar tashkil etish uchun
yuridik va jismoniy shaxslarga foydalanishga berilishi mumkin

Davlat hokimiysi va boshqaruvi mahalliy idoralarning qator
bilan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning boshqa toifalarini
nazarda tutilishi mumkin. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni ta'min
etish, ulardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi davlat
boshqaruvini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, davlat
hokimiysi va boshqaruvi mahalliy idoralari amalga oshiradilar.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan foydalanish va ularni
muhofaza qilish sohasidagi davlat nazoratini O'zbekiston Respublikasi
Tabiatni Muhofaza qilish davlat qo'mitasi amalgaga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi "Muhofaza etiladigan tabiiy hudud
to'g'risida"gi qonunning 7 – moddasiga asosan, muhofaza etiladigan tabiiy
hududlarning yer uchastkalari tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashma
va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar jumlasiga kiradi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yer uchastkalari va
atoriya uchastkalarida mazkur hududlardan foydalanishning belgiligi
maqsadiga zid har qanday faoliyat taqiqilanadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning holatiga salbiy ta'si
t etiladigan yoki ko'rsatishi mumkin bo`lgan faoliyatni cheklash yoki
saqlash uchun yer uchastkalarini saqlash vazifasi belgilanadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etishda yuridik va
jismoniy shaxslarning faoliyatini cheklash yoki tugatish tufayli ularga
uzilgan zararning o`mi qonun hujjatlariga muvofiq qoplanadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish uchun qishloq
xo`jaligiga mo`ljallangan va o`rmon fondidagi yerlar ajratib berilganda
qishloq xo`jaligi hamda o`rmon xo`jaligi ishlab chiqarishi ko`radigan zarar
ta'lafotlarning o`mi qoplanmaydi.

Davlat qo`riqxonalarining, majmua (landshaft) buyurtma qo`riqxona
bo`uning, tabiat bog`latining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma
qo`riqxonalarining (ovchilik xo`jaliklarida tashkil etilgan buyurtma
qo`riqxonalar bundan mustasno), tabiiy pitomniklarning yer uchastkalariga
shiq solinmaydi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda xo`jalik faoliyati
imtiyayotgan bo`lsa, yer solig'i undiriladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yer uchastkalarini davlat va
jismoniy ehtiyojlari uchun olib qo`yishga alohida hollarda yo`l qo`yiladi.

Yuridik va jismoniy shaxslar davlat tabiat yodgorliklarini, buyurtma
qo`riqxonalarini, tabiiy pitomniklarni muhofaza qilish bo`yicha zimmala
o`siga yuklatilgan majburiyatlar bajarilishini ta'minlamagan taqdirda ular
hollab turgan yer uchastkasi olib qo`yilishi mumkin.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yer uchastkalari hamda
sivatoriya uchastkalarini muhofaza qilish, ulardan foydalanish va ularni
olib qo`yish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkama Muhofaza etiladigan
tabiiy hududlarni rivojlantirish va joylashtirishning bosh kesmasini yoki
davlat shokimiyyati mashalliy idoralari tabiatni Muhofaza qilishning
idoralari tabiatni Muhofaza qilishning hududiy majmui kesmasini
tashqlashi bilan ayni bir vaqtida muhotaza etishga taysiya etilayotgan yer
maydonini zaxiralash tigaror qabul qilinadi. Muhofaza etiladigan tabiiy
hudud tashkil etish tigaror qabul qilingunga qadar mazkur hududda yer
egalari va yerdan foydalanuvchilarning xo`jalik faoliyati cheklanadi yoki
to`xtatiladi. Bunday hollarda yer egalari va yerdan foydalanuvchilar
xo`jalik faoliyatining cheklanishi yoki to`xtatilishi tufayli qishloq xo`jaligi
o`rmon xo`jaligi ishlab chiqarishida ko`rilgan yo`qotish va ta'lafotlar
uchun toyon olish huquqiga egadirlar hamda yer solibiyicha imtiyozlardan
faydalananadilar.

Ta'kidlash joizki, Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning davlat kadastro ham katta ahamiyatga ega. Ushbu masala mazkur qonunda yetarlicha o'z aksini topgan.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning davlat kadastro bu hudud larning huquqiy maqomni, ularning jumavqyei, miqdor va sifat kirsatkichlari, ekologik, ilmiy, ma'rifiy va boshqa xil ahamiyatit, yer egalari va yerdan qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasining Muhofaza etiladigan tabiiy hududlari davlat kadastro mazkur hududlar tarmorejalshtirish, ularni Muhofaza etishni ta'minlash va ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, tegishli qoidaga rioya etilishi ustidan davlat nazorati darajasini oshirish, shuningdek ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishni rejalashtirish chobu hududlar o'rni va ahamiyatini hisobga olish maqsadida yuritiladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning davlat kadastro respublika budjeti hisobidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkama tasdiqlagan yagona tizim asosida yuritiladi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning davlat kadastrini yuritishni O'zbekiston Respublikasi Tabiatni Muhofaza qilish davlat qo'mita idoralari O'zbekiston Respublikasi Fanlari akademiyasi bilan birgalikda amalga oshiradilar.

Xullas, "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy holatini" quyidagi xususiyatlari mavjud.

1) U O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qo'ygan talabiga mosligi, konstitutsiyaviy ustivorlikka ega ekanligi hamda davlat tomonidan Muhofaza etilishi;

2) Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy holatini o'rghanish va u to'g'risidagi qonun davlat qo'riqxonalari, majmua (land shaft) buyurtma qo'riqxonalari, tabiat bog'lari, davlat tabiat yodgorliklari, ayrim tabiiy obyektlari va majmualarni saqlab qolish, takror ko`paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan hududlar, muhofaza etiladigan landshaftlar, ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlar va boshqa masalalarini hamda u bilan bog'liq barcha munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishi bilan;

3) U yangi ijtimoiy tuzum, bozor munosabatlarini mustashkamlash va ekologik siyosatni barqarorlashtirish uchun yangi huquqiy ekologik zamin bilib, Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni Muhofaza qilish va ularni huquqiy tartibga solishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi bilan;

4) Mazkur sohani huquqiy tartibga solish bozor iqtisodiyotida qabul qilingan ekologik qonunlarni qillash va ular bilan birgalikda ekologik muhitni yaxshilashga, tabiat obyektlaridan oqilona foydalanish va ularni

Muhofaza qilishga, ayniqsa, alohida Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni saqlashga;

5) Ushbu soha fuqarolarimizdan shu kungi hayot talabi asosida ekologik huquqiy ma'naviyat va ~~zalaniyat~~ bo'lishni, hamda ushbu yo'naliishda doim yuksaltish, bilishni taqozo qilishi va ~~boshqa~~ xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi.

2. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning asosiy turlari

1) Davlat qo'riqxonalari va ularni huquqiy tartibi

O'simlik va hayvonot dunyosini Muhofaza qilish, ularning nodir va tugab borayotgan turlarini saqlab qolishi, sonini ko'paytirishda davlat qo'riqxonalari, majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari, tabiat bog'larini, ayrim tabiiy obyektlar va majmualarini saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan hududlarning ahamiyati kattadir Hozirda, Respublikamizda "Jayron" ekologik markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Qo'riqlanadigan yerlarning umumiy maydoni 2 million gektardan ortiq. Respublikamizda alohida qo'riqlanadigan 11 tabiiy-hududiy obyekti shu jumladan 9 qo'riqhonalar bilib, 3 tasi - te, 3 tasi - daryo qayiridagi qayda va 3 tasi chil landshaftlarida joylashgan. Bular Chatqol o'rmoni, Pay Qizilqum, Bodayo'qay, Nurota, Zarafshon, Hisor, Vardanzo, Keshitangto Kitob qo'riqhonalaridir. Bu qo'riqxonalarda biokologik tadqiqotlar olib boriladi.

Ta'kidlash joizki, davlat qo'riqhonalarini ta'rifsi va vazifalari O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonunida aniq ko'rsatib berildi.

Mazkur qonunning 18-moddasiga asosan:

Tabiiy obyektlar va majmualarini muhofaza qilishning qo'shreumiiga ega bo'lgan, tipik ekologik tizimlar, o'simliklar va hayvonotning issiv fondini saqlab qolish hamda o'rGANISH uchun mo'ljallangan tabiiy iarayonlar va hodisalar o'zgarishi ustidan monitoring o'tkazish maqsadini qo'ygan tabiatni Muhofaza etuvchi ilmiy-tadqiqot muassasalarini umum davlat ahamiyatiga molik muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat qo'riqxonalari hisoblanadi.

Davlat qo'riqxonalari maxsus vakolatli davlat organining tajdimnomasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qurori bilan davlat tabiatni muhofaza qilish ilmiy-tadqiqot muassasasi hoklida tashkil etiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan nizom asosida faoliyat ko'rsatadi.

Davlat qo`riqxonalarining hududida har qanday faoliyat ta`qilanganadi. ilmiy-tadqiqot faoliyati va atrof tabiiy muhit monitoringini yuritish bundan mustasno. Davlat qo`riqxonalarida yong`inga qarshi tadbirlar o`tkazilishi shiga yo`l qo`yiladi.

Davlat qo`riqxonalari hududida hamda ularning qo`riqlanma zonalarda tirik organizmlarning yangi va kenja turlariui iqlimlashtiri b maqsadida joylashtirish taqiqolanadi.

Davlat qo`riqxonalarining yoki ular qaysi davlat organlarinmasi tarzida bo`lsa, shu davlat organlarining xodimi hisoblanmaydigan fuqarolarning davlat qo`riqxonalarini hududida bo`lishiga ularda ana shu organlar yoki davlat qo`riqxonasi ma`muriyati bergen ruxsatnoma bo`lgan taqdirda yo`l qo`yiladi.

Davlat qo`riqxonalarida ilmiy tadqiqotlar bunday qo`riqxonalari shtatidagi ilmiy xodimlar tomonidan o`tkaziladi. Sharhnomalar asosida boshqa ilmiy tashkilotlar va mutaxassislar jalb etilishi mumkin.

Davlat qo`riqxonalarida olimlar kengashlari (ilmiy kengashlari) tuziladi.

Davlat qo`riqxonalarida atrof tabiiy muhit monitoringi yuritilishi shart.

Davlat qo`riqxonalaridagi ilmiy tadqiqot faoliyati natijalari, agar ul O`zbekiston Respublikasi Davlat budgetining va tabiatni muhofaza qiliishi fondlarining mablag`lari hisobiga olingan bo`lsa, davlat mulki hisoblanadi. Yuridik va jismoniy shaxslarning mablag`lari hisobiga olingan ilmiy tadqiqot faoliyati natijalariga bo`lgan mulk huquqi davlat qo`riqxonalar bilan mazkur shaxslar o`rtasida tuzilgan sharhnomalar bilan belgilanadi. Davlat qo`riqxonalarini ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalaridan tekis foydalananadilar.

Davlat qo`riqxonalarining tabiiy obyektlari va majmualari holat to`g`risidagi ilmiy axborot e`lon qilinishi kerak. Davlat qo`riqxonalarini o`matbuot nashrlariga ega bo`lishi mumkin.

Davlat qo`riqxonalarining ilmiy fondlari muddatsiz saqlanishi kerak.

Davlat qo`riqxonalarining ilmiy tadqiqotlarini muvofiqlashtirish borishni O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi amalgalashiradi.

2) Majmua (landshaft) buyurtma qo`riqxonalarini

Alohiba ekologik qimmatga ega bo`lgan tabiiy obyektlar va majmualarni asl holatida saqlash uchun mo`ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar majmua (landshaft) buyurtma qo`riqxonalarini hisoblanadi.

Majmua (landshaft) buyurtma qo`riqxonalarini maxsus vakolatli davlat organining taqdimnomasi bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Vazirligi

Mahkamasining qarori bilan davlat tabiatni muhofaza qilish muassasasi shaklida tashkil etildi.

Majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalar bunday qo'riqxonalar to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи tomonidan tasdiqlanadigan nizom asosida faoliyat ko`rsatadi.

Majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarini hududida har qanday taoliyat taqiqlanadi, ilmiy-tadqiqot, rekreatsiya faoliyati, atrof tabiiy muhit monitoringini yuritish, shuningdek pichan o'rish va chorva mollar o'tlatish, yovvoyi o'simliklarni oziq-ovqat maqsadlari uchun, majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarini xodimlarining va mazkur qo'riqxonalarining qo'riqlanma zonalarida yashovchi fuqarolarning o'z ehtiyojlari uchun yovvoyi holda o'sadigan o'simliklarning dorivor va texnik xom ashyosini tayyorlash (tyig'ish) bundan mustasno.

Har bir qo'riqxona qaysi idoraning tasarrufida bilsa, shu idora O'zbekiston Respublikasi Tabiatni Muhofaza qilish davlat qo'mitasи bilan kelishib turib tasdiqlaydigan Nizom asosida faoliyat ko`rsatadi.

Amaliyotda davlat qo'riqxonalarining maqomi katta ahamiyatga egadir, yuqorida nomi zikr etilgan qonun ushbu masalaga quyidagicha e'tibor beradi.

Davlat qo'riqxonalarini, majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarini hamda tabiat bog'lari quyidagi hisobidan moliyalashtiriladi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari;

tabiatni muhofaza qilish fondlari mablag'lari;

ilmiy-tadqiqot, tabiatni muhofaza qilish, reklama-noshirlik va ma'rifiy faoliyatdan keladigan daromadlar;

muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga yetkazilgan zararning o'mini qoplashga qaratilgan tushumlar;

muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rejimini buzganlik uchun undirilgan jarima pullari;

musodara etilgan ovcilik qurollari va baliqchilik asboblarini realizetsiya qilishdan, qonunga xilof ravishda qo'lga kiritilgan o'lja mahsulotni sotishdan tushgan pullar;

yuridik va jismoniy shaxslarning xayriya yordamlari;

qonum hujjatlarida taqiqilanmagan boshqa tushumlar.

Majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarini va tabiat bog'lari ixtiyoriga yuqorida ko`rsatilgan mablag'lardan tashqari, fuqarolarning muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga kirib chiqishi va tabiiy resurslardan foydalanish uchun ruxsatnomalar berishdan, rekreatsiya, turistik-ekskur-

siya yo`nalishidagi va qonun hujjatlarida yo`l qo`yiladigan boshqa faoliyatdan kelgan daromadlar ham beriladi.

Davlat buyurtma qo`riqxonalarini, davlat tabiat **Yodgorliklarini** tashkil etish, muhofaza qilish va ulardan foydalinish uchun mablag`lar mazkur muhofaza etiladigan tabiiy hududlar qaysi mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat organlari tasarrufida bo`lsa, shu mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat organlari tomonidan ajratiladi.

Xususiy buyurtma qo`riqxonalar va tabiiy pitomniklar qaysi yuridik va jismoniy shaxslarning tasarrufida bo`lsa, shu yuridik va jismoniy shaxslarning mablag`lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga yetkazilgan zararning o`rnini qoplashga qaratilgan tushumlardan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ning rejimini buzganlik uchun undirilgan jarima pullaridan, fuqarolarning muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga kirib chiqishi va tabiiy resurslardan foydalinish uchun ruxsatnomalar berishdan tushgan mablag`lardan, rekreatsiya, turistik-ekskursiya yo`nalishidagi va boshqa faoliyatdan kelgan daromadlardan, yuridik va jismoniy shaxslarning xayriya yordamlaridan tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko`paytirish va tiklash uchun foydalilanildi.

Ilmiy tadqiqotlarni yo`lga qo`yish va o`tkazish uchun davlat qo`riqxonalar o`z ilmiy xodimlar shtati bilan ta'minlanadi.

Ilmiy tadqiqotlar, shuningdek, chet ilmiy tashkilotlarni va ayrim mutaxassislarini jalg etish yili bilan ham o`tkazilishi mumkin. Davlat qo`riqxonalarida olimlar kengashi (ilmiy kengash) tuziladi.

"Tabiat solnomasi" ni yuritish barcha davlat qo`riqxonalar uchun majburiydir. Davlat qo`riqxonalarining ilmiy saqlash muddati chegaralanmaydi. Davlat qo`riqxonalariga ilmiy asarlarni nashr etish huquqi beriladi.

Davlat qo`riqxonalarining ilmiy tadqiqotlarini O`zbekiston Respublikasining Fanlar akademiyasi muvofiqlashtirib boradi.

3) Tabiat bog`lari va ularning huquqiy tartibi

Alovida ekologik, madaniy va estetik qimmatga ega bo`lgan tabiiy obyektlar va majmualarni tabiatni muhofaza qilish yo`nalishidagi, rekreatsiya, ilmiy va madaniy maqsadlarda saqlab qolish hamda ulardan foydalinish uchun mo`ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tabiat bog`lari hisoblanadi.

Tabiat bog`lari maxsus vakolatlari davlat organining taqdimnomasiga binoan tegishinchcha O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari bilan davlat tabiatni

muhofaza qilish muassasasi shaklida tashkil etiladigan milliy tabiat bog`lari va mahalliy ahamiyatga molik tabiat bog`lariga bo`linadi.

Tabiat bog`lari bunday bog`lar to`g`risidagi, ular qaysi davlat organlarining tasarrufida bo`lsa, shu davlat organlari tomonidan tasdiqlanadigan nizomlar asosida faoliyat ko`rsatadi.

Tabiat bog`larining hududi tabiat bog`lariga toydalanishga berib qo`yiladigan yer uchastkalarida, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning tabiat bog`lari chegaralari doirasidagi yer uchastkalarida joylashadi.

Tabiat bog`lari tashkil etilayotganda ularning hududi zonalarga bo`linadi.

Tabiat bog`larining hududida qo`riqxonaga aylantirilgan zonalar, rekreatsiya, xo`jalik maqsadida va boshqa tarzda toydalanish zonalari ajratib qo`yiladi.

Aholini sog lomlashtirish uchun sharoit bo`lgan taqdirda tabiat bog`larda kurort tabiiy huduqlar uchun nazarda tutilgan rejimli kurort zonalari ajratib qo`yiladi.

Tabiat bog`lari zonalarining o`lchamlari va chegaralarini o`zgartirish, ular qaysi davlat organlarining tasarrufida bo`lsa, shu organlar tomonidan, davlat ekologiya eksperitizasi xulosasini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Tabiat bog`lari hududida zonalarga bo`linishga muvofiq tabaqalash-tirilgan rejim o`rnataladi.

Tabiat bog`larining qo`riqxonaga aylantirilgan zonalarida davlat qo`riqxonalari uchun nazarda tutilgan rejim o`rnataladi.

Tabiat bog`larining rekreatsiya zonalari tabiiy obyektlar va majmualarning holatiga qarab turli rejimli uchastkalarga bo`linishi mumkin.

Tabiat bog`larining xo`jalik maqsadida va boshqa tarzda foydalanish zonalarida aholining istiqomat qilishiga, yuridik va jismoniy shaxslarning tabiiy obyektlar va majmualarga zarar yetkazmaydigan faoliyatiga yo`l qo`yiladi.

Har bir zonaning rejimi tabiat bog`lari to`g`risidagi nizomlarda belgilanadi.

Tabiat bog`larining hududida quyidagilar taqiqlanadi:

daraxt va butalarni kesish (parvarishlash yo`sinidagi va sanitariya maqsadidagi kesish bundan mustasno);

gidrologik va gidrogeologik rejimi o`zgartiradigan harakatlar;

tuproq eroziyasini, o`simlik va hayvonot dunyosining tanazzulini keltirib chiqaruvchi harakatlar;

tabiat bog`larining faoliyati bilan bog`liq bo`lmagan yo`l va muhandislik-kommunikatsiya ishlarini amalga oshirish;

chiqindilarni saqlash va ko`mish, oqava suvlarni oqizish;

tirik organizmlarning yangi va kenja turlarini iqlimlashtirish maqsadida joylashtirish.

Tabiat bog`larida tabiiy obyektlar va majmualarga zarar yetkazishi mumkin bo`lgan faoliyatning boshqa turlari ham cheklanishi yoki taqiqlanishi mumkin.

Tabiat bog`larining faoliyat ko`rsatishi uchun yo`llar, boshqa kommunikatsiyalar va inshootlar qurilishi zarur bo`lgan hollarda buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish, barcha tabiatni muhofaza qilish yo`nali shidagi tadbirlarni amalga oshirish albatta nazarda tutiladi.

4) Davlat tabiat yodgorliklari

O`zbekiston Respublikasi Tabiatni Muhofaza qilish davlat qo`mitasi respublika hududida 400 dan ortiq tabiat yodgorligini hisobga olgan Bularidan atigi 80 ga yaqini jonsiz tabiat yodgorliklaridir. Jonsiz tabiat yodgorliklari orasida xilma xil karst relyefi shakllari, shu jumladan arxeologik ahamiyatga ega bo`lgan va ungurlar, shuningdek nodi buloqlar, sharsharalar, ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo`lgan qoyalar va geologik ochilmalarni muhofaza qilish muhim vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa yer osti landshaftlari, ularning betakror, sehrli va maftunkor manzaralari jiddiy Muhofazaga muhtojdir.

Shuning uchun ham, O`zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrda qabul qilingan "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to`g`risida" qonunida VI bo`lim, 26-modda aynan ana shu masala, ya`ni tabiat yodgorliklarining huquqiy-ekologik ahamiyati va ularni Muhofaza qilish masalasiga ba.

Zero, respublikamiz hududidagi tabiat, tarixiy va arxeologik yodgorliklar hozirgi paytda aynan Muhofaza qilinishga, tiklani**ü** (restavratsiya)ga juda muhtoj.

Noyob, o`rnini to`ldirib bo`lmaydigan, ekologik, ilmiy, madaniy va estetik jihatdan qimmatli tabiiy obyektlari bor muhofaza etiladigan tabiat hududlar davlat tabiat yodgorliklari hisoblanadi. Davlat tabiat yodgorliklari quyidagi turlarga bo`linadi:

tabiiy suv obyektlarini saqlab qolish uchun mo`ljallangan gidrologik (botqoq, ko`l, daryo va boshqa) yodgorliklar;

ayrim o`simliklarni saqlab qolish uchun mo`ljallangan botani yodgorliklar;

tabiat yaratgan relyef shakllarini saqlab qolish uchun mo`ljallangan geomorfologik yodgorliklar;

qazilma obyektlarni saqlab qolish uchun mo`ljallangan paleontologik yodgorliklar;

geologik va mineralogik hosilalarni saqlab qolish uchun mo`ljallangan geologik va mineralogik yodgorliklar.

Tabiiy obyektlar maxsus vakolatli davlat organining taqdimmomasi, shuningdek yuridik yoki jismoniy shaxslarning iltimosnomasi bo`yicha mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bilan davlat tabiat yodgorliklari deb e`lon qilinadi.

Tabiiy obyektlarni ular joylashgan yer uchastkalarini olib qo`ymagan holda davlat tabiat yodgorliklari deb e`lon qilishga yo`l qo`yiladi.

Davlat tabiat yodgorliklari hududida ularning asratishiga xavf soladigan har qanday faoliyat taqiqlanadi.

Davlat tabiat yodgorliklari qaysi yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalarida joylashgan bo`lsa, shu yuridik va jismoniy shaxslar zimmasiga bunday yodgorliklarning rejunini ta'minlash majburiyatları yuklafladi.

Diniy maqsadlarda foydalanitadigan davlat tabiat yodgorliklari diniy tashkilotlarga yoki jismoniy shaxslarga bunday yodgorliklarni obodonlash-tirish va asrash ishlarini amalga oshirish sharti bilan foydalanishga yoki ijaraga berilishi mumkin.

5) Ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko`paytirish va tiklash uchun mo`ljallangan hududlar.

O`zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrda qabul qilingan "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to`g`risida"gi qonunida mazkur masalaga alohida c`tibor berilib, qonunning VII bo`lim, 29 – 34-moddalari aynan shu masalalarni o`z ichiga olgan.

Ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko`paytirish va tiklash uchun mo`ljallangan hududlar buyurtma qo`riqxonalar, tabiiy pitomniklar va baliq xo`jaligi zonalari tariqasida tashkil etiladi.

Ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko`paytirish va tiklash uchun mo`ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar *buyurtma qo`riqxonalar* hisobtanadi.

Buyurtma qo`riqxonalar quyidagi turlarga bo`linadi:

o`simliklar va hayvonlarning qimmatli, noyob va yo`qolib ketish xavfi ostida turgan turlarini, turk organizmlarning ko`chib o`tish yo`llarini

saqlab qolish, takror ko`paytirish va tiklash uchun mo`ljallangan biologik (botanik, zoologik) buyurtma qo`riqxonalar;

ayrim qazilma obyektlar va ularning majmualarini saqlab qolish uchun mo`ljallangan paleontologik buyurtma qo`riqxonalar;

qimmatli suv obyektlarini saqlab qolish uchun mo`ljallangan gidrologik (hotqoq, ko`l, daryo) buyurtma qo`riqxonalar;

nodir geologik va mineralogik hosilalarni saqlab qolish uchun mo`ljallangan geologik va mineralogik buyurtma qo`riqxonalar.

Buyurtma qo`riqxonalar umum davlat yoki mahalliy ahamiyatga molik bo`lishi mumkin.

Umum davlat ahamiyatiga molik buyurtma qo`riqxonalar maxsus vakolath davlat organining taqdimnomasi, shuningdek yuridik yoki jismoniy shaxslarning iltimosnomasiga binoan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil etiladi.

Mahalliy ahamiyatga molik buyurtma qo`riqxonalar maxsus vakolath davlat organining taqdimnomasi, shuningdek yuridik yoki jismoniy shaxslarning iltimosnomasiga binoan mahalliy davlat hokimiyati organlarinin qarorlari bilan tashkil etiladi.

Buyurtma qo`riqxonalar faoliyat muddatlari ko`rsatilmagan holda (muddatsiz) yoki kamida o`n yil muddatga tashkil etiladi.

Buyurtma qo`riqxonalar davlatga qarashli yoki xususiy bo`lishi yuridik shaxs tashkil etgan holda yoki yuridik shaxs tashkil etmagan holda bo`lishi mumkin.

Xususiy buyurtma qo`riqxonalarini va yuridik shaxs tashkil etgan holdagi davlat buyurtma qo`riqxonalarini tashkil etish uchun yer uchastkalari va ayrim tabiiy obyektlar belgilangan tartibda beritadi.

Buyurtma qo`riqxonalarning hududida, majmua (landshaft) buyurtma qo`riqxonalarini istisno etganda, ayrim tabiiy obyektlar va majmualarga zarar yetkazishi mungkin bo`lgan har qanday faoliyat doimiy ravishda yoki vaqtincha cheklanadi yoki tugatiladi.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi davlat buyurtma qo`riqxonalarini joylashgan hududlar yer egalarining, yerdan foydalanuvchilarining, shuningdek yer uchastkalari ijrarachilari va mulkdorlarining xo`jalik maqsadidagi foydalanishidan olib qo`yilmaydi. Mazkur buyurtma qo`riqxonalar qaysi yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalarida va (yoki) akvatoriya uchastkalarida tashkil etilgan bo`lsa, shu yuridik va jismoniy shaxslar buyurtma qo`riqxonalarning belgilangan rejimiga rioya etishlari shart.

Har bir buyurtma qo`riqxona rejimining xususiyatlari, mazkur buyurtma qo`riqxona qaysi davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tasarrufida bo`lsa, shu davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tasdiqlanadigan nizomda belgilanadi.

O`simliklar va hayvonlarning ayrim turlariga zarur sharoit yaratish yo`li bilan ularni saqlab qolish, takror ko`paytirish va tiklash uchun mo`ljallangan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar *tabiiy pitomniklar* hisoblanadi.

Tabiiy pitomniklar yuridik yoki jismoniy shaxslarning iltimosnomasiga binoan mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bilan tashkil etiladi.

Tabiiy pitomniklar davlatga qarashli yoki xususiy, yuridik shaxs tashkil etgan holda yoki yuridik shaxs tashkil etmagan holda bo`lishi mumkin.

Xususiy tabiiy pitomniklarni va yuridik shaxs tashkil etgan holdagi davlat tabiiy pitomniklarini tashkil qilish uchun yer uchastkalari va ayrim tabiiy obyektilar belgilangan tartibda beriladi.

Tabiiy pitomnik qaysi o`simliklar va hayvonlar uchun mo`ljallangan bo`lsa, shu pitomnikning hududida shu o`simliklar va hayvonlarning saqlab qolinishi, takror ko`paytirilishi va tiklanishiga xavf soladigan har qanday faoliyat taqiqlanadi.

Suv obyektlarini yoki ularning qismilarini o`z ichiga oladigan, noyob va yo`qolib ketish xavfi ostida turgan baliqlar va boshqa suv organizmlari turlarini saqlab qolish, takror ko`paytirish va tiklash uchun, shuningdek baliq xo`jaligi ehtiyojlari uchun foydalaniladigan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar *baliq xo`jaligi zonaları* hisoblanadi.

Baliq xo`jaligi zonaları tabiatni muhofaza qilish, qishloq va suv xo`jaligi organlarining taqdimnomasiga binoan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil etiladi.

Baliq xo`jaligi zonalarida baliqlar va boshqa suv organizmlarining saqlab qolinishi, takror ko`paytirilishi va tiklanishiga xavf soladigan har qanday faoliyat taqiqlanadi.

6) Muhofaza etiladigan landshaftlar

O`zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrda qabul qilingan "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to`g`risida"gi qonunida mazkur masalaga alohida e'tibor berilib, qonunning VIII bo`lim, 35–41-moddalari aynan shu masalalarni o`z ichiga olgan.

Kurort tabiiy hududlar, rekreatsiya zonalari, suvni muhofaza qilish zonalari, sohilbo`yi mintaqalari, suv obyektlarining sanitariya muhofazasi zonalari, yer usti va yer osti suvlarining hosil bo`lish zonalari muhofaza etiladigan landshaftlar jumlasiga kiradi.

Davolash va sog`lomlashdirish xossalari, mineral manbalarga, shifobaxsh balchiq qatlamlariga, qulay iqlim va boshqa sharoitlarga ega, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar *kurort tabiiy hududlar* hisoblanadi.

Kurort tabiiy hududlar umum davlat va mahalliy ahamiyatiga molik bo`lishi mumkin.

Umum davlat ahamiyatiga molik kurort tabiiy hududlar O`zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi va O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni saqlash vazirligining birgalikdagi taqdimnomasiga binoan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil etiladi.

Mahalliy ahamiyatiga molik kurort tabiiy hududlar O`zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi va O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni saqlash vazirligining birgalikdagi taqdimnomasiga binoan mahalliy davlat hokimiyyati organlarining qarorlari bilan tashkil etiladi.

Kurort tabiiy hududlar uchta zonaga bo`linadi.

Birinchi zonaga davolash xossalari ega manbalar, shifobaxsh balchiq qatlamlari bor hududlar kiradi. Bunday zonada har qanday faoliyat taqiqlanadi, davolash xossalari ega manbalar va balchiq bilan davolash shifoxonalarini obodonlashtirish uchun zarur inshootlar qurish bundan mustasno.

Ikkinchi zonaga sanatoriylar, pansionatlar va dam olish uylarining hududlari kiradi. Bu zonada davolash va dam olishni tashkil etish uchun zarur bo`lgan faoliyatni istisno etganda har qanday faoliyat, shuningdek bu hududda vaqtincha istiqomat qiladigan tibbiyot xodimlari va xizmat ko`rsatuvchi xodiimlardan tashqari boshqa aholining yashashi taqiqlanadi.

Uchinchi zonaga sanatoriylar, pansionatlar va dam olish uylariga tutash hududlar kiradi. Bu zonada davolash manbalariga, shifobaxsh balchiq qatlamlariga zarar yetkazmaydigan va dam olish hamda davolanish sharoitlarini yomonlashtirmaydigan cheklangan xo`jalik faoliyati yuritishga ruxsat etiladi.

Kurort tabiiy hududlar doirasida quyidagilar taqiqlanadi:

soydali qazilmalarni qazib olish, mineral suvlar va shifobaxsh balchiq qazib olish bundan mustasno;

kimyo, selluloza-qog`oz va metallurgiya sanoati korxonalarining faoliyati;

daraxt va butalarni kesish (parvarishlash yo'sinidagi va sanitariya maqsadidagi kesish bundan mustasno);

zaharli kimyoviy moddalarini qo'llanish;

harom o'lgan chorva mollar ko'miladigan joylarni tashkil etish;

zaharli kimyoviy moddalar va mineral o'g'itlar omborlarini qurish;

chiqindilarni saqlash va ko'mish;

joyning gidrologik rejimini o'zgartirish.

Turizm va ahолining ommaviy dam olishini tashkil etish uchun qulay jug' rofiy va iqlim sharoitlariga ega, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar *rekreatsiya zonalari* hisoblanadi.

Rekreatsiya zonalari O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining birgalikdagi taqdimnemasiga binoan mahalliy davlat hokimiyyati organlari-ning qarorlari bilan tashkil etiladi.

Rekreatsiya zonalari tabiiy obyektlar va majmualarning holatiga qarab turli rejimga ega uchastkalarga bo'linishi mumkin.

Rekreatsiya zonalarda quyidagilar taqiqlanadi:

kimyo, selluloza qog'oz va metallurgiya sanoati korxonalarining faoliyati;

daraxt va butalarni kesish (parvarishlash yo'sinidagi va sanitariya maqsadidagi kesish bundan mustasno);

zaharli kimyoviy moddalarini qo'llanish;

harom o'lgan chorva mollar ko'miladigan joylarni tashkil etish;

chiqindilarni saqlash va ko'mish;

joyning gidrologik rejimini o'zgartirish.

Daryolarning, ko'llarning, suv omborlarining, kanallarning, kollektorlar hamda boshqa suv obyektlarining o'zanlariga tutash muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ~~muhofaza qilish zonalari~~ hisoblanadi. Bu zonalar ifloslanish, bulganish, sayozlanishning hamda suv obyektlari tuproq eroziyasi mahsullari bo'l mish loyqa bilan to'lib qolishining oldini olish maqsadida, shuningdek eng maqbul suv rejimini saqlab turish uchun tashkil etiladi.

Qattiq rejimga asoslangan suvni muhofaza qilish zonalari doirasidagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sohilbo'yini mintaqalari hisoblanadi.

Ichimlik, maishiy va davolash-sog'lomlashtirish ehtiyojlari uchun foydalilanidigan suv obyektlariga tutash, qattiq rejim asosidagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar suv obyektlarining sanitariya muhofazasi zonalari hisoblanadi.

Daryolarning vohalarida, yoyilma konuslarda, tog` yonbag` irlatinining etaklarida tashkil qilinadigan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yer usti va yer osti suvlarining hosil bo`lish zonalari hisoblanadi.

Suvni muhofaza qilish zonalari, sohilbo`yi mintaqalari, suv obyektlarining sanitariya muhofazasi zonalari hamda yer usti va yer osti suvlarining hosil bo`lish zonalari tegishinchada tabiatni muhofaza qilish, qishloq va suv xo`jaligi, sanitariya nazorati organlarining, geologiya tashkilotlari ning taqdimnomasiga binoan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahka masining va mahalliy davlat hokimiyati organlarining qatorlari bilan tashkil etiladi.

Suvni muhofaza qilish zonalari doirasida cheklangan xo`jalik faoliyati yuritishga yo`l qo`yiladi. Bunday zonalarda quyidagilar taqiqlanadi:

daraxt va butalarni kesish (parvarishlash yo`snidagi va sanitariya maqsadidagi kesish bundan mustasno);

zaharli kimyoviy moddalarini qo`llanish;

zaharli kimyoviy moddalar va mineral o`g`itlar omborlarini qurish;

harom o`lgan chorva mollari ko`miladigan joylarni tashkil etish;

chiqindilarni saqlash va ko`mish,

kanalizatsiya-tozalash inshootlari va oqava suvlar to`planadigan inshootlar qurish;

chorvachilik va partandachilik majmularini joylashtirish, shuning dek sug`orish uchun "sharbat" (suyuq go`ng) ishlatalish;

avtomobil transportini qo`yib turish, ularga yonilg`i quyish, ularni yuvish va ta'mirlash joylarini tashkil etish;

nest mahsulotlari omborlarini tashkil etish;

zig ir, kanop va teri yuvish.

Sohilbo`yi mintaqalarda ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan cheklashlar va taqiqlardan tashqari quyidagilar taqiqlanadi:

mineral va organik o`g`itlarni qo`llanish;

chorva mollarni o`tlatalish;

har qanday turdagilari qurilish, suv xo`jaligi obyektlarini qurish bundan mustasno;

belgilanmagan joylarda qayiqlar bog`lab qo`yiladigan joylar tashkil etish.

Suv obyektlarining sanitariya muhofazasi zonalari turli rejimni muhofaza mintaqalariga bo`linadi.

Daryo o`zanlarini o`zgartirish, foydali qazilmalar qazib olish va suv obyektlari holatiga ta'sir qiladigan boshqa ishlarni bajarishga faqat tabiatni

muhofaza qilish, qishloq va suv xo`jaligi organlarining, shuningdek geologiya tashkilotlarining ruxsatnomasi bilan yo`l qo`yiladi.

Aholi punktlari hududida xo`jaliklararo yer tuzish va rejalashtirish o`tkazilayotganda suvni muhofaza qilish zonalarining, sohilbo`yi mintaqalarining va suv obyektlari sanitariya muhofazasi zonalarining chegaralarini o`zgartirish tabiatni muhofaza qilish, qishloq va suv xo`jaligi organlari hamda sanitariya nazorati organlari bilan kelishib olinishi lozim.

Suvni muhofaza qilish zonalari va sohilbo`yi mintaqalari rejimi yer usti va yer osti suvlarining hosil bo`lish zonalariga ham tatbiq etiladi.

Suvni muhofaza qilish zonalari, sohilbo`yi mintaqalari, suv obyektlarining sanitariya muhofazasi zonalarini hamda yer usti va yer osti suvlarining hosil bo`lish zonalarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish tartibi hamda shartlari O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

7) Ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo`ljallangan hududlar

O`zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrda qabul qilingan "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to`g`risida"gi qonunida mazkur masalaga alohida e'tibor berilib, qonunning IX bo`lim, 42-43-moddalari aynan shu masalalarni o`z ichiga olgan.

O`rmon fondining eroziyaga qarshi barpo etilgan o`rmonlar, shahar o`rmonlari, shaharlarning, boshqa aholi punktlari va sanoat markazlarining yashil mintaqalari atrofidagi o`rmonlar, alohida qimmatli o`rmonlar, yong`oqzorlar, mevali daraxtzorlar, ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga molik o`rmonlar egallagan yerlari, shuningdek ovchilik xo`jaliklarining o`simlik va hayvonot dunyosidan oqilona foydalanish uchun mo`ljallangan yer uchastkalari ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo`ljallangan hududlar jumlasiga kiradi.

Ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo`ljallangan hududlarda tirik organizmlarning yangi va kenja turlarini iqlimlashtirish maqsadida joylashtirish hamda o`simlik va hayvonot dunyosiga zarar yetkazishi mumkin bo`lgan boshqa faoliyat taqiqilanadi.

Ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo`ljallangan hududlarda o`simlik va hayvonot dunyosidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda foydalanishga yo`l qo`yiladi.

Shuningdek, hududlarni barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish maqsadida *davlat biosfera rezervatlari* - biologik rang baranglikni saqlash, tabiiy obyektlar va majmualardan oqilona foydalanish uchun

mo`ljallangan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etilishi mumkin. Davlat biosfera rezervatlari xalqaro biosfera rezervatlari tarmog`iga qo`shilishi va atrof tabiiy muhitning global monitoringida ishtirok etishi mumkin.

Davlat biosfera rezervatlari O`zbekiston Respublikasi Vazirlari Mahkamasining qarori bilan tashkil etiladi.

Davlat biosfera rezervatlarining hududlari davlat biosfera rezervatlariga foydalanishga beriladigan yer uchastkalarida, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning davlat biosfera rezervatlari chegaralari doirasidagi yer uchastkalarida joylashadi.

Davlat biosfera rezervatlari hududida quyidagilar ajratib qo`yiladi:

tabiiy obyektlar va majmualarni asl holatida saqlab qolish uchun mo`ljallangan, davlat qo`riqxonalari uchun nazarda tutilgan rejimi qo`riqxonaga aylantirilgan zona;

tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko`paytirish va tiklash uchun mo`ljallangan, qo`riqxonaga aylantirilgan zonaga salbiy ta'sir ko`rsatishi mumkin bo`lgan har qanday faoliyat taqiqlanadigan oraliq zona;

davlat biosfera rezervatlarining tabiiy obyektlari va majmualariga zarar yetkazmaydigan xo`jalik maqsadidagi va boshqa tarzdagagi faoliyatni amalga oshirish uchun mo`ljallangan zona.

Davlat biosfera rezervatlarining rejimi bunday rezervatlari to`g`risidagi, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan nizomlar bilan belgilanadi.

Bundan tashqari, ikki va undan ortiq davlat hududida joylashgan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar *davlatlararo muhofaza etiladigan tabiiy hududlar* hisoblanadi.

Davlatlararo muhofaza etiladigan tabiiy hududlar O`zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida tashkil etilishi mumkin. Davlatlararo muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rejimi O`zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq belgilanadi.

Davlat qo`riqxonalari, buyurtma qo`riqxonalari va davlat tabiat yodgorliklari bilan chegaradosh hududlar *qo`riqlanma zonalar* hisoblanadi. Qo`riqlanma zonalarda ana shu muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga salbiy ta'sirning oldini olish uchun xo`jalik maqsadidagi va boshqa tarzdagagi faoliyat cheklanadi yoki taqiqlanadi.

Qo`riqlanma zonaлarning o`lchamlari va rejimi, shuningdek yer uchastkalarini saqlash vazifasi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish bilan bir vaqtда belgilanadi.

Davlat qo`riqxonasi qo`riqlanma zonasining bir qismi ekologik turizmni tashkil etish, mazkur hudud uchun xos bo`lgan noyob hamda yo`qolib ketish xavfi ostida turgan o`simliklar va hayvonlarning turlarini ko`paytirish maqsadida tabiiy pitomniklar barpo etish uchun hamda qo`riqxonaning boshqa ehtiyojlari uchun shu qo`riqxonaning o`ziga topshirilishi mumkin.

3. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

O`zbekiston Respublikasi qonunlarida alohida Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi

qonunlarni o`zgacha tarzda buzganlik uchun ham javobgarlik belgilanishi mumkin.

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, o`zga yuridik va jismoniy shaxslar alohida Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ish tartibini buzish orqali yetkazgan zararlarning o`rnini qonunlarda belgilangan hajmda va tartibda qoplashga majburdirlar.

Umuman olganda, "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida "gi qonun va talablarni buzganlik uchun intizomiy, mulkiy (fuqarolik), ma'muriy va jinoiy javobgarliklar qo'llaniladi.

Intizomiy javobgarlik – deyarli ko`proq holatda mehnat intizomini buzish oqibatida "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi "gi qonun va talablar buzilgan paytda qo'llanishi mumkin.

Shuning uchun ham u asosan, O`zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 181-moddasiga binoan:

1) xayfsan;

2) o`rtacha oylik ish shaqining o`ttiz foizidan ortiq bo`lmagan miqdorda jarima.

Ichki mehnat tartibi qoidalarida xodimga o`rtacha oylik ish haqining qirq foizidan ortiq bo`lmagan miqdorda jarima solish hollari ham nazarda tutihshi mumkin. Xodimning ish haqidani jarima ushlab qolish ushbu Kodeksning 164-moddasi talablariga rioya qilingan holda ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladi;

3) mehnat shartnomasini bekor qilish (100-modda ikkinchi qismining 3 va 4 bandlari).

Ushbu moddada nazarda tutilmagan intizomiy jazo choralarini qo'llash taqiqlanadi.

Mulkiy (fuqarolik) javobgarlik esa " Muhofaza etiladigan tabuy hududlar to'g'risida"gi qonun va talablarni buzganlik uchun qo'llaniladi.

Uning asosiy xususiyati ham shundaki u asosan, yetkazilgan zararni qoplash, tiklash va qaytarish bilan ko'proq bog'hqdir.

Ya'ni yuqorida nomi zikr etilgan qonunning 38-moddasiga asosan:

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning holatiga zararli ta'su o'tkazayotgan korxonalar, tashkilotlar, sexlar, qurilmalarning faoliyat zararli ta'sir ko'rsatayotgan manbalar, shu jumladan alohida Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar hamda ularning Muhofaza qo'riqlanma tegralari tashqarisidagi manbalar bartaraf etilgunga qadar to'xtatib turiladi yoki cheklab qo'yiladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga yetkazilayotgan zararni bartaraf etishning imkonini bo'rnasa, korxona, tashkilot, sex va qurilmalar ning faoliyati to'xtatiladi hamda ularning faoliyat yo'naliishi o'zgartirilgandan va alohida Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga zararli ta'sin albatta bartaraf qilinganidan keyingina faoliyatları amaldagi qonunlarga muvofiq qayta tiklanishi mumkin.

Ma'muriy javobgarlik. Ushbu javobgarlik turn O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida "gi Kodeksning 82-moddasiga ko'ra alohida Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tartibini buzganlik uchun qo'llaniladi.

Davlat milliy tabiat boyliklari, buyurtma qo'riqhonaları, tabiat yodgorliklari, suvni Muhofaza qilish tegralari, kurort tabiiy hududlari botanika bog'lari, dendrologiya va hayvonot bog'lari, qo'riqlanma (oraliq) tegralari, o'rmonlarning taqiqlangan mintaqalari, baliq xo'jaligi tegralari va alohida Muhofaza etiladigan o'zga hududlar tartibini buzish-

fuqarolarga eng kam ish haqining uchdan bir qismidan bir baravan gacha, mansabdar shaxslarga esa - bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismlarida nazarda tutilem huquqbazarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir davomida takror sodir etilgan bo'lsa, -

fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravan gacha, mansabdar shaxslarga esa - besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Jinoiy javobgarlik. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun va talablarni buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Ushbu javobgarlik turini qo'llanilishi xususiyati shundan iboratki, u boshqa javobgarlik turlaridan ko'ra xavfli va og'irroq holatda sodir etilishidir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 204-moddasiga asosan:

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning tartibini buzish ko'p miqdorda zarar yetkazilishi yoki boshqacha oqibatlarga sabab bo'lsa, -

eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hudud yoki obyektlarni qasddan nobud qilish yoki ularga shikast yetkazish ko'p miqdorda zarar yetkazilishi yoxud boshqacha oqibatlarga sabab bo'lsa, -

eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazoланади.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinniki, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ish tartibini ta'min etish masalalariga doir korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fuqarolar, davlat idoralari o'rtasidagi nizolar sud yoki xo'jalik sudi tomonidan qarab chiqiladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlardagi tabiiy zaxiralardan foydalanish va ularni Muhofaza qilish masalalariga doir nizolar yer, suv, o'rmon to'g'risidagi qonunlarda, yer osti boyliklari to'g'risidagi, atmosfera havosini Muhofaza qilish to'g'risidagi, hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilishi qonunlarda belgilangan tartibda hal etiladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga doir munosabatlar bilan bog'liq mulkiy nizolar qonunlarda belgilangan tartibda sud yoki xo'jalik sudi tomonidan hal etiladi.

XVIII BOB. ANTROPOGEN O`ZGARGAN HUDUDLARNI EKOLOGIK-HUQUQIY MUHOFAZA QILISH

1. Antropogen o`zgargan tabiiy muhitni ekologik-huquqiy mubofaza qilish tushunchasi, asosiy turlari va xususiyatlari

Ko`pgina yuridik adabiyotlarda mutaxassislar ekologiya huquqinine obyektini – tabiiy obyektlar, tabiiy resurslar va tabiiy komplekslarga yoki integrallashgan, differensiatsiyalashgan (tabaqalashgan) va alohida muhofaza etiladigan hamda xalq xo`jaligi bo`yicha tarmoqlashgan obyektlarga ajratadilar. Lekin ushbu mualliflarning o`zlari ekologiya huquqinine obyekti bo`lishi uchun atrof tabiiy muhit elementi, avvalambor, tabiiy kelib chiqqan, ekologik tizimning tarkibiga kirgan, insonlarning iqtisodiy, eko-logik, madaniy, ijtimoiy, siyosiy talablarini qondira oladigan va yashash muhiti sisatini ta'minlab bera oladigan bo`lishi kerak, deb to`g`ri ta'rif berganlar. Albatta, ushbu tabiiy obyektlarni amaldagi qonunlar bilan tartibga solish imkoniyatiga ega bo`lishi zarur.

Ekologiya huquqi obyektlariga nisbatan berilgan bunday yuridik ta'rif bizni ham qoniqtiradi. Lekin, bu tushunchadan kelib chiqqan holda tabiatni muhofaza qilish va ularni huquqiy boshqarish tizimini xalq xo`jaligi sohalari bo`yicha ishlab chiqish, tabiat qonuniyatlariga, ya`ni ekologik tizimlarning «komplekslilik» xususiyatiga mos tushmay qoladi. Undan tashqari, sanoat, transport, energetika va boshqa xalq xo`jaligi tarmoqlari ekologik qonunlar obyekti emas, balki ekologik nazorat va ekspertiza obyekti bo`lib qolishi munosabat, xolos. Shuning uchun ham eko-logik qonunlar, an'anaga ko`ra, aniq bir ekologiya huquqining obyektlari yoki ularning komplekslari bo`yicha ishlab chiqiladi va jamiyatdagi ekologik munosabatlardan shu obyektlar bo`yicha tartibga solinadi.

I bobda ta'riflangan tabiat va jamiyat qonuniyatlarini uyg`unlashтириш талабларини инобатга олиб, биз Экологија huquqining alohida tartibga solinishi kerak bo`lgan obyektlaridan biri qilib antropogen o`zgargan atrof tabiiy muhitni olamiz.

Antropogen o`zgargan tabiiy muhit – kishilarning xo`jalik faoliyat jarayonida ma'lum bir hudud, tegra yoki zonalarda tubdan o`zgargan atrof tabiiy muhit holati. O zbekiston uchun bu hudud yoki zonalarni keltirib chiqaruvchi va ularga ta'sir etuvchi omillar majmuasiga qarab – shahar sanoat va agrar (qishloq xo`jaligi) tegralariga ajratib olsak bo`ladi. Bu

Ерофеев В.В. Экологическое право России. М.: Юристъ, 1996. -С. 624.

Пейров В.Н. Экологическое право России. М.: Наука, 1997. -557 с.

Абдуллаев А.А. Экологија huquq. Dijitaliy huquq duniysi. 1999. -444 bet

hudud, tegra yoki zonalarda tabiat elementlari (yer, suv, atmosfera havosi, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosining) son va sifat ko'rsatkichlari, morfologik (tashqi) va morfometrik (o'lchamlari) belgilari o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Masalan, atropogen o'zgargan tabiiy hududlarda atmosfera havosi boshqa kam ta'sirlangan atrof tabiiy muhitga nisbatan 10–15 barobar ko'proq ifloslangan bo'ladi. Sanoat tegralarida havo tarkibida zaharli is gazi (CO_2)ning ko'payishi asosan metallurgiya (30–40%) va kimyo sanoati (15–20%), transport (10–15%) ta'sirida yuzaga kelsa, shaharlarda esa is gazi asosan transport (60–80%), og'ir sanoat (15–20%), kimyo sanoati (5–10%) ta'sirida yuzaga keladi. Agrar tegralarda tuproqlarning morfologik (ko'zga tashlanadigan tashqi) ko'rinishi 1–1,5 metr chiqurlikkacha tuhdan o'zgargan va yangi tip hosil qilgan bo'ladi. Qishloq joylarda tuproqlar pestitsid, gerbitsid, mineral o'g'itlar shaharlarda maishiy axlat; sanoat tegralari sanoat chiqindilari hisobiga ifloslanadi. Sanoat tegralari toifasiga kiruvchi atom elektrostansiyalari atrofidagi suv, tuproq va atmosfera havosida radioaktiv elementlar miqdori shaharlarga nisbatan bir necha o'n barobar ko'p bo'ladi, lekin is gazining miqdori elektrostansiya atrofida agrar tegralarga tenglashgan, shaharlarga nisbatan esa bit necha o'nlab barobari kam bo'ladi.

Shunday qilib, antropogen o'zgargan muhitlarda ekologik holat o'ziga xos bo'lgani uchun ham ularda ekologik-huquqiy muhotazalash choralarini turlicha bo'lishni talab etadi. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish normalari har bir antropogen hudud bo'yicha alohida shakllanishi va xo'jalik yuritishning ekologik talablari differensial (tabaqalashgan) tarzda amalga oshirishni taqozo qiladi. Chunki shaharlarda is gazining miqdori atmosfera havosida yuqori darajada bo'lgani uchun ham avtomobillardan chiqayotgan tutun tarkibida CO_2 ning ruxsat etilgan miqdori 1,5 emas, balki undan ham kamroq bo'lishi, cho'l yoki tog li mintaqalarda esa CO_2 2,0 yoki undan ortiq bo'lishigacha ruxsat etiladi. Ekologik nhatdan nobop shaharlarda avtomashinalardan chiqayotgan tutuni nafaqat CO_2 ko'rsatkichi bo'yicha, balki SN va NO ko'rsatkichlari bo'yicha ham olish xalqaro ekologik talablar darajasida bo'lur edi.

Shaharlarning katta-kichikligi, ifloslangantlik darajasi, iqlim sharoitlariga qarab kishi boshiga to'g'ri keladigan yashil maydon yuzasi, shahar sozlikning ekologik talablariiga binoan 5–10 m² dan to 25–30 m² gacha oshirish – issiq iqlimli O'zbekiston sharoitida insonlami qulay atrof-

muhitda yashash huquqini ta'minlab berishga o'z hissa-sini qo'shadi, de'l o'laymiz.

2. Shaharlarda atrof tabiiy muhitni ekologik-huquqiy muhofazalash

Insoniyat ilmiy-texnik inqilobining oqibatlardan bu: urbanizatsiyadir (lotin tilida urbanus - shaharlik), ya'n'i sanoat va aholining shaharlarda mujassamlasha borishi. Ayniqsa, bu jarayon iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lib, ularda aholining 70-80 foizi shaharlarda istiqomat qiladi. Natijada, ularda atrof tabiiy muhitga bo'lgan antropogen bosim boshqa hududlarga nisbatan bir necha bor yuqoridir.

Shaharlarda atrof tabiiy muhitning antropogen o'zgarganlik darajasi, avvalambor, uning katta yoki kichikligiga, sanoatlashganligi va ularning faoliyat yo`nalishlariga, maishiy xizmat ko`rsatish darajasiga va transport tarmoqlarining infrastrukturasiga bog`liq.

Yer kurtasida 170 dan oshiq millioner (aholisi 1 mln kishidan ortiq bo'lgan) shahrlar mavjud. Abolishunoslik fanining qoidalariga binoan katta shaharlarga aholisi 0,5 mln dan oshiq bo'lgan aholi punktilari kirishini inobatga oladigan bo`lsak, yirik shaharlarning soni 2-3 barobarg'a oshib ketadi. Undan tashqari, katta shahrlar biron bir hududda o'zaro qo'shilib ketadigan bo`lsa megapolis (grechkada megas - katta, polis - shahar)larni hosil qiladi. Masalan, Nyu-York megopolisida 17 mln kishu Mexiko, Tokio, Moskva, Qohira kabi megopolislarda ham shunga yaqin aholi istiqomat qiladi. O'zbekistonning Toshkent va uning atrofidagi shaharlarda 3 mln ga yaqin aholi yashaydi. Shahrlar soni bizda 60 yil ichida 120 taga ko'paygan va ularda aholining 30% dan ortig'i istiqomat qiladi.

Aholining shaharlarda kompakt holda yashashi sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir qilishi bilan bir qatorda atrof tabiiy muhitning ekologik xavfsizlik darajasiga salbiy ta'sir ko`rsatmoqda. Shaharlarda tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi, suv va yer osti boyliklaridan soy dalanish o'ta yuqori darajada bo'lgani uchun ham ularda tabiiy obyektlari ning holati to`lig`icha antropogen o'zgargan ko`rinishdadir. Ularda tabiiy jarayonlar kishilarning xo'jalik faoliyati bilan uzviy bog`langandir.

Ekologik tizimlarda nafaqat biologik yoki kimyo, balki fizik o'zgarishlar (elektromagnit maydon tebranishlari) ham o'ta kuchaygan ravishda namoyon bo`ladi.

Ilmiy tadqiqot natijalariga ko`ra shaharlarda quyosh radiatsiyasi 1 gacha kamroq yer yuzasiga yetib keladi. Yomig`ir, do'l va qorlar 10-

gacha ko`proq yog`adi, tuman 30–100% gacha ko`proq tushadi. Kasalliklar, ayniqsa, yuqumlilari, shaharlarda boshqa hududlarga nisbatan bir necha barobar ko`p ro`yxatga olingandir. Shaharlarda atmosfera havosining keskin yomonlashuvi tufayli aholi o`pka raki kasalliklari bilan qishloqdagilarga nisbatan 40 baravargacha, yuqumli kasalliklar bilan esa 2 baravargacha ko`proq xastalanadilar. Shahardagi shovqin shaharliklarda asab kasalliklarini qishloq aholisiga nisbatan 75% gacha ko`paytirib yuborgan. N.K. Ko`milonaning ma'lumotlariga ko`ra Buxoro viloyati shaharlarida aholining qon va qon tomir, psixik buzilish, nerv tizimi va nafas olish yo'llari xastaliklari qishloq joylardagi aholiga nisbatan 10–15% ga yuqoridir.

Shaharlarda aholining konsentratsiyalashuvi va ayniqsa, yuqori malakali ishchi kuchining ko`pligi u yerda sanoatning barcha turlarining rivojlanishiga sabab bo`ladi. AQSHning Tabiatni muhofaza qilish agentligi shaharlarda sanoat tarmoqlarini ekologik xavfsizlik darajasi bo`yicha 2 turga ajratadi: birinchi turga – atmosfera havosiga yiliga 100 tonnadan ortiq hajmda chiqitlarni chiqaruvchi korxonalar; tog`-kon boyutish kombinatlari, ko`m boyitish fabrikalari, koks zavodlari, qo`ng`ir ko`m ishlab chiqaruvchi zavodlar, nest mahsulotlarini saqlash va tashish (hajmi 47,7 mln. litrdan ko`p bo`lsa), kimyo, metallurgiya, mis va alyumin zavodlari, qo`rg`oshin, sink va qog`ozselluloza kombinatlari; ikkinchi turga – ko`proq suvlarni iflosantiruvchi korxonalar yog`ochni qayta ishlash, qog`oz va selluloza kombinatlari, tekstil, teri oshlash va neorganik (bo`yoq, siyoh, mineral o`g`it) va organik kimyo mahsulotlari (plastmassa, sun`iy materiallar, yog`-sovun, pestitsid, gerbitsid) ishlab chiqaruvchi korxonalar, farmasevtika, rezina, nestni qayta ishlash, oziq-ovqat mahsulotlari, quolibshilik materiallari, mashinasozlik va metallurgiya sanoati tarmoqlari korxonalari kiradi.

Shaharlarda atrof-muhit holatiga sezilarli ravishda ta'sir qiluvchi omillardan biri - maishiy kommunal xizmat xo'jaligi. Uning atrof-muhitga ekologik ta'siri shanarlarning kanalizatsiya va suv ta'minoti, isitishning markazlashganlik darajasiga to'g'ri proporsionaldir. Markazlashgan kommunal xizmat tarmoqlarining yo'qligi tabiiy obyektlarning ifloslanishiga va oqibatda, sanitarn-epidemiologik holatning kuchayishiga sabab bo'ladi. Maishiy kommunal xizmatning yana bir ekologik ko'rsatkichi qattiq turdagi axlatlarni yig'ish va ularni utillashtirish masalasining yechilganligidadir. O'zbekiston bo'yicha yiliga 30 mln m^3 maishiy chiqitlar chiqadi va

ular shahar atrofidagi rezervuarlarga tashlanadi. Lekin bu chiqitlarning 1/10 qismi shaharlarda qolib ketmoqda. Maishiy chiqitlarni ajratish, kavlash, qayta ishslash va ularni huquqiy tartibga solish hanuzgacha yo`lga qo`yilmagan muammolardan biridir. Bu masalani ijobjiy hal qilishda Toshkent shahar Yunusobod tumani hokimligi tomonidan olib borilayotgan – maishiy axlatlarni yig`ish shaxobehalarini tashkil qilish va ularni navlarga ajratish bo`yicha chora-tadbirlar maqtovga sazovordir.

Shaharlarda atrof tabiiy muhitga ta'sir ko`rsatish bo`yicha transport sohasi asosiy o`rin egallaydi. Avtomobil transportining umumiyligi vositalari (temir yo`l, havo transporti, metropoliten...) ichidagi salmog' O`zbekistonda 70–85% ni tashkil etadi. Ekologik toza hisoblangan elektrotransport (trolleybus, tramvay, metropoliten, elektrivoz...) salmog' umumiyligi transport vositalari bo`yicha atigi 7–10% ni tashkil etadi, xolos Toshkent shahrida atmosfera havosining ifloslanishiga katta ta'sir ko`rsatayotgan transport tarmoqlaridan biri – aviatsiya. Ular havoda uglevodoroq, azot va uglerod oksidlarining keskin ko`payishiga sabab bo`lmoida. Lekin keyingi paytda A-300, «Boing» toifasidagi samolyotlar bilan aviaparklarni to`ldirish bunday salbiy holatning kamayishiga olib keldi.

Shunday qilib, shaharlarda atrof tabiiy muhitga antropogen omillari ning ta'sir darajasi va turi boshqa antropogen o`zgargan zonalarga nisbatan o`ziga xos ko`rinishda namoyon ho`ladi. Mutaxassislarining fikricha shaharlarda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish talablari quyidagilardan iborat bo`lishi kerak:

- sanitari va epidemiologik holatni yaxshilash;
- xo`jalik faoliyatining ekologik xavfsizlik darajasini ta'minlash;
- axlat va maishiy chiqitlarni qat`iy me'yorlash va ularni utilashtirish;
- shovqinsizlikni ta'minlash;
- ko`kalamzorlashtirish va obodonlashtirishni yo`lga qo`yish;
- transportda alternativ energiya (elektr, quyosh energiyasi, vodorod yoqilg`isi, motorsiz transport...) turidan keng foydalanish;
- ekologik texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy qilish;
- yashil muhofaza zonalarini barpo qilish;
- sanoat va energetika korxonalari, aeroportlarni shahar chekkasiga olib chiqish;
- qurilish ishlarini tabiiy komponentlarga kam ta'sir etadigan qilib olib borish va rekultivatsiya (qayta tiklash) talablariga rioya etish,

Onuboyev S.H.T. Komunal
ekologiya // T. TDIYI na
muammolari. 1998

T. Ibn Sino", Nigmatov A.N. O`zbekiston
Geografa G.SII. Aholi // "Yerlari da foydalanish"

- maishiy va sanoat suvlarini tozalash va ularni ikkilamchi ishlatsiz choralarini joriy etish;

- bino va inshootlarni (ayniqsa o`ta zararli korxonalarda) joyning seysmik talablariga qarab loyihalash, qurish va hokazo.

2002-yil 4-aprelda qabul qilingan «Shaharsozlik kodeksi»ning 4, 6, 8-moddalarida ko`rsatilganidek, jamiyat, davlat va shaxslarning shaharsozlik sohasidagi manfaatlarini inobatga olgan holda xo`jalik va boshqa faoliyatning atrof-muhitga yetkazadigan zararli ta'siriga yo`l qo`ymaslik va ekologik holatni yaxshilash talabi o`matilgan hamda yuridik va jismoniy shaxslarning majburiyatlari belgilangan.

Shu kunda O`zbekiston shaharlarida tabiatni muhofaza qilishning huquqiy talablari Tabiatni muhofaza qilish, Alovida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, Shaharsozlik kodeksi. Yer kodeksi, Suv va suvdan foydalanish, Atmosfera havosini muhofaza qilish, O`simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish, Chiqindilar, Davlat sanitariya nazorati, Avtomobil yo`llari, Davlat kadastrlari, Aholi sog`lig`ini muhofaza qilish, Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to`g`risidagi qonunlar va shular asosida qabul qilingan qonun osti normativ hujjatlarda o`z aksini topgan va ular orqali tartibga solinadi.

Tabiatni muhofaza qilish to`g`risidagi qonunning maqsadiga ayrim obyektlar (jumladan, shaharlar) tabiatini muhofaza qilish, ularda yashaydigan fuqarolarni qulay atrof-muhitga ega bo`lish huquqini kafolatlash ham kiradi (1-modda). Bunday kafolatni shaharlarda Vazirlar Mahkamasи, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasining Toshkent shahri, shahar qo`mitalari, shahar va shahar tarkibiga kiruvchi tuman mahalliy davlat idoralari amalga oshiradilar. Shaharsozlik kodeksining 18-moddasiga muvofiq Vazirlar Mahkamasи shaharlarda tabiatni muhofaza qilishga doir yagona siyosatm olib boradi, tabiiy resurslardan foydalanish, ularni baholash, ulardan foydalanganlik va uslovlantirganlik uchun to`lovlarining yagona tartibini belgilaydi, tabiiy ofatlar va yirik avariyalar yoki ekologik tang vaziyatlardan aholini saqlash va ularni bartaraf qilish yo`llarini ishlab chiqadi. Ekologik o`quv tarbiya va maorif tizimini yaratadi va ushbu yo`nalishdagi mamlakatimiz ahamiyatiga molik ekologik chora-tadbirlarni olib boradi.

Tabiatni muhofaza qilish to`g`risidagi qonunning 10-moddasi va shaharsozlik kodeksining 19-20 moddalariga binoan mahalliy davlat boshqaruv organlari Toshkent shahri va uning tumanlari, Respublikamiz shahar toifasiga kiruvchi aholi punktlari hokimliklari o`z hududlarida:

tabiatni muhofaza qilishning asosiy yo`nalishlarini belgilaydilar; tabiatni resurslarni kadastrlash, moddiy-texnika ta'minotini amalga oshirish; subyektlarning tabiatdan foydalaniishi, uni ifloslantirish, unga chiqitlarni chiqarish va utillashtirish tartibini belgilaydilar; ular laoliyatini cheklash, man qilish, to`xtatish, to`lovlarni undirish va boshqa qonunlarda ko`zda tutilgan vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

Shahar Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi idoralari O`zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi organ bo`lib, u Respublika Davlat qo`mitasining «Tasdig`i» va shahar hokimining «Kelishuvi» bilan qabul qilinadigan Nizomlariga binoan faoliyat yurgizadilar va shahar xalq deputatlari, boshqa mahalliy idoralari bilan muvofiqlashgan tarzda ish olib boradilar. Shahar Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi idoralari o`z vakolat doirasida qabul qilgan qatorlari tegishli hududda hamma subyektlar uchun majburiy hisoblanadi.

Shaharlarda xalq xo`jalik tarmoqlari faoliyatining atrof tabiiy muhitga va aholiga salbiy ta`sirini kamaytirish hamda tabiiy resurslarni tiklab borishni kafolatlovchi normativlar va standartlar bilan belgilab qo`yish juda muhim huquqiy chora hisoblanadi. Ekologik normativlarning shaharlarda mahalliy tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi, Sog liqm saqlash boshqarmasi, sanoatda ishlarni bexatar olib borishni nazorat qilishi va kon nazorati bo`linmalari o`zlariga berilgan vakolatlarga muvosiq olib boradilar. Bu normativlarga binoan shahardagi korxona, tashkilot muassasalar, fuqarolari va fuqaroligi bo`Imagan shaxslarning atrof-muhiti salbiy ta`sir etishi mumkin bo`lgan eng yuqori darajasi yoki ruxsat etilgan me`yori (PDK, PDV, PDS, PDXV...) aniqlanadi. Bunday chegaralanishlari shaharlarda PDK (zaharli moddalarni konsentratsiyalashuvining eni yuqori ko`rsatkichi) atmosfera havosi va suvlar uchun olinadi. Moddalarni atmosfera havosi yoki suvda inson organizmida hech qanday patologik o`zgarishlarga olib kelmaydigan darajasi SN 245-71 caqamli Instruksiyada PDKning sanitarni normalarining 160 xil modda va 35 turdagisi kombinatsiyalarda atmosfera havosini ifloslanish darajasini ruxsat etilgan me`yon bo`yicha belgilangan. Masalan, uglerod oksidi bo`yicha ifloslantirish me`yori sutkasiga $1,0 \text{ mg/m}^3$, harakatda bo`Imagan obyektlar uchun $- 20 \text{ mg/m}^3$ ga tengdir.

PDV – shaharlarda ma'lum bir korxona yoki tashlash manbai bo`lgan subyektlar tomonidan zararli moddalarni chiqarish miqdori. U SN-369-71 bo`yicha amalga oshiriladi va GOST 17.2.3.02-78 bo`yicha hisoblanadi. Agarda ma'lum bir obyektda 2 va undan oshiq tashlagich manbalari (ventilatsiya va energetik qurilma) bo`lsa, bu korxona uchun PDVning

umumiy ko`rsatkichlari belgilanadi. Har bir PDV bo`yicha tashlash inventarizatsiyasi (pasporti) tuziladi. Unda tashlandiqlarning son va siyat ko`rsatkichlari bo`yicha malumotlar, chiqitlarni tozalash usullari va ekologik texnologiyalarni takomillashtirishning yo`llari berilgan bo`ladi. Bu pasportlarni har 5 yilda alohida bir qabul qilingan shakliarni to`ldirish asosida qayta ko`rib chiqiladi. Xuddi shunday jarayonlar Davlat standartlashtirish va metrologiya boshqarmasi tomonidan PDS (oqavalarning eng yuqori ko`rsatkichi). PDXV (kimyoviy moddalarни ishlatishning eng yuqori miqdori) va boshqa me'yoriy ko`rsatkichlar bo`yicha ishlab chiqiladi va shahar sanitariya-epidemiologiya xizmati tomonidan tasdiqlanadi.

Shaharlarda alohida bir tabiiy obyektlardan foydalanish differensial qonun, mahalliy boshqaruv va nazorat organlarining qabul qilgan me'yoriy hujjatlari orqali tartibga solinadi.

Shahar hududidagi yerlar Yer kodeksining 8-moddasiga binoan aholi punktlari yerlari fondiga kiradi. Shuning uchun ham ularni alohida muhofaza etish va ulardan foydalanishning o`ziga xos tartibi bor. Ushbu qonunning 59-moddasiga binoan shahar yerlari quyidagi toisalarga ajratiladi: qurilish; umumiy foydalanish; qishloq xo`jaligi; daraxtzorlar; sanoat, transport, aloqa, mudotaa va boshqa maqsadga mo`ljallangan yerlar; alohida inuhofaza etiladigan hududlar, suv fondi yerlari; zaxira yerlar.

Biz agrar tegralardagi yerlardan samarali foydalanish deganda ushbu yerlardan yuqori hosil olish va tuproq unumdorligini saqlashni tushunsak, shaharlardagi yerlardan oqilonqa foydalanish deganda esa qurilish va obo-donlashtirish ishlarini ilmiy asoslangan tarzda, joy planirovka majburiyatlariga binoan olib borishni tushunamiz. Shahar yerlari shaharsozlik va yer tuzish hujjatlari bo`yicha chegaralanadi va ulardan maqsadli foydalanish uchun ruxsatnomalar beriladi. Foydalanuvchilar esa Yer kodeksining II bob, 79-82-moddalarida belgilangan *yerlarni muhofaza qilishning quyidagi ekologik talablariga riyo etishlari shart*:

vv obyektlar, imoratlар va inshootlar joylashtirish, qurish va ulardan foydalanishda yerlarning holatiga salbiy ta'sir ko`rsatadigan yangi texnologiyalarni joriy etish chog`ida Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi ruxsatnomalarini olish;

- har bir xo`jalik jarayonini ekologik ekspertizadan o`tkazish;
- yashil maydon, dov-daraxtlarni iloji boricha saqlab qolish;
- rekultivatsiya qilish;
- maishiy va sanoat chiqitlarini tashlaydigan rezervuarlar tashkil etish va h.k.

Shaharsozlik kodeksining 29-moddasida ko`rsatilganidek, shahardan aholini joylashtirishda atrof-muhit holatini mo`tadilashtirish maqsidda:

- alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar;
- suv obyektlarini muhofaza qilish zonalari;
- rekratsion hududlar;
- ekstremal tabiiy-iqlim sharoitlariga ega bo`lgan hududlarni tashqi etish belgilangan.

Shaharlarni rivojlantirish loyihalarida, albatta, ekologik xavfsizlik ta'minlovchi talablarni inobatga olish, aholi punktlari rejalarida absess soniga qarab sanitar-gigiyenik me'yorlarni o`rnativish talab etiladi. Shaharsozlik kodeksining VI bobida shahar atrofi asosan ekologik va sanitarni funksiyalarni bajaruvchi zonalardan iborat bo`lishi prioritet (birlangan) norma tariqasida o`rnatilgan. Mazkur qonunning VII – yakunlovchi bobda ekologik, rekratsion, sanitar-gigiyenik tadbirlar davlat budgeti, buyurtmalarilar, yuridik va jismoniy shaxslarning mablag`lari hisobiga amaliy oshirilishi ifodalangan.

Shaharlarda uy-joy, korxona, inshoot va boshqa obyektlarni loyihalash, joylashtirish, qurish va ishga tushirish mobaynida aholimiz ichimlik suvgaga bo`lgan hamda maishiy ehtiyojlarini qondirish talab etiladi. Birinchi navbatda inobatga olish sharti bilan suvdan foydalanishlari Suv suvdan foydalanish to`g`risidagi qonunning 11-moddasida bayon etiladi. Ushbu qonun bo`yicha aylanma harakatdagi suvlarning bug lanole illoslanishi va kamayib ketishining oldini olish, suv obyektlarining bo`lib tabiiy obyektlarga zarar yetkazishiga yo`l qo`ymaslik, shoranish, bosish va qurib qolishdan muhofaza qilish talablari qo`yiladi.

Toza ichimlik suvidan oqilonqa foydalanish maqsadida Shaharlarda, xususan, Toshkentda, maishiy xizmat va ichimlik suvidan fuqarolarning foydalanish limitlari «Suvsoz» trestlari 1999-yil yanvarda kelib jon boshiga $9,9 \text{ m}^3/\text{oyiga}$ yoki $118,8 \text{ m}^3/\text{yiliga}$ suv sarfi meqbul belgilangan. Limitdan ortiqcha foydalangan shaxslardan suvning hajmi metr kubiga 64% ustama narxlari to`lash orqali amalgalash oshiriladi.

Suvdan va umuman tabiiy resurslardan foydalanishni cheklash barcha rivojlangan mamlakatlarda qabul qilingan me`yor bo`lib, bu uchun tabiiy boyliklardan samarali foydalanishni o`z oldiga maqsad qo`yadi. Gretsiya, Isroil kabi mamlakatlardan qonunchiligidagi suvlarning samarali foydalanish o`ta qattiq boshqaruvi va nazorat ostiga olingan to`lib bo`lib, u chuchuk suvning zaxirasi, sanoat tarmoqlari va aholining suvning bilan bog`liq holda olib boriladigan masalalar toifasiga kiradi.

Shahar va aholi punktlarida, uning atrofidagi yashil mudotaa tegralarida Yer osti boyliklari to`g`risidagi qonunga muvoliq yer qa'rining ayrim uchastkalaridan foydalinish cheklangan yoki taqiqlangandir.

Shunday qilib, shaharlarda ekologik xavfsizlikni ta'minlash o`ziga xos huquqiy boshqaruva va nazorat tizimini shakllantirishni taqozo etadi.

3. Agrar tegralarda atrof-muhitni ekologik-huquqiy muhofazalash

O`zbekiston Respublikasi agrar mamlakat bo`lib, aholisining 60%ga yaqni qishloq joylarda istiqomat qiladi, ishlab chiqarish salohiyatining 1/3 qismi va tashqi savdoning 55% qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi bilan bog`liq. Ishlab chiqarishda band bo`lgan aholining har ikkitasidan biri agrar sanoatdadir. Shuning uchun ham Prezident I.A. Karimov Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 8-tevraldagisi hisobot yig`ilishida, Oliy Majlisning 1997-yil 25-dekabr, 1998-yil 30-aprel X-XI sessiyalarida, 2005 va 2006-yillardagi Oliy Majlisning quyi va yuqori palatalarning qo`shma yig`ilishida qishloq xo`jaligida tub islohotlarni o`tkazish zarurligi, uning natijasi esa mamlakatimiz hayotim belgilovehi qadam ekanligini uqtirib o`tgan.

O`rta Ostyo, xususan, O`zbekiston, qadimdan dehqonchilik qilib kelinadigan o`lka hisoblanadi. Tub aholining tirkchiligi ham, tashqi dunyo bilan o`zaro munosabatlari ham qishloq xo`jalik mahsulotlari va ulardan tayyorlangan mahsulotlar hisobiga amalga oshirilgan. Chor Rossiyasi va sobiq Ittifoq davrida, ya`ni XIX asrning ikkinchi yarmidan to shu kungacha agrar soha mayda va o`rta qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqarishdan yirik tovar xo`jaligiga aylantirildi. Mustaqillik davrigacha Turkiston o`lkasi mustamlaka o`lka bo`lib, SSSRning Yevropa qismidagi korxonalarga paxta, teri, ipak tolasi, meva mahsulotlari kabi xom ashyo mahsulotlari yetkazib berar edi. XX asr boshida O`zbekistonda 1,7–1,8 mln.ga sug`orilib dehqonchilik qilinadigan yerlar maydoni shu asrning 80-yillariga kelib 4,3 mln.ga yetdi. Qishloq xo`jalik maqsadlarida o`zlashtirilayotgan yerlar avvaliga tabiiy iqlim sharoiti o`ta qulay bo`lgan hududlar – Chirchiq, Ohangaron, Zaralshon, Surxon - Sherobod, Qashqadaryo, Quyi Amudaryo, O`rta Sirdaryo vohalari, Farg`ona vodiylarida amalga oshirildi. Aholining eng zinch bo`lgan maydonlari ham aynan shu agrar tegralarda joylashdi.

Kundan-kunga ko`payib borayotgan aholi va agrar sanoat talabi qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini ekstensiv tarzda oshirib borishga majbur etmoqda. Atrof tabiiy muhitga, ayniqsa, agrar hududlarda yerga bo`lgan antropogen bosim darajasi juda kuchayib ketdi. Qishloq xo`jaligi

mahsulotlarini ishlab chiqarishning ekstensiv usulini (ekin maydonlarini kengaytirish hisobiga mahsulot miqdorini oshirish), tanlagan sobiq Ittifoqda tabiiy obyektlarning ekologik holati keskin yemonlashib ketdi. Mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra' keyingi bir asr mebaynidagi sho'rangan yerlar maydoni 2 mln. gektarga, shamol va suv eroziyasiga uchragan yerlar 3-3,5 mln. gektarga yetdi, kimyoiy issoslanish butun sug'orma yer fondining 75-80% ini tashkil qildi. 25-28 mlrd. kub metrn tashkil qilayotgan oqova va tashlandiq suvlar Amudaryo va Sirdaryolarni oxir-oqibatda esa Orol dengizi suvlarning sho'ranganlik darajasini 2-3 barobarga, zararli moddalar - pestitsid, gerbitsid, azot, fosfor, kahiy elementlarining miqdorini ruxsat etilgan me'yordan (PDK) 3-4 barobaiga ko'payib ketishiga sabab bo'ldi. Dalalarni dorilashning «aero» usuli agrar tegralardagi yovvoyi yoki madaniy o'simlik va hayvonot dunyosiga, atmosfera havosining sifatiga, odam organizmini uchun xavfli bo'lgan toksikan (zararli) moddalarining suvlarda ko'payishiga olib keldi. Yangi o'zlashtirilgan tipik bo'z tuproqlarda uchraydigan va uning unumдорлиги haqida morfologik ko'rsatma beradigan yomg'ir chuvalchangi miqdori tuproqning har bir metr kubida 300-1200 dan 1-2 donagacha tushib ketdi yoki umuman uchramaydigan bo'lib qoldi.

Agrar zonalar - qishloq xo'jaiik ishlab chiqarishi bilan band bo'lgan hududlar. Agrar zonalarda yuzaga kelgan salbiy ekologik holat kishilarning hayot darajasiga keskin ta'sir qildi. Shodimetovning ma'lumotlariga ko'ra' pestitsidlari keng qo'llanadigan hududlardagi aholi orasida nafas olish, endokrin, yurak-qon tormir, jigar kasalliklari, kamqonlik, aqliy yetishmovchiligi bo'lgan bolalar tug'ilishi, rak va ginekologiya kasalliklari boshqa noagrar hududlardagidan 2-3 marotaba ko'p uchraydigan bo'ldi. Qishloq joylarda 14 yoshgacha bo'lgan bolalarda temir moddasi yetish maydigan kamqonlik, faol sil kasalligi, virusli gepatit (sariq kasallik) va yuqori nafas yo'llariga mikroblar o'tiradigan kasalliklar tez-tez kuzatilib turildi. 1980-yillarga kelib pestitsidlardan 80 tagacha o'tkir va 60 tagacha surunkali zaharlanish qayd etilgan.

Bu esa, agrar zonalarda antropogen ta'sirning kuchayishiga olib kelmoqda. *Antropogen bosim natijasida yuzaga kelgan salbiy ekologik holatni 3 guruhga ajratish mumkin.*

Birinchi guruhga qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqarishning negiz bo'lgan tabiiy obyektlarning buzhishisi:

Тоцилов Г. А. Земельные ресурсы Узбекистана и
растительного покрова // Семейская природа в Средней Азии. Т. 1. Ред. А. М. Разюков. Ашхабад, 1989.
• ТУ: Узбекистан: геология и география. Т. 1. Кашкадарья. 171-172-бетлар

- a) turg`unlik yillarda paxta yakkahokimligi va almaslab ekishni vo lga qo`yilmaganligi oqibatida tuproq unumdorligining pasayib ketishi;
- b) tuproqlarning sho`rlanishi, eroziyaga uchrashi (suvdan yuvilishi), deflyatsiyalashuvi (shamol orqali uchirilishi), botqoqlashuvi, ifloslanishi, agrokimyoviy va agrofizik ko`rsatkichlarning yomonlashuvi, mikroorganizmlarning kamayib ketishi, kimyoviy tarkibining buzilishi,
- v) suv ta'minotining buzilishi va sug`orma suvlar kimyoviy tarkibining yomonlashuvi;

g) soydali organizmlarning (changlatadigan, zararli hasharot kushandalari, sanitat hayvonlar) qirilib ketishi;

d) tabiiy yaylovlar ishlab chiqarish qobiliyatining pasayishi;

e) cho`llanish va tabiiy geodinamik (surilma, jarlanish, o`pirilish, cho`kish, degish, solyuslyuksiya, abraziya) jarayonlarining ortib borishi.

Ikkinchи guruhi ekologik salbiy oqibatlarning kuchayishini ko`rsatish mumkin. Bu nafaqat qishloq xo`jaligiga, balki atrof-muhitning buzilishi natijasida boshqa xalq xo`jaligi sohalariga zarar yetishidir. Misol uchun, gidrografik obyektlar (ko`l, daryo, suv omborlari, kollektor-drenajlar)ning ifloslanishi va ulardagи hayvonot dunyosining kamayishi; o`rmon va to`qayzoirlarning kamayib ketishi; yovvoyi turdagи hayvonot va o`simlik dunyosi yashash muhitining torayib qolishi; atmosfera havosining tarkibida tuz, chang, og`ir metall kabi kimyoviy moddalarning ko`payib ketishi; ovchilik va baliqchilik xo`jaligining oqsab qolishi; qo`riqxona va buyurtma qo`riqxona singari alohida muhofaza talab etadigan hududlarning muhofaza tartibining buzilishi va hokazo.

Uchinchi guruhi insonlar yashash muhitining agrar tegralarda yomonlashuvini olish mumkin. Buning natijasida sobiq Ittifoq davrida XX asrning 70–80-yillariga kelib qishloq aholisining o`rtacha umr ko`rish davri 3–5-yilga qisqargan.

Yuqorida keltirilgan salbiy oqibatlarning 3 guruhi davlatning agrar siyosatidagi iqtisodiy talablar bilan ekologik talablarni o`zaro uyg`unlashgan holda olib borishni talab etadi. Shuning uchun ham Prezident I.A.Karimov o`zining «Qishloq xo`jaligi taraqqiyoti – to`kin hayot manbai» degen asarida «Dehqonchilik madaniyatini ko`tarish tuproq holatining yaxshilanishi va atrof-muhitning ifloslanishuning oldini olishi uchun kerak¹», deb bekor aytmagan. Bu o`rinda jamiyatdagi agrar munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asosini yaratish zamon talabidir. Mazkur dolzarb muammoning qonuniy asosi 1998-yil aprel-mayda bo`lib o`tgan O`zbekiston Respublikasi Ohy Majlisining XI

sessiyasida qishloq xo`jali-giga oid qabul qilingan bir qator qonunlarda aksini topdi.

Qishloq xo`jaliq ishlab chiqarishida ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun avvalambor agrar tegralarni Ekologiya huquqining alohida boshqarishning qurʼaniy qoidalari, antropogen o`zgargan va o`ziga xos «sobyekti» deb qarashni taqozo qiladi. Agrar tegralarda jamiyattdagi munosabatlarni huquqiy boshqarish konsepsiyasini ishlab chiqish talab qilinadi va ushbu qarashlar tizimi davlatning milliy xavfsizlik konsepsiyasining asosiy elementlaridan biri bo`lib qolishini ta'minlash darkor.

Sh. X. Fayziyev¹ tadqiqotlarida qishloq xo`jaligida ekologik xavfsizlik qoida va talablariga asoslangan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tajribga solish davlat va huquqning vazifasi deb qaralishi to`g`ri talab etilgandir. Muallif qishloq xo`jaligida ekologik xavfsizlik talablari Konstitutsiyamizning alohida bir «Davlatning ekologik siyosati» bo`limida aks etishi kerakligini yoqlab chiqqan. Tabiatni muhofaza qilish to`g`risidagi O`zbekiston Respublikasi qonunida «Qishloq xo`jaligida ekologik xavfsizlik talablari» degan alohida bir modda kirkazilishi juda ham maqsadga muvofiqligini ko`rsatib o`tgan.

Agrar tegralarda tabiatni muhofaza qilishning ijtimoiy, iqtisodiy, maʼnaviy, maʼrifiy, siyosiy va huquqiy choralar mavjud. Ulardagi ekologik xavfsizlikni ta'minlashning huquqiy choralarini 2 guruhgaga ajratish mumkin. Birinchisi, xo`jalik yuritishning ekologik meʼyorlarini ishlab chiqish va amaliy tatbiqini ta'minlash; ikkinchisi – antropogen buzilgan tegralarni sog`lomlashtiruvchi meʼyorlarni ishlab chiqish va ularni hayotga keng tatbiq qilish.

Ikkala huquqiy guruh chora-tadbirlarining, avvalambor, konstitutsiyaviy asosini yaratish kerak bo`ladi. Xo`jalik yuritishning salbiy ekologik oqibatlarining oldini olishning konstitutsiyaviy asoslari O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI bob 50-moddasida fuqarolarning atrof tabiiy muhitga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatda bo`lish majburiyatidan kelib chiqadi. Bozor munosabatlariga o`tish davrida qishloq xo`jalik ishlab chiqarishida yuzaga kelayotgan barcha turdagи mulkdorlar o`z mulkidan foydalanishlarida atrof-muhit holatiga zarar yetkazmasliklari sharti qo`yilgan² (54 modda). Davlatga (55-modda), jumladan, mahalliy hokimiyatlariga (100-moddaning 5-band) tabiiy zaxiralarni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilish majburiyati yuklatiladi. Lekin jamiyatning ekologik

¹Файзиев Ш. К. Конституционные проблемы Узбекистана в контексте реальности и философии // Ученые труды М. Qishloq xon. – йетад. Г. ПДДУ Nashriyoti. 2005.

xavfsizligini, xususan, agrar tegralarda ekologik inqirozning oldini olishning konstitutsiyaviy asoslari Bosh qomusimizning alohida bir «Davlatning ekologik siyosati» bobida aks etgani ma'qul, deb mutaxassislar fikr bildirmoqdalar. Tabiatni muhofaza qilish to`g`risidagi O`zbekiston Respublikasi qonuniga esa «Qishloq xo`jaligida ekologik xavfsizlik talabları» deb nomlangan alohida bir modda kirdgazilishi juda ham maqsadga muvofiq bo`ladi. Aks holda, xalq xo`jaligimizning yetakchi sohasi bo`lgan qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishida ekologik talablar yetarli darajada namoyon bo`lmasligi mumkin.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2002-yil 12-fevral Vazirlar Mashkamasining «Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va iqtisodiy istohotlarni borishini baholash hamda 2002 yilda istohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo`nalishlari»ga bag`ishlangan yig`ilishida, 2005-yil Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senati qo`shma majlisida yer va suv kabi hayotiy zarur tabiiy boyliklardan o`ta samaradorlik bilan foydalanish masalalariga alohida to`xtalib o`tildi. Ularda dehqonchilik tizimini rivojlantirish uchun yerdan oqilona foydalanish va tuproq unumdorligini ta'minlash uchun: tuproq unumdorligini oshirish chora-tadbirlarini qo`llash; yerdan foydalanish, sifatini aniqlash va baholashni tartibga solish chora-tadbirlarini ishlab chiqish; ekin maydonlari tuzilmasini maqbullashtirish, tumانlarda qishloq xo`jalik ekinlari yetishtirishni ixtisoslashtirish; noan'anaviy qishloq xo`jaligi ekinlarini yetishtirish ko`zda tutilgan edi.

Afsuski, 1999–2000-yillardagi davrda qishloq xo`jaligidagi iqtisodiy istohotlarni chuqurlashtirish Dasturi qishloq xo`jaligida o`zaro moliya va kredit munosabatlari, hisobga olish va hisobotni takomillashturish bo`limida ekologik chora-tadbirlar uchun qo`shimcha budjet ta'minoti va imtiyozli kreditlar ajratish ko`zda tutilmagan. Ekologik rag`batlantirishning iqtisodiy mexanizmi ko`rsatilmagandir.

Qishloq infratuzilmasini rivojlantirishda otiqcha mehnat potensiali dan, qulay tabiiy-iqlim va mineral xom ashyo resurslaridan nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy, mafifiy, madaniy balki ekologik-estetik nazardan unumli foydalanish ko`rsatilmagandir.

1999-2000-yillardagi davrda qishloq xo`jaligidagi iqtisodiy istohotlarni chuqurlashtirish dasturi asosan agrar tegralarda iqtisodiy masalalarining yechimini topishga qaratilgan bo`lib, “Tabiatni muhofaza qilish to`g`risidagi” O`zbekiston Respublikasi qonuning prinsipi – «Iqtisod bilan ekologik tadbirlarni o`zaro uyg`unlashgan holda olib borish»ni inobatga olmagan edi. Vaholanki, qishloq xo`jaligidagi iqtisodiy istohotlar-

ning maqsadi¹ qishloq aholisining farovonligi va agrar sanoatining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish. Xalq farovonligining eng asosiy ko`rsatkichlaridan biri - ekologik xavfsiz muhitda sog`-salomat yashashdir.

Yuqorida aytib o`tilgan Dastur asosida qabul qilingan bir qator qonun hujjalarda, xususan, Yer kodeksi, Qishloq xo`jalik kooperativi (shirkat xo`jaligi), Fermer xo`jaligi, Dehqon xo`jaligi to`g`risidagi, Davlat yer kadastro hamda Vazirlar Mahkamasining 1999-yildagi 299, 300-sonli qarorlarida tabiiy boyliklardan samarali foydalanish va ekologik talablar qishloq xo`jalik subyektlarining huquq va majburiyatlariga kirgizilgandir.

2000-yil 25-maydagagi Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to`g`risidagi qonunning 9-moddasiga muvofiq har bir tadbirkor (jumladan, fermer va dehqon xo`jaligi) o`z faoliyatida ekologik talablarga rioya etishi shart, aks holda uning faoliyati to`xtatilishi (48-modda) va u javobgarlikka tortilishi (51-modda) mumkinligi ko`rsatib o`tilgan. Agarda tadbirkorlar (jumladan, qishloq xo`jaligida faoliyat yurgizayotganlari) suvdan samarali foydalansalar mahalliy davlat hokimiyatlari tomonidan rag batlantirish me'yorlarini (V bob) qo`llashlari ham inobatga olingen. Bunday ijobjiy-huquqiy usulni qo`llash mamlakatimiz qonunchiligini ekologiyalashitirishga tomon qo`yilgan katta qadamadir.

Afsuski, «Fermer xo`jaliklari to`g`risida»gi qonundan farqli «Dehqon xo`jaliklari to`g`risida»gi qonunda (27-modda) dehqonlarning noekologik harakatlari ularning faoliyatini to`xtatilishiga asos bo`lishi inobatga olinmagan. Dehqon xo`jaligi mayda qishloq xo`jalik tovar ishlab chiqarishga va uncha katta bo`limgan (0,35 gektargacha) yetakchi o`tinni egallashini inobatga oladigan bo`lsak, dehqon xo`jaliklarini tugatishga sabab bo`lib ekologik talablar ham olinsa maqsadga muvofiq bo`ladi.

Agrar sanoat korxonaları, muassasaları, tashkilotları va kooperativlari (shirkat xo`jaliklari)ning prinsiplaridan biri yerlarni muhofaza qilish va tuproq unumdarligini oshirishni ta'minlashdir. 1998-yil 30-apreldagi Qishloq xo`jalik kooperativi (shirkat xo`jaligi) to`g`risidagi qonunga muvofiq agrar zonalarda ekologik talablar faqtgina yerlargagina qo`llaniladi, xolos. Lekin u hamma xo`jalik faoliyati jabbasida va hamma tabiiy obyektlar bo`yicha olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham agrar zonalar bo`yicha yoki unga bevosita yoxud bilvosita ta`m etishi mumkin bo`lgan qonun hujjalarda ekologik talablarning alohidi

bob yoki modda qilib berilishi ekologik xavfsizlikni ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi, deb o'yaymiz.

Yer kodeksining asosiy maqsadi – hozirgi va kelajak avlodlarning mantaatlari ko'zlab yerdan ilmiy asoslangan tarzda, oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, tabiiy xususiyatlarini asrash va yaxshilashdir. Yer esa qishloq xo`jalik ishlab chiqarish vositasidir va shuning uchun ham undan avvalambor qishloq xo`jaligida foydalanishlik Kodeksda ko`zda tutilgan. Kodeksning 2-moddasi 6-bandiga binoan, yer to`g`risidagi qonun hujjatlarining asosiy prinsiplaridan biri – yerga va butun atrof tabiiy muhitga zayar yetkazilishining oldini olish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashdir. Ushbu prinsip Davlat boshqaruv va nazorat organlarimning vakolatlari doirasida ham aks ettiligandir. Masalan, Vazirlar Mahkamasi yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishning yagona siyosatini olib boradi, mahalliy hokumiyatlar o`z hududlarida ekologik tadbirdarlari ishlab chiqadilar va ularning amalga oshirilishini nazorat qiladilar.

Yer kodeksining Yer tuzish, Yerga bo`lgan mulkchilik, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo`lgan huquqlari va majburiyatlarda ekologik talablar alohida band sifatida berilgan. Kodeksning 6 bobida qishloq xo`jaligiga mo`ljallangan yerlarda ishlab chiqarish samaradorligini ko`tarishning asosiy omillaridan biri yerni haqiqiy egalariga bo`lib berish ekanligi aniq qilib ko`rsatilgan. Yerlarni qishloq xo`jaligida muhofaza qilishning mazmuni (11-bob) va tartibi (79-modda) irrigatsiya, melioratsiya va boshqa qishloq xo`jalik inshootlarini qurish, loyihalash va ulardan foydalanishga oid ekologik talablar (80-81-modda) va bu talablarни o`z muddatida bajarganlar uchun iqtisodiy rag`batlantrish yo'llari (82-modda) ko`zda tutilgan.

O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko`rsatilganidek, agrar tegralarda faoliyat yurgizayotgan subyektlar ekologik xavfsiz muhitga ta'sir etuvchi noqonuniy bitinilar tuzgani; unumidor yerlarni o`zboshimchalik bilan egallagani; turli sanoat, maishiy va yakka tartibda uy-joy qurbanligi; tuproq unumdorligini yoki kadastr ma'lumotlarning keskin ravishda yomonlashib ketishiga sabab bo`luechi harakat yoki harakatsizliklar qilgani; atrof-muhit va yerlarni kimyoviy ifloslantirganliklari yoki fizik buzganligi; zaharli modda va birkimalarni saqlash, tashish va qo'llash talablarini buzganligi natijasida yerlarning sifat ko`rsatkichlarini yomonlashtirib yuborganligi uchun Jinoyat kodeksining 193-197, 201, Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 65-69, 8, 91, 95, 96, Fuqarolik kodeksining 111, 173, 214, 231, 516, 517, 541, 542, 551 hamda Yer kodeksining 90, 91-moddalariga muvoziq javobgarlikka tortiladilar.

Agrar tegralarga yer resurslaridan tashqari, zarar yetkazish mumkin bo`lgan tabiiy obyektlar – suv resurslari, yovvoyi ~~erdagi~~ hayvonot, o`simlik dunyosi va ularning yashash muhiti ham kiradi.

Suv resurslaridan qishloq xo`jaligida asosan sug`orish hamda chorva inollarini ichimlik suvi bilan ta'minlashda foydalaniladi. Foydalanishdagi ekologik talablar suvlarning kamayib ketishi, bulg`alanishi va ifloslanishning oldini olishga qaratilgan bo`ladi. Shuning uchun ham 1993-yil 6-mayda qabul qilingan Suv va suvdan foydalanish to`g`risidagi qonunning XIII bobiga muvosiq qishloq xo`jaligi huquqi subyektlari suvdan maxsus foydalanishlari mobaynida yer osti va ustı suvlardan foydalanishning ekologik talablariga qat'iy rioya etishlari, suvlarni sug`orish, oqizish davomida ortiqcha suv o`tkazuvchanlik (filtratsiya) va bug`lanishga yo`l qo`ymaslik shartlari zikr etilgan.

Agrar tegralarda gidrotxnik, maishiy, sanoat, madaniy va boshqa inshootlarni qurish mobaynida suvdan, ayniqsa, chuchuk suvdan foydalanishning samaradorligini ta'minlash, ularni ifloslanish, zaharlanish hamda tuproqlarning yuvilish, sho`rlanish, botqoqlanishiga sabab bo`lувchi oqibatlarning oldini olish choralarini ko`rishlari shart. Suv qonunchiligi O`zbekistonda suv obyektlarini agrar tegralarda ifloslantirishi, buzilishi va yomonlashuviga olib kelishi mumkin bo`lgan obyektlarni loyihalash, ishga tushirish, qurishni man qiladi. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasining BH 118.00277 19.5-91¹ – «Suv obyektlariga tashlandiq suvlar bilan oqizish me'yori loyihalarini ishlab chiqish va ro`yxatalash tartibi»; BH 118.0027714.50-95 – «Chorvachilik komplekslarida suvlarni muhofaza qilishning davlat nazorati bo`yicha metodik qo`llanma»; BH 118.0027714.6-92 – «Suvlardan maxsus foydalanishga ruxsat berish va kelishish tartibi» kabi boshqaruvin hujjatlariga muvosiq amalga oshiriladi. Lekin bu boshqaruvin hujjatlearning davlat standarti qilib hanuzgacha sobiq Ittifoq davrida ishlab chiqilgan GOST 17.1.3.04-82 – «Yer osti va ustı suvlarning pestitsidlardan ifloslanishini muhofaza qilish talablari»; GOST 17.1.3.11-84 – «Mineral o`g`itlardan yer osti va ustı suvlarning ifloslanishini muhofaza qilish talablari»; GOST 17.1.3.13-86 – «Yer ustı suvlarning ifloslanishidan muhofaza qilishning umumiy talablari»; GOST 17.4.3.05-86 – «Sug`orish va o`g`itlashda oqava suvlar va ularni yotqiziqlariga qo`yiladigan talablar»; San P i N № 4630-88 – «Yer ustı suvlarini ifloslanishidan muhofaza qilishning sanitarni qoidalari va me'yorlari» kabi me'yoriy hujjatlar amal qilmoqda. Respublika ekologik kompleks boshqaruvin organlariga bu me'yoriy hujjatlarni zamon talabiga va agrar tegra-

larda yuzaga kelgan ekologik vaziyatga qarab qayta ko`rib chiqish muddati keldi, deb o`ylaymiz.

Amaldagi ekologik qonun hujjatlariiga muvofiq¹ chorvachilik komplekslarining katta-kichikligiga qarab, ularning atrosidagi sanitari zonalar chegarasi 3 kilometrgacha bo`lgan halqani qamrab oladi. Bاليqchilik havzalari atrofidagi himoya zonalari esa qishloq xo`jaligi mintaqalarida 2 kilometrgacha bo`lishi kerak. Agarda bu zonalarda qishloq xo`jalik mahsulotlari yetishtiriladigan bo`lsa, tuproq va madaniy o`simliklarni o`g`itlash yoki kimyoviy moddalar ishlatish yog`-moy, organik va mineral o`g`it yoki boshqa kimyoviy moddalarni saqlash uchun omborlar qurish, chorvachilik komplekslarini barpo qilish va ulardan chiqadigan organik o`g`itlarni saqlash qat'yan man qilinadi.

Agrar zonalarda tabiiy turdag'i o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risidagi, Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risidagi qonunlarda ko`rsatilganidek har bir subyektdan maksimal darajada biologik genofondni saqlab qolishga harakat qilishlarini talab qiladi. Meliorativ inshootlar qurishda baliqlarni muhofaza qilish qurilmlarini tashkil etish, sholt, bug`doy, beda kabi qishloq xo`jaligi o'simliklarini yig` ishtirib olish davrida yovvoyi turdag'i qush va hayvonlarni saqlab qolish choralarini ko`rish ko`zda tutilgan.

Lekin mutaxassislarining ma'lumotlariga ko`ra, agrar tegralarda 30-70% tabiiy turdag'i hayvonlar va o'simliklar dunyosi qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalash, melioratsiyalash va madaniy o'simliklarni yetishtirish davriida nobud bo`limoqda. Shuning uchun hosilni mexanizatsiyalar yordamida yig` ishtirib olish paytida hayvonot dunyosini muhofaza qilish bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqish va ular hosilni mexanizmlar yordamida yig` ishtirib olishni daryo, o'mon yoki tabiiy saqlangan joylardan boshlamaslik, hayvonlarni shu tomonlarga ko'chib o'tush imkonini beruvchi normalar bilan to`ldirish zarur. Amaldagi ekologik qonunchilik qishloq xo`jalik korxonalarini tomonidan tabiatga yetkazialgan zararni qoplash bo`yicha talablarini qo'ysada, lekin hauuzgacha aniq bir ilmiy asoslangan boshqaruv, nazorat va ekspertiza hujjatlarning yo`qligi ajablanarli holdir.

1981-yilda qabul qilingan «Atmosfera havosini muhofaza qilish to`g`risida»gi qonundan farqli 1996 yil 27-dekabrda qabul qilingan shu nomdagi milliy qonunimizda atmosfera havosini tabiiy resurs sifatida qarab, uni muhofaza qilish nafaqat insonlar, balki himoyasiz tabiiy turdag'i

O'zbekiston I
manbalining
garoni.

1) Sovetiston va postsovetskiy halqalar, daryolar, —— kollektorlar kabi
va qilish —— tasdiqlash —— rivojda VMning 1992 yil 174 sonli

o'simlik va hayvonot dunyosi uchun kerakligi mobatga olingan. Yangi qonunga muvofiq (18-modda) agrar tegralarda kimyoqiy moddalarni, ayniqsa pestitsid, gerbitsid, defolantlar va mineral o'g'itlarni samolyotdan turib sepish man qilinadi. Ularni taqatgina yerdan turib ishlatish mumkin. Bu esa atrof-muhitni agrar zonalarda sog'lomlashtirishga tomon qo'yilgan katta huquqiy qadamdir.

4. Sanoat zonalarida atrof-muhitni ekologik-huquqiy muhofazalash

Ekologik va iqtisodiy talablarni ma'lum bir iqtisodiy kengliklarda amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish va amaliy tatbig'ini yo'lga qo'yish jamiyatdagi ekologik munosabatlarni tartibga solishning ene samarali vositasidir. Ana shunday iqtisodiy kengliklardan birtarozi sanoat zonalardir. Sanoat zonalar - noqishloq va noormon xo'jalik sanoat tarmoqlari joylashgan va ishlab chiqarish faoliyati yurgiziladigan hududlar. Bunday tegralarga sanoat tarmoqlari yoki ularning majmuasi, ya'ni mashinasozlik va metallurgiya korxonalar, neft-gaz sanoati obyektlari, yengil va oziq ovqat korxonalar, energetika obyektlari (AES, GES, GRES, TES), tog'kon, kimyo, qurilish sanoatiga qarashli zavod, fabrika va korxonalarни aholi punktlaridan chetga olib chiqilgan zonalari kiradi.

Sanoat zonalarida, biz yuqorida aytib o'tganimizdek, atrof muhitning ifloslanishi, buzilishi va ekologik xavfsizlik talablari boshqa antropogen o'zgargan obyektlarga nisbatan o'ziga xos bo'lib, ularda **ekologik-huquqiy talablar** quyidagilardan iborat:

- texnologik jarayonlarning kamchiqitli va chiqitsizligini ta'minlash;
- ifloslantirish va zaharlanishni kamaytirish va zararli moddalarini neytrallashtirish (xavfsizlantirish);
- energianing alternativ turlaridan keng foydalanish;
- ekologik xavfsiz mahsulotlar chiqarish;
- tozulagich texnologiyalarini doimo takomillashtirib borish va ularni davlat nazoratida ushlab turish;
- ilmiy-texnologik jarayonlarni keng tatbiq qilish yoki tabiiy resurslardan juda yuqori darajada samaradorlik bilan foydalanishni yo'lga qo'yish va hokazo.

Bunday ekologik huquqiy darajadagi talablar sanoat zonalarida korxonalarning hamma ishlab chiqarish bosqichlarida rejallah, loyihalasa joylashtirish, qurish, ishga tushirish va tabiatga ta'siri bo'lgan yangi texnologiyalarini joriy qilish jarayonini qo'llashni taqozo qiladi.

Sanoat zonalari yoki ularda biron-bir sanoat korxonasini joylashti rishni iejalashtirish xalq xo`jaligining sohaviy yoki umumiy iqtisodiy rivojlantirish dasturlarida ekologik xavfsizlik talablarini inobatga olish bilan boshlanishi kerak.

Sanoat korxonalarini joylashtirishning asosiy nazorat hujjatlaridan biri bo`lib, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning Sohaviy, Hududiy yoki Bosh sxemalari hisoblanadi. Bu sxemalardan sanoat korxonalarini loyihalash muassasalarini tabbiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishning ruxsat etilgan me`yorlarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Agarda loyihalanayotgan sanoat korxonasi shu zonadagi ekologik me`yor talablariga javob bermasa, loyihalash to`xtatilishi lozim¹.

Sanoat korxonalarini qurish vaqtida qurilish tashkilotlari loyihadagi ekologik va sanitari talablarni bilishlari va ularga to`la e'tibor berishlari kerak. Shu bilan birqalikda, loyiha chiqishlari – avtorlik nazoratini, quruvchilar – qurilish nazoratini, tibbiyot xizmatchilari – sanitari nazoratini amalga oshirishlari shart. Agarda sanitari va ekologik talablar qurilish davomida buziladigan bo`lsa, davlat nazorat organlari ularni bartaraf etish shartlarini ko`rib chiqishlari kerak bo`lsa qurilish ishlarini to`xtatib qo`yish va ekologik xavfsizlikni ta`minlash bo`yicha loyiha va qurilish ishlarini qayta ko`rib chiqishni talab qilishlari mumkin.

Ko`pgina demokratik imamlakatlar qonunchiligidagi sanoat korxonalarini joylashtirish va qurishda jamoat birlashmalari va mahalliy aholining fikrlarini inobatga olish ko`zda tutilgan. Jamoatchilik talabi bilan Yevropa-pada shimoliy daryolai janubga oqizilmaydigan bo`ldi, Qrim yarim orolining kurortlar tegrasida Qrim AES qurilishi, Germaniya va Belgiyaning ekologik inqirozli hududlarida TESlar qurilishi to`xtatildi.

Sanoat obyektlarini qurish jarayonida eng ko`p uchraydigan noekologik harakatlar – loyihalarni qayta ko`rib chiqish va qurilish ishlarini arzonlashtirish yoki inslyatsion jarayonlarni oldindan belgilashda «smeta» ko`rsatkichlarining to`g`ri kelmasligi oqibatida ekologiyalashgan texnologiyalarni o`rnatmaslik.

Sanoat zonalarda korxonalarini ishga tushirishdan avval ularni ekologik ekspertizadan o`tkazish shartlari. Ekologik ekspertiza to`g`risidagi qonunning II-moddasiga muvofiq sanoat korxonalarining ishga tushirilishi ekologik xavfsizlikni ta`minlab berish imkoniyatiga ega bo`lmasa, ya`ni loyiha da ko`zda tutilgan tozalovchi va chiqitlarni zararsizlantirish inshootlari qonun hujjatlaridagi me`yorlarga to`g`ri kelmasa, bunday sanoat obyekti o`z faoliyatini boshlay olmaydi.

Korxonalarни qabul qilish komis-siyasi tarkibida, albatta, ekologik va sanitar-epidemiologik nazorat organ-lari mutaxassislarining qatnashuvini ta'minlash darkor. Komissiya raisi va a'zolarining shaxsiy javobgarliklari Jinoiy va Ma'murni javobgarlik to g`risidagi kodekslarda alohida belgilangandir.

Tabiatni muhofaza qilish to g`risidagi qonunning 41-moddasida korxonalar, tashkilotlar va boshqa obyektlarni joylashtirish, loyihalash qurish, rekonstruksiyalash, ulardan foydalanish va ularni tugatishga doit ekologik talablar belgilangan. Lekin mazkui moddada xo`jalik yurgizish vazifasi yuklatilgan sanoat yoki boshqa turdag'i korxonalarни ishga tushirish bo'yicha muhim talablar nazarda tutilmagan.

Ishlab chiqarishni yo`Iga qo`yan korxonalarga ekologik guvohnomalar berish Tabiatni muhofaza qilish to g`risidagi qonunning 46-modda siga muvosiq amalga oshiriladi. Ekologiya yoki gigiyena guvohnomasiga ega bo`Imagan, shuningdek, xo`jalik yuritish davomida belgilangan ekologik-sanitar mezonlarni buzgan korxonalar xom ashyo va materiallardan foydalanishi, texnologiya jarayonlarini joriy etishi va tayyor mahsulotlari ishlab chiqarishi man etiladi. Ekologik guvohnomalar berish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi va Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi hamda Sog`liqni saqlash vazirligi tomonidan amaly oshiriladi.

Sanoat zonalarida tabiiy resurslardan foydalanish limitlari va me'yori lari, atrof-muhitga yetkazilgan zararlarni korxonalar tomonidan qoplashning huquqiy normalari Tabiatni muhofaza qilish to g`risidagi qonunning IV, V, XI boblarida keltirilgan bir qator moddalar va qonun osti normativ hujjatlar asosida tartibga solinadi. Sanoat zonalarida ekologik talablarни xo`jalik yurituvchi subyektlar tomonidan buzganlarga, avvalambor, iqtiso diy javobgarlik choralarini qo llash (MJTK 50-modda), bu huquqbuzuliklar bir necha bor takrorlansa yoki bir marotaba qo`pol ravishda buzilsa yuridik javobgarlikning jinoiy jazo turlarini qo llash ko`zda tutilgan.

MAXSUS QISM

XIX BOB. ATROF TABIIY MUHITNI XALQARO-HUQUQIY MI HOFAZA QILISH

1. Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish tushunchasi va prinsiplari

O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida aniq qilib ko'rsatilgan ekologik prinsiplardan biri "Tabiatni muhofaza qilish sohasida milliy, mintaqalararo va xalqaro manfaatlarni uyg'unlashtirish"dir, chunki tabiatda sodir bo'ladigan jaryonlar va holatlar, jamiyatdagidan farqli, na ma'muriy na tabiiy chegarani biladi. Qirg'izistonda Sirdaryo irmoqlarining radioaktiv moddalar bilan ifloslanishi so zisiz O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalarida ekologik xavfsiz muhitga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Chernobil yoki Orol dengizi ekologik fojialati nasaqat Sharqiy Yevropa yoki Markaziy Osiyo, balki butun Yer kurrasidagi insonlarning "yashash huquqi"ning zaruriy elementlaridan biri bo'lgan ekologik xavfsiz muhit holatiga salbiy ta'sir etmoqda. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Birlashgan Millatlar Tashkilotining 50-sessiyasidagi ma'rurasida Orol muammosini xalqaro miqyosda hal qilishni taklif etdi va uning salbiy oqibatlari nasaqat O'zbekiston, balki butun dunyo hamjamiyati uchun tahdid solayotgan dolzarb masala qilib ko'rsatgan edi.

Ekologiya huquqi manbalarining boshqa huquq sohasidagi manbalar dan farqi yoki o'ziga xos tomoni - milliy ekologik qonunlarda xalqaro-huquqiy me'yormanni ko'proq aks etganligidadir.

Atrof tabiiy muhitni xalqaro muhofaza qilish deb insonlarning ekologik xavfsiz muhiti va davlatlarning bir me'yorda rivojlanishini ta'minlovchi xalqaro huquq prinsiplari, normalari va munosabatlari yig'indisiga aytildi.

Atrof tabiiy muhitni xalqaro miqyosda muhofaza qilish XIX asrning boshlarida yuzaga keldi. Avvaliga bu masala ikki davlat o'rjasidagi tabiiy obyektlardan teng huquqli toydalanimish ko'rinishida namoyon bo'lgan. Bunday ekologik munosabatlар ikki davlat o'rjasida tuzilgan umumiy shartnomalar tarkibidan joy olgan. 1913-yil 17-19-noyabrda Shveysariya ning Bern shahrida bo lib o'tgan xalqaro konferensiya ekologik muammo larni xalqaro huquqning maxsus masalalari toifasiga ko'tardi.

Shunday bo`lsa-da insoniyat tarixida ekologik muammolar XX asrning o`rtalarigacha mahalliy yoki milliy masalalar doirasidan o`rin olgan. Bu davrgacha davlat va jamiyat xavfsizligiga yoki ularning bir me'yorda rivojlanishi va inson huquqlariga global ta'sir qiluvchi muammolar turkumiga faqatgina harbiy va siyosiy masalalar kirgan. XX asrning ikkinchi yarmida, ya`ni ikkinchi jahon urushi yakunlanishi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining tuzilishi xalqaro xavfsizlikka tahdid solayotgan masalalar jumlasiga ekologik muammolarni ham kiritdi. Shu asrning 60-70 yillarida "sovuq urush" oqibatida Yer kurrasidagi insonlar hayotiga tajovuz solayotgan uch muammo - yadro to`qashuvi, yoppasiga tarqaluvchi kasalliklar va uchinchi o`rinda ekologik muammolar qo`yilgan bo`lsa, 90-yillarga kelib ekologik muammo va ularni xal qilish masalasi yetakchi o`rinni egallab oldi.

Rivojlanish va tabiatni muhofaza qilish bo`yicha Butunjahon Komisiyasi (Brundtlend) ma`ruzaсида "xavfsizlik g`oyasi tubdan o`zgargani, endilikda davlatlarning milliy suverenitetiga xavf solayotgan siyosiy va harbiy masalalar toifasiga mahalliy, milliy, regional va global miqyosda namoyon bo`layotgan ekologik inqiroz hisobiga kengayishi kerak"¹ deb bejiz aytilmagan.

Xalqaro miqyosda ekologik xavfsizlikni ta'minlash - atrof muhit sifatini tirik organizmlar uchun yetarli darajada ushlab turadigan, qayti tiklaydigan va oshirib boradigan xalqaro munosabatlarni shakllantirishni taqazo qiladi. Undan tashqari, ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun albatta butun dunyo mamlakatlari va xalqlarining bir me'yorda rivojlanishi, ekologik siyosat tizimida davlatlarning integratsiyalanishini taqazo qiladi. Bu borada BMT, davlatlararo va nodavlat tashkilotlarining egallagan o`rni va ularning ekologik masalalarini yechimini topishdagi ahamiyati kundan kunga o`sib bormoqda.

XXI asr bo`sag`asida insonlarning ekologik ong va tafakkurida keskin o`zgarishlar davri bo`ldi desak mubolag`a bo`lmaydi. Endilikda ekologik muammo har bir insonning qalbida va uning hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyat hisi uyg`ona bormoqda. Lekin bu hissiyot amalda o`z ifodasini topa olmayapti. Odamzodning yagona yashash makoni- Yer kurrsasi ekanligi, atrof tabiiy muhit esa uning "o`tirgan shox" ekanligi, bu shoxni insoniyat o`z faoliyati natijasida sekin astalik bilan arralayotganligini ular tomonidan anglab olinishining o`zi katta ekologik qadamdir. Keyingi qadam esa xalqaro-huquqiy me'yorlarga asoslangan holda ekologik madaniyat va mafratni o`surish, davlat boshqaruv va na-

zorat tizimida ekologik talablarni "birlamchi masalalar" turkumi datajasiga ko`tarishdir.

Insoniyatning ekologik tafakkurining shakllanishiga sababchi bo`lgan "Ekologiya" fanining yuzaga kelishi va bu sohadagi ilmiy izlanishlarning keng qamrovli olib borilish hamda atrof muhit holati bo`yicha ko`p gina ma'lumotlarni oshkora qilinishidir. So`ngi vaqtlar xalqaro "grand" uchrashuvlarida (Rio-de-Janeyro, 1992; Stambul, 1999...) aynan inson huquqlari va uni ta'minlab beruvchi asosiy omillardan biri bo`lgan - ekologik xavfsizlik masalasi ularning kun tartibida asosiy joyni olmoqda.

1972-yil BMTning kishilarni o`rab turuvchi atrof muhit muammojariga bag`ishlangan maxsus Stokholm (Shvetsiya) konferensiyasida xalqaro ekologik prinsiplar va harakatlar rejasiga doir Deklaratsiya qabul qilindi. Bu anjumanda BMTning atrof muhit bo`yicha dasturi - YUNEP tashkiloti tuzildi va Bosh Assambleyaning rezolyutsiyasiga binoan uning Markaziy qarorgohi Keniya poytaxti Nairobi shahri etib tayinlandi. Stokholm konferensiyasi xalqaro-huquqiy munosabatlarni tartibga solishning asosiy ko`rnishlaridan bir -regional ekologik harakatlarga asos soldi.

Hozirgi zamon xalqaro ekologik hamkorlik uch yo`nalishda amalga oshirilmoqda:

1) atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning davlatlararo va millatlararo hamkorlik va ulardagagi ijobiy tajribalarni keng targ`ib qilish;

2) ma'lum bir geografik mintaqa (regionda) yoki cheklangan tegralarda tabiatni regional muhofaza qilishning ilmiy asoslangan choratadbirlarini ishlab chiqish va ularni amaliy tadbiq qilish;

3) global ekologik muammolarni yechimini topishda BMTning idoralari, davlat va nodavlat tashkilotlar orqali universal yo`llarni ishlatish.

Umuman olganda, atrof muhit muhofazasi xalqaro miqyosda nasaqat ekologik talablar orqali amalga oshiriladi, balki ular ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy talablarni ham o`z ichiga qamrab olgan holda shakllanadi. Lekin, nazariy jihatdan qaraganda tabiatni muhofaza qilish me'yorlari faqatgina xalqaro ekologik munosabatlarni inobatga olishi kerak. Chunki ekologik muammolar dunyoviy muammolar - inson huquqlari, iqtisodiy, energetik, yadro urushi, oziq-ovqat, ta'lim kabilar muaamolar bilan uzviy bog`langandir. Har biri ekologik inunosabatlar bilan bevosita yoki bilvosita aloqadorlikda bo`lgani uchun ham mahalliy, regional, global masalalar qatoridagi yagona muammo bo`lib qarab kelinmoqda.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, har bir huquq sohasi jamiyatdagi ma'lum bir munosabatlarni tartibga solishda aniq qoida-prinsiplarga yondoshadi. Milliy qonunchilikni ishlab chiqish va shakllantirishda bu prin-

siplar har bir millat yoki davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'rifiy-madaniy, milliy an'analariga asoslangan holda belgilansa, xalqaro huquqda esa ikki va undan oshiq millat, xalq yoki davlatlarning umumiy manfaatlarni va eng avvalo inson huquqlariga yondoshgan tarzda belgilanib olinadi.

Xalqaro prinsiplar - xalqaro huquq subyektlari harakatlarining boshqaruv qoidalari. Xalqaro ekologik prinsiplar esa xalqaro hamkorlik ishtirokchilarining, ya'ni subyektlarining, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va xalqaro huquq obyektlaridan foydalanish borasidagi munosabat qoidalari. Bu qoidalalar xalqaro huquq me'yorlari zaminida yotishi va o'zar munosabatlarni huquqiy me'yorlash va mexanizmini ishlab chiqishda yo'nalish beruvchi ko'rsatma tarzida xizmat qilishi kerak.

BMT Nizomining 2-moddasida ko'rsatib o'tilgan va uning hamma a'zolari uchun majburiy hisoblangan xalqaro munosabat prinsiplari xalqaro ekologik prinsiplar zaminida yotadi. Xalqaro ekologik prinsiplar BMTning atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha o'tkazilgan Stokholm (1972) va biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha o'tkazilgan Rio-de-Janeyro (1992) konferensiyalarda, Yevropada xavfsizlikni ta'minlashning yakuniy Xelsinki hujjatida (1975) va Umumjahon tabiat Xartiyasida o'z aksini topgan.

Xalqaro ekologik huquqiy prinsiplar qo'yidagilardan iborat:

1. *Tabiiy resurslarga davlat suverenitetligi*. Bu prinsip BMT Bosh Assambleyasining 1962-yil 14-dekabrdagi avval "Tabiiy resurslarga nisbatan ajralmas suverenitet" va so'ogra, Stokholm (1972) konferensiya-sining deklaratsiyalarida o'z ifodasini topgan. Bu prinsipga binoan har bir xalqaro huquq subyekti xalqaro munosabatlarda o'z tabiiy boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishni milliy qonunchilik asosida olib borish huquqiga ega. Bu prinsipga binoan har bir mustaqil davlat tabiiy boyliklarni nafaqat egallash, foydalanish, balki tasarruf qilish huquqidan to'la foydalanish imkoniyati ochib berildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi - deb ta'kidlagan edi I.A.Karimov, o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarraqiyot kafolatlari" degan asarida - avvalam bor juda boy xom ashyo va tabiiy boyliklaridan o'zi bilganicha foydalanish huquqini paydo bo'lishidadir. Bunday foydalanish Chor Rossiya, so'ogra Sobiq Ittifoqi davridagi ekstensiv, ya'ni pala-partish va chala-yarim emas, balki mustaqillik davrida intensiv tarzda, ya'ni yuqori darajada samaradorlik bilan amalga oshirilmoqda. Milliy manfaatlarni qonunchilik asosida himoya qilina boshlandi va texnogen buzilgan

landshaftlarni qayta tiklash talablarini keng joriy qilish imkonini berdi. Chunki har bir davlatning tabiiy resurslarga bo`lgan suverenitetligi, uning xalqi va fuqarolarining yashash huquqini ta'minlash, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi buyuk ma'suliyat-milliy ekologik xavfsizlikni ta'minlash hissini tadbiq qilish imkonini berdi. Turkiston o`lkasi, so`ngra O`rtal Osiyo respublikalari Chor Rossiyasi yoki Sobiq Ittifoqning mehnat taqsimoti yoki iqtisodiy rivojlanish tizimidagi uzlusiz ta'minot va progressiv o'sish talablarini qondirishda tabiiy xom ashyo va arzon mehnat resurslari o`lkasi bo`lganligi hech kimga sir emas. Shuning uchun ham bu "cheffa o`lka" XXI asr bo`sag`asida ekologik inqirozli hududlar toifasiga kirib qolgan edi.

2. *Davlatlar o`z yuridiksiyasidan tashqaridagi atrof muhitgu zarar yetkazmaslik*. Bu prinsip 60-yillarda oddiy bir xalqaro huquq me'yori sifatida ishlatalgan bo`lsa, 1972-yil Stokholm konferensiyasida xalqaro ekologik hamkorlikning asosiy qoidalari toifasiga kirdgazildi. BMTning Nizomiga binoan har bir davlat yoki xalqaro huquq subyekti o`z hududi yoki nazorat doirasidagi harakatlari o`zga hudud yoki nazorat doirasida turgan davlatlarga zarar yetkazmasligi kerak va bular uchun javobgardir.

Afsuski, ma'lum bir siyosiy yoki iqtisodiy sharoitlarda bu qoida o`z kuchini o`tkaza olmayapti. Bunga misol qilib Tojikiston Respublikasi Tursunzoda shahrida ishlab turgan Alyumin zavodini olsak bo`ladi. Bu zavod qo'shni Tojikiston iqtisodiyotiga katta ulush qo'shayotgan va respublika uchun valuta tushumini ta'minlovchi yagona korxona desak mubolog'a bo`lmaydi. Lekin uning faoliyati qo'shni O'zbekistonning ekologik xavfsizligiga salbiy ta'siri 40 ziyod turdag'i iflosantiruvchi moddalarning tarqalishida ifodalananmoqda. Surxandaryo viloyatining shimoliy tumanlarda bиргина fтор birikmalarining atmosfera havosi va tuproqlarda to`planlik darajasi sanitarni normalardan 7,2 barobarga ko`pdir.

3. *Insonlarning ekologik huquqining afzalligi*. Bu prinsip bevosita inson huquqlaridan biridir. Chunki Yer yuzidagi barcha insonlar, ularning irligi, milliy, diniy, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, yashash huquqiga egadirlar. Yashash huquqi esa inson huquqlarining birlamchi omilidir. BMT Nizomining 3-xat boshi 1-moddasiga binoan xalqaro hamkorlikni davlatlar "inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilishlari va ularni rag`barlantirishni rivojlantirishlari" asosida olib borishlari kerak¹.

4. *Hamma bosqichda ekologik nazoratlash prinsipi yuqorida sanab o'tilgan xalqaro-huquqiy qoidalarni amaliy tadbig'ini kuzatib borish va kafillovechi institutlar tizimini yaratishni talab qiladi*. Agarda xalqaro

ekologik hamkorlik me'yorlarini amaliy tadbiqi uning qatnashchiları yoki uchinchi bir vakolatlari idoralar tomonidan nazorat qilinmasa, har qanday xalqaro hujjat deklarativ ko`rinishda bo`ladi va ular qog`ozda qolib ketadi. Bunday xalqaro nazorat institutini universal tarzda BMTning EKOSOS, YUNEP, YUNESKO, TMXI, JSST, XDK hamda MAGATE kabi umumiy yoki maxsus masalalar bo`yieha tuzilgan tashkilotlar yoki regional tarzdagi - OBSE, ADA, ABT, ADT, ASEAN kabi tashkilotlar olib borishi maqsadga muvosiq bo`ladi.

Bizning fikrimizcha, Markaziy Osiyo mintaqasida maxsus vakolatlari davlatlararo ekologik tashkilotni tuzish (masalan, "Turkiston bizning uyimiz", "Turk eko nazorat", "Turkistonda ekologik xavfsizlik") va uning qoshida qatnashuvchi davlatlardan nazorat, tergov va sud organlarini barpo etish zamon talabidir.

5. *Ekologik axborot almashuvni erkinligi prinsipi* xalqaro hamkorlik qatnashchilaridan o`z milliy chegaralarida yuz berayotgan atrof tabiiy muhitning salbiy o`zgarishlari haqida vaqtida axborot berib borishni na zarda tutadi. Chunki ekologik jarayonlar ma'muriy chegarani "tan olmaydi" va ular qo'shni mamlakatning ekologik xavfsizlik darajasiyu salbiy ta'sir etishi mumkinligini e'tirof etadi. O`z paytida va tezkor olingan axborot ekologik xavfni oldini olish va uni birgalikda yoki xalqaro hamjamiyat yordamida bartaraf qilish imkonini beradi.

6. *O`zaro ekologik konsultatsiyalash prinsipi* bundan oldini axborot lash prinsipini davomi desak bo`ladi. Konsultatsiyalash yoki maslahatlashi prinsipi-yuzaga kelgan ekologik inqiroz holatini keng yoyilishini oldini olish va uni bartaraf qilishning xalqaro strategik maqsad va takom vazifalarini aniqlab olish. unga qarshi kurashishning chora-tadbirlari qo`lami va yo'llarini aniqlashtirishga imkon beradi.

7. *Ekologik inqirozli holatda davlatlarning o`zaro yordam ko`rsatish prinsipi* davlatlarning o`zaro gumanitar yordam ko`rsatish va oqibatda o`z milliy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan harakatlar toifasiga kiradi. Markaziy Ostyoda vujudga kelgan "Orol muammosi"ni xal qilishda 100dan ziyod davlat yoki nodavlat tashkilotlarning ishtiroy etishi va keyingi 10 yil mobaynida ularning yuz millionlab AQSH dollari miqdorida bizlarga moddiy yordam ko`rsatishlari bunday oljanob prinsipni amalda qo'llanilayotganiga aniq bir misol bo`la oladi.

Huquqiy-ekologik nizolarни tinchlik bilan xal qilish prinsipi xalqaro huquq subyektlari orasida ushbu nizolar orqali atrof tabiiy muhit yanada ko`proq zarar yetkazuvchi "sovutq urush"larni yoki harbi to`qashuvlarni oldini olishga qaratilgandir. Zamon talabi har qanday

salbiy jarayonlarni diplomatik vositalar orqali xal qilish va davlatlarning butun kuchini har qanday urushlarga emas, balki insonlarga xavf solayo-tigan ekologik inqirozlarga sarf qilishlarini da'vat qiladi.

2. Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish manbalari

Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish manbalari *moddiy nuqtai nazardan* butun dunyo hamjamiyati a'zolarining atrof tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishdagi xohish va irodalari tushuniladi.

Rasman esa atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish inanbai deb xalqaro ekologik munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar yig`indisiga aytildi.

Xalqaro huquqiy hujjatlarga - shartnomalar, kelishuv, konvensiya, rezolyutsiya, xartiya, deklaratsiya, qaror (protokol)lar kiradi. Ayrim hollar da xalqaro-huquqiy hujjatlarga davlatlarning ichki qonunlarini ham kirgazadilar, qachonki milliy qonunlar xalqaro-huquq me'yorlariga nisbatan atrof tabiiy muhit muhofazasi ko`proq ta'minlab bera oladigan bo Isa. Nima bo`lganda ham milliy qonunchilik, bizning fikrimizcha, to`lig`icha xalqaro-huquqiy manba bo`la olmaydi. Faqatgina ma'lum bir xalqaro huquq subyekti bo`lmish davlatlar hududida ekologik talablarga ko`proq javob beradigan normalar qo`llanishi mantiqan to`g`ri deb topilgандир.

Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilishda markaziy o`rinni rezolyutsiyalar egallaydi. Chunki Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasini rezolyutsiyalarida davlatlarning xalqaro hamkorlikdagi ekologiyaga oid asosiy prinsiplari va harakat qoidalari aks etgan. "Rezolyutsiya" lotin tilida "xal qilish", ya`ni ma'lum bir yig`in (syezd, komitet, konferensiya, simpozium...)larning xulosalovchi yoki xal qiluvchi qarorlari.

BMT Bosh Assambleyasining 1962-yil 18-dekabr "Iqtisodiy rivojlanish va tabiat muhofazasi", 1968-yil 3-dekabr "Insonlarning ekologik huquqlari", 1980-yil 20-sentabr "Hozirgi va kelaiak avlodlar oldida davlatlarning Yer tabiatini muhofaza qilishdagi javobgarligi to`g`risida"gi rezolyutsiyalarida tabiatni muhofaza qilishning bir butunligi, ya`ni uning takibiy qismlari (komponentlari)ning ajralmasligi, tabiatni muhofaza qilish insonlarni o`rab turuvchi atrof muhitni muhofaza qilish bilan yagona ma`noni anglatishi e'tirof qilindi. Undan tashqari, ushbu anjuman rezolyutsiyalarida iqtisodiy rivojlanish tabiatni muhofaza qilish bilan o`zaro tuyg`unlashgan holda bo`lishi, inson huquqlaridan biri ekologik

xavfsiz muhitda yashash huquqi ekanligi, qurollanishni kamaytirish orqali davlatlarning tabiatni muhofaza qilishga bo`lgan e'tiborini kuchaytirishi kerakligi kabi qarorlari o`z o`rnini topgan.

Xalqaro-ekologik munosabatlarda ko`pincha "xartiya" so`zi ishlataladi. *Xartiya* - grekchada "qog`oz", ya`ni qog`ozga bitilgan ommaviy va siyosiy hujjat ma`nosida ishlataladi. 1982-yil 28-oktabrda BMT Bosh Assambleyasida qabul qilingan "Umumjahon tabiatni muhofaza qilish xartiyasi"da xalqaro ekologik huquqning 24 prinsipi qabul qilingan va unga binoan BMTga a`zo mamlakatlar o`zining milliy ekologik qonunlarini ularga moslashtirishlari kerak.

Xalqaro huquqda amaldagi milliy qonunchilikni xalqaro huquq talablariga moslashtirishni "implementatsiya" deyiladi. BMTning mustaqil subyekti bo`lmish O`zbekiston Respublikasi xalqaro hamjamiatga dagil qadamlar bilan kirib borar ekan, huquq sohasida uning oldida 3 katta vazifa turadi: 1) mamlakatda demokratik jamiyatni barpo etish va mo`tabbi iqtisodiy rivojlanishni ta`minlab beruvchi huquqiy me`yoriy hujjatlar qabul qilish; 2) milliy qonunchilikni nafaqat Konstitutsiyaga, balki xalqaro prinsiplarga ham moslashtirish; 3) albatta, ushbu takomillashgan qonuni me`yorlarini hayotga tadbiq qilish mexanizmini yaratish.

Tabiatni muhofaza qilish to`g`risidagi O`zbekiston Respublikasi qonuning 4-moddasida ko`rsatib o`tilgan: fuqarolarning hayoti uchun qulay tabiiy muhitga ega bo`lish huquqini ta`minlash, tabiatni muhofaza qilish sohasida milliy, regional va xalqaro manfaatlarni uyg`unlashtirish, insonning yashash muhiti bo`lmish biosfera va ekologik tizimlarning barqarorligini saqlab qolish prinsiplari tabiat xartiyasida ko`rsatib o`tilgan xalqaro qoidalarga mos tushadi.

1990-yil 21-noyabr "Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasi"da (1991 yil 27-noyabrdan O`zbekiston Respublikasi ham qo`shilgan) insonning yashash huquqi elementi bo`lgan ekologik xavfsiz muhitni yaratish har bo`ishtirokechi mamlakatning burchi ekanligi alohida ta`kidlangan.

Shartnomalar - siyosiy ahamiyat kash etuvchi va boshqa siyosiy, iqtisodiy, ma`rifiy-madaniy masalalar qatori atrof muhit muhofazasiga hisob oid xalqaro me`yorlarni o`zida aks ettiruvchi hujjat. Shartnomalar XX asming ikkinchi yarmida keng tarqalgan xalqaro huquq manbai bo`lib, ulardan umumiyligi, regional va ikki tomonlama tuzilishi mumkin.

Dunyoda 300 dan ziyod ekologik munosabatlarni o`zida qamish olgan xalqaro shartnomalar tuzilgan bo`lib, ularning ichida eng salohi shartnomalar umumiyligi turdagi "Yevropa xavfsizlikni ta`minlashning yakun shartnomasi" (Xelsinki, 1975-yil), "Atmosfera, kosmik fazo va

yader qurollarini sinashni to`xtatish to`g`risida" (1963-yil), "Yader qurolini tarqatmaslik to`g`risida" (1968-yil) kabi shartnomalar bo`lib, ular butun dunyo mamlakatlari uchun taalluqlidir.

Regional turdag'i shartnoma Markaziy Osiyo mamlakatlari o`rtasida 1992-2000-yillar ichida tuzilgan bir qator o`zaro hamkorlik shartnomalari misol bo`la oladi.

Ikki tomonlama O`zbekiston - Qozog`iston, O`zbekiston-Tojikiston, O`zbekiston-Qirg`iziston, O`zbekiston-Turkmaniston respublikalari o`rtasida tuzilgan shartnomalar atrof muhitni birqalikda muhofaza qilish va ayniqsa ularning hududlarida oqib o`tadigan suv resurslaridan unumli toydalanish va ularning ifloslanishini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish kabi xalqaro huquqiy me`yorlar belgilanib olingan.

Agarda shartnoma ma'lum bir turdag'i xalqaro munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo`lsa, u "Konvensiya" deb ataladi. Konvensiya - lotin tilida "shartnoma" "shart", "kelishuv" degan ma'noni anglatadi. Konvensiya ikki va undan ortiq xalqaro tabiiy obyektlarni muhofazalash yoki ulardan birqalikda foydalanishni nazarda tutsa *kompleks-ekologik*, ma'lum bir turdag'i xalqaro tabiiy obyektdan foydalanishni nazarda tutsa *resurs-ekologik* deb ataladi.

Kompleks-ekologik -konvensiyalarga BMTning YUNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan 1972-1973-yillarda qabul qilingan "Butunjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish" va "Yo`qolish xavfida turgan yovvoyi turdag'i fauna va flora turlarini savdo qilish" konvensiyalari kiradi.

Resurs-ekologik konvensiyalarga 1979-yili Bonnda qabul qilingan "Ko`chib yuruvchi yovvoyi hayvonlarni muhofaza qilish", 1985-yili Venada qabul qilingan "Ozon qatlamini himoya qilish" kabi ekologik shartnomalar kiradi.

O`zbekiston Respublikasi xalqaro hanjamiyatning mustaqil subyekti sifatida quyidagi ekologik konvensiyalarga qo'shilgan:

1993-yil 14-maydan "Iqlimga ta sir etishni chegaralash".

1995-yil 13-oktabrdan "Saxrolanishga qarshi kurash".

1995-yil 15-iyundan "Afrika-Osiyo qit'alarida ko`chib yuruvchi qushlarini muhofaza qilish".

1996-yil 7-maydan "Biologik xilma-xillik".

1996-yil 7-maydan "Xavfli chiqitlarni tashish va ularni yo`qotish"

1997-yilda "Yo`qolib ketish xavfi osudagi yovvoyi flora va fauna turlarining xalqaro savdosи to`g`risida"

2004-yil 27-avgustda "O'simliklarning yangi navlarini muhofaza qilish to`g`risida"gi konvensiyasi.

Qabul qilingan konvensiyalarni amaliy tadbiq qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan quyidagi tadbirlar ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda:

- ozon qatlamiga salbiy ta'sir etuvchi moddalarni inventarizatsiya qilish;

- Vena konvensiyasi va Montreal qarori bo'yicha "Ozon qatlamini muhofaza qilishning Milliy Dasturini tayyorlash";

- Biologik xilma-xillikni saqlash konvensiyasi bo'yicha Milliy Dastur ishlab chiqish va h.k.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish masalasida mustaqil respublikamiz diplomatik munosabatlarda ko'proq ikki va ko'p tomonlama kelishuvlari qo'llanilmoqda.

1996-yil 8-mayda O'zbekiston Respublikasi bilan Turkiya Respublikasi va 1997-yil 11-dekabrda Xitoy Xalq Respublikasi o'rtaida tabiatni muhofaza qilishga doir kelishuvlarga imzo chekilgan. Xuddi shunday masaladagi kelishuvlari O'zbekiston-Germaniya, O'zbekiston-Niderlandiya Qirolligi, O'zbekiston-Vengriya, O'zbekiston-Slovakiya, O'zbekiston - Isroi, O'zbekiston-Lyuksemburg va O'zbekiston-Yevropa Ittifoqi bilan imzolangan.

Hamdo'stlik mamlakatlari-Ukraina, Qozog'iston, Belorus, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Gruziya respublikalari bilan ham O'zbekiston Respublikasi ikki tomonlama ekologik masalalar bo'yicha kelishuvlarga ega. Qirg'iziston, Qozog'iston va O'zbekiston respublikalari o'rtaida ko'p tomonlama atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish borasida kelishuv mavjud.

1992-yil 8-fevral Moskvada qabul qilingan MDH mamlakatlari orasidagi kelishuvga binoan (2-modda) Oliy darajadagi tomonlar qatnashchilar (Ozarbayjon, Armoniston, Belorus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston respublikalari) o'z hududlarida:

- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha qonun hujjatlarini, ekologik huquqiy me'yorlarni va standartlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi;

- tabiiy resurslar va ulardan oqilona foydalanishning son va sifat ko'rsatkichlarini hisobini oladi va ekologik monitoringni olib beradi;

- atrof tabiiy muhit va resurslar holati, ularni o'zgarib borishi haqida samarali davlat nazoratini o'mnatadi;

- jonli resurslarni takror ishlab chiqarish, biologik xilma-xillikni saqlash va ularni tiklash bo'yicha tadbirlar qabul qiladi;
- qo'riqxonalar, buyurtma qo'riqxonalar, milliy bog'lar va boshqa alohida muhofaza etiladigan tabiiy hudud va komplekslarni rivojlanitiradi va ular atrofidagi tegralarda xo'jalik va boshqa inson faoliyatini cheklaydi;
- o'z hudedularida xo'jalik va boshqa faoliyatlarini ekologik oqibatlarini har tomonlanna baholab boradi;
- tabiiy ofat, ekologik falokat va inqirozlarni oldini olish uchun kerakli bo'ladijan maxsus kuchlarni va vositalarni tashkil qiladi va ularning faoliyatini ushlab turadi.

Xalqaro ekologik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda "Deklaratsiya" (lotin tilida - e'lon qilish, tushuntirish), ya'ni ma'lum bir tashkilot, davlat yoki partiyalarning asosiy prinsip va me'yorlarini tantanali ravishda e'lon qilish ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ularga misol qilib 1986-yil 4-oktabrda BMT tomonidan qabul qilingan "Rivojlanish huquqi to'g'risida", 1969-yil 11-dekabr "Ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot", 1975-yil 10-noyabr "Ilmiy-texnik rivojlanishdan tinchlik va inson farovonligi yo'lida foydalanish" kabi deklaratsiyalarni keltirish mumkin.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga doir xalqaro munosabatlarni tartibga solishda memorandum (lotin tilida - nimani tushuntirmoq kerak, ya'ni diplomatik mulohazalar predmeti bo'lgan masalalarni aks ettiruvchi hujjat), qaydnomaga (asesiy shartnomaga qo'shimcha qilinadigan hujjat)larni ham juda katta ekologik ahamiyati bor.

3. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning xalqaro-huquqiy obyektlari

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning xalqaro-huquqiy obyekti deb xalqaro-huquq subyektlarining ekologik munosabatlar predmeti bo'lgan tabiiy obyektlar, ya'ni o'zining xususiyati, joylanishi va ahamiyati nuqtai nazardan biron bir davlat yuridiksiyasiga kirimaydigan va shuning uchun ham ikki va undan ortiq mamlakatlar yoki xalqaro-huquq subyektlari mulki bo'lgan tabiiy obyektlardir. Misol tariqasida Amudaryo va Sirdaryolarni olsak bo'ladi. Ular o'z tabiiy xususiyatiga va ahamiyatiga ko'ra ekologiya huquqining obyektiidir. Lekin ulardan huquqiy foydalanish va ularni muhofaza qilish faqatgina O'zbekiston Respublikasi tomonidan amalga oshira olinmaydi. Chunki bu ikki buyuk daryo Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'aniston respublikalaridan boshlanadi va qo'shni Qozog'iston va Turkmaniston respublikalaridan oqib o'tadi. Bu daryolarning yuqori

qismidagi suvlarni ifloslantirish yoki suv rejimini o`zgartirish albatta ulan oqib o`tadigan davlatlarga salbiy ta'sir ko`rsatishi mumkin. Shuning uchun ham bunday obyektlardan foydalanish va muhofa qilish xalqaro huquq manbalari orqali tartibga solib turiladi.

Xalqaro ekologik-huquqiy obyektlarning ikki turi: xalqaro-huquqiy muhofazalash obyektlari va xalqaro-huquqiy tabiiy obyektlar mavjud.

Xalqaro-huquqiy muhofaza qilish obyektiga - havo basseyni, faze dunyo okeani, Antarktika, ko`chib yuruvchi hayvonlar va qushlar kiradi.

Xalqaro-huquqiy tabiiy obyektiga - implementatsiya qilingan milliy qonunlar asosida muhofaza qilinadigan va ulardan foydalanadigan tabiiy obyektlar kiradi. Ikki va undan oshiq mamlakatlar hududlarida joylashgan daryolar, ko`llar, dengizlar hamda xalqaro Qizil kitobiga kirkazilgan noyob va yo`q bo`lib ketayotgan o`simlik va hayvonot dunyosi turlari kiradi.

Havo basseyni o`z ichiga Yerning atmosfera qatlamini qamrab oladi. Garchand uning muhofazasi milliy qonunlar bilan ham tartibga solinsada, lekin atmosfera qatlamidagi iqlim resurslari doimo sirkulatsiya (aylanma harakat)da bo`lgani uchun ham bu qatlamidagi barcha jarayonlar hech qanday ma`muriy chegaraga bo`ysinmaydi.

Havo basseynining xalqaro muhofazasi asosan 4 yo`nalishda amalga oshiriladi:

- 1) iqlim va ob-havoga salbiy ta'sirning oldini olish;
- 2) atmosfera havosini ifloslantirishni davlatlararo tarqalishini oldin olish va bartarasf qilish;
- 3) ozon qatlamini yemirilishdan muhofazalash;
- 4) atmosfera havosini nazoratlash va tozalash borasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Global miqyosda havo basseynini muhofaza qilishda 1977 yilda qabul qilingan "Tabiiy muhitga harbiy va boshqa har qanday adovatli ta'sir qiluvchi maqsadlarda foydalanishni taqiqlash" hamda 1985 yilgi Vena va 1989 yilgi Bazel konvensiyalarini keltirib o`tish joizdir.

Fazo havo basseynidan farqli, biron bir davlat yuridiksiyasiga bo`lmaydigan xalqaro-huquq obyekti hisoblaniladi. Bu o`rinda 1963-yil BMU Bosh Assambleyasining "Kosmik kenglikdan foydalanishda davlatlarning faoliyatining huquqiy prinsiplari Deklaratsiyasi" va 1967-yildagi "Fazo Kengligi. Oy va boshqa osmon jinalaridan foydalanish va ularni tadqiq qilishda davlatlar faoliyatining prinsiplari to`g`risida"gi kelishuvlari misol qilib olsak bo`ladi. Bu xalqaro me'yoriy hujjatlarga muvosif Fazo umum insoniyat boyligi va undan foydalanishni faqatgina tinchlik yo`lib.

amalga oshirilishi hamda ularni ifloslantirish va unga salbiy ta'sir ko`rsatishga yo`l qo`yilmaydi. Ammo hozirgi kunda fazoni "zabt etgan" mamlakatlar undan millitaristik yo`lda foydalanishni to`xtatayotganlari yo`q. Fazoda minglab harbiy-shpion suzo kemalari uchib yuribdi. 3,5 mln.dan oshiq turli ko`rinishdagi fazoviy chiqitlar mavjud va ular erkin harakatdir.

Dunyo okeanlari Yer sharining 3/2 qismini band etgan holda, butun suvlarning 97% o`zida mujassamlashtirgan. Ular nafaqat arzon va qulay transport yo`li , balki oziq-ovqat maskani hamda Yerdagi hayotni ushlab turuvchi yetakchi omil hamdir. Chunki atmosfera havosidagi 70% kislorod okeanlardagi fitoplanktonlarning fotosintez jarayonlarida qatnashuvi orqali yuzaga keladi. Duayo okeani suvning ekologik tizimdagagi katta aylanishi jarayonida faol qatnashadi va u "tozalovchi filtr" bo`lib xizmat qiladi. Dunyo okeanlaridan foydalanish hech qaysi davlatning yuridiksiyasiga kirmaydi va shuning uchun ham uning muhofazasi xalqaro huquqiy me'yorlarning amaliy samaradorligiga to`g`ridan to`g`ri bog`liqidir.

Dunyo okeanlarini huquqiy muhofazalash shu kunda qo`yidagi yo`nalishlarda olib borilmoqda:

ximik va radioaktiv moddalardan, neft va nest mahsulotlaridan ifloslanishini oldini olish;

- harbiy maqsadlarda okeanlardan foydalanishni to`xtatish;
- okean faunasini va florasini saqlab qolish, qayta tiklash va takroriy ishlab chiqarish;

- okean resurslaridan o`ta samaradorlik bilan toydalanish va hokazo.

1963-yilda qabul qilingan "Atom qurolini sinovdan o`tkazishni uch sferada taqiqlash to`g`risida"gi shartnomaga bino hech qaysi bir davlat okeanda o`z qurollarini sinashlari mumkin emas. 1954, 1962, 1969, 1971, 1972-yillarda qabul qilingan Dunyo okeanini muhofaza qilishga qaratilgan bir qator Konvensiya va Qaydnomalarga binoan kemalardan inson va jonli mavjudga ta'sir qiluvchi nest va boshqa mahsulotlarini oqizish, tashlash qat'ian man qilinadi va ularga yetkazilgan moddiy va ma'nnaviy zarar uchun javobgarlik belgilangan. Keltirilgan zararni iqtisodiy qoplash maqsadida har bir kema va kompaniyalar sug`urtalanishi va moliyaviy hujjatga ega bo`lishi kerak.

1990-yildan boshlab AQSH portlariga faqatgina ikki qavatli korpusiga ega bo`lgan nest tankerlarining kirishiga ruxsat beriladi. Chunki dengiz va okeanlarning ifloslanishida nest tankerlarining "xizmati" juda katta. Masalan, 1973-yili talofatga uchragan "Amoko Kazus" supertankeridan 220 ming tonna, 1989-yili Ispaniya supertankeridan 217 ming tonna nest

okeanga oqizilgan. 1989-yil Alyaska qirg`oqlarida dengiz riflariga urilgan "Ekason Valdiz" kemasidan oqizilgan nefstni tozalash uchun 2 mldr. amerika dollari sarf qilingan. 1967-yilda Liberiya tankeri falokati Angliya va Fransiya davlatlarining 180 kilometrlik masofada qirg`oq bo`yini ifloslantirgan.

Okeanlar uchun yana bir katta xavf to`g`dirayotgan ifloslanish omili - radioaktiv chiqitlarni okeanlarga tashlash va joylashtirish. Atom floti va atom sanoatini yo`lga qo`yilgan mamlakatlar tomonidan yiliga minglab tonna miqdorida o`ta xavfli bo`lgan radioaktiv chiqitlar dunyo okeanlariga tashlanmoqda.

Antarktika - hech qaysi bir davlat yuridiksiyasida kirmaydigan va xalqaro-huquqiy me`yorlar bilan tartibga solib turiladigan Yer kurrasidagi eng sovuq, oltinchi qit'a. Bu qit'anı muhofaza qilish va undan foydalanish Antarktika to`g`risidagi shartnomaga ko`ra (1959-yil) olib bortadi. Shartnomaga ko`ra Antarktikadan ilmiy maqsadlarda erkin foydalaniladi; va harbiy yo`nalishdagi har qanday harakatlar bu qit'ada man qilinadi, ulardagи dengiz va kuruqlik hayvonlaridan foydalanish va ularni muhofazasiga doir maxsus "Antarktika havzasidagi hayvonot dunyosini muhofaza qilish to`g`risida"gi konvensiyaga muvofiq amalga oshiriladi. BMT ning YUNEP tashkiloti Antarktikadagi ekologik munosabatlarni tartibga solishni kuzatib boradi.

Xalqaro Qizil kitob - 1972-yili noyabr oyida bo`lib o`tgani BMT YUNESKO tashkilotining konferensiyasida qabul qilingan "Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to`g`risida"gi konvensiyaga muvofiq tuzildi. Unda Yer kurrasida noyob va yo`qolish xavfi ostida turgan o`simlik va hayvonot dunyosi turlarining biologiyasi, tarqalishi, yo`qolib ketish sabablari va muhofaza qilish choralarini ko`rsatib o`tilgan.

Xalqaro tabiatni qo`riglash ittifoqi *Qizil* kitob uchun ma'lumotlarni 1949 yildan beri to`playdi va 1966-yili "Red Data Book" nomi bilan ingлиз tilida chop etdi. XX asrning 80-yillarning boshiga kelib sut emizuvchilarining 236, qushlarning 485, sudralib yuruvchilarining - 141, baliqlarning 194 turlari *Qizil* kitobga kirtildi. Hozirgi kunda ularning soni 2 kartagacha ko`paygan.

Xalqaro *Qizil* kitobga kiritilgan flora va fauna dunyosi turlari qaysi bir mamjakat hududida yashashidan qat'i nazar ular muhofaza qilinishlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan nazorat ostida bo`lishlari kerak. Ko`chib yuruvchi hayvonlar va qushlarning vaqtinchalik yashash makoni bo`lgan hotqoq, ko`l, daryo yoki landshaftlar alohida muhofaza qilinadigan tabiiy obyektlar toifasiga kirdgazilishini xalqaro huquqiy normalar talab qiladi.

YUNESKOning "Kishilar va biosfera" xalqaro dasturida muvofiq O`zbekistonda yangi ko`rinishdagi - biosfera qo`riqxonasi tashkil etildi.

Bo`linadigan tabiiy resurslarga doimo yoki vaqtinchalik ikki va undan oshiq mamlakatlar hududlarida joylashgan dengiz (Boltik, Oxota, Xitoy), daryo (Dunay, Sirdaryo, Amudaryo), ko`llar (Buyuk ko`llar, Kaspiy, Orol) kiradi.

Bo`linadigan tabiiy resurslarni huquqiy tartibga solish asosan undan manfaatdor mamlakatlar o`rtasidagi manbalarga tayangan holda amalgalashiriladi. Bu me'yoriy hujjatlarda ulardan foydalanish, ularni muhofaza qilish, ularga oid nizolarni xal qilish, to`lovlar, takroriy ishlab chiqarish masalalari aks etadi. Boshqaruv organi sifatida turli shakldagi ekologik komissiya yoki komitetlar tuziladi. Masalan, Orol ko`li va uning havzasi bo`yicha Markaziy Osiyo davlatlarining "Orolni qutqarish" doimiy komissiyasi ishlab turibdi. 1995-yil BMTning Orol havzasiga bag`ishlangan maxsus xalqaro konferensiyasida Nukus deklaratsiyasi, 1997-yil 28-fevralida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Almati uchrashuvida Almati deklaratsiyasi qabul qilindi. "Orol dengizini qutqarish" xalqaro jamg`armasi tashkil etildi va qatnashuvechi mamlakatlar (O`zbekiston, Qozog`iston, Tojikiston, Turkmənistən respublikaları) yillik badallari mamlakat budjetidan 0,3 % miqdorida belgilandi.

Orol dengizi suvini to`yinturib turuvchi ikki daryo - Amudaryo va Sirdaryolar ham xalqaro-huquq obyekti hisoblaniladi. Ulardan foydalanshi tartibga solishni "Basseynlar bo`yicha komissiyalar" ko`rib chiqadilar va har yili, sharoitga qarab, xalqaro huquq subyektlarining foydalanish bo`yicha aniq bir me'yoriy hujjatlarni qabul qildilar.

4. Xalqaro ekologik tashkilotlar, konferensiylar va jamg`armalar

Umuminsoniyat qadriyatlaridan biri bo`lmish Yer kurrasidagi atrof tabiiy muhitni muhotaza qilish va xalqaro tabiiy resurslaridan samarali foydalanishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan ekologik tashkilotlar, muassasalar va idoralar o`zlarining faoliyat doirasiga ko`ra universal va regional (mintaqaqiy) turlarga ajratiladilar.

Universal, ya`ni faoliyat doirasiga ko`ra turli toifadagi, siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish yo`nalishidagi hamda dunyoning barcha mintaqalardagi davlatlarning ekologik munosabatlariiga qaratilgan xalqaro tashkilotlarga BMT va uning ixtisoslashgan muassasalarini kiradi.

BMT 1945 yil 25 oktabrdan buyon faoliyat yurgazib kelayotgan eng nufuzli xalqaro davlatlararo tashkilot bo`lib, o`z oldiga davlatlar o`rtasida

tinchlik va xavfsizlikni saqlash, mustahkamlash va o zaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadini qo`yadi. Atrof muhitni muhofazat qilish masalasi BMTning Nizomidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Bosh Assambleya - BMTning eng yuqori toifadagi organlaridan bo`lib, u xalqaro masalalarga doir hamma dolzarb masalalarini kun tartibiga kirgazadi. Keyingi 20-30-yil mobaynida Bosh Assambleyaning kun tartibiga ko`pincha ekologik masalalar ham kirkazildigan bo`lib qoldi. Bosh Assambleya atrof muhit muhofazasiga doir muammolar yuzasidan unga a`zo davlatlar va Xavfsizlik Kengashiga tegishli tavsiyalar berishga haqlidir. Shuning uchun ham Bosh Assambleya sessiyalarida yirik jamoat, davlat va siyosiy arboblarning ma`ruzasi tinglanadi va unga muvofiq xulosalar qilinadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti J.Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48 va 50-sessiyalarida so`zlagan nutqlarida jahon hamjamiyatining diqqat e'tiborini Orol dengizining qurib borayotganligiga va uning oqibatida kelib chiqayotgan ekologik inqirozli holatga qaratdi. Natijada 1995 yil 18-20-sentabrda BMT rahbarligida Orol muammollariga bag`ishlangan xalqaro konferensiya o`tkazildi.

BMT ning ekologik tadbirlari, uning asosiy organlari yoki yordamchi idoralari orqali amalga oshiriladi. Bosh Assambleya qoshidagi BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (EKOSOS) ma'lum bir turdag'i aniq vazifalarni bajaradi. Ular toifasiga ekologik masalalar ham kirdi. Ekologik masalalar uning rahbarligi ostidagi qo`mita va komissiyalar vazifasiga yuklatilgan. Ulardan biri Tabiiy boyliklar qo`mitasi-ekologik vazifalarni bajarishda alohida o`rin tutadi. EKOSOS o`zining qo`mita va komissiyalar faoliyatini umumlashtirib Bosh Assambleyaga tavsyanomalar beradi va konvensiyalar tayyorlaydi, o`z huquq doirasida xalqaro ekologik konferensiylar chaqiradi, ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan birgalikda ekologik bitimlar tuzadi.

Aniq bit turdag'i ekologik masalalarni BMTning ixtisoslashtirilgan tashkilotlari olib boradi. Ixtisoslashtirilgan tashkilotlar BMT Nizomining 57-moddasiga muvofiq davlatlararo tuzilgan bitimlar orqali tashkil etiladi va o`zlarining ta'sis hujjatlariga binoan bevosita yoki bilvosita ekologik masalalar bilan 63-moddasida ko`rsatib o`tilgan qoidalarga asoslangan holda shug`ullanadilar. BMT qoshida faoliyat ko`rsatayotgan 16 dan ziyod ixtisoslashgan tashkilotidan quyidagilari atrof tabiiy muhit muhofazasiga doir masalalar bilan bevosita shug`ullanadilar.

YUNEP - BMTning atrof muhit bo`yicha dasturi 1972-yil 15-dekabrida tashkil topgan bo`lib, u Afrika qit'asidagi Keniya davlatining poytaxti Nairobi shahrida bosh shtabi joylashgan. Bosh Assambleya rezolyutsiyasiga muvofiq tashkil etilgan. YUNEP ning uchta bo`limi - boshqaruvchilari

Kengashi, atrof muhit muhofazasini muvofiqlashtiruvchi Kengash va atrof muhit Jaung`armasi mayjud. Xal qiluvchi masalalar boshqaruvchilar Kengashi tomonidan ko`rib chiqiladi va amalga oshiriladi. Shu kunda uning kun tartibiga 8 yo`nalish bo`yicha ekologik masalalar kirgazilgan:

- atrof muhit sanitariyasi, aholi punktlari va kishilar salomatligi;
- yer va suv muhofazasi, saxolanishni oldini olish;
- okeanlarni muhofaza qilish;
- tabiat, yovvoyi hayvonlar va genetik resurslar muhofazasi;
- energetik muammolar;
- ekologik o`quv va mutaxassislarini tayyorlash;
- tabiiy resurslar savdosi, iqtisodi va texnologiyalar;
- xalqaro va milliy qonunchilikni kodifikatsiyalash va unifikasiyalash.

YUNEP va ayrim rivojlangan mamlakatlar yordamida O`zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlashning milliy dasturi va 10 dan ziyod milliy ekologik qonunlar ishlab chiqildi. O`zbekistonda ekologik axborot tizimi YUNEP/GRID - ARENDAL (Norvegiya) loyihasi tayyorlandi.

O`zining ekologik funksiyalari bilan YUNEP ga yaqin bo`lgan BMT tashkilotlaridan biri YUNESKO, ya`ni madaniyat, fan va moarif masalalari bo`yicha tashkilot. YUNESKO 1948-yil tashkil topgan va uning Nizomiga muvofiq atrof tabiiy muhit muhofazasiga doir quyidagi masalalarni xal qilishda faoliyat yurgazadi:

100dan ortiq mamlakatlar ishtirot etadigan xalqaro ekologik dasturlarga rahbarlik qilish. Shular qatorida O`zbekiston Respublikasida faoliyat yurgazib kelayotgan "Inson va biostera" (MAB), Tabiat muhofazasiga doir xalqaro moarif dasturi, Xalqaro gidrologik dastur (1995-yildan buyon YUNESKO va Germaniya fan va texnologiyalar vazirligi loyihasiga binoan Orol dengizi atrofidagi yer usti va osti suvlarini baholash va modellashtirish ishlari olib borilmoqda) va hokazo;

- tabiiy obyektlari muhofazasini hisobga olish va tashkil etish. Shunga asosan Yer kurrasining turli burchaklarida biosfera qo`riqxonalari tashkil etilgan. Biosfera qo`riqxonalarni tashkil qilish, ularda atrof muhitga inson faoliyatining ta'sir etish darajasining monitoringini olib borish YUNESKOning universal dasturi asosida amalga oshiriladi. O`zbekiston hududida 1995-yildan buyon Chotqol tog`-o`rmon biosfera qo`riqxonasi yagona biosfera qo`riqxonalar tizimida ishtirot etib kelmoqda. Ammo uning faoliyati YUNESKO dasturining 3 tabaqali tegralash bo`yicha qo`riqxona ishini tashkil qilish talabiga xanuzgacha javoh bermaydi. Biosfera qo`riqxonasi-qo`riqxona, busfer (himoya) va yadro tegralariga ajratilmagan.

Qo'riqxonadagi bunday tashkiliy ishlarni amalga oshirish ma'lum darajadagi moliyaviy qullab quvvatlashni taqazo qiladi, albatta.

Jahor sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) eng birinchilar qatori tuzilgan (1946-yil) BMT ning tashkiloti bo`lib, u atrof tabiiy muhitning salbiy o`zgarishi natijasida insonlar salomatligi holati, uni saqlash va mustahkamlashga o`z faoliyatini qaratadi. JSST quyidagi ekologik vazifalarni amalga oshiradi:

- atrof tabiiy muhitning sanitar-epidemologik monitoringini olib borish;
- atrof muhit holatiga qarab kishilarda kasalliklarni kelib chiqishi va tarqalishi bo`yicha ma'lumotlar to`plash va ularni umumlashtirish;
- atrof muhitning sanitar-gigiyenik ekspertizasini olib borish va uning sifatiga baho berish;
- shaharlarda inson salomatligi masalalarini tadqiq qilish;
- rekreatsion tabiiy mintaqalar va ularda aholini xordiq chiqarish chora-tadbirlarini olib borish.

FAO-oziq-ovqat va qishloq xo`jaligi tashkiloti 1945 yilda tuzilgan bo`lib, uning qarorgohi Rim shahrida FAONing ekologik faoliyati xalqaro tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish orqali Yer yuzida kundan kunga ko`payib borayotgan aholini oziq-ovqatga bo`lgan talabini qondirish. FAONing sayl harakati orqali "Dunyo tuproq xaritasi" tuzilgan, "Umumjahon tuproq xartiyasi" qabul qilingan, aholini joylashtirish, oziq-ovqat muammolari, saxrolanishga qarshi qurash, suv resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanish mavzusidagi bir qator xalqaro anjumanlar o`tkazmoqda.

Huqumatluraro dengiz kengashi tashkiloti (XDK) 1948 yilda tuzilgan bo`lib, uning qarorgohi London shahrida. XDK dunyo okeani va dengizlarda suv transportidan foydalanishning ekologik xavfsizlik darajasini ta'minlab berishda faol ishtirot etmoqda hamda ularning iflosstanishiga qarshi kurash bo`yicha bir qator konvensiyalar ishlab chiqqan. Bu tashkilot o`z tarkibiga 100dan ziyod mamlakatlarni birlashtirib, dengiz suvlarini muhofazasiga doir asosiy xalqaro prinsiplar va uning siyosatini olib boradi.

JMT-Jahon meteorologik tashkilot 1947-yilda tuzilgan bo`lib, uning qarorgohi Jeneva shahrida. JMTning maqsadi insonlarning xo`jalik faoliyatini planetamiz iqlimiga ta'sir ko`rsatish darajasini tadqiq qiladi va ularga oid materiallar to`playdi. U atrof muhitning global monitoring tizimi (AMGMT) bo`yicha JMT, JSST, FAO, YUNESKO tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyat yurgazadi. Bu tizimni YUNEP tashkiloti muvofiq-lashtirib turadi.

AMGMT harakatdagi 5 dasturni muvofiqlashtirib turadi:

- atmosfera havosi holatining monitoringi;
- ifloslantiruvchi moddalarning uzoq masofalarga ko`chirish;

- inson salomatligi;
- Dunyo okeanlari;
- quruqlikdagи resurslarni tiklash.

O'zbekiston Respublikasi AMGMT dasturi bo'yicha tuzilgan "Iqlimni o'zgarishi to'g'risidagi Konvensiya"ga 1993-yildan boshlab a'zo. Hozirgi kunda ushbu Konvensiyani 59 mamlakat ratifikatsiya qilgan. 1996-yil 12-14-noyabrda Toshkent shahrida o'tkazilgan ushbu Konvensiya bo'yicha seminar yig'ilshida quyidagi masalalar ko'rib chiqildi:

- iqlimni o'zgarishi to'g'risidagi Konvensiya bilan Markaziy Osiyo davlatlari va nodavlat tashkilotlarini tanishtirish;
- Konvensiyaga qo'shilmagan mamlakatlarni jalb qilish;
- Markaziy Osiyo davlatlariga BMT, xususan YUNEP ning yordam ko'rsatish yo'llarini aniqlash;
- Uzboshgidromet va boshqa respublikalar gidrometeorologik xizmatlaridan arid (quruq) iqlim sharoitlarida iqlimga sanoat ta'sirini aniqlash metodikalarini takomillashtirish.

BMTning Tabiiy ofatarni bartaraf etishga yordam ko'rsatish bo'yicha byurosi (YUNDRO) turli davlatlar va tashkilotlarga tabiiy ofat natijasida yuzaga kelgan ekologik inqiroz holatida yordam ko'rsatishni tashkillashtiradi va olib boradi. Byuro Yer yuzasida sodir bo'layotgan tabiiy ofatlar bo'yicha ma'lumotlar bankiga va har bir salbiy ekologik jarayonni oldini olishning aniq tadbirdarini qo'llash tavsiyanomalariga ega.

1948-yilda tashkil topgan *Tabitatni va tabiiy resursslarni muhofaza-lash xalqaro ittifoqi (TMXI)* nodavlat tashkiloti 100dan ziyod davlat va 500 dan ziyod nodavlat tashkilotlarni a'zo qilib olgan. TMXIning asosiy vazifasi unga a'zo bo'lib kirgan mamlakatlar va ularda faoliyat yurgazayotgan tashkilot, birlashma, uyushma va fuqarolarning ekologik hamkorligini yanada rivojlanturish.

Bu tashkilot quyidagi masalalar bo'yicha faoliyat yurgazadi:

- tabiiy o'simlik va hayvonot dunyosi hamda ekotizimlarni saqlab qolish;
- noyob va yo qolib borayotgan o'simlik va hayvonot dunyosi turlarni hamda tabiiy yodgorliklarni saqlab qolish;

qo'rirqona, rezervatsiya, milliy tabiiy bog'larni tashkil qilish;

- ekologik o'quvni tashkillashtirish.

TMXI tashabbusi bilan Yer sharida noyob, yo'q bo'lib ketayotgan yoki uni xavfi bor o'simlik va hayvon turlari bo'yicha "Qizil kitob" tuzilgan va unga doimo qo'shimchalar kiritilib boriladi. "Tabitatni muhofaza qilishning Butunjahon strategiyasi" dasturi ishlab chiqilgan va bunga asosan

O'zbekistonda "Biologik xilma-xillikni saqlab qolishning milliy strategiyasi va rejası" ishlab chiqilgan.

MAGATE - atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik 1957-yilda, atom energiyasidan harbiy va boshqa xalq xo'jaligi maqsadlarida keng foydalanishni bolash bosqichida tashkil etilgan davlatlararo tashkilot. Agentlikning Nizomiga binoan, uning maqsadi atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanishga erishishga ko'maklashish va umi nazorat qilish MAGATE 34 mamlakatdan iborat boshqaruvchilar Kengashi orqali quyidagi ekologik masalalarni ko'rib chiqadi:

atom elektrostansiyalarini qurish va ishlatish qoidalarini ishlab chiqish;

- ishlab chiqarish yoki lovihadagi atom elektrostansiyalarni ekologik xavfsizligini ekspertiza qilish;

- atom qurilmalari va materiallarini atrof muhitga ta'sirini baholash;

- radiatsion xavfsizlik me'yorlarini belgilash;

- turli atom qurollarini sinash, unga tayyorlash yoki laboratoriya sinovlarini o'tkazish bo'yicha monitoringni olib borish.

MAGATE talablariga itoat etmaslik BMT Bosh Assambleyasi Xavfsizlik Kengashi qaroriga binoan Iroq va Eronga nishbatan qo'llanilgan yoki qo'llanilayotgan sanksiyalar orqali qarshi kurash chorasini tadbiq etishi mumkin.

Atrof tabiiy muhitni xalqaro huquqiy muhofaza qilishda mintaqaviy (*regional*) tashkilotlarning ahamiyati juda katta. Chunki ular har bir mintaqaning konkret ekologik holatini, millatlarning azaliy yaqinligini, ekologik inqirozlarini bir-birlariga juda tezlik bilan ta'sir qilishini, diniy, ma'rifiy va madaniy yaqinlikni inobatga oladi.

Regional tashkilotlarga Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OBSE), Arab davlatlari ligasi (ADL), Afrika birligi tashkiloti (ABT), Amerika davlatlari tashkiloti (ADT), Janubiy -Sharkiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi (ASEAN), Davlatlararo ekologik Kengash (DEK), Orol dengizi havzasi muammolari bo'yicha kengash va shu kabi mintaqaviy tashkilotlar kiradi.

OBSEga barcha Yevropa mamlakatlari, AQSH, Kanada va MDH a'zolari uning ishida ishtirok etadilar. Ushbu nufuzli regional tashkilot 1972-1975-yillarda Xelsinki shahrida bo'lib o'tgan uch bosqichli uchrashuvlar va muzokaralar natijasida 1975-yil 1-avgustdan faoliyat yurgaza boshlagan tashkilot. OBSEning maqsadlaridan biri unga a'zo mamlakatlar doirasidagi hududlarda ekologik xavfsizlikni ta'minlash va bu sohada ular o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish. Xelsinkida imzolangan Yakuniy hujjatga

muvofiq har qanday global masalalar bo`yicha uning qoidalarini bajarishni nazoratlash va muxokama qilish maqsadida uchrashuvlar o`tkazilib turiladi.

1995-yil 10-14-noyabrdan Toshkent-Urgench shaharlarida OBSE ning atrof muhitni tiklash bo`yicha seminari bo`lib o`tdi. Bu seminarda BMTning YUNEP, PROON, JSST, MAGATE, MDH, Juhon banki hamda OBSEga a`zo 20 ta mamlakat, jumladan O`zbekiston Respublikasi ham qatnashdi. Bu seminar qarorida Markaziy Osiyo respublikalarida insonlarni yashash huquqining asosiy elementlaridan biri bo`lgan ekologik xavfsizlikni to`laqonli ta`minlash bo`yicha olib borilishi kerak bo`lgan tadbirlar belgilanib olindi.

Arab davlatlari tashkiloti (ADL) – 1945-yilda tashkil qilingan bo`lib, 21 arab mamlakatlari va Falastin Ozodlik tashkilotining tabiiy resurslardan (tayniqsa neftdan) kelishgan holda foydalanish va sog`liqni saqlashning ekologik masalalarini ko`rib chiqadi.

Afrika birligi tashkiloti (ABT) – 1963-yilda Addis-Abebada bo`lib o`tgan konferensiya tashkil etilgan. Ushbu regional tashkilot 50dan ziyod Afrika qit`asidagi mamlakatlarni ijtimoiy, iqtisodiy, ma`risiy, madaniy, harbiy masalalarda birlashtirib turadi. Ekologik muammolardan hayvonot va o`simlik dunyosining rang-barangligini saqlab qolish bo`yicha milliy bog`lar tashkillashtirish va ularni muhofaza qilishning yagona rejasi ishlab chiqilgan.

Amerika davlatlari tashkiloti (ADT) – 1947-yili Rio-de-Janeyroda tashkil topgan bo`lib, 27ta Lotin Amerikasi davlatlari va AQSH kiradi. Uning tarkibida atrof muhit muhofazasiga doir ixtisoslashgan tashkilot mavjud bo`lib, uning asosiy maqsadi Amerika qit`asidagi biologik xilma-xillikni saqlashdir.

Junubiy-Sharkiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN) - shu kunda o`zining tarkibida yetti mamlakatni birlashtiradi. Bali shahrida imzolangan Nizomga muvofiq ekologik va sanitari holatni sog`lomlashtirish bo`yicha hamkorlik qilish yo`llarini topish va ularni amaliy tadbigini joriy qilish uning asosiy ekologik maqsadidir.

Davlatlararo ekologik kengash (DEK) 1992-yil 8 fevralda mustaqil davlatlar hamdo`stligi (MDH) rahbarlarining Moskvada bo`lib o`tgan kengashida tasdiqlangan. O`zbekiston uning to`la huquqli a`zosi sifatida Sobiq Ittifoq mamlakatlari bilan atrof muhitni muhofaza qilishni kelishib olingen, muvofiglashtirilgan sa y harakatlarini ko`zlab faoliyat yurgazadi.

DEK ka a`zo 10 davlat rahbarlari tomonidan imzolangan Keiishuvga muvofiq (1-modda) uning a`zolari o`z hududlari uchun atrof muhitni muhofaza qilish dasturlarini ishlab chiqadilar va shu asosda huquqiy,

iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy baza yaratadilar hamda o`zaro hamkorlik qiladilar.

1993-yil mart oyida Qozog`istonning Qizilo`rda shahrida bo`lib o`tgan Markaziy Osiyodagi besh davlatning Oliy darajadagi uchrashuvida Orol dengizi muammolari bo`yicha Davlatlararo Kengash va uning Ijroiya qo`mitasi hamda Orolni qutqarish Xalqaro fondi tashkil etildi.

1994-yil Nukus, Tashhovuz 1995 va 1997-yillarda Olmati shaharlarida BMTning ishtirokida bo`lib o`tgan uchrashuvlarda Nukus va Olmati deklaratsiyalar qabul qilindi. Ushbu uchrashuvlarda Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro tashkilotlarning Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirish rejalarini ishlab chiqildi. 1998-yilni ushbu Kengash BMTning shafeligida atrof-muhitni muhotaza qilish yili deb e`lon qilishni ham taklif qildi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning taklifiga binoan Markaziy Osiyo mintaqasi ekologik va yadroviy xavfsizlik mintaqasi deb e`lon qilindi va bu region yadro qurolidan holi tegra deb e`tiros qilindi.

Atrof tabiiy muhit muhofazasiga doir faoliyat yurgazayotgan tashkilatlardan tashqari doimiy ravishda ekologik yo`nalish bo`yicha faoliyat yurgazib kelayotgan va o`zining ekologik harakatiga ko`pgina davlatlarni jalb qilayotgan *xalqaro konferensivalarning* atrof muhit muhofazasidagi ahamiyati juda kattadir. Ular orasida 1972 yil atrof muhit bo`yicha BMTning Stokholm konferensiyasi, 1975-yil Yevropada xavfsizlik va hamkorlik Kengashi, 1986-yil OBSE davlatlari boshliqlarining Vena uchrashuvi, 1992-yil BMTning atrof muhit va rivojlanish bo`yicha Rio-de-Janeyro konferensiyasi, 1999-yil YEXHTning Istambul sammiti alohida o`rinda turadi.

Xalqaro ekologik jaung`urnular (fondlar) - tabiatni muhofaza qilish, atrof muhitni sanitар va gigiyenik holatini yaxshilash va ekologik dasturlarni moliyaviy ta`minlash kabi maqsadlarni o`z oldiga maqsad qilib qo`yan ekologik jaung`armalar. Faoliyat yurgazish va amaliy harakat qilish ko`lamiga ko`ra ular umumjahon, regional va regionalaro turlarga ajratadilar.

Umunjahon ekologik jaung`armalarga BMTning YUNEP tashkiloti qoshidagi "Atrof muhit jaung`armasi"ni olsak bo`ladi. Bu jaung`arma o`zining pul mablag`larini BMTga azo davlatlarning badal to`lovlardan, xalqaro tabiiy obyektlardan davlatlarning maxsus foydalanganlik uchun yig`ilgan to`lovlardan, xalqaro Gaaga sudi qaroriga binoan atrof muhitga yetkazilgan zararlarni xalqaro ekologiya huquqi subyektlari tomonidan iqtisodiy qoplash bo`yicha to`lovlardan, yuridik va jismoniy shaxslardan tushgan xayriyalardan va turli tuman lotereya, shou, sport o`yinlari kabi tadbirdardan tushgan pul yig`imlaridan to`ldirib boradi. Uning mablag`lari faqatgina atrof muhit muhofazasi va sanitар-epidemiologik holatini yaxshilashga yo`naltiriladi. Bu

jamg`arma orqali Markaziy Osiyo mamlakatlariiga 1994-2000-yillarda bir necha yuzlab millionlik AQSH dollarida Orolni qutqarish bo`yicha moliyaviy va moddiy yordam ko`rsatilgan.

Regionlararo ekologik jamg`armalar turiga Minsk shahrida qarorgohi bo`lgan MDH mamlakatlari orasida tashkil qilingan va Xalqaro Iqtisodiy Kengash (XIK) davlatlarining badal to`lovlari asosida tashkil qilingan "Xalqaro ekologik jamg`arma" kiradi. Uning nizom kapitali 60 mln. rubldan iborat. Yiliغا unga a`zo mamlakatlar, jumladan O`zbekiston Respublikasi, yalpi milliy daromadning 0,05% miqdorida pul mablag`larini o tkazib turadilar. Jamg`arma XIK davlatlarining o`zaro Kelishuviga binoan (1-modda) tuzilgan Milliy ekologik dasturlarini moliyalab turadi.

XIKning keyingi yillarda o`tkazgan Oliy darajadagi uchrashuvlarida xalqaro ekologik jamg`arma tomonidan moliyaviy yordam ko`rsatish kerak bo`lgan quyidagi obyektlar aniqlandi: Chernobil tegrasi, Amudaryo va Dnepr havzalari, Balxash ko`li, Qora, Azov, Kaspiy dengizlari, Orol bo`yi tegrasi.

Markaziy Osiyo mintaqasida juda faol harakat yurgazayotgan regional jamg`arma-xalqaro "Ekosan" jamg`armasi. Nodavlat notijorat Ekosan tashkiloti 1992-yil Toshkent shahrida tuzilgan bo`lib, hozirgi kunda uning 3 milliondan oshiq a`zosi, 34 ta mamlakatda 63 bo`linma va vakolatxonalarini bor. Prezidium raisi, falsata fanlari doktori, professor Shodimetov Yusup Shodimetovich.

Ekosan - grekeha tilidagi "ekos" va "sanos" so`zlar yig`indisidan tashkil topgan bo`lib, ekologiya va salomatlik degan ma'noni anglatadi. Uning vazifalari Markaziy Osiyo davlatlarida dolzarb ijtimoiy-ekologik muammolarni tadqiq qilish, ilmiy konsepsiyalarni ishlab chiqish va dastavval bajarilishi kerak bo`lgan muammolarga tadqiqotlarni yo`naltirish, ilmiy asoslagan ekologik siyosatni ishlab chiqish, ekologik xavfsizlikni yagona tizimini yaratish, ekologik, o`quv ong va madaniyatni shakllantirish, yagona region uchun iqtisodiy-ekologik tizimni tuzish borasida davlat, nodavlat va xalqaro tashkilotlar, olimlar va mutaxassislarining sayl harakatlarini birlashtirishdir.

Ekosan qoshida mashhur Rim klubining filiali Toshkent klubni ishlab turibdi. Uning a`zolari dunyoga mashhur ohimlar, artistlar, mutaxassislar va davlat arboblari.

1992-yildan buyon 100 dan oshiq dasturlar va loyihalar (DAN - EKOSAN, SES-EKOSAN, Aspera...), konferensiylar va munozara - majlislar (Huquq, ekologiya va salomatlik; Transport, ekologiya va salomatlik; Yoshlarni ekologik o`qitish muammolari...), xalqaro uchrashuvlar va missiyalar (Novro`z, ekologiya va salomatlik; Buyuk Temir, tabiat va inson; Orol bo`yi, Farg`ona, Navoyj, Surxandaryo viloyatlariga missiyalar...)

xalqaro hamkorlik va chet el investitsiyalarini jalb qilish (PROON, YUNEP, YUNESKO, ESKATO tashkilotlari; Adenauer va A.Ebert jamg`armalari, O'rta Osiyo mamlakatlarida akkreditatsiyalangan chet el davlatlarining elchixonalar; MEFA, ABAKO, Aziya treyding kabi kompaniyalar; "EKOLOT" o'zbek-gretsiya qo'shma korxonasi...) kabi faoliyatları hammaga ma'lum.

Markaziy Osiyo davlat rahbarlarini Qizilo'rda uchrashuvida 1993 yil 4 yanvarda Toshkent shahrida *Orolni qutqarish xalqaro jamg`armasi* tashkil qilindi. Jamg`arma davlatlararo tashkilot bo`lib, uning mablag'i ishtirokchilar (O'zbekiston, Qirg`iziston, Qozog`iston, Tojikiston, Turkmaniston respublikalari)ning yillik badal to'lovlari orqali tashkil qilinadi. Badal to'lovi har bir ishtirokchi mamlakat uchun budjetning 0,3 % miqdorida belgilangan. Uning ijroiya qo'mitasi tuzilgan bo`lib, jamg`arma raisi uch yillik muddatga, ketma-ketlik asosda, biron bir davlat Bosh vazirning birinchi o'rinnbosari darajasida saylanadi. Jamg`arma prezidenti esa 1 yillik muddatga davlat rahbarlaridan saylanadi. 1997-1998-yillarda O'zbekiston Prezidenti I.Karimov saylandi.

Orolni qutqarish xalqaro jamg`armaning asosiy maqsadi Orol dengizi atrofidagi ekologik inqirozli holatni yumshatish va aholining sanitargigiyemk hayot tarzini yaxshilash.

5. Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlik

Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlik - xalqaro huquq subyektlari (davlatlar, xalqaro tashkilotlar va transmilliy korporatsiyalar)ning atrof muhitga yetkazadigan zararini oldini olish yoki yetkazilgan zararni qoplash yuzasidan kelib chiqadigan xalqaro-huquqiy me'yorlar va ularga monand ravishdagi huquqiy munosabatlarning iqtisodiy-huquqiy kompleksi.

Xalqaro huquq subyektlarining ekologik zararli yoki xilof harakatlari, ularning o'z iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy, texnologik, rekratsion va shu kabi xo'jalik taoliyatlari natijasida kelib chiqadigan atrof muhit muhofazasiga zid bo`lgan harakat yoki harakatsizliklari.

Agarda davlatlar, xalqaro tashkilotlar va transmilliy korporatsiyalar faoliyatları BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari yoki regional ekologik tashkilotlar tomonidan belgilangan atrof tabiiy muhit holatining huquqiy me'yorlar doirasida bo`lsa, bu holat ushbu subyektlarning Yer tabiatini oldidagi iqtisodiy-ekologik javobgarligini paydo qiladi. Buni ularning tabiat va qolaversa kelajak avlodlar oldidagi moddiy va ma'naviy javobgarligi deyish mumkin. Bunday javobgarlikni V.V. Petrov (1995, 1997), A.N. Nigmatov (1999) iqtisodiy-ekologik javobgarlik deb nomlashgan.

Iqtisodiy ekologik javobgarlik ona tabiatga yetkazilgan zararni qoplash yuzasidan amalga oshiriladigan iqtisodiy tadbir bo`lib, uning ishtirokchi subyektlari umumjahon, regional yoki subregional turdag'i ekologik jamg armalarga muntazam ravishda to`lanadigan badal to`lovlari orqali undirib olinadi. Lekin hech qanday hollarda va hech qanday sabab-qibatlarda bunday ekologik badal to`lovlari umumiy iqtisodiy yoki ijtimoiy ko`rinishdagi jamg`armalar orqali amalga oshirilmasligi kerak. Chunki unumiy "qozonga" tushgan osh "ekologik cho'michga" ilinmay qolishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi, biz yugorida aytib o'tganimizdek iqtisodiy-ekologik javobgarlik bo'yicha badal to`lovlarini BMT qoshidagi xalqaro ekologik jamg`armasiga, MDHning xalqaro ekologik jamg`armasiga hamda Markaziyo O'sayo davlatlarining Orolni qutqarish jamg`armasiga ma'lum bir belgilangan foiz asosida o'tkazib turadi va bu bilan atrof tabiiy muhitga yetkazilgan me'yoriy zararni qoplab boradi.

Ayrim kosmik fazoni o'zlashtirishga oid dasturlarni bajaruvchi davlatlar, birlashmalar va xalqaro tashkilotlar 1972-yilda qabul qilingan "Kosmik kemalar orqali zarar yetkazish Konvensiyasi"ning 2-moddasiga binoan tabiatga yetkazilgan zararni qoplashlari kerak.

Ekologik huquqiy javobgarlik - xalqaro ekologik obyektlardan universal, regional va ikki davlat o'rtaida belgilangan xalqaro huquqiy me'yordan oshirib tovdalanish yoki ularni buzish orqali atrof muhitga yetkazilgan zararni qoplash orqali kelib chiqadigan va xalqaro-huquq subyektlariga qo'llaniladigan noqulay moddiy va siyosiy sharoitlarni majburiy kechinmasi yoki ularni yuridik javobgarlikka tortilishi.

Yuridik javobgarlikning noqulay moddiy kechinmasi yoki moddiy javobgarligi ekologik ziyon ko'rgan davatlarga yoki davlatlar yuridiksiyada bo'limgan ekologik obyektlarga (xalqaro ekologik tashkilotlar orqali) yetkazilgan zararni moliyaviy (reparatsiya), natural holda (restutitsiya) yoki almashtirish (substitutsiya) orqali qoplashga tushunamiz.

Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlikning moddiy qoplanishi "restoratsiya" usulini, ya'ni ma'lum bir tabiiy obyektni yoki moddiy obyektni huquqbazar subyekt tomonidan to'liq tiklab berilishini, qo'llash ham mumkin. Masalan, tuproq unumdorligini, suv tozaligini yoki eroziya oqibatida buzilgan uyni xalqaro subyekt tomonidan tiklab berish.

Milliy ekologik javobgarlikdan xalqaro ekologik javobgarlikning asosiy farqi ularda qo'llaniladigan sanksiyalardadir. Xalqaro huquq subyektlarini ozodlikdan mahrum qilish, kam ish haqi to`lanadigan darajaga tushirib qo'yish, mol-mulkini musodara qilish, ma'muriy jazo turlariga

tortush inkomyati yo`qligi jazo sanksiyalarini boshqacha turlarini qo`llashni taqazo qiladi.

Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlikda avbdorlarga nisbatan *noqulay siyosiy kechinmalarни qo`llash* sanksiyasi mavjud. Bunday jazo turi xalqaro tashkilotlar yoki ularning sudlov organlarining qarorlariga muvofiq amalga oshiriladi. Natijada aybdor deb topilgan xalqaro subyekti xalqaro tashkilotlar safidan chiqariladi va olarga nisbatan turli ko`rinishdagi yoki shakidagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy, harbiy, ekologik "boykot" e`lon qilinadi. Bunga yaqqol misol qilib BMTning Iroq respublikasiga nisbatan bir necha yildan beri qo`llayotgan iqtisodiy "boykot"ini olsak bo`ladi. Rossiya Federatsiyasiga qarashli 2000-yil fevral oyida "Volga-Don" mazut tashuvchi daryo kemasi Bosfor bo`g`ozida Iroq xom-ashyosini olib ketayotganda ushlandi va yoqilg`i konfiskatsiya qilindi hamda kema qarashli kompaniyaga katta jarima solindi. Iroq Respublikasi urushni targ`ib qilish va yadro qurolini yaratish orgali tabiatga va inson hayotiga tajovuz solayotgan harakatlari uchun xalqaro Gaaga sudi qarori bilan siyosiy sanksiyaga tortildi. Ammo yurisprudensiyada qo`llaniladigan asosiy prinsiplardan biri "Huquqbuzarliklar uchun jazoning muqarrorligi" xalqaro-ekologik javobgarlikda hanuzgacha to`lig`icha qo`llanilmayapti desak bo`ladi.

Eng nufuzli xalqaro sudlov organi - BMT ning xalqaro Gaaga sudi 1945-yil BMT bilan bir vaqtida faoliyat yuruaza boshladi. Uning a`zolari Bosh Assambleya tomonidan 5-yil muddatga saylanadilar. BMT Nizomi-ning 99-moddasiga binoan Gaaga sudi Xavfsizlik Kengashiga xalqaro ekologik masalalarga doir va ekologik xavfsizlikni saqlash bo`yicha har qanday masalalarni xal qilish doir takliflar bilan chiqishga huquqlidir.

Lekin, xalqaro ekspertlarning ma`lumotlariga ko`ra, Yer kurrasida davlatlar yoki transkontinental kompaniyalar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarni bor yo`gi 7-8% xalqaro sudlov organlari tomonidan ko`rib chiqilmoqda. Vaho`lanki, ularning hammasi ham yetarlicha javobgarlikka tortilmayaptilar, tabiatga yetkazilgan zararni qoplash esa uzoq muddatga cho`zilib ketmoqda.

Gaaga sudidan tashqari bir qancha regional va subregional toifadagi xalqaro sudlar mavjud bo`lib, ular 200 dan ziyod ikki va ko`p tomonlhma imzolangan shartnoma va kelishuvlarga binoan xalqaro ekologik javobgarlik sanksiyalarini ishlatsalar bo`ladi. Bunda davlatlar o`zlarining milliy qonun me`yorlarini yoki xalqaro tashkilotlarning Nizomlarini "ro`kach" qilib ko`rsatishlari aslo inobatga olinmasligi kerak. Chunki, xalqaro ekologik huquq prinsipiiga binoan, atrof tabiatni muhotaza qilishda xalqaro huquqiy-me`yoriy normalar milliy yoki ixtisoslashgan ichki normalarga nisbatan ustuvorlikka egadir. Undan tashqari xalqaro shartnoma va kelishuvlarda

ekologik-huquqiy javobgarlik umuman inobatga olinmagan, agar olingen bo`lsa ham davlatlarning u yoki bu tabiiy obyektlarni muhofazasiga qaratilgan xolos. Shuning uchun ham bunday javobgarlik me'yorlari birlamchi me'yorlar toifasiga kirib, huquqbuzarlarni yuridik javobgarlikka tortish uchun yetarli asos bo`la olmaydi.

MDH va Markaziy Osiyo davlatlari o`rtasida tuzilgan bir qator xalqaro-huquqiy hujjatlarda yuridik javobgarlikni qo`llash turi aniq bir tabiiy maydon yoki makon bo`yicha me'yor ni ko`rsatib o`tilmagan. Hanuzgacha ekologik-huquqiy manba sisatida ular orasida javobgarlik Konvensiyalari imzolangan. Moddiy va siyosiy sanksiyalar turi, miqdori va ularni undirish yoki ishlatish mexanzmi yo`q. Ularni amalga oshiruvchi nazorat, inspeksiya va sudlov organlarini tuzish shu kunning kechiktirib bo`lmaydigan dolzarb vazifalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda jinsonlarning yagona yashash makoni bo`lgan Yer sharining ekologik xavfsizligini ta'minlash biron bir davlat, tashkilot yoki uyushmalarning sayl-harakatlaridan boshlanadigan, lekin butun dunyo hamjamiyatining birqalikdagi izchil ekologik siyosatni olib borishiga iqtisodiy va huquqiy mexanizmni ishlab chiqishiga, ijtimoiy va madaniy muhitni yarata olishiga bog`liq bo`lgan masalalar toifasiga kiramagan dolzarb muammodir.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
UMUMIY QISM	
BIRINCHI BOB	
EKOLOGIYA VA ATROF TABIIY MUHITNI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH ZARURATI	
1. Tabiat, inson, jamiyat, davlat va hanjamiyat o'ttasidagi uzviy bog'liqlik.....	6
2. Ekologiya nima	13
3. Ekologik konsepsiylar (dunyoqarashlar)	22
4. Ekologik prinsiplar (yo'naltiruvchi qoidalar)	27
5. O'zbekistonning ekologik siyosati.....	29
6. Atrof tabiiy muhitni huquqiy muhofaza qilish zarurati	33
IKKINCHI BOB	
EKOLOGIYA HUQUQINING TUSHUNCHASI, PREDMETI, TAMOYILLARI VA TIZIMI	
1. Ekologiya huquqining tushunchasi, xususiyatlari i va umumiy ekologiya tizimida tutgan o'rni	35
2. Ekologiya huquqi fanining rivojlanish tarixi	39
3. Ekologiya huquqining asosiy yo'nalishlari va predmeti.....	44
4. Ekologiya huquqining tamoyillari, usullari va tizimi	47
UCHINCHI BOB	
EKOLOGIYA HUQUQINING MANBALARI	
1. Ekologiya huquqi manbalarining tushunchasi, xususiyatlari va tizimi	51
2. Ekologiya huquqining konstitutsiyaviy asoslari	53
3. O'zbekiston Respublikasi qonunlari-ekologiya huquqining maxsus manbasi sifatida	55
4. Qonun osti me'yoriy hujjalarning ekologiya huquqidagi tutgan o'rni va ahamiyati	57
TO'RTINCHI BOB	
TABIIY RESURSLARGA NISBATAN MULK HUQUQI	
1. Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi tushunchasi va uning xususiyatlari	60
2. Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqining obyektlari va subyektlari.....	64
3. Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqining mazmuni	67

BESHINCHI BOB

EKOLOGIYA SOHASIDA DAVLAT BOSHQARUVI

1. Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi tushunchasi, xususiyatlari va tizimi	70
2. Ekologiya sohasida davlat boshqaruv organlari tizimi	73
3. Ekologiya sohasida davlat boshqaruv organlarining vakolatlari	78

OLTINCHI BOB

EKOLOGIK ME'YORLASH, STANDARTLASHTIRISH VA SERTIFIKATLASHTIRISH

1. Ekologik me'yorlash tushunchasi	83
2. Ekologik me'yorlash tizimi, shakllari va turlari.....	86
3. Tabiat obyektlari sifatini me'yorlash	91
4. Ekologik standartlashtirish	98
5. Ekologik sertifikatlashtirish	103

ETTINCHI BOB

EKOLOGIYA NAZORATI VA EKOLOGIK EKSPERTIZASINING HU QUQIY HOLAT

1. Ekologiya nazoratining tushunchasi, maqsadi, vazifasi va osullari	108
2. Ekologiya nazoratining tizimi.....	109
3.Ekologik ekspertizasining tushunchasi, maqsadi, tamoyillari va usullari	116
4. Ekologik ekspertiza tizimi	119

SAKKIZINCHI BOB

ATROF TABIIY MUHITINI MUHOFAZA QILISH VA TABIA TDAN FOYDALANISHINING IQTISODIY-HUQUQIY MEXANIZMI

1. Atrof tabiiy muhitini muhofaza qilish va tabiatdan foydalananining iqtisodiy-huquqiy mexanizmi tushunchasi	122
2. Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun haq to'lash.....	125
3. Atrof tabiiy muhitga salbiy ta'sir etganlik uchun haq to'lash	132
4. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni iqtisodiy rag'batlanirish	135

TO QQIZINCHI BOB

EKOLOGIK QONUN HUIJJATLARNI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

1. Ekologik qonun huijjatlarni buzganlik uchun javobgarlik tushunchasi, mohiyati va turlari.....	141
2. Ekologik qonun huijjatlarni buzganlik uchun intizomiy va moddiy javobgarlik	143

3. Ekologik huquqburzaliklar uchun ma'nuriy javobgarlik	145
4. Ekologik jinoyatlar uchun javobgarlik	150
5. Atrof tabitiy muhitga yetkazilgan zararni undirishning huquqiy asoslari	161
6. Tabiiy resurslarga bo`lgan huquqlarni cheklash, to`xtatib turish va undan mahrum etish	164

ALOHIDA QISM

O'NINCHI BOB

YERLARNI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN

FOYDALANISHNING HUQUQIY HOLATI

1. Yerlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish huquqiy holatinining tushunchasi va xususiyatlari	167
2. Yagona davlat yer fondi va uning tarkibi	169
3. Yerdan foydalanish huquqining vujudga kelish va bekor bo`lish asoslari va tartibi	179
4. Yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdorining huquq va majburiyatları	185
5. Yerlarni muhofaza qilishning huquqiy chora-tadbiri	187

O N BIRINCHI BOB

SUV RESURSLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN

FOYDALANISHNING HUQUQIY HOLATI

1. Suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish huquqiy holatinining tushunchasi va xususiyatlari	191
2. Davlat suv fondi va uning boshqaruvi organlari	196
3. Suvdan foydalanish huquqi tushunchasi va turlari. Suvdan foydalanish huquqining paydo bo`lish va bekor bo`lish asoslari	200
4. Suvdan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatları	204
5. Suvlarni muhofaza qilishning huquqiy chora-tadbirlar	205

O N IKKINCHI BOB

YER OSTI BOYLIKALARINI EKOLOGIK-HUQUQIY

MUHOFAZA QILISH

1. Yer osti boyliklari tushunchasi va ularni huquqiy muhofaza qilish zarurati	211
2. Yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofazalashning ekologik-huquqiy talablari	214
3. Konchilik munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish	216
4. Yer osti boyliklaridan foydalanish huquqi	219

O N UCHINCHI BOB

ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY HOLASI

1. Atmosfera havosini muhofaza qilishning huquqiy holati tushunchasi va umumiy xarakteristikasi	222
2. Atmosfera havosini muhofaza qilishning huquqiy chora-tadbirlari	223
3. Atmosfera havosi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik	226

O N TO RTINCHI BOB

O`SIMLIK DUNYOSIDAN FOYDALANISH VA MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY HOLATI

1. O'simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish huquqiy holatining tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari	233
2. O'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish turlari	237
3. O'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatları	240
4. O'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish huquqini himoya qilishning chora-tadbirlari	242

O N BESHINCHI BOB

O'RMONLARDAN FOYDALANISH VA MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY HOLATI

1. O'rmonlardan foydalanish huquqi tushunchasi	246
2. O'rmonlardan foydalanish huquqi subyektlari va obyektlari	248
3. O'rmonlardan foydalanish huquqi mazmuni	253
4. O'rmonlarni muhofaza qilishning huquqiy chora-tadbirlari	259

O N OLICHNI BOB

HAYVONOT DUNYOSINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING HUQUQIY HOLATI

1. Hayvonot dunyosini muhofaza qilish tushunchasi va xususiyatlari	269
2. Hayvonot dunyosidan foydalanish huquqi va tartibi	272
3. Ov qilish va baliq ovlashni huquqiy tartibga solish	276
4. Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik	280

O N YETHINCHI BOB

MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUUDLARNING HUQUQIY HOLATI

1. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatining tushunchasi va xususiyatlari	286
2. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning asosiy turlari	291
3. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik.....	305

O N SAKKIZINCHI BOB

ANTROPOGEN O'ZGARGAN HUUDLARNI EKOLOGIK- HUQUQIY MUHOFAZA QILISH

1. Antropogen o'zgargan tabiiy muhitni ekologik-huquqiy muhofaza qilish tushunchasi, asosiy turlari va xususiyatlari.....	308
2. Shaharlarda atrof tabiiy muhitni ekologik-huquqiy muhofazalash.....	310
3. Agrar tegralarda atrof-muhitni ekologik-huquqiy muhofazalash	317
4. Sanoat zonalarida atrof-muhitni ekologik-huquqiy muhofazalash.....	326

MAXSUS QISM

O N TO'QQIZINCHI BOB

ATROF TABIIY MUHITNI XALQARO-HUQUQIY MUHOFAZA QILISH

1. Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilsh tushunchasi va prinsiplari	329
2. Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish manbalari	335
3. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning xalqaro-huquqiy obyektlari	339
4. Xalqaro ekologik tashkilotlar, konferensiyalar va jamg`armalar	343
5. Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlik.....	352